



ISSN 3030-3869

BADIIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA

2

20
25

BADIIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida
pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning
malakasini oshirish markazi ilmiy jurnali

BOSH MUHARRIR:

Davronbek SHUKUROV

TAHRIR HAY'ATI

Kamola AKILOVA

*san'atshunoslik fanlari doktori,
professor*

Sobir RAHMETOV

professor

Komiljon GULYAMOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

Dilafroz QODIROVA

san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Muhayyo JUMANIYOZOVA

pedagogika fanlari doktori (DSc)

Munisa MUHAMEDOVA

tarix fanlari doktori (DSc),

Dilzoda ALIMKULOVA

*san'atshunoslik fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Nigora KULTASHEVA

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Gulira'no ORIFJONOVA

tarix fanlari doktori (DSc)

Surayyo ALIYEVA

san'atshunoslik fanlari doktori (DSc)

Muzaffarjon JO'RAYEV

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Xolmuhammad AMONOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Nodira XASANOVA

JAMOATCHILIK KENGASHI

Akmal NURIDINOV

professor

Rustam XUDOYBERGANOV

professor

Feruza ABIDJANOVA

falsafa fanlari nomzodi

Gulabza QARSHIYEVA

filologiya fanlari nomzodi

Binafsha NODIR

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Dilnoza JAMOLITDINOVA

filologiya fanlari doktori, professor

Botir SANGIROV

*san'atshunoslik fanlari falsafa
doktori (PhD)*

Jang Tae Mook

(Janubiy Koreya) professor

Kavita Daryani Rao

(Hindiston) professor

Natik Aliyev

(Ozarbayjon) professor

SAHIFALOVCHI:

Sardor MAMALATIFOV

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba nashr
etiladi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil 27-martda
246479-raqami bilan ro'yxatga olingan.

OAK Rayosatining 2024-yil 7-iyuldagi 355/5-son
qarori bilan san'atshunoslik hamda pedagogika
fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:

Toshkent - Uchtepa tumani, Shirin ko'chasi 1-a uy

Tel: (77) 3633836

www.uzbamarkaz.uz

e-mail: uzbahuzuridagimarkaz@gmail.com



MUNDARIJA:

Saboxat Xaytmatova

Badiiy ta'limda kinorassom ijodi masalalari.....5

Isroiljon Urinbayev

Individuallikning ijodkorlik va jamiyatdagi funksional o'rni.....11

Nilufar Karimova

Xalqaro festivallarning o'ziga xos xususiyatlari.....19

Gulabza Qarshiyeva

Sa'diy Sheroziy "Bo'ston" dostonining Kamoliddin Behzod ijodidagi talqini.....26

Sharofat Yusupova

Portret janrida ayol obrazi: go'zallik va sadoqat timsoli.....40

Gavhar Nazarova

O'zbek hujjatli kino rejissurasida Bahodir Yo'ldoshev ijodi.....47

Mohina Isroilova

O'zbekiston davlat drama teatri: rejissyorlik izlanishlari va yechimlari.....52

Aziza Tleumuratova, Ayjamal Ismailova

"Guloyim" operasi sahna liboslari badiiy yechimi.....59

Muqaddas Axmetjanova

Problems of director's interpretation.....64

Shaxlo Xamidova

*Xorijiy asarlarning sahnaviy talqinida aktyor ijrochiligi (O'zbekiston xalq artisti
Abror Hidoyatov ijodi misolida).....75*

Mohigul Hamrayeva

Kino aktyorlarini shakllantirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati.....80

Sohibjon Valiyev

Qiziqchilik san'atining rivojlanish jarayonlari va zamonaviy tendensiyalari.....86

Dilshod Azizov

Dastgohli ta'mirlash asoslari.....94

Latofat Jabbarova

Muzey dizayniga oid mahalliy tadqiqotlar: tarixiy jarayon, muammo va istiqbollari.100

Sobir Qo'chqarov

XX asrning 20-30 yillarida Samarqand muzeyida etnografik kolleksiyalarni to'planishi va tadqiq etilishiga doir.....106

Usmon Qoraboyev, Nilufar Sayidova

Muzeylarda karpologik va dendrologik kolleksiyalarni saqlash tartibi.....112

Moxichexra Jabbarova

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi portallarining me'moriy va g'oyaviy tahlili (Ulug'bek va Qo'qon portallari misolida).....117

Gulnora Amanxodjayeva

Muzey fondlarini zamonaviy texnologiyalar orqali hujjatlashtirish masalalari.....124

Aynur Aytmuratova

Qoraqalpoq muzeylarida saqlanayotgan qadimgi Xorazm saroyi anjomlari.....130

Lobar Akramova

O'zbekistonda badiiy ta'lim tizimida onlayn muzeylar faoliyatining o'rni.....136

Temirov Murodjon

Talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari.....141

Raxim Saparov

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini musiqa madaniyati darslarida estetik tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....148

Gozzal Gubenova

Pedagogika va psixologiya ilmining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.....156

Jahongir Dadaboyev

Xalqoro tajriba asosida inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya tajribani tashkil etish.....161

Asqarova Shahnozaxon

International approaches and national practices in the system of continuous professional development in education.....168

BADIIY TA'LIMDA KINORASSOM IJODI MASALALARI
ВОПРОСЫ ТВОРЧЕСТВА ХУДОЖНИКА КИНО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ
ОБРАЗОВАНИИ
ISSUES OF FILM ARTIST CREATION IN ART EDUCATION

Saboxat Xaytmatova
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası professori v.b.
san'atshunoslik fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy ta'lim muammolari, tasviriy va amaliy san'atdagi zamonaviy jarayonlar, milliy hamda jahon badiiy ta'limining istiqbolli rivojlanishi tadqiq qilinadi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы художественного образования, современные процессы в изобразительном и прикладном искусстве, перспективы развития отечественного и мирового художественного образования.*

Annotation: *This article examines the problems of art education, modern processes in fine and applied arts, and the prospective development of national and world art education.*

Kalit so'zlar: *kino, rassom, televideniye, san'at, ta'lim, tasvir, tomoshabin, ekran, madaniyat.*

Ключевые слова: *кино, художник, телевидение, искусство, образование, образ, зритель, экран, культура.*

Key words: *cinema, artist, television, art, education, image, audience, screen, culture.*

Bugungi kunda badiiy ta'lim muammolari, tasviriy va amaliy san'atdagi zamonaviy jarayonlar, milliy hamda jahon badiiy ta'limining istiqbolli rivojlanishini tadqiq qilishda kino va televideniye san'ati ta'lim sohasida alohida o'rin egallaydi. Negaki, tasviriy san'at asarlarini reproduktivlashtiradi, ommalashtiradi va targ'ib qiladi. Kino va televideniye mazkur funksional xususiyatlari badiiy ta'limga katta hissa qo'shadi hamda badiiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. Ekran san'ati yaratgan o'z asarlari bilan tasvir yordamida tomoshabinga kuchli ta'sir o'tkazishga va ularning badiiy didini shakllantirishga qodir. Audiovizual mahsulotlardan foydalanish, xoh kino va televideniye asarlari ko'rinishidagi ekran madaniyati asarlari bo'lsin, xoh internet-resurslar ko'rinishidagi yangi texnologiyalar, umuman badiiy ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, xususan, kino ta'limga yanada ko'proq e'tibor jalb qiladi. Umumiy o'quv jarayonining dastlabki bosqichlarida ham kino ta'limga e'tibor berish, mazkur vosita yordamida shaxsning ma'naviy ongini, badiiy didi hamda madaniyatini shakllantirib rivojlantiradi. Ekran san'ati bir turi sifatidagi

televideniye ham alohida e'tibor qaratish kerak. San'at mavzusiga, xususan, tasviriy san'atga, san'atning rivojlanish tendensiyalari hamda yangi yo'nalishlariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, telefilmlar va kino san'atining hujjatli kino turida yillar davomida yaratilgan tahliliy asarlar son-sanoqsiz. Kinoshunoslik fanida O'zbekistonning taniqli rassomlari, kinematografdagi ijodi, zamonaviy tasviriy san'at va uning rivojlanish tendensiyalari, badiiy filmlar va hujjatli filmlarda tasviriy san'atga oid mavzular alohida tadqiq qilinadi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston rassomlarining kinematografdagi ijodi yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu konferensiya imkoniyatlaridan foydalangan holda, san'atshunoslarning e'tiborini ushbu muammoga qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu maqola O'zbekiston kino san'atkorlarining tarixiy yo'llarini va faoliyatining hozirgi holatini tahlil qilishga urinishdir, ularning ijodi u yoki bu darajada kino san'atiga hissa qo'shgan bo'lib, u vizual yechimsiz san'at sifatida sodir bo'lmaydi. Barchamizga ma'lumki, kino san'ati sintez san'at bo'lib, unda har bir ijodkorning faoliyati o'ziga xos vazifa hamda kinoasar yaratishning ajralmas qismi bo'lib birgalikda yaxlit mavjud

bo'ladi. Rassom tomonidan yaratilgan chizma, eskiz, dekoratsiya, libos filmning tasviriy yechimi sifatida xizmat qiladi hamda badiiy xususiyatini tashkil etadi. Buni o'zbek kino tarixi hamda zamonaviy kino san'atida o'z dastxatiga ega kinorassomlar ijodi misolida ham ko'rish mumkin. Negaki, ularning ijodi ba'zi hollarda aynan rassomning ishi o'zining ifodaviy palitrasi bilan kinoasarni yuqori pog'onaga ko'taradi. Kinodagi rassom ssenarist, rejissyor operator singari ijodkorlar bilan bir qatorda film ishlayotgan ijodiy guruh ishtirokchisi hisoblanadi. Mohiyatan u ssenariyni tasviriy qatorga aylantiradi (filmning adabiy asosini). U dekoratsiyalar eskizlari, chizmalarini ishlab chiqadi, rekvizit tanlaydi, tabiatda suratga olish uchun joy tanlaydi, dekoratsiya tanlashda yordam beradi. Film suratga olingach, dubl tanlashda, filmni grafik bezatishda (titrlar, yozuv va boshqalar) ishtirok etadi. Dekoratsiya, rekvizit ularni suratga olish maydonida joylashtirish kabilardan ashyoviy voqelik vujudga keladi. U harakatga aylanadi. Rassomning mahorati filmning emotsional qurilmasiga, shuningdek, tomoshabinning ishonishi yoki ishonmasligiga bog'liq. San'atkor qanchalik ko'p bilsa, o'sha davr ashyolarini qanchalik ko'p ko'rgan bo'lsa, u yaratgan olam shunchalik ishonchli bo'laveradi. Kartina ustida ishga kirishar ekan, sahnalashtiruvchi rassom dastlab ssenariyni o'qiydi, rejissyor bilan suhbatlashadi, shu paytda bo'lajak bezakning konsepsiyasi namoyon bo'ladi. Doim ham rassom voqea bo'lib o'tgan davrga tayanavermaydi, ba'zi hollarda u o'zining va sahnalashtiruvchi rejissyorning fantaziyasiga tayanadi va badiiy to'qimaga tayanadi. Ammo tarixiy film ustida ishlash jarayonida ham doim o'tgan davr haqida tasavvur qilish oson emas. IV asr haqida nima deyish mumkin? Odamlarning kiyimlari qanday ko'rinishda bo'lgan edi? Tarixiy ma'lumotlarni muzeylarda saqlanayotgan sopol idishlar parchalaridan tasavvur qilish mumkin, qolganlarini rassomning o'zi o'ylab topishi kerak. Buni "Iso Muhammad at-Termiziy" (rejissyor A.Mignorov) filmi misolida ko'rish mumkin. Sahnalashtiruvchi rassom rejissyor va ikkinchi rejissyor rahbarligi ostida ishlaydi. Unga assistentlar yordam beradi, shuningdek, sahnalashtiruvchi rassom guruhiga dekoratorlar, butaforlar. Rekvizitorlar, libos rassomlari, grimchi rassomlar kiradi, ko'pincha bezakchi rassom vazifalarini o'zi bajaradi, ya'ni dekoratsiya, libos, rekvizitlar topish bilan shug'ullanadi, faqat grimchi rassomlikni yuksak

mahorat darajasida eplashi qiyin. Sahnalashtiruvchi rassomning kasbi murakkab, negaki, u jismoniy quvvatni xam talab qiladi. Shu ma'noda u og'ir dekoratsiyalar ishlash, suratga olish ekspeditsiyalariga borish, me'yorlanmagan ish kuniga moslashishi zarur bo'ladi.

Film personajlarini dramaturg o'ylab topadi va faqat libos kiydirilgan aktyor personajining ekrandagi obrazini qayta yaratadi. Tasviriy qatorni hal qilishda liboslar bo'yicha rassomning ishi ham muhimdir. U bo'lajak film qahramonlari portretlaridan obraz ustida ishlashni boshlaydi. Ularni film ssenariysiga ko'ra imkon qadar aniqroq tasavvur qilish kerak. Rassom qahramonning ma'lum ichki holatini beruvchi xarakteri, yuz ifodalarini, soch turmagi, gavdasining o'ziga xos xususiyatlari, imo-ishoralari kabilarni belgilab beradi. Libos, uning qismlari, rangi, uning tuzilishi har bir personaj xarakterini kuchaytirishiga yordam berishini o'ylab topadi. Bulardan tashqari, libos bo'yicha rassom asosiy sahnalarning xususiyatlarini hal qiladi. Filmga liboslar eksplikatsiyasini sahnama sahna uzviy ravishda ishlab boradi va butun kartina davomida liboslar rangini ishlashda davom etadi. Dramaturgiyada ssenariyga ko'ra nazarda kutilgan bu ranglar jilosida har bir ranglar xususiyati, rang dog'lari nazarda tutiladi. Rassom kulminatsion vaziyatni ta'kidlaydi, bir sahnani ikkinchisi bilan goh yumshoq va sezdirmay, goh keskin birlashtiradi. Personajlar libosi qarama-qarshi rangi va tusini uyg'unlashtiradi. Bu bilan u har bir sahnaning kayfiyati, muhitini yaratadi va kuchaytiradi. Libos rassomi film ustida ish boshlagach, hatto voqea hozirgi paytda ro'y berayotgan bo'lsayam, foto, tasviriy, ekonografik, hujjatli materiallarni yig'adi. Eskizlar bu kino rassomi ishining faqat birinchi bosqichi xolos. Rejissyor ularni tasdiqlagach, keyingi yanada mas'uliyatliroq bosqich eskizlarni haqiqiy liboslarga aylantirish holati boshlanadi. Aynan obrazga mosini tanlash, xalaqit beradiganini olib tashlash, libosning hayotiy bo'lishiga erishish lozim, xarakter, obraz bilan esa biografiya yaratiladi, qahramonning hayotini aks ettiradi. Bu bosqichda libos bo'yicha kino rassomi doimiy ravishda ko'plab odamlar bilan, ya'ni aktyorlar, bichuvchi rassomlar, tikuvchilar, bosh kiyim tayyorlovchilar, poyabzal tayyorlovchilar, butaforlar, kashtachilar, to'quvchilar, bo'yoqchilar, metallga ishlov beruvchilar va boshqalar bilan muloqotda bo'ladi. Ularning har birining o'z fikri, didi,

xarakteri bor va rassom ularning har biri bilan kelishishi va fikrini isbotlashi zarur bo'ladi. Ekran bu pirovard maqsad. Bu rassom mehnati natijalariga beriladigan baho. Agar libos yaxshi bo'lsa, hech kim unga e'tibor bermaydi va bu libos bo'yicha rassom o'z vazifasini bajarganligini anglatadi. O'zbek kino san'ati V.Eremyan, E.Kalantarov, N.Raximboev, B.Nazarov, Sh.Abdusalomov kabi bir qator ko'zga ko'ringan ijodkorlar asarlari bilan boyib bordi. Varsham Yeremyan o'zbek kino san'atiga 1930-yillarda kirib keldi. U o'zbek kinematografiyasi tarixida xalqimizning boy merosiga aylanib ulgurgan, o'nlab kinofilmlarning dekoratsiya bezaklarini yaratdi. Rassom V.Eremyan nafaqat katta miqyosdagi kino rangtasviri ustasi, balki tarixiy voqealar bilimdoni, teran fikrlovchi, shoir, faylasuf bir so'z bilan aytganda ijodkor inson edi. V.Eremyan o'z ijodiy faoliyatida turli janrlarda va ko'plab kinorejissorlar bilan hamkorlik qildi. U yaratgan kinoeskizlar va qoralamalar asosida suratga olingan, ayni paytda O'zbekiston kino fondining noyob arxiv materiallariga aylanib ulgurgan filmlar eskizlari juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bulardan: «Nasriddin Buxoroda», «Nasriddinning sarguzashtlari», «Toxir va Zuxra», «Paxtaoy», «Orol baliqchilari», «Alisher Navoiy», «Abu Ali ibn Sino», «Xamza» kabi filmlarga ishlangan kinodekoratsiyalar o'zbek kino san'ati tarixidan munosib o'rin egallagan. Uning eskizlarida tasvirlangan manzaralar, arxitektura inshootlari, har xil buyumlar shunchaki eskizlarni bezatish uchun ishlatilgan oddiy elementlar emas edi. V.Eremyaning ijodi, uning amaliy ishlari, shogirdlariga bo'lgan e'tibori yillar davomida o'zbek kino san'ati va kinorassomlari ijodining samarali ta'sir ko'rsatdi. yuksalishiga O'zbek kino san'atining taraqqiy etishida yana bir rassom N.Raximboyevning ijodi munosib o'rin egallaydi. U yaratgan kinolentalarda XX asr 50-yillar o'rtalaridan 70-yillarning oxirigacha o'zbek kino san'atida sodir bo'lgan jarayonlar o'z aksini topgan. O'tgan asrning 50-yillarida N.Raximboyevning kinoeskizlari asosida suratga olingan «Orol baliqchilari» (V. Yeremyan bilan birgalikda) nomli filmi yosh rassomning kino san'atidagi ilk ishi bo'lishiga qaramay, yuqori baholandi. Film uchun rassom yaratgan qoralamalarda voqealarning asosiy o'rnini va umumiy rejalari tuzib olinadi. Detallarga mufassal ishlov berish esa eksplikatsiya va raskadrovka zimmasiga yuklanadi.

Qoralamalarning o'ziyoq barcha qismlarni iloji boricha aniq tasavvur etish imkonini beradi. Rassom uchun murakkab kompozitsion manzaralar yaratish, oldingi va orqa planlarga to'liq ishlov berish qoralamalarni yordamchi detallar bilan to'ldirish zaruriyatini tug'diradi. Dastlabki ishlar o'zining uslubiga ko'ra dastgohli rangtasvir janriga yaqin turadi. Ular syujet jihatidan to'laqonli, ijrosi mukammal, film syujetlari asosida chizilgan, voqelik o'ta aniq tasvirlangan kino san'ati asarlari qatoriga kiradi. N.Raximboyevning kinoeskizlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning odatiy usullar doirasidan chiqib ketishga intilishi seziladi. «Sen yetim emassan» filmiga ishlangan eskizlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi (E.Kalantarov bilan birgalikda).

Bu eskizlardagi badiiy lavhalar, dekoratsiyalarda, urush kunlaridagi tashqi manzaralardan ko'ra personajlarning his-tuyg'ularini filmda yaqqol ko'rsatishga harakat qilingan. N. Raximboyev yaratgan har bir kartina nafaqat rassomning ijodini, balki uning yuksak, insoniy tarjimai holini hikoya etuvchi omilga aylanib boradi. N.Raximboyevning xizmatlari singgan filmlar soni o'ttiztadan ortiq. Uning bu filmlari vaqt va zamon xarakatining ko'zgusi bo'lib qoldi. U yaratgan «Sen yetim emassan», «Muxabbat va g'azab», «Semurg», «Unutilmagan qo'shiq», «Achchiq danak», «Qirq birinchi yil olmalari», «Jazirama oftob ostida», «Vatan o'g'loni», «Chaqmoqda tug'ilgan bola», «Ulug'bek yulduzlari», «Ringga chaqiriladi» kabi filmlari shular jumlasidandir. 1950-yillarning oxiri 60-yillarning boshida kinoda faoliyat olib borgan E.Kalantarov hamkasblari qatorida Ye.Pushin, N.Raximboyevlar bilan hamkorlikda filmlarni suratga olish va dekoratsiya eskizlarini yaratishda ishtirok eta boshlaydi. U o'zining ijodiy faoliyati davomida ko'plab filmlarga dekoratsiya eskizlarini yaratdi. E.Kalantarovning yaratgan asarlari qatoriga «Mahallada duv-duv gap», «Toshkent – non shahri», «Dilorom», «Abu Rayhon Beruniy», «Uning ismi Bahor», «Hayot qo'ng'irog'i», «Inson qushlar ortidan boradi», «U yolg'iz emas edi», «Dahoning yoshligi», «Baland qorlar ustidagi uchrashuv», «Ali bobo va qirq qaroqchi» kabi filmlarni kiritish mumkin. B.Nazarov ham o'zbek kino san'atida munosib ijod qilgan kinorassomlar qatoriga kiradi. U kino san'atiga 70-yillarda kirib keldi. B. Nazarov ko'proq dastgohli rangtasvir ustida ish olib bordi. U yaratgan filmlar orasida

eng muvaffaqiyatli chiqqani G'afur G'ulomning «Shum bola» filmiga ishlangan kinoeskizlar seriyasidir .B.Nazarov o'zining kinoeskizlarida ko'proq detallar ustida ish olib boradi. Shuning natijasi o'laroq «Shumbola» filmi rassomning ijodida muhim burilish yasadi. B.Nazarov yaratgan kino eskizlari ko'proq zamon talabiga, yoshlarga, ularning hayotiga, turmush tarziga bag'ishlanadi.

O'zbek kinematografiyasi rassomlar jamoasi, kino san'ati tarixida yetarlicha muvaffaqiyatlarga erishdilar. O'zbek kinosi durdona asarlari rassomi V.Eremyan, murakkab kompozitsion manzaralar yaratish ustasi N.Raximboyev, ko'p qirrali faol, harakatchan E.Kalantarov, kompozitsiya qonuniyatlarini chuqur bilimdoni mukammal bilimga ega bo'lgan rassom N.Dobrin, his-hayajonga intiluvchan, yangidan-yangi taassurotlarga va ijodga chanqoq B.Nazarov, shoirona ijodkor S.Ziyamuxamedov kabi kinorassomlar o'zbek kino san'atida

o'chmas iz qoldirdilar. Bu kinorassomlarning ijodi hozirgi kungacha kino san'atining asosiy komponenti bo'lmish tasvirning ahamiyatini o'z ishlari bilan isbotladilar. Bu ishlar yosh kinorassomlarga ibrat hamda mahorat maktabi vazifasini bajarib kelmoqda. Kino ta'limda ham badiiy ta'limdagi dolzarb masalalar va innovatsion tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi. Kinoshunoslik fani bu jarayonda o'zining ahamiyatiga ega. Uni rivojlantirish va yosh tadqiqotchilarni jalb etish nafaqat O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan bog'liq, balki Fanlar Akademiyasining San'atshunoslik instituti hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining o'zaro aloqalarini hamda hamkorligini yo'lga qo'yish badiiy ta'lim va butun badiiy madaniyatni yanada rivojlantirish maqsadida xizmat qilishi mumkin, shuningdek, o'z ijobiy natijasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кодиров Мухсин – Томоша санъатлари утмишда ва бугун: уч жилдик (2013) страница 197
2. Хайтматова С. «Роль исторической культурной памяти в документальном кино Узбекистана» УзДСМИ Хабарлари 2023/1 (24)
3. Пресс-служба Президента Республики Узбекистан, заявление от 4 августа 2017 года
4. <https://president.uz/uz/lists/view/856>
5. Д.А.Алимова «История как история, история как наука» в двух томах. Том 2 Феномен джадидизма. Ташкент «Узбекистан» 2009год.»
6. Хайтматова С. «Роль исторической культурной памяти в документальном кино Узбекистана» УзДСМИ Хабарлари 2023/1 (24)

**INDIVIDUALLIKNING IJODKORLIK VA JAMIYATDAGI
FUNKSIONAL O'RNI
ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ В
ТВОРЧЕСТВЕ И ОБЩЕСТВЕ
THE FUNCTIONAL SIGNIFICANCE OF INDIVIDUALITY IN
CREATIVITY AND SOCIETY**

**Urinbayev Isroiljon Kadirjonovich
Andijon davlat universiteti,
"Tasviriy va amaliy san'at"
kafedrası katta o'qituvchisi.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'at va ijodkorlik, ularning ijtimoiy muhit bilan aloqasi va san'atning kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Ijodkorning o'ziga xosligi va ijodiy erkinligi san'at rivojida muhim omil ekani, individuallikning me'yordan oshishi ijtimoiy aloqalarning susayishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatib beriladi. Maqolada zamonaviy san'atda individuallik va kollektivlikning o'zaro ta'siri, shaxsiy ekspressiya va jamiyat bilan muloqot o'rtasidagi muvozanat, shuningdek, eksperimental san'at va yangi yo'nalishlarning shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Maqola yakunida esa san'atda individuallik va jamiyat talablarini uy'g'unlashtirish zarurligini asoslanadi.

Аннотация: В данной статье анализируются искусство и творчество, их связь с социальной средой и коммуникативные функции искусства. Показано, что уникальность художника и его творческая свобода являются важными факторами развития искусства, а чрезмерная индивидуальность может привести к ослаблению социальных связей. В статье рассматривается взаимодействие индивидуальности и коллективности в современном искусстве, баланс между личной экспрессией и коммуникацией с обществом, а также формирование экспериментального искусства и новых направлений. В заключении обосновывается необходимость гармонизации индивидуальности и общественных требований в искусстве.

Annotation: This article analyzes art and creativity, their connection with the social environment, and the communicative functions of art. It highlights that the uniqueness of an artist and their creative freedom are crucial factors in the development of art, while excessive individuality may lead to the weakening of social ties. The article examines the interaction between individuality and collectivity in contemporary art, the balance between personal expression and communication with society, as well as the formation of experimental art and new directions. In conclusion, it substantiates the necessity of harmonizing individuality with societal demands in art.

Kalit so'zlar: Individuallik, ijodkorlik, san'at, jamiyat, shaxsiy ekspressiya, ijtimoiy muhit, eksperimental san'at, kommunikatsiya, innovatsiya, madaniyat.

Ключевые слова: Индивидуальность, творчество, искусство, общество, личная экспрессия, социальная среда, экспериментальное искусство, коммуникация, инновация, культура.

Key words: Individuality, creativity, art, society, personal expression, social environment, experimental art, communication, innovation, culture.

San'at va ijod — bu nafaqat shaxsiy ifoda vositasi, balki jamiyat bilan uzviy bog'liq hodisadir. Ijodkorning individualligi unga o'z ovozi topish, o'ziga xos uslubni shakllantirish va san'at orqali o'z dunyoqarashini namoyon etish imkoniyatini beradi. Binobarin, san'at va ijod inson tafakkuri va his-tuyg'ularining eng yuksak ifodasi sifatida qadrlanadi. Zero, har bir ijodkor o'z uslubiga, dunyoqarashiga va san'atga yondashuviga ega bo'lib, aynan shu betakrorlik tufayli san'at olamida o'zining o'rnini topadi. Ijodning ildizi inson shaxsiyati va ichki kechinmalari bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun, har bir san'at asari o'ziga xos ruh va falsafani mujassamlashtiradi. Ushbu maqolada haddan tashqari individuallikning ijodiy jarayonga ta'siri, ijodkorning jamiyat bilan bog'liqligi va san'atning ijtimoiy muhitga integratsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Individuallik san'atni boyituvchi kuchmi yoki ijodkorni jamiyatdan uzoqlashtiruvchi omilmi — bu savolga javob izlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Azaldan, ijodkorlarning individualligi san'atning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Bu masala san'atning ijtimoiy vazifasi va ijodkorning jamiyat bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan muhim tahlilni talab qiladi.

Ijodiy individuallik san'atning innovatsion va yangilik kashf etuvchi xususiyatini ta'minlaydi. Har bir ijodkor o'ziga xos uslub yaratib, san'atga yangi tamoyillar olib kirishi mumkin.

Ijodiy individuallik zamonaviy san'atning rivoji uchun muhim hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buonarroti, Rafael Santi, Rembrandt Harmenszoon van Rijn kabi buyuk san'atkorlar o'zlarining yagonaligi, betakror uslubi va o'zgacha qarashlari orqali san'atga ulkan hissa qo'shganini ko'ramiz. Bu ijodkorlar nafaqat o'zlarini namoyon etgan, balki jamiyatga ta'sir ko'rsatib, san'at taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqqan.

Ijodiy o'ziga xoslik nafaqat san'atning rivoji, balki ijodkorning o'zini anglash jarayonida ham muhimdir. San'atkor shaxsiy fikri va his-tuyg'ulari orqali o'z ijodini shakllantiradi. Har bir ijodiy asar san'atkorning ichki dunyosini aks ettirib, uning shaxsiy kechinmalari, tajribalari va dunyoqarashini ifoda etib, o'z hissiyotlarini turli uslublar orqali namoyon etadi. Shuningdek, ijod jarayonida eksperimental yondashuvlar, yangi ifoda

vositalari va kontseptual g'oyalar aynan ijodkorning o'ziga xosligini namoyon etish istagi orqali paydo bo'ladi. San'at tarixi davomida individuallik ijodkorlarning o'ziga xos yo'nalish yaratishiga imkon bergan. Masalan, Pablo Pikasso kubizmni shakllantirib, tasviriy san'atda inqilob qilgan bo'lsa, Van Gog, Edvard Munk kabi rassomlar o'z his-tuyg'ularini rang va kompozitsiya vositasida ifoda etib, o'z ichki dunyolarini ochib bergan. Frida Kahlning ijodi esa shaxsiy kechinmalar va hayotiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, uning san'ati o'z biografiyasini vizual hikoya qilishning yorqin namunasidir.

San'atkor jamiyatdagi muammolarni, insoniy tajribalarni va shaxsiy qarashlarini san'at orqali aks ettiradi. Bu borada, realizm san'atning eng kuchli va ta'sirchan yo'nalishlaridan biri bo'lib, jamiyatdagi voqelikni imkon qadar haqqoniy aks ettirishga asoslanadi. XIX asrda realizm adabiyot va tasviriy san'atda rivojlanib, romantik idealizmdan farqli o'laroq, real hayotni, ijtimoiy sinflarni va oddiy odamlarning hayotini tasvirlashga e'tibor qaratdi. Adabiyotda realizm vakillaridan Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy, Gustave Flaubert kabi yozuvchilar inson ruhiyatini va jamiyat muammolarini aniq aks ettirib, realizmni rivojlantirishga hissa qo'shdilar. Ularning asarlari insonning ichki kechinmalari va ijtimoiy muammolarni o'rganishga imkon berdi. Tasviriy san'atda realizm vakillari Gustave Courbet va Ilya Repin kabi rassomlar oddiy insonlarning hayotini, mehnat sharoitlarini va ijtimoiy muhitni haqqoniy aks ettirishga intildilar. Ularning ishlarida ijtimoiy qatlamlarning muammolari ko'rsatilgan.

XX asrda esa san'atning turli yo'nalishlarida eksperimental yondashuvlar, yangicha uslublar va yangi ifoda vositalari paydo bo'ldi. Va aynan individuallik san'atda o'ziga xos yo'nalishlarni yaratish, yangi tamoyillarni shakllantirish va ijodkorning o'zligini namoyon etish imkonini bergan. Misol tariqasida abstrakt ekspressionizm, dadaizm va surrealizm oqimlari aynan ijodkorlarning individualligiga asoslangan holda shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yo'nalishlar an'anaviy tasviriy san'atdan chetlanib, inson tafakkuri va hissiyotlarini yangi, radikal usullar bilan ifodalashga harakat qildi. Masalan, dadaistlar so'z, tasvir va harakatni sintez qilib, zamonaviy san'atga muqobil yondashuvni taklif qilishdi. Eksperimental san'at

orqali zamonaviy san'atda turli yangi yo'nalishlar shakllandi:

- Performans san'ati – san'atni harakat, vaqt va auditoriya bilan bevosita muloqot orqali namoyon qilishga asoslansa;

- Konseptual san'at – g'oya markaziy rol o'ynaydigan san'at turi bo'lib, ijodiy mahsulotni emas, balki fikrni san'atga aylantirishga asoslanadi;

- Installyatsiya san'ati – san'atni makon bilan uyg'unlashtirib, ko'pchilikka bevosita ta'sir etadigan shaklda yaratishga asoslanadi.

- Yangi media san'ati – raqamli texnologiyalar, virtual reallik va sun'iy intellekt asosida san'at yaratiladi.

Eksperimental san'at ijodkorlarga cheklovlarisiz ijod qilish imkonini beradi va san'atni yangilashga yordam beradi. Qisqa qilib aytganda, eksperimental san'at ijodiy erkinlik va yangi san'at shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'lib, zamonaviy san'atning yo'nalishini belgilaydi. Bugungi kunda raqamli san'at, eksperimental musiqalar va performans san'ati aynan ijodkorlarning o'z yo'lini topishi natijasida rivojlanmoqda.

Biroq, kuzatuvlar natijasida ayniqsa tasviriy san'at misolida olsak, tabiiyki savol tug'iladi, haddan tashqari individuallik ijodkorni jamiyatdan uzoqlashtirishi mumkinmi? Ushbu masala ijodning ijtimoiy ahamiyati, san'atning jamiyatdagi o'rni hamda ijodkor shaxsining ijtimoiy muhit bilan aloqasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga egadir.

Ijodkorning o'z dunyosiga sho'ng'ib ketishi, faqat o'z san'ati bilan mashg'ul bo'lishi uni ijtimoiy muhitdan ajratishi mumkin!... Chunki, ba'zi hollarda ijodkorning o'ziga xos san'at tili ba'zan keng auditoriya tomonidan tushunilmaydi, natijada ijodkorni tor doiraga cheklab qo'yishi, uni jamiyatdan ajratib qo'yishi mumkin.

Masalan, konseptual san'at va eksperimental ijod yo'nalishlari ba'zida faqat san'at sohasi mutaxassislari tomonidan anglanadi, keng jamoatchilik esa bu asarlarni tushunishda qiyinchilikka duch kelishadi. Shu nuqtayi nazardan, san'at faqat shaxsiy ifoda emas, balki jamiyat bilan aloqaning o'ziga xos tili bo'lib xizmat qilishi ham muhimligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, ijodkor jamiyat bilan muloqotda bo'lishi, uning ehtiyoj va qadriyatlarini hisobga olishi ijodning keng qabul qilinishiga zamin yaratadi. Aynan shu sababli,

ijodiy individuallik va jamiyat bilan bog'liqlik o'rtasida muvozanat bo'lishi kerak.

Ijodiy individuallik – ijodkorning shaxsiy uslubi va betakror yondashuvi orqali yangi g'oyalarni yuzaga keltirish salohiyati sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijod mahsuli muallifning ichki dunyosini aks ettirib, o'ziga xos san'at tili orqali ommaga ta'sir ko'rsatadi. Individuallik ijodkorning mustaqil fikrlashiga, kreativ qarorlar qabul qilishiga va yangilik kashf etishiga xizmat qiladi. Tarixga nazar tashlasak, san'atning turli sohalarida o'ziga xosligi bilan ajralib turgan ijodkorlarning muvaffaqiyati aynan individuallik tufayli shakllanganini ko'rishimiz mumkin.

Ijodiy erkinlik – esa san'atkorning har qanday tashqi yoki ichki cheklovlardan xoli bo'lib, o'z fikrlarini to'liq ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi. Erkinlik ijodning yangi qirralarini shakllantiradi, yangi g'oya va ifoda usullarining paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Ijodkor o'z san'atini bimalol ifoda etishi uchun ijtimoiy va madaniy muhitda erkinlik tamoyillari shakllangan bo'lishi kerak. Siyosiy, diniy yoki jamiyatdagi muayyan qoidalar ba'zan ijodkorning erkinligini cheklashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, san'atning rivojlanishi ijodiy erkinlikning ta'minlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarix davomida san'at erkinligi ijodkorlarning yutuqlari bilan bog'liq bo'lib, yangi davr tendensiyalari aynan ijodiy erkinlik orqali shakllangan. Masalan, impressionizm va abstrakt san'at an'anaviy san'at tamoyillaridan chetlanib, ijodkorning ichki his-tuyg'ularini aks ettirishga asoslangan.

Individuallik va ijodiy erkinlik o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ularning muvozanati ijod jarayonining samaradorligini belgilaydi. Agar ijodkor o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniga ega bo'lsa, bu uning o'ziga xosligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, individuallik me'yordan oshsa, ijtimoiy kontekstdan yiroqlashish xavfi tug'iladi, shuning uchun san'atning ijtimoiy vazifasi ham muhim ahamiyatga ega.

Albatta ijodiy individuallik san'at rivojlanishi uchun zarurdir. Bunda eng muhim jihat – ijodkor o'z san'atini yaratishda jamiyat bilan muloqot o'rnatish va kommunikativ jihatni inobatga olishdir. Ushbu mavzu san'atshunoslar, ijodkorlar va auditoriya o'rtasidagi aloqalar nuqtayi nazaridan yanada chuqur tadqiqotni talab etadi.

Zamonaviy san'atda shaxsiy ekspressiya eng muhim tamoyillardan biri hisoblanib, XXI asr san'ati tobora individuallikka asoslanib, ijodkorning ichki dunyosi va shaxsiy tajribalarini aks ettirishga e'tibor qaratmoqda. Bu tamoyil san'atning turli yo'nalishlarida – tasviriy san'at, musiqa, teatr, adabiyot va raqs kabi sohalarda namoyon bo'lib bormoqda.

Shaxsiy ekspressiya san'at asarining chuqurligi va samimiyligini belgilaydi. U ijodkorning o'z fikrlarini, hissiyotlarini va dunyoqarashini san'at vositasida bayon qilishiga yo'l ochadi. Shuningdek, ijodkorlar o'z asarlari orqali jamiyatdagi muammolar, shaxsiy kechinmalar va global mavzularni yoritib, odamlarni muhim masalalar ustida fikr yuritishga undaydi. Biroq, ekspressiv san'atning o'ziga xos shakllari ba'zan tor doirada tushuniladi. Shu sababli, zamonaviy ijodda muvozanat muhim — asar ijodkor shaxsiyatini ifodalashi bilan birga, keng auditoriya bilan ham muloqot qilishi kerak.

San'atning kommunikativ vazifasi shuni ko'rsatadiki, ijodkor faqat o'z dunyoqarashi bilan cheklanib qolmasligi, balki o'z asarlari orqali jamiyat bilan muloqotga kirishi muhimdir. Albatta, san'atkorning shaxsiy fikri va hissiyotlari san'atning chuqurroq va mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi. Ijodkor o'z asarlariga ichki dunyosini singdirib, tomoshabin yoki tinglovchiga mazmun va his-tuyg'ular yetkazishga harakat qiladi. Bu san'atni faqat estetik hodisa emas, balki inson ruhiyatining aks ettirish vositasiga aylantiradi.

Umuman olganda, san'atkorning shaxsiy fikri va his-tuyg'ulari ijodning asosi bo'lib, san'atni shaxsiy va ijtimoiy darajada ta'sirchan qiladi.

Individuallik va jamiyat o'rtasidagi muammolar ko'p qirrali va murakkab masalalar bo'lib, ular shaxsning o'ziga xosligi hamda jamiyat talablariga moslashish jarayonida yuzaga keladi. Ushbu muammolarni quyidagicha izohlash mumkin:

- Shaxsiy erkinlik va jamiyat talablari: Individuallik insonning o'z fikriga ega bo'lishi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'ziga xos hayot tarzini shakllantirishini anglatadi. Biroq, jamiyatda yashash uchun muayyan qoidalar va me'yorlarga rioya qilish zarur [2].

- Ijtimoiy bosim va stereotiplar: Jamiyat ko'pincha shaxsdan ma'lum me'yorlarga moslashishni talab qiladi. Bu esa ba'zan individuallikni cheklashi va insonning o'zligini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar: Ishsizlik, kambag'allik va tengsizlik kabi muammolar esa shaxsning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun jamiyat individuallikni qadrlashi, inson huquqlarini hurmat qilishi va har bir shaxsning o'ziga xosligini rivojlantirishga imkon yaratishi lozim.

Jamoaviy madaniyatning individuallik bilan o'zaro ta'siri murakkab jarayon bo'lib, ba'zan ijtimoiy mazmunning yo'qolish ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Ommaviy madaniyatning ustunligi: Globalizatsiya va ommaviy madaniyatning kuchayishi natijasida mahalliy va an'anaviy madaniy shakllar zaiflashishi mumkin. Bu esa jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy mazmunini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

- Shaxsiy identifikatsiyaning zaiflashishi: Individuallikning haddan tashqari kuchayishi ba'zan jamoaviy madaniyatga zarar yetkazishi mumkin. Agar shaxslar o'z jamiyatiga bog'liq bo'lishni kamroq his qilsalar, ijtimoiy mazmun va umumiy qadriyatlar zaiflashishi ehtimoli ortadi.

- Madaniy merosning yo'qolishi: Agar jamiyatda individuallik jamoaviy qadriyatlardan ustun qo'yilsa, an'anaviy san'at, urf-odatlar va madaniy merosning davomiyligi xavf ostida qolishi mumkin[3].

Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyat individuallik va jamoaviy madaniyat o'rtasida muvozanatni saqlashi, shaxsiy erkinlikni hurmat qilishi bilan birga, ijtimoiy mazmunni mustahkamlashga harakat qilishi lozim.

San'at albatta jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, chunki u nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. San'atning jamoatchilik uchun ahamiyatini quyidagi funksiyalari bilan izohlash mumkin:

- Madaniy merosni saqlash: San'at milliy va madaniy o'zligini mustahkamlashga yordam beradi. U an'analar, urf-odatlar va tarixiy voqealarni aks ettirib, kelajak avlodlarga yetkazadi.

- Ijtimoiy muammolarni yoritish: San'at ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish va jamoatchilik e'tiborini jalb qilish vositasi bo'lishi mumkin. Masalan, tasviriy san'at, teatr yoki kino orqali jamiyatdagi muammolar haqida fikr bildirish mumkin.

- Ta'lim va tarbiya: San'at insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadi. U yosh avlodni axloqiy qadriyatlar, ijodiy fikrlash va estetik tushunchalar bilan tanishtiradi.

- Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash: San'at jamoani birlashtirishga yordam beradi. Musiqa, raqs, teatr va boshqa san'at turlari odamlarni bir maqsad atrofida birlashtirishda umumli vosita sifatida foydalaniladi.

Biroq, jamoat hissi ham ijodning ajralmas qismi hisoblanadi. San'at jamiyat bilan bog'lanishi, undagi muammolar, qadriyatlar va madaniy tendensiyalarni aks ettirishi lozim. San'at tarixida bu muammoga turli uslublar orqali yechim topilgan – masalan, san'at harakatlari jamiyatning muammolarini aks ettirishga intilgan, ijtimoiy san'at esa to'g'ridan-to'g'ri odamlar bilan bog'lanishga yo'naltirilgan.

Muvozanatni topish uchun ijodkor bir nechta yondashuvlardan foydalanishi mumkin:

- Ijodiy hamkorlik – turli san'at turlari va ijodkorlar bilan birga ishlash, jamiyat bilan bog'liqlikni kuchaytirish.

- Interaktiv san'at – tomoshabin yoki auditoriya bilan bevosita aloqaga kirish, fikr almashish va o'z san'atini muhokama qilish.

- Maqsadga yo'naltirilgan san'at – ijtimoiy, madaniy yoki falsafiy muammolarni aks ettirish orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatish.

Eng muhim narsa – san'atni individuallik va jamoatchilik ehtiyojlarini muvozanatlashtirish orqali yanada ta'sirchan va mazmunli qilishdir. Tarixda, san'at turli ijodiy uslublar va yo'nalishlar jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirib, ijtimoiy fikrga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, realizm, so'z erkinligi va ijtimoiy san'at jamiyat bilan bog'liq muammolarni yoritishda muhim rol o'ynaydi.

So'z erkinligi ijodkorlar uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, san'at orqali jamiyat muammolarini ochiq ifodalashga imkon beradi. Ijodkorlar tarixan siyosiy, madaniy va ijtimoiy masalalarni san'at vositasida ochiq muhokama qilganlar. Ijtimoiy san'at bevosita jamiyatning dolzarb masalalarini yoritishga va muhokama qilishga yo'naltirilgan san'at turidir. Bu yo'nalishdan foydalangan san'atkorlar jamiyatda ijtimoiy adolat, inson huquqlari va tenglik masalalarini ko'tarib chiqqanlar.

Ijodkorlar turli uslublar orqali jamiyat muammolarini yoritib, odamlarni fikrlashga va harakat qilishga undaydi. Ushbu yo'nalishlar bugungi kunda ham san'at va madaniyatning

rivojlanishida muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, san'at faqat ijodkorning individualligini namoyon etish vositasi emas, balki auditoriya bilan muloqot qilishning kuchli mexanizmi hamdir. Ijodning yoinki, san'atning ijtimoiy ta'sir kuchi — uning auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi va tushunishi bilan belgilanadi. Ushbu o'zaro ta'sir jarayoni san'atning ijtimoiy vazifasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa ijodda kommunikativ yondashuvning zarurligini anglatadi. Shu sababli, san'atning rivojlanishida auditoriyaning roli juda muhim. Ijodkor jamiyatning ehtiyojlari, madaniy tamoyillari va ijtimoiy muammolarini hisobga olgan holda ijod qiladi. Bunday o'zaro ta'sir san'atni ko'proq maqsadga yo'naltirilgan qiladi va uning jamiyatga ta'siri kuchayadi.

San'at va auditoriya o'rtasidagi aloqaning asosiy shakllari:

- Tanqid va tahlil: San'at asarlari jurnalistlar, san'atshunoslar va tomoshabinlar tomonidan tahlil qilinadi, bu esa ijodning ma'nosini kengroq tushunishga yordam beradi;

- Ijtimoiy san'at: Jamiyatda dolzarb muammolarni aks ettirish orqali san'at auditoriyani o'ylantirish va harakatga undash vazifasini bajaradi;

- Madaniy kontekst: Har bir madaniyat san'atni turlicha idrok etadi. Bir madaniyatda radikal qabul qilingan asar boshqa jamiyatda an'anaviy san'at sifatida ko'rilishi mumkin.

Hammamizga ma'lumki, san'at - jamiyatning madaniy an'analari va tarixiy merosi bilan bog'liq. Bugungi kunda, O'zbekiston san'ati ko'p asrlik an'analari asosida rivojlanib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy san'atkorlar ushbu merosni yangi uslublar bilan boyitish orqali jamiyatga yaqinlashmoqda. Binobarin, har bir ijodkor o'z asarida milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettirish orqali o'z individualligini jamoat ma'naviyati bilan uyg'unlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, individuallik ijodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, san'at va madaniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Har bir ijodkor o'ziga xos fikrlash uslubi va estetik yondashuvi orqali yangi san'at tamoyillarini yaratishga hissa qo'shadi. Shu sababli, individuallik ijodning innovatsion jihatini shakllantirib, ijodkorlik jarayonini boyitadi.

San'at faqat shaxsiy ifoda emas, balki ijtimoiy hodisa hamdir. Ijodkorlar o'z san'ati orqali jamiyatdagi muammolarni ko'tarib, jamiyatdagi o'zgarishlarni yoritib, odamlarni fikr yuritishga undaydi. Natijada, ijodiy individuallik san'atkorning ijodini nafaqat shaxsiy ifoda, balki jamoatchilikka ta'sir etuvchi kuchga aylantiradi.

Musiq, tasviriy san'at, teatr va adabiyot birlashib, ijodkorlikni kengroq auditoriya uchun tushunarli qiladi. Bu yondashuv ijodkorning

individualligini saqlagan holda, jamiyat ehtiyojlariga ham moslashtirish imkonini beradi. Individuallik va jamiyat ma'naviyati o'rtasidagi muvozanat san'atning ijtimoiy ta'sirini kuchaytiradi. Ijodkor o'z asarlarini milliy qadriyatlar, ijtimoiy mavzular va auditoriya bilan muloqot orqali jamiyatga moslashtirishi mumkin. Ushbu yondashuvlar san'atning nafaqat individuallik, balki jamoatchilik uchun ham muhim ekanligini ko'rsa

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori.// "Xalq so'zi", 2020-yil 22-aprel, No82 (7584)
2. O. R. Quyliyeva, M. Rustamova, M. Xusniddinova, A. Eusbekova, and Sh. Turabekov. "Shaxs rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar" Academic research in educational sciences, vol. TIPI Conference 1, no. 1, 2024, pp. 314-320.
3. Ulug'bek Tolibjon o'g'li Ochilov. "Yoshlarimizda buzg'unchi "ommaviy madaniyat"ga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishining psixologik xususiyatla- ri" Scientific progress, vol. 1, no. 4, 2021, pp. 139-146.
4. Urinbayev, Isroiljon Kadirjonovich. "San'atni jamiyat hayotining ijtimoiy o'zgarishlardagi roli va ahamiyati." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 473-480.
5. Temirov, Murodjon Anvarovich. "THE ROLE OF COLORS IN EDUCATING INDIVIDUALS." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 431-437.

XALQARO FESTIVALLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
ОСОБЕННОСТИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФЕСТИВАЛЕЙ
SPECIAL FEATURES OF INTERNATIONAL FESTIVALS

Karimova Nilufar Axmatovna
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda o'tkazilayotgan xalqaro festivallarning ayrimlari haqida fikr mulohaza yuritilib, ularning o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Festivallarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni izohlanib, har bir sohani rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qilishi izohlab berilgan. Maqola so'ngida fikrlar umumiyashtirilgan holda xulosa ishlab chiqilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые международные фестивали, проводимые в нашей республике, и научно анализируются их уникальные аспекты. Объясняется роль фестивалей в развитии общества, а также их роль как важного фактора развития каждой сферы. В конце статьи дается заключение, обобщающее высказанные идеи.

Annotation: The article examines some international festivals held in our republic and scientifically analyzes their unique aspects. The role of festivals in the development of society is explained, as well as their role as an important factor in the development of each sphere. At the end of the article, a conclusion is given, summarizing the ideas expressed.

Kalit so'zlar: Festival baxshi, jirov, dostonchilik, konferentsiya, musiqa, kino, folklor, madaniyat, asal festivali, gullar festivali.

Ключевые слова: Фестиваль, бахши, эпическая поэзия, конференция, музыка, кино, фольклор, культура, фестиваль мёда, цветочный фестиваль.

Key words: Festival, section, fat, epic poetry, conference, music, cinema, folkore, culture, honey festival, flower festival.

Xalqaro festivallar – turli yo'nalishlarda o'tkazilib, har bir davlatning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy rivojlanishida vosita hisoblanadi. U turli davlatlar, madaniyatlar va xalqlarning o'zaro muloqoti, san'at va an'ana, urf-odatlarini ommalashtirishga qaratilgan yirik ijtimoiy madaniy tadbirlardir. Ular ko'pincha musiqa raqs, teatr, kino, va sport kabi sohalarida o'tkaziladi. Bu festivallar ishtirokchilarga o'z ijtimoiy madaniyatini namoyish etish, yangi tajribalar almashinish va turli jabhalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Yurtimizda ham bir qator xalqaro festivallar tashkil etilishi, uning boy madaniy merosini namoyish etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masalan, 2023-yilda Sirdaryoda III xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkazildi, unda Germaniya, Qirg'iziston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon,

Vengriya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlardan kelgan 30 dan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi.

Joriy yilning 26-28-aprel kunlari Xorazm viloyatining Xiva shahrida navbatdagi IV xalqaro "Baxshichilik san'ati festivali" o'tkazildi. Festivalda 40 dan ortiq mamlakatdan 200 dan oshiq ijodkorlar qatnashdi. Bu yilgi festivalning oldingi festivallardan farqi shundaki, qatnashuvchi ijodkorlarning ko'pligi, yosh ijodkorlar qatnashishi natijasida o'zlarining ortlaridan ushbu san'atga yanada qiziquvchi yoshlarni ergashtirishidir. Har yili o'tkazilayotgan Baxshichilik san'ati festivalida qisman yoshi katta va taniqli ijodkorlar ishtirok etar edilar. Bu jarayon yoshlarga keskin ta'sir ko'rsatardi. Bu yilgi holat 24 yoshli baxshi Usmonjon Abdullaevning ijodi yuqori baholanib, 2-o'rin bilan taqdirlanganligi barchaga yangicha

shijoat uyg'otdi. Festival doirasida o'tkazilgan "II Turkiy dunyo madaniyati forumi" hamda "Yangi O'zbekistonda baxshichilik san'ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Mo'g'uliston kabi davlatlarning nufuzli ilm maskanlaridan tashrif buyurgan taniqli folklorshunos olimlar baxshichilik san'ati tarixi va jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni haqida ma'ruzalar qildilar. Uch kun davom etgan konferensiya bahs-munozaralarga boy bo'ldi. Festival davomida Baxshi va oqinlar tomonidan ijro etilgan dostonlar tinglanib, g'olib va sovrindorlar quyidagi nominatsiyalar bilan taqdirlandi.

Gran-pri Ozarbayjon respublikasining "Oshiqlar" guruhi 7000\$.

1-o'rin O'zbekiston Jumatova Muyassar va Turkmanistonlik "Turkmaniston milliy baxshilar guruhi" 5000\$.

2-o'rinni O'zbekiston Abdullaev Usmonjon va Qozog'istonlik Turikpen Kensulu 3500\$.

3-o'rin Mo'g'uliston Ikxagvasuren Lkxamragcha, Rossiya Stepanova Aksiniya va O'zbekistonlik Ahmedov Ziyodillo baxshilar 2500\$ pul mukofotlari bilan taqdirlandilar. Ushbu festival yildan yilga baxshichilik san'ati dunyo miqyosida o'z o'rnini egallab borayotganligi va bu san'atga qiziquvchi baxshilarning soni ko'payib ketayotganligidan darak bermoqda. Yuqorida e'tirof etganimiz kabi baxshichilik san'atining bardavomligini saqlovchi, festivallar hisoblanib, unga bosh-qosh bo'luvchi rahbariyatning o'rni beqiyosdir.[6]

Har ikki yilda muntazam ravishda o'tkazilib kelinayotgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalida esa dunyo bo'ylab kelgan turistlar va san'atkorlar ishtirok etib, milliy urf-odatlar va an'analarni namoyish etib kelmoqdalar.

Xalqaro festivallar nafaqat madaniy almashinuvni rag'batlantirish, balki turizmni rivojlantirish va mamlakatimizning xalqaro imijini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Festivallarning bir nechta asosiy turlari va yo'nalishlari mavjud: bular quyidagilar.

1. Madaniy festivallar: (Milliy va an'anaviy madaniyat festivallari, Folklor festivallari, Teatr va drama festivallari, Badiiy hunarmandchilik ko'rgazmalari).

2. Musiqiy festivallar: (Jonli musiqa (rok, pop, djaz, klassik), Milliy an'anaviy musiqa, Elektron musiqa festivali, Yosh ijodkorlar uchun musiqa tadbirlari).

3. Kino va media festivallar: (Xalqaro kino festivallari, Qisqa metrajli filmlar, Animatsiya va multfilmlar festivali, Televideniye va seriallar ko'rgazmasi).

4. Taom festivallari: (Milliy taomlar festivali, Srit-fud festivallari, Shirinliklar va desertlar, Qahva yoki choy festivallari).

5. Yoshlar va fan festivallari: (Talabalar ijodiy festivallari, Yoshlar yetakchilik va innovatsiya festivallari).

6. Adabiy festivallar: (Kitob festivallari, adabiyot kechalari).

7. Sport festivallari: (Ommaviy sport tadbirlari (marafon, velosiped poygasi), Milliy sport turlari (ko'pkari, kurash), Ekstremal sport turlari (snoubord, skeytbording).

8. San'at va hunarmandchilik festivallari: (Rassomlar va hunarmandlar ko'rgazmalari, amaliy san'at festivali, keramika yoki to'qish festivali).

9. Diniy va an'anaviy festivallar: (Navro'z, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti kabi diniy bayramlar, Mavsumiy urf-odatlarga bag'ishlangan festivallar (qovun sayli, mehrjon, boychechak sayli).

10. Tabiat va ekoturizm festivallari: (Gullar festivali, Eko-festivallar, Qushlarni kuzatish festivallari)dir.[4. 45-52 b]

Festivallarning o'ziga xosligi esa, ularni boshqa madaniy tadbirlardan ajratib turishi, quvonchli, shodiyona va keng omma ishtirok etadigan muhit yaratilishi konsert, teatr yoki ko'rgazmadan farqlanishidan iborat. Festivallar birgina musiqa yoki teatr bilan cheklanmaydi – ularda raqs, xalq amaliy san'ati, gastronomiya, kino, milliy liboslar va boshqa ko'plab yo'nalishlar namoyon bo'lishi mumkin. Festivallar an'anaviy ravishda har yili yoki ma'lum vaqt oralig'ida o'tkaziladi. Ko'pincha turli davlatlardan qatnashuvchilarni jalb qilish orqali xalqaro madaniy muloqot imkonini yaratadi. Uning o'tkazilishi san'atkorlar, hunarmandlar va ijodkorlar o'z iste'dodlarini ommaga namoyon etish imkonini beradi. Yana bir muhim xususiyatlaridan biri, yoshning aniq chegaralanmaganligi ijodkorlarga juda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu esa yoshlar ijodini dunyo miqyosida targ'ib etishda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Festivallar mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilgani bois, mehmonxona, transport, hunarmandchilik va oziq-ovqat sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro festivali nainki Markaziy Osiyoda, balki jahon miqyosidagi mashhur festivallar qatoridan joy olib ulgurdi. Buning yorqin misolini yildan yilga ushbu festivalda qatnashish istagini bildirayotgan davlatlar sonining ortayotgani hamda dastur saviyasining yuksalib borayotganida ham ko'rish mumkin. Bu festival mamlakatlarning eng yaxshi musiqachilari va san'atkorlarini birlashtiradi. Uning maqsadi madaniy muloqot va o'zaro almashinuvni kuchaytirishdir.

Shunday festivallardan yana biri "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor musiqa festivalidir. Ushbu festival O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Farg'ona viloyati hokimligining tashabbusi bilan 2019-yildan boshlab, har ikki yilda bir marta yilning yoz faslida bo'lib o'tadi.

Mazkur festivalni o'tkazishdan asosiy maqsad, folklor musiqa san'atini xalqaro miqyosida keng targ'ib etish, musiqiy merosni e'zozlab saqlash, o'rganish, o'zlashtirish, rivojlantirish va folklor san'atining mohir ijrochilarini rag'batlantirishdan iborat.

O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq har ikki yilda O'zbekistonning turli xil hududlarida an'anaviy Xalqaro baxshichilik festivalini o'tkazish belgilab qo'yildi. Shunga ko'ra, I-Xalqaro Baxshichilik festivali 2019-yil 5-10-aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida yuqori saviyada tashkil etildi. [1]

Festivaldan ko'zda tutilgan maqsad Sharq xalqlari folklor san'atining yetakchi janrlaridan biri bo'lgan baxshichilikni keng targ'ib qilish, xalq og'zaki ijodi an'analari va qadriyatlarini rivojlantirish hamda chuqurroq o'rganishga

qaratilgan. Shu bilan birga, baxshichilik va dostonchilik tarixi, folklor asarlarini to'plash, baxshi-shoir, oqin va jirovlar ijodining Sharq madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirishdan iborat.

Termiz shahrida tashkil etilgan ushbu festivalda jahonning 74 davlatidan 160 dan ziyod ishtirokchilar qatnashdi.

Xalqaro baxshichilik festivalining boshqa festivallaridan farqli o'laroq o'ziga xos jihatlari shundaki, festivalning tashkil qilinadigan hududi har gal boshqa hududga ko'chirilishi baxshichilik san'atining asosiy sozlaridan bo'lmish do'mbira cholg'usining respublika miqyosida keng targ'ib etilishi, yillar kesimida mashhur baxshilarning tavallud ayyomlari bilan birgalikda ular nomiga bag'ishlangan ko'rk-tanlovlar tashkil qilinishi festivalni o'tkazilishidan erishilgan natijalar mahsulidir.

Respublikamizning bir nechta hududlarida o'tkazilib kelinayotgan yana bir xalqaro festivallardan biri bu xalqaro asal festivalidir.

Men o'z ilmiy ishim borasida tadqiqot olib borib, 2024-yil 1-3-noyabr kunlari Namangan viloyatida o'tkazilgan "III xalqaro asal festivali" o'tkazilish jarayonlarini o'rgandim. Asal festivalida respublikamiz va boshqa 10 dan ziyod mamlakatlardan asalchilar o'z asallari bilan ishtirok etdilar. Festival davomida milliy qo'shiqlar, rassomchilik ko'rgazmalari, milliy liboslar tanlovi hamda hunarmandchilik yarmakalari bo'lib o'tdi. Bu mahalliy va xorijiy mehmonlar uchun qiziqarli madaniy tadbirga aylandi. Festival so'ngida taqdirlash marosimi o'tkazildi. Unda o'zining yuqori sifatli asali bilan qatnashgan asalchilar turli sovg'alar bilan mukofotlandilar. Ushbu festivalni o'tkazishdan maqsad asal mahsulotlarini targ'ib qilish, asal yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash, asalning tabiiy, shifobaxsh xususiyatlarini aholiga tanishtirish, mahalliy asalchilarga o'z mahsulotlarini namoyish etish, bozor topish va tajriba almashish imkonini beradi.[5]

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni jamlagan holda aytish mumkinki, bu sohada ham ba'zi muammolar mavjud bo'lib, biz ularni e'tirof etib, yechimlari to'g'risida taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik. Bular quyidagilardan iborat.

1. Milliy taomlarimizdan bo'lgan oshning turlarini targ'ib etish va yoshlarga o'rgatish maqsadida o'tkazilayotgan osh festivali

bugungi kunga kelib, juda kam o'tkazilmoqda. Shu boisdan biz quyidagi taklifni beramiz. Xar ikki yilda xalqaro osh festivalini tashkil qilish lozim. Unda har xil osh turlarini tayyorlash bo'yicha tanlovlar o'tkazish, hamda "eng an'anaviy osh", "eng yangicha osh", "eng mazali osh" nominatsiyalari bilan taqdirlash lozim. Xorijdan kelgan ishtirokchilarga "O'zbek oshi" tayyorlash imkonini berish lozim. Festival doirasida tayyorlangan pishiriqlar va hunarmandlar mahsulotlari savdosi yo'lga qo'yiladi. Ushbu festival qoshida "Yoshlarga milliy taom tayyorlashning amaliy jihatlarini" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish muammoning asosiy yechimlaridan hisoblanadi.

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj nogironlar o'rtasida madaniyat va san'at borasida yetarli darajada xalqaro festivallar tashkil etilmayapti. Buning yechimi sifatida nogironlar o'rtasida respublika va xalqaro miqyosda festivallar tashkil qilish kerak. Bu esa dunyo miqyosidagi nogironlarning fikr almashinishi va ijodiy targ'ibot masalalarini yo'lga qo'yishga imkon beradi.

3. Bugungi kunda Respublikamizda yuzlab festivallar o'tkazilmoqda biroq, ularni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida yoritilishi qoniqarli darajada emas. Festivalning g'olib ishtirokchilarni taqdirlash jarayoni va ularga beriladigan mukofot, rag'batlar haqida ommaviy axborot vositalarida qayta-qayta e'lon qilinishi kerak.

4. O'tkazilayotgan har bir festival arafasida bir oy oldin ilmiy anjumanlarni o'tkazishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu esa soha bo'yicha faoliyat olib borayotgan olim va tadqiqotchilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi bilan birgalikda festivalni tashkil qilish va o'tkazish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Festivallarni targ'ib qilishdagi muammolarni hal qilish uchun har doim oldindan reja tuzish, zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish va tomoshabinlarga yetarli ma'lumot berish muhimdir. Targ'ib qilishda samaradorlikni oshirish uchun festivalning maqsadlari va auditoriyasiga mos bo'lgan strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilib aytganda festivallar jamiyat taraqqiyoti va unda istiqomat qilayotgan insonlarni ijtimoiylashuvida asosiy omil hisoblanadi. Fikrimizga asosli dalil sifatida aytish mumkinki, insonning sog'ligini kafolatlash, uzoq umr ko'rish, hayotga muhabbat uyg'otishi kabi tuyg'ularni shakllantirishda sport festivallarining o'rni beqiyosdir. Shu jumladan, ma'naviy barkamollikni yuksaltirishda yoshlar va fan festivallari tashkil qilinayotganligini e'tirof etish joiz. Ruhiy ko'tarinkilikka erishish, hayotdan zavq olish, ijodiy yondashuvni shakllantirish, moddiy va ma'naviy barkamollikka erishish, madaniy festivallar hisoblansa, jamiyatdagi shaxslar turmush tarzi, hududiy urf-odat va an'analari va uni saqlab qolish hamda tabiati muhofazasi ekomadaniy turizmning xususiyatidir. Umuman olganda o'tkazib kelinayotgan har bir festival inson manfaatlari va farovon yashashi uchun iqtisodiy-siyosiy jarayonlarni tizimli va bardavomlilikini ta'minlashda asosiy tamoyillardan biridir.

Fikrimizning dalili sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz. "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabirda “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” gi PQ-3990-son qarori. <https://lex.uz/docs/4072873?ONDATE=03.03.2025%2000>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-noyabrdagi 960-son qarori. <https://www.lex.uz/ru/docs/-4082255>
3. O‘zbekiston baxshilari. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 144 b.
4. Yusupov J. “O‘zbekistonda festival turizmini rivojlantirish istiqbollari”. Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, 2021-y. №4, 45-52 b.
5. Milliy baxshichilik san’atining rivojlanish bosqichlari. (Ilmiy maqolalar to‘plami). Toshkent: “ZAMON POLIGRAF” OK bosmaxonasi. 2022-yil.
6. Dala tadqiqotidan Namangan viloyati. 2024-yil 1-3-noyabr.
7. Dala tadqiqotidan Xorazm viloyati. Xiva shahri. 2025-yil 26-28-aprel.

**SA'DIY SHEROZIY "BO'STON" DOSTONINING KAMOLIDDIN
BEHZOD IJODIDAGI TALQINI
СААДИ ШИРАЗИ ЭПОСА" БОСТОН"
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ КАМОЛИДДИНА БЕХЗАДА
SAADIY SHEROZI OF THE EPIC" BOSTON"
INTERPRETATION IN THE WORK OF KAMOLIDDIN BEHZOD**

Gulabza Qarshiyeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Sharq va Movarounnahrda uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan kitobat san'atining rivojlanishi bevosita adabiyot bilan bog'liq bo'lganligi, bezakli qo'lyozmalar yaratish uchun eng barkamol badiiy va tarixiy asarlar tanlab olinganligi, ularning orasida Sa'diy Sheraziyning "Bo'ston" va "Guliston" asarlari xattotlar, musavvirlar tomonidan ko'p bora murojaat qilingan asarlardan biri ekanligi, Sa'diyning "Bo'ston" dostoni mazmun-mohiyati, so'fiona qarashlarining temuriylar davrining buyuk musavviri Kamoliddin Behzod ijodida o'ziga xos talqin etilishi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье показано, что развитие искусства книжной, прошедшее долгий путь развития на Ближнем Востоке и в Мавераннахре, напрямую связано с литературой, для создания богато украшенных рукописей были отобраны наиболее совершенные художественные и исторические произведения, среди которых "Бостон" и "Гулистан" Саади Ширази являются одними из произведений, к которым неоднократно обращались каллиграфы, мусаввиры. В эпосе рассматривается содержание, своеобразная интерпретация суфийских взглядов в творчестве великого мусаввира эпохи Тимуридов камалиддина Бехзада.

Annotation: This article reflects on the fact that the development of book art, which has come a long way of development in the Middle East and Movarounnahr, is directly related to literature, the most perfect artistic and historical works are selected for the creation of ornamental manuscripts, among which the works of Saadi Sherazi "Buston" and "Guliston" are one of the works that have been repeatedly addressed by calligraphers, the interpretation of the essence of Saadi's poem "Buston", the views of the works of Kamoliddin Behzod, the great artist of the Timurid period.

Kalit so'zlar: Sa'diy, "Bo'ston", "Guliston", kitobat san'ati, miniatyura, Kamoliddin Behzod, tasavvuf, ramziy ma'no.

Ключевые слова: Саади, "Бостон", "Гулистан", искусство книжной, миниатюра, Камалиддин Бехзад, мистика, символика.

Key words: Saadi, "Buston", "Guliston", Book art, miniature, Kamoliddin Behzad, Sufism, symbolic meaning.

Miniatyura (frans. miniature; lot. minium - qizil bo'yoq) - badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'jaz) tasviriy san'at asarlari) san'ati namunalarini yaratish uchun Sharq mumtoz adabiyoti – dostonlar, g'azallar to'plamlari, tarixiy solnomalar va boshqa turli sohalarga oid qo'lyozmalar asosiy manba bo'lib

kelgan. Temuriylar davrida, ayniqsa, Sulton Husayn hukmronlik qilgan yillarda Movarounnahr, Xuroson va Eronda islom madaniyati va san'ati, xususan, qo'lyozma asarlarini bezatishga asoslangan kitobat san'ati (Kitobat san'ati - qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhof (muqovasoz) kabi

hunarmandlar ijodiy guruhi tomonidan bajariladigan jarayon bo'lib, O'rta va Yaqin Sharq davlatlarda bu faoliyat deyarli bir xil usulda amalga oshirilgan. Kitobat san'ati ustalari hukmdorlar va boshqa amaldorning buyurtmasi asosida asarlarni g'oyat nafis bezaklar, miniatyuralar bilan ziynatlashgan. Musavvirlar o'z miniatyuralarida badiiy asarlardagi voqealarni, ularning mashhur qahramonlari holatlarini tasvirlash barobarida, sharqona odobning axloq mezonlaridan kelib chiqqan holda, miniatyura san'atining mavzulari tizimi, uning o'ziga xos badiiy tili, shartli ramziy timsollarini ishlab chiqishgan. Ko'p hollarda musavvir ramziy belgilar orqali badiiy asarda bayon etilgan murakkab mavhum g'oyalarni ifodalaydi) yuksak ravnaq topgan.

O'rta Sharq va Movarounnahrda uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan kitobat san'atining takomillashishi jarayonida bezakli qo'lyozmalar yaratish uchun eng barkamol badiiy va tarixiy asarlar tanlab olingan bo'lib, ularning orasida Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" va "Guliston" asarlari alohida o'rin tutadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Shayx Sa'diy Sheroziyning tavallud vaqti XII asrning 80-yillari deb taxmin qilinadi. Lekin ba'zi ma'lumotlar va asarlari mazmunidan XIII asrning birinchi o'n yilligida tavallud topganligi belgilanadi[2.B.13]. Ma'lumotlarga qaraganda, 1148-1282 yillarda Saljuqiylar harbiy boshliqlardan tashkil topgan, fors salg'ariylari deb nom olgan sulola 1148 yili Forsning janubi-g'arbiy qismini egallaydi. Ular avvaliga Iroq saljuqiylariga, keyinchalik Xorazm shohlariga itoatda bo'ldilar. Hokimiyat tepasiga elxonlar kelgach, toj-u taxt xazaraspiylar qo'liga o'tdi. Salg'ariylar va ularning vorislari tashqi dunyo bilan munosabatda bo'lmasdan turib, o'zlarining kichik podshohligini obod qilishga urinib ko'rdilar. Shunday hukmdorlardan biri bo'lgan Bakr bin Sa'd bin Zangiy hamda Abu Bakr bin Sa'd (1231 y.da taxtga o'tirgan. 1260 y.da v.e.) podshohlik qilgan davrda Sheroz shahrida buyuk fors shoiri Muslihiddin yashab ijod etdi. O'z homiysi sharafiga Sa'diy taxallusini qabul qilgan.

"Bo'ston" dostonida yozadi:

Xushomad menga yoqmas edi,

Dilim shoh madhiga boqmas edi.

Bag'ishlab sohibdilga, yozdim atay,

Tushungan kishi toki bunday degay:

"Zafar topdi Sa'diy bu maydonaro,

Ki Sa'd o'g'li Bo'bakr edi podshoh.

Biror g'am bilan dard chekib tolmadi,

Biror dard kelib noiloj qolmadi.

Ayo Sa'diy maqtovg'a berma davom,

Sadoqatni xizmatda ko'rsat mudom..."

(she'riy parchalar, Sa'diy "Bo'ston"ining forsiydan Chustiy tarjimai asosida nashr qilingan dostonidan olindi. 2.B.5).

Sa'diyning otasi Mushrif Sheroziy, islomni targ'ib qiluvchi mashhur ulamolar, voizlari va zamonasining piru komillaridan biri bo'lib, o'g'lini ham shu yo'ldan borishi xohlagan va chuqur saboq bergan. Sa'diyning baxtiyor bolaligi uzoqqa cho'zilmaydi, 13 yoshida yetim qolgan, oilani moddiy ta'minlash uning zimmasiga tushadi. U bolalik chog'laridagi g'am-tashvishli, og'ir kunlari haqida "Bo'ston" va "Guliston" dostonlarida yozib qoldiradi.

Shuningdek, islom aqidlarini chuqur o'rgatib, she'riyatga nisbatan mehr uyg'otgan mehribon otasini behad minnatdorlik bilan ko'p bora eslaydi. Sa'diyning yozishicha, bolaligida otasi bilan ko'plab so'fiylar majlisida bo'lgan. Bu esa shoirda tasavvufni o'rganishiga, mehr qo'yishiga katta turtki bo'ladi.

Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish uchun xalifalik poytaxti, o'sha davrning eng yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Mashhur madrasalarda kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarfu nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib hamda boshqa tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. Sa'diy ustozlaridan ikki nafarini mehr bilan tilga oladi. Ular, XIII asrning buyuk olimlari, yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy Abu Faraj ibn Juziy va taniqli tasavvuf olimi va faylasuf adib Shahobiddin Suxraverdiy. Ibn Juziy shogirdiga haqiqiy solih musulmon sifatida tarbiya bergan bo'lsa, mashhur so'fiy, voiz va shoir Suxraverdiy tasavvuf ta'limotiga, so'fiylarga muhabbat bilan tarbiyalab, darveshona hayot kechirishni o'rgatadi.

Madrasani tugatgach, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatga otlanadi. U goh olim va voiz, goh so'fiy va darvesh suratida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi mamlakatlarni ba'zida otu eshak, ba'zan esa poyi piyoda kezib chiqadi. Bu sayohatlar 20 yildan ortiq davom etgan. Sayohat davrida Sa'diyga karvonni qaroqchilardan himoya qilib, muhorabaga kirishiga ham, turli joylardagi madrasa va qozixonalarda va'z o'qishiga ham, shayxu

so'fiylar bilan mubohasa qilishiga ham to'g'ri kelgan. U Hindistonda ham bo'lib, bir muddat butxonada istiqomat qilgan, salibchilarga asir tushib, ularning qal'alarini tuzatish ishlarida qatnashishga majbur bo'lgan. Bu sayohatlar davomida Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishadi.

XIII asrning o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi va 1292 yili vafot etadi. U dafn etilgan bog' va maqbara she'riyat ixlosmandlarining ziyoratgohlaridan biri bo'lib, undan kecha-kunduz shoir muxlislarining qadami arimaydi.

Fors tojik adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajriba asosida yaratgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi. Sa'diy ham kitoblar, ham odamlardan bir umr ta'lim oldi - Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatlari uni dunyoda ko'pni ko'rgan, katta hayotiy tajriba to'plagan, o'z davrining ilmlarini egallagan donishmand kishiga aylantirdi. Bu haqda uning o'zi "Bo'ston"ning muqaddimasida yozadi:

Kezib qancha vaqt yurdim olamaro
Umr o'tdi har turli odamaro
Necha bahra topdim jahonni kezib,
Yurib qancha xirmondan oldim nasib.

"Bo'ston" asari o'zbek tiliga avval Chustiy, keyin Sh.Shomuhamedov tomonidan tarjima qilingan bo'lsa-da, bu tarjimalarning har ikkalasi ham to'liq emas. Asar qisqartirilib, davr siyosatiga moslab, diniy-tasavvufiy ruhdagi qismlardan holi qilingan holda o'zbekchaga o'girilgan. Lekin bir-biridan go'zal va mazmunli hikoyatlar, xalq maqol-matallar darajasidagi teran hikmatlar asar haqida to'liq tasavvur beradi va har qanday o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

"Bo'ston", nafaqat XIII asrdagi Eron, balki Yaqin Sharq mamlakatlari xalqlarining yashash tarzi, an'analari, dunyoqarashlaridagi yorqin jihatlar, muhim axloqiy masalalarga bag'ishlangan o'n qismdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: hamd; na't; kitobning yozilish sababi; Abu Bakr bin Sa'd bin Zangiy madhi; Sa'd bin Abu Bakr bin Sa'd madhi; birinchi bob - Mamlakatni idora qilish tadbiri, odillik hamda to'g'ri fikrlash zikrida; ikkinchi bob - ehson zikrida; uchinchi bob - ishq zikrida; to'rtinchi bob - kamtarlik zikrida;

beshinchii bob - rizolik zikrida; oltinchi bob - qanoat zikrida; yettinchi bob - tarbiyat zikrida; sakkizinchi bob - shukr omonlik zikrida; to'qqizinchi bob - tavba va savob yo'li zikrida; o'ninchi bob - munojot va kitob xotimasi.

"Bo'ston" Sa'diy Sheroziyning mulohazalari, tasavvufiy, didaktik va ijtimoiy-siyosiy qarashlari mevasi, uning fe'l-atvori, xulq-atvori, axloqi va intilishlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Allohga muhabbat, adolat, donolik, ehtiyotkorlik, xayr-ehson, kamtarlik, oz narsadan qoniqish, xotirjamlik, minnatdorchilik, tavba va shukr qilish kabi qadimiy, tarbiyaviy mavzular bugungi kunda ham estetik, jamoaviy va siyosiy ahamiyatga ega.

Uning axloq haqidagi mulohazalari ilmiy asosga ega bo'lish bilan birga, kuzatish va amaliy tamoyillarga asoslanadi. O'zigacha va o'zidan keyingi falsafa, axloq va tasavvuf arboblardan farqli o'laroq, Sa'diy bu o'z zamonasidagi hayotning real haqiqatlariga e'tibor qaratadi, xolisona fikr yuritib yo'l ko'rsatadi, ko'rsatma beradi.

Sa'diyning "Bo'ston" asarining tuzilishi Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinas") asarini eslatadi. Nizomiy bir mavzuni ko'taradi va o'z fikrlarini tasdiqlash uchun biron voqea, hikoyani keltiradi. Sa'diy ham shu yo'ldan boradi. Boshqa tarafdin shuni ta'kidlash kerakki, hikoya keltirish o'rta asrlar adabiyotining aksariyatida uchraydi. Mualliflar rivoyatlarda murojaat qilib, birinchisining hikoyalari, afsonalarini, xalq og'zaki ijodidan olingan namunalarni o'ziga xos tarzda baholab, ularni yangi shakl va usulda qayta ishladilar, o'z zamondoshlariga yangi tushunchada taqdim etadilar.

"Bo'ston"dagi masal va hikoyatlarning ba'zilari undan oldin yashab ijod qilgan ijodkorlar, mutafakkirlar, tasavvuf namoyandalari asarlarida ham uchraydi. Masalan, Sa'diy bir necha bor Ahmad G'azzoliy ijodiga murojaat qiladi. Mansur Xalloy asarlarida uchraydigan "Sham va kuya" haqidagi rivoyatni keltiradi. U masal so'fiylar tomonidan Allohga bo'lgan ishq va birlik haqidagi fikrlarni ifodalash uchun keltiriladi. Sa'diyning ko'plab hikoyalari esa uning xayoloti va ruhiyatining ijodiy mevasidir.

"Bo'ston" asarining 68 baytda "tavhidiya" - "Allohning yagonaligiga iymon keltirish" deb atash mumkin bo'lgan muqaddimada, Alloh, uning mohiyatiga oid savollar va unga izohlar beriladi. So'fiylik va

diniy nuqtayi nazardan muhim nazariy muammolar keltirilgan. Ilohiylik masalasi bilan boshlanib, ishq mavzusi bilan yakunlanadi – soʻfiylarning Allohni tushunishga intilishi, Uning yagonaligi, Allohning qudrati, yoʻqlikdan bor qilinishi, gʻayb ilmini Alloh bergan bilim darajasidagina bilish mumkinligi, Uni toʻliq idrok etishni imkoni yoʻqligi xususida fikr yuritadi.

Tasavvuf ilmida Allohning jamoliga erishishning asosiy vositasi “Ishq”dir. Saʼdiy ishq haqida “Boʻston”ning uchinchi bobida fikr yuritadi, majoziy va ilohiy ishq haqida mulohazalarini bildiradi.

“Boʻston”da Saʼdiy oʻrta asrlar adabiyotining deyarli barcha asarlarida qoʻllanilgan, adabiyotshunoslikda “irsoli masal” deb nomlanadigan badiiy sanʼat turi, yaʼni maqol, hikmatli soʻzlar va qisqa hikoyatlarni muayyan maqsad bilan qoʻllash usulidan keng foydalanadi. Irsoli masal Saʼdiy sheʼrlarining taʼsirini kuchaytirishga xizmat qilgan.


“Boʻston”dagi 162 ta hikoyaning 157 tasi pand-nasihatga oid. 4 hikoyatda jonivorlar harakatlanadi. Aksariyat hikoyalar dialog shaklida. Adabiyotshunoslikda bunday hikoyalar “munozara – bahs” deb nomlanadi.

Saʼdiy hikoyalari orqali oʻzining yuksak tuygʻulari, gʻoyalari, fikrlari va orzu-umidlarini bildiradi. Uning hikoyalari shakl va mazmun jihatidan oddiy odamlarning ruhi va orzu-umidlariga juda yaqin. Aynan shu jihatlari bilan “Guliston” va “Boʻston” asrlar davomida xattotlar va musavvirlarning ham eng sevimli asarlari qatoridan oʻrin olgan. Har bir davrda, har bir hukmdor saroyi va amaldorlar kutubxonalarida Saʼdiy asarlari mashhur xattotlar tomonidan koʻchirilgan, musavvirlar mazmundor va goʻzal miniatyuralar bilan bezaganlar, natijada kitobat sanʼatining noyob namunalari yaratilgan.

Biz fikr yuritmoqchi boʻlgan Shayx Saʼdiyning Sulton Husaynning Hirotdagi mashhur kitobxonasi uchun 1487-88 yillarda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan koʻchirilgan va oʻsha davrning isteʼdodli sanʼatkorlari Ustod Yoriy Muzahhib tomonidan bezaklar bilan ziynatlangan, zamonasining buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tomonidan miniatyuralar ishlanib kitobat qilingan “Boʻston” dostoni noyob qoʻlyozmasi hozirgi kunda Misr Arab Respublikasining Qohira muzeyida saqlanmoqda. Qoʻlyozmada 5 ta miniatyura boʻlib, 4 tasida musavvir Behzod imzosi mavjud.

Miniatyuralar 1488-89-yillarda ishlangan boʻlib, Behzod ijodining eng gullab-yashnagan davriga toʻgʻri keladi.

Qoʻlyozmadagi birinchi miniatyura ikkilik boʻlib, “Sulton Husayn saroyida bazm” deb nomlangan.



Ushbu ikki sahifali miniatyura “Boʻston” asari syujeti asosida qurilmagan, hukmdor va davrga nisbatan rassom oʻz qarashlari, munosabatini ifodalagan. Oʻng sahifadagi miniatyurada saroyning tashqi tarafi tasvirlangan. Bazmga tayyorgarlik koʻrish jarayoni, kimdir ovqatlarni, kimdir sharob keltiryapti, kimdir sharobdan sarxush boʻlgan ayonni yetaklab ketyapti.

Chap tarafdagi miniatyurada saroyning ichki qismi tasvirlangan boʻlib, Sulton Husayn goʻzal bezatilgan chodirda, atrofida shahzodalar bilan martabasiga koʻra joylashgan ayonlari oʻrtasida bazm qilmoqda. Bu miniatyuralarda Behzodning imzosi boʻlmasa-da, mutaxassislarning fikriga koʻra [5.B.107], hayotiy koʻrinishlarning, obrazlarning xatti-harakatlari, dinamikasining aniq aks etganligi, kompozitsiya Behzod uslubida qurilganligi muallif Behzod ekanligini yaqqol koʻrsatadi.

Behzodning zamondoshi, adabiyotshunos Zayniddin Vosifiy Behzod saroyda yuz bergan turli voqealarning qalamtasvirlarini ishlaganligini yozadi [10. B.19]. “Sulton Husayn saroyida bazm” miniatyurasi ham xuddi shunday kuzatuvlarning mahsuli boʻlsa, ajab emas.

“Shoh Doro va choʻpon” “Boʻston” syujeti asosida yaratilgan birinchi miniatyura.



Sa'diyning "Bo'ston" asaridagi mashhur "Doro va cho'pon" hikoyasi asosida mazkur miniatyurani yaratishda Kamoliddin Behzod Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalaridan ilhomlanganligi ko'rinadi. Hikoya Ahmoniylar podshosi Doro haqidagi naql asosida yaratilgan. Bir kuni Doro ov qilib yurib, o'z mulozimlaridan orqada qolib ketadi va notanish, shubhali bo'lib ko'ringan cho'ponlar orasiga tushib qoladi. Ular siymosida o'z dushmanlarini ko'rib, uning yoniga yaqinlashgan cho'ponni o'q-yoy bilan otib o'ldirmoqchi bo'ladi.

Eshittimki Doro chiqib ov uchun,
 Uzoqlashdi o'z lashkarlaridan shu kun.
 Yugurguncha keldi yetib yilqibon,
 Gumon qildi Doro o'zicha shu on:
 Bu dushman urushmoqqa keldi netay?
 Uzoqdan bir o'q ila nobud etay [2.B.21].
 Shoh unga qarab kamon tortishiga bir
 bahya qolganida yilqibon:

U dediki, e shohi olampanoh,
 Zamonangga ko'z tegmasin qil nigoh.
 Men – o'z yilqiching, bunda qancha
 zamon

Ko'p yilqilaringni boqarman hamon.
 Cho'pon podshohni o'z xizmatkorlarini
 tanimaganligidan izza qilib, men o'z uyurimdagi
 har bir otni darhol taniyman, sen hukmdor
 o'zingga sadoqat bilan xizmat qilayotgan
 yilqiboningni tanimading, deb uni uyaltiradi.

Tushib o'rninga shah dili, ushbu dam,
 Kulib dedi e soddadil aqli kam:
 Malaklar ko'mak berdi senga shu on,
 Kamon tortgan erdim, otardim shu on
 Kulib yilqichi dedi: bo'lgay yomon,
 Nasihatini tutsam shahimdan nihon.
 Bu donolik ermas – bilib yetmasa
 Ulug'lar uchun eng muhim shart erur:


Kichik kimligin bilmog'idur zarur.
 Meni doimo bunda ko'rgan eding,
 Qalay deb bu yaylovni so'rgan eding.
 Bukun mehr ilan keldim oldingga men
 Taniy olmading yuz gumon birla sen.
 Kerak bo'lganida menga qaysi ot,
 Taniyman uni mingta ot ichra bot.
 O'z ilqilarimni taniyman shu xil
 O'z ilqingni sen ham, shaho mencha bil!
 Cho'ponning nasihatidan Doro
 minnatdor bo'ladi va hijolat chekib:
 Buni dilda saqlash kerak doimo.
 Qolur taxti xavf ostida damba-dam,
 Agar shoh yilqichidan bilsa kam [2.B.21-
 23].

Behzod Sa'diyning o'z tarafdorlarini dushmanidan ajrata olmaydigan, xalqini yashash tarziyu, ahvolidan bexabar bo'lgan hukmdorning taxti xavf ostida ekanligiga ishora qiluvchi mulohazalarini asarda yorqin ifodalab beradi. Behzod Sa'diy g'oyalarini miniatyurada kompozitsiya va ranglar orqali beradi.

Bu miniatyurada qoyali tog'lar, ba'zi joylari butalar bilan qoplangan yam-yashil o'tloq, cho'ponlar va otlar yorqin bo'yoqlar ostida bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Behzod, baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho'pon bola kabi hayotiy lavhalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, keksa cho'pon qiyofasi juda ta'sirchan chiqqan, u kompozitsiyaning markazida joylashgan bo'lib, holati va ko'p harakatlari o'z mulozimlarini yaxshi tanimaydigan yosh podshoga qaratilgan behad kesatq va kinoyani ifodalaydi.

Cho'ponning yonida turgan oq ot harakatlaridan go'yo yilqibonning gaplarini tasdiqlayapti. Doroning kiyimidagi qizil rang uning qiziqqonligi, cho'pon egnidagi yashil rang orqali esa falsafiy mushohada yuritayotganligini bildiradi.

"Masjid yonidagi miskin" miniatyurasiga rassomning haqiqiy shoh asari, deb baho berishadi. Bu miniatyurani mutaxassislar turlicha talqin qilinadi.



Kamoliddin Behzod haqida yirik tadqiqotlarni amalga oshirishgan olim E.Baxari: “Bu miniatyurada rassom fors miniatyurasi an’analariga to’liq rioya qilgan holda masjidning yorqin namunasini illyustratsiyaning har bir qismini o’zining haqiqiy shaklida, perspektiva va boshqa vizual to’siqlardan holi, mohirona joylashtirilgan chiziqlar, burchaklar va bezakli kamchiliklar yordamida masjidning turli qavatlari va xonalarini mahorat bilan tasvirlagan. Obrazlarning xatti-harakati va kayfiyatini ifodalanishi, binoning kichik bir detallarigacha yoritilishi Behzod uslubining eng go’zal namunasi ekanligini ko’rsatmoqda.

Ammo Behzod uchun har doimgidek asarning g’oyaviy va ma’naviy mazmunini ochib bera olish muhim bo’lgan”(tarjima – G.Q.) [5.B.106], deb fikr bildiradi.

Taniqli san’atshunos L.Dodxudoyeva esa: “Tomoshabinlar ayvonda namoz o’qiyotgan musulmonlarni, katta xonada diniy ta’limot haqida mushohada yuritayotgan toliblarni, boshqa personajlar qiyofasidagi nadomad va ilohiy jazavani ko’rishadi. Bir vaqtning o’zida ham eniga, ham bo’yiga kengayib boruvchi asar izchil ravishda o’qiladi. O’tirganlar, tik turganlar, egilib turganlar, yurayotganlar yoki suhbatlashayotganlar, tahorat olayotganlar va sadaqa so’rayotganlar – bularning barchasi Alloh oldida tengdir” [10.B.16].

Diniy qonunlarning islomiy me’morlikda ham yaqqol ko’zga tashlanishi badiiy asarlarda ham aks etadi. Masalan, yirik masjid-jomening tashqi va ichki ko’rinishiga e’tibor qilaylik; kiraverishdagi peshtoqda Qur’ondan oyatlar, bir yonda mezana-minora, tomda gumbaz, hovlida tahorat uchun maxsus joy, ichkarida diniy va

dunyoviy rahbarlarga maxsus joy, fatvolar o’qiladigan va’z aytiladigan minbar, qibla tomonida mehrob va hokazo. Bularsiz jome-masjidni tasavvur qilish mumkin emas.

Miniatyura kompozitsiyasi chap tarafda tahorat olish jarayonidan boshlanadi. Tahorat – ibodatning dastlabki va muhim qismi hisoblanadi. Ma’lumki, diniy marosimlarda fотиha o’qilganda, ayniqsa, ibodat paytida inson qalbida forig’lanish, tozarish ro’y beradi. Inson kundalik tashvishlar, g’azab, gina singari illatlardan forig’ bo’ladi, ularning o’rnini ilohiy orzular, ezgu a’mollarni bajarish fikri egallaydi. Qalbning ibodatga tayyorlanishi esa, tahoratdan - tashqi poklanishdan boshlanadi.

Obrazlarning har biri harakatda, kimdir iltijo qilyapti, kimdir Qur’on tilovati bilan mashg’ul. Bu miniatyuraga “Bo’ston”dagi qaysi hikoyat asos bo’lganligi haqida tadqiqotlarda uchratmadik. L.Dodxudoyevaning ma’lumot berishicha, taniqli tadqiqotchi I.Shukin bu miniatyurani “Masjidni harom qilish” deb nomlagan, asarda masjidda o’zini nomunosib tutib, keyin chin ko’ngildan tavba-tazarru qilgan va kechirilgan odam haqida hikoya qilingan [10.B.17].

Lekin, “Bo’ston”ning quyida berilgan hikoyatlari mazmunidan kelib chiqadigan bo’lsak, Behzod bir nechta hikoyaning mazmunini umumlashtirganiga guvoh bo’lamiz:

to’qqizinchi bob, 12 –hikoyasida: mazmunini keltiramiz, loyga belangan bir kishi o’zining omadsizligi, badbaxtligidan nolib masjidga yo’l oldi. Uning ahvolidan hayratga tushgan kishi nopok holingda masjidga borma dedi va uni to’xtatdi.

Bihisht (jannat nomi) pok va chiroylidir, uning nomidan ko’ngilda ajib bir tuyg’u paydo bo’ladi, u yerdan faqat poklar (begunohlar) umidvor, loyga belangan gunohkorga yo’l bo’lsin.

Aynan shu hikoyaning mazmunidan kelib chiqib, I.Shukinda bu miniatyurani “Masjidning harom qilinishi” deb nomlash fikri tug’ilgan bo’lishi mumkin.

Yoki, 10-bobdagi 3-hikoyada:


Mazmuni: Eshitdimki, sharobdan mast kimsa masjidning ichiga kirib uyoq-buyoqqa yugurardi. Karam ostonasiga kelib, Yo Rabbim meni Firdavsga olib ket, deb nola qilar edi. ...

Muazzin yoqasidan olib aytdi: Ey aqlu diningni yo’qotgan sen it qayerdayu masjid qayerda, xunuk yuzga noz yarashmas deganidek, nima shoista ish qildingki jannat so’raysan.

Biguft in suxan piru bigristmast,
 Ki mastam, bidor az man, ey xoja, dast.
 Ajabdoriy az lutfi parvardigor,
 Ki boshad gunohkore umedvor?
 Tur omenago'yam, ki uzrampazir,
 Dari tavba bozastu Haq dastgir.
 Hame sharm doram zilutfi Karim,
 Ki xonam gunah peshi afvashazim.

Mazmuni: Muazzindan bu so'zlarni eshitgan mast yig'ladi va: Men mastman mendan qo'lingni tort, Undan har bir gunohkor umidvor bo'ladi, nima Xudoning lutfiga shubhang bormi, dedi.

Senga uzrimni qabul qil deb aytmayapman, Tavba eshigi barcha uchun ochiq va Haq doimo bizni qo'limizdan tutguvchidir. Azim avfi (Allohning buyuk marhamati) oldida gunohlarimni aytishga Allohning lutfidan uyalarmen [3.B.243-244.].



Bizningcha, Behzod yuqoridagi hikoyalarning mazmunini umumlashtirgan holda bu miniaturani yaratgan. Behzod mazkur miniaturada Sa'diy tasvirlab bergan hayot bilan birga, o'zi yashab turgan hayotni ifoda etgan. Sa'diyning so'fiona qarashlari Kamoliddin Behzod mo'yqalami yordamida, obrazlarning xatti-harakatlari orqali ifodalangan.

“Bo'ston” dostonining “Kamtarlik haqida” deb nomlangan to'rtinchi bobida keltirilgan birinchi hikoyatiga ishlangan miniatyura turli manbalarda turlicha nomlanadi. Masalan: taniqli san'atshunos L.Dodxudoyeva “Madrasada suhbatlashayotgan ulamolar”, mashhur olim E.Baxari esa “Qozi huzuridagi bahs”[10.B.16; 5.B.107] deb nomlaydi.

Bizningcha ham, “Qozi huzuridagi bahs” deb nomlanishi maqsadga muvofiq. Bu nom Sa'diy “Bo'ston” dostonining “Kamtarlik haqida” deb nomlangan to'rtinchi bobida keltirilgan birinchi hikoyat [4.B.84-86] mazmun-mohiyati hamda miniatyura syujetiga juda mos keladi.

G'arib, eski to'n mulla bir onida,
 Qatorda edi, qozi ayvonida.
 Unga qozi tez-tez qarardi shu dam,
 Birov “tur bu joydan” deb imlardi ham
 Der erdi bu joy senga loyiq emas
 Tuban tush, ketu, xohi tur, bo'ldi bas!
 Emas har kishi to'rga loyiq, mudom,
 Topar har kishi fazlicha ehtirom.

Eski kiyimlar kiygan mulla bahs-munozarani eshitish maqsadida qozi bilan bir qatorda o'tiradi. Qozi unga “o'z joyingni bil” ma'nosida qarab qo'yar, kimdir faqirga tur bu joydan, bu joyda o'tirish uchun fazlu ehtiromga loyiq inson bo'lishing kerak, pastga tush deb deb imlardi.

Tutun chiqdi o'tdek g'arib boshidan,
 Baland o'rnidan turdi, tushdi tuban.

Faqir o'rnidan turib, pastga tushadi va bahsni tinglaydi:

Shu majlisda boshlandi bahsa jadal,
 Biri – “u” – biri “bu” dedi galma-gal.
 Shu das avj olib fitnau mojaro,
 Biri “to'g'ri” derdi, birisi “xato”.
 Der erding xo'rozlarcha aylab yurush,
 Qilar erdilar qo'lu tumshuq urush.
 Jaholat birin mast aylar edi,
 Biri qahr ilar yerni mushtlar edi.

Kelib qoldilar bir tugun birla duch,
 Yechishga topilmasdi hech kimda kuch.
 Qozi va uning atrofidaqilar qiziqqonlik bilan bahslashar, lekin muammoga yechim topisha olmasdi. Shunda, juldur kiyimli faqir,

Dedi: bilganim men ham aytsam bo'lar
 Dedilar, degil yaxshi bilsang agar.
 U izzat bilan cho'kka tushdi shu hol,
 Til ochgan hamon tillarni etdi lol.
 Tili nay qalamdek yurib, maqsadin,
 Uzuk naqshidek chizdi dillarga chin.
 U baxsh etdi suratga jon, ma'nidan,
 Yo'q etdi u da'volarin shu bilan.

Uning izohi mantiqiy va to'g'riligi bilan barchani hayratga soladi, davradagilar unga ofarin deydi.

Dedilar ular senga ming ofarin,

So'z otini maydonda chopti chunon,
Ki qoldi qozi loyda eshaksimon.

Qozi unga past nazar bilan
qaraganligidan hijolat chekib, salla-to'nini
yechib, faqirga taqdim etmoqchi bo'ladi.

O'rindan turib salla-to'ndan kechib,
Yubordi, unga, hurmat aylab, yechib.
Ming afsuski, qadringni men bilmadim,
Sening kelganing shukrini qilmadim.
Achintirdi bu xilda holing meni,
Tubanda g'ariblarcha ko'rmoq seni.

Faqir esa, sallani mag'rurlik va
beparvolik timsoli sifatida ko'radi, uni rad etadi
va toza suv ichidami yoki loy ichidami oltinning
sifati o'zgarmaydi, deydi.

Meni bandi qilma g'ururga dedi.
Meni ham deganda o'zidan baland,
Ko'zimga ko'ring'usi el nopisand.
Ne farqi bo'lur suvga, bo'lsa zulol,
Agar ko'za oltinmi yoki safol.
Erur bosh uchun aqlu ma'no zarur,
Ne hojat menga salla birla g'urur.
Kishi qiymati katta boshda emas,
Ko'tarmoq uchun oshqovoq arzimaz.
Soqol, salla birlan g'ururlanmagil,
Sovolni ko'kat, sallani paxta bil.

Faqat surati odam ersa agar,

Faqir, insonning qiymati uning tashqi
ko'rinishi va boshidagi sallasida emas, bu bilan
g'ururlangan inson zavol topadi, deydi.

O'rab, chirmab, o'ltirmagil jinniday.
Ko'kat qiymati oshmagay hech dam,
Agar lolalar ichra o'sganda ham.
Kishi pul bilan bo'lmagay muhtaram,
Eshakdir - eshak, gap ipak kiysa ham.
U dono shu xil puxta so'zlar bilan,
G'uborin yuvib tashladi qalbidan.
Dili ranjiganlar dag'al so'zlagay,
Yovi qulga tushganda bo'shashmagay,
Qo'lingdan kelur vaqtda yov boshin ez,
Diling ravshan et, o'tmayin ushbu kez.
Chunon qozining bo'ldi holi xarob,
Qiyomatmi, dedi, bu qanday azob.
Iki barmog'in tishladi shul zamon,
Qarab qoldi ko'zi bo'lib farqadon.

O'shal dam yigit, burdi himmat yuzin,

Chiqib ketdi hech topmadilar izin
[4.B.87].

Chunki bu faqir - ma'rifat ahlidandir.
Dunyoparastlik, bir-biri ustidan hukm yuritishga
intilish, mol-dunyoga ruju qo'yish, tamagir
bo'lish uning uchun begona. Uning maqsadi,
haqni tanish, ma'rifatga intilish hamda
xokisorlik, o'zni faqiru haqir hisoblashdir.

Miniatyurada madrasa ayvonida tepada
o'tirgan qozi, atrofida ulamolar, chapda chuqur
mulohazaga cho'mgan ulamo, pastroqda voqeani
muhokama qilayotganlar, qozining sallasini
faqirga taqdim etayotgan mulozim, hadyani
olishga undayotgan ulamo, sallani rad etib,
martaba va lavozimni bildiruvchi belgilarning
unga keragi yo'qligi xususida o'z mulohazalarini
bildirayotgan faqir tasvirlangan.

Behzod Sa'diy hikoyatlari mazmun-
mohiyatini kompozitsiyada singdirish bilan
birga, zamonasidagi shu kabi voqea-hodisalarga,
shuningdek ma'naviy hayotiga ham ishora
beradi.


Hazrat Shayx Sa'diy inson hayoti haqida
armon bilan mushohada etib, "Qaniydi
odamzodga ikki karra umr berilsa. Birinchi marta
xatoliklardan, adashishlardan xulosa chiqarib,
tajriba o'rganib, ikkinchi marta ko'ngildagiday,
armonsiz yashasa", degan ekan. Munozarada
izza bo'lgan qozining xomush bosh egib turishi,
pastroqda munozaraga guvoh bo'lganlarning
o'zaro hayrat bilan gaplashib turishi, faqirning
qozi sallasini olishni rad etayotganligi Sa'diy
g'oyalarini Behzod mo'yqalamidagi talqinini
anglatadi.

Qo'lyozmadagi oxirgi miniatyura
"Yusufning vasvasaga tushishi" deb nomlanadi.
Miniatyurada Sharq xalqlari orasida mashhur va
keng tarqalgan ishq qissasi tasvirlangan. Sharqda
keng tarqalgan qissa Qur'oni karimning "Yusuf"
(12) surasi asosida shakllangan bo'lib, jamiki
"Yusuf va Zulayho" qissa va dostonlarining
ilhom manbai ushbu suradir. Ushbu qissa
Qur'onda "ahsan ul qisas" ("qissalarning eng
go'zali") [1.B.235] deya ta'riflanadi.

"Bo'ston"da Sa'diy Yusuf va Zulayho
hikoyasiga kam o'rin ajratadi. Bu miniatyurani
tadqiqotchilar Abduraxmon Jomiyning "Yusuf va
Zulayho" dostoni voqealari asosida
yaratilganligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat,
Sa'diy ishq sharobidan mast bo'lgan
Zulayhoning Yusufni yo'ldan urishga intilishi,
mabodo bu ishimni yomon ko'rib jahli chiqmasin
deb ertayu kech ibodat qiladigan marmar butini
ustini yopib qo'yishi, lekin uning barcha
harakatlari zoye ketganligi, Yusuf sen bir tosh
oldida xijolat bo'lyapsan, men ham pok
Xudoyimdan uyalaman, gunohdan keyingi
pushaymonlikdan hech qanday foyda yo'q, deb
Zulayhodan qochganligi hikoya qilinadi. Sa'diy
Yusuf alayhissalom qissasi mo'minlar uchun
go'zal ibratlarga to'la bo'lib, bir holatda Allohga
bo'lgan mustahkam ishonch, tavakkul va sadoqat

bilan chin mo‘minning barcha alomatlarini o‘zida ko‘rsatganligini ifodalaydi.

Behzod, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonidagi chuqur falsafiy va so‘fiyona g‘oyalarini Sa‘diy g‘oyalariga hamohang deb hisoblagan. Sa‘diy g‘oyalarini kengroq so‘fiyona tarzda davom ettiradi, desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki Behzod ham Alisher Navoiy va Jomiy ta‘sirida tasavvufni chuqur bilgan. Jomiy o‘zining piri darajasida ko‘rgan. Bu miniatyuraning kompozitsiyasida va ranglarda aks etadi.



Miniatyurada Behzod Yusufni yashil rangli libosda tasvirlaydi. Tasavvuf ta‘limotida yashil rang Payg‘ambar (s.a.v.)ning sevimli rangi, chinakam rohat-farog‘atga erishiladigan jannatning ramzidir, ya‘ni bu holatda Allohning jamoli oldida borliqdagi barcha narsalar sarobga aylanadi. Yashil rang hayotbaxsh kuch-quvvat, kuchli ehtirosni ifodalaydi. Shuningdek, bu rang abadiy go‘zallikni bildirib, Yusufning jismoniy va ma‘naviy barkamolligiga ishora qiladi[9.B.98-99].

Najmiddin Kubro talqinida yashil rang muridning Xudoga chinakam e‘tiqod bilan

qalbini bag‘ishlagan holatini ifodalaydi [12.B.21].

Demak, Behzod tasvirlagan yettinchi eshik, ya‘ni Yusuf intilayotgan eshik ham yashil rangda ekanligi bejiz emas.

Zulayhoni esa qizil rangli libosda tasvirlaydi. Qizil rang ehtiyotkorlik, hosildorlik, go‘zallik, quvnoqlik, muhabbat ramzini ifodalash bilan birga, o‘ch, dushmanlik, qon to‘kish kabilarni anglatadi. Najmiddin Kubro talqinida qizil rang ruhning tanadan ajrala boshlashi, qalb haqida qayg‘urish, ruhiy dunyoni anglash kabi notinch holatlar ramzi hisoblanadi. Demak, Behzod Zulayxoning fe‘l-atvori va xatti-harakatidan kelib chiqib qizil rangda to‘xtalgan.

Miniatyuradagi yetti xona so‘fiylikdagi maqsadga erishish yo‘lidagi yettita maqomga ishora bo‘lib, ular tavba butun borlig‘i bilan Allohga iltijo qilib, gunohlarini kechirishini so‘rash, var‘a – ehtiyotkor bo‘lish, harom va halolni farqlash, faqr – ixtiyoriy ravishda miskinlikka rozi bo‘lish, sabr – barcha mashaqqatlarga chidash, tavakkul – hukmni Allohning marhamatiga havola etish, rido – taqdirning barcha zarbalarini og‘rinmasdan, itoatkorlik bilan qabul qilishlik, chunki so‘fiylikning asosiy maqsadi Allohning roziligiga erishib, U bilan birlashib ketishdir [11.B.11]. Miniatyuraga ko‘ra, Yusuf rido bosqichidan o‘tib oxirgi eshik orqali Alloh jamoliga musharraf bo‘ladi. Behzod yuqoridagi yetti maqomni yetti eshik orqali ifodalagan.

Ma‘lumki, musulmon Sharqida san‘at, jumladan, adabiyotning din, xususan, tasavvufdan ajralishi jarayoni deyarli yuz bermagan. O‘rta asrlarda adabiyotda va san‘atda diniy syujetlar asosida dunyoviy hayotni aks ettirishga urinish ham ko‘zga tashlanadi. Sa‘diy g‘oyalarining talqinida Behzod ham xuddi shunday yondashuvni ma‘qul ko‘radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети нашриёт–матбаа босмахонаси, 2016.
2. Саъдий. “Бўстон”. Форсчадан Чустий таржимаси. –Т.: 1960 й.
3. Саъдий. “Бўстон”. Эрон. Байҳақ китоб нашриёти. Иккинчи нашр. 1974.
4. Саъдий. Гулистон. Бўстон. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Ҳ.Ҳомидий. “Ғафур Гулом нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2014
5. Bahari E. Bihzad. Master of Persian Painting. I.B.Tauris &Co.Ltd 1996. 107-b.
6. Восифий Зайниддин. Бадойиъ ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). Форсийдан Н.Норқулов таржимаси. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1979.
7. Ашрафи М. От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры XVI - начала XVII века с 2011. С.10.
8. Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.
9. Юсупова М.А., Рахимова З.И., Ибрагимов О.А. “Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV-XVII вв”. (Архитектура, миниатюра, музыка). –Ташкент, 2010.
10. Додхудоева Л. “Камолиддин Бехзод миниатюраларида Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий ғоялари ҳамда эзгу амаллари” // “Санъат” журнали, 2020, 3-сон.
11. Гасанзода Ж. Абдурахмон Жомий ва Камолиддин Бехзод ижодининг XVI аср Табриз миниатюраси шаклланишидаги роли. // “Санъат” журнали, 2020, 3-сон.
12. Қорабов У. “Нажмиддин Кубро мероси ва унинг “Латоиф” назарияси”. “Санъат”. 2001 й. 4-сон

**PORTRET JANRIDA AYOL OBRAZI: "GO'ZALLIK VA SADOQAT
TIMSOLI"**

**«ПОРТРЕТ ЖЕНЩИНЫ: КРАСОТА И «ОБРАЗЕЦ ВЕРНОСТИ»
"THE PORTRAIT OF A WOMAN: AN EXEMPLARY OF BEAUTY AND
FIDELITY"**

Yusupova Sharofat Yunusovna
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy xodimi,
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik dizayn
instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'atning portret janri va unda ijod qilgan rassomlar faoliyati, rassomlar ijodida ayollar obrazining o'ziga xosligi, portret janrida ayol – muqaddas ona, mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, iroda, matonat, sabr-u shijoat timsoli va hayot davomchisi sifatida tasvirlanishi tahlil qilindi.

Аннотация: В данной статье анализируется портретный жанр изобразительного искусства и деятельность художников, создавших в нем, своеобразие женского образа в творчестве художников, женщина в портретном жанре – святая мать, любовь, верность, верность, воля, упорство, терпение-изображается как воплощение мужества и продолжательница жизни.

Annotation: This article analyzed the portrait genre of fine art and the activities of the artists who created it, the originality of the image of women in the work of artists, the depiction of a woman in the portrait genre as a holy mother, a woman – love, fidelity, loyalty, willpower, perseverance, patience-she is a symbol of courage and a continuation of life.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, portret, kompozitsiya, kolorit

Ключевые слова: изобразительное искусство, портрет, композиция, колорит

Key words: fine art, portrait, composition, colorite

Inson obrazini yaratish – tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi. Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa turlaridan bir muncha farq qiladi. Inson qiyofasini obrazli tasvirlash – bu juda qiziqarli san'at bo'lib, u insonlarni yuzi, a'zolari, tuzilishi, rangi, inson tanasini harakat holatlari, kulishi, uxlash holati kabilardan uning psixologik xarakterini kompozitsiyasini topishga o'rgatadi.

Portret rangtasvirida insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham tasvirlanishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruxiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi

samimiylilik yoki soxta jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tasviriy san'atda ayol obrazi, xarakteri har doim rassomlarning alohida e'tiborini tortib kelgan. Qadimdan ayol obrazi Sharq va Yevropa mamlakatlarida ham go'zallik, nafasat, muhabbat timsoli bo'lib e'zozlangan. Portret janrida yaratilgan ayol obrazlarida uning ma'naviy fazilati va tashqi qiyofasini bir uyg'unlikda o'zida mujassam etgan holatda tasvirlangan. Portret janrida ayol – muqaddas ona, mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, iroda, matonat, sabr-u shijoat timsoli va hayot davomchisi sifatida tasvirlanadi. Turli davrlarda yaratilgan ayol obrazi tasvirlangan portretlarda nafaqat ayol kishining tashqi ko'rinishi, balkim uning nigohlari, liboslari va ruhiy holatidan uning jamiyatdagi mavqeyini, xarakterini va ruhiy kechinmalari haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

Deyarli barcha rassomlarning ijodida ayol, ona obrazini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib inson obrazini mohirona ko'rsata olgan o'zbek rassomlar qatoriga Abdulxaq Abdullayev, Rahim Axmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyeu va boshqa bir qator rassomlarni keltirishimiz mumkin.

O'tkir xarakterli psixologik portretlar ustasi Pavel Benkov Xivada yaratgan asarlarida birinchi bor ayol obrazlariga murojaat qiladi. Bu jarayon "Xivalik ayol portreti", "Xivalik to'quvchi" kompozitsiyasi, shuningdek Davlat Tretyakov galereyasining durdonalaridan bo'lmish "Xivalik qiz" asarlarida aks etadi. 1933-yilda Filodelfiyadagi ko'rgazmada namoyish etilgan "Xivalik ayol portreti"da oddiy xivalik ayolni, uning uchun odatiy bo'lgan uy sharoitida kundalik mashg'uloti – ip yigirish ustida tasvirlaydi. "U bir soniyaga o'z ishini to'xtatgan, charchagan, qo'llarini tushirib o'yga cho'mgan holda. Portretda asosiy urg'u uning mehnati va hayotiy sharoitini tavsiflaydigan o'rab turgan narsalarga berilgan. Asarda rassomni maftun etgan xalqdan chiqqan ayolning go'zalligi, uning matonati va mehnatsevarligi, ichki dunyosining boyligi namoyon bo'lgan". [6]

Asosiy hayot yo'li O'zbekiston bilan bog'liq bo'lgan rassomlardan biri Nadejda Kashina, rangtasvirchi-kolorist sifatidagi noyob iqtidorini aynan shu yerda kashf etgan. 1939-yilga mansub "Avtoportret"da Kashina o'zining jiddiy, og'ir, bosiq va murakkab xarakterini ifodalab bergan bo'lsa, 1940-yili ishlangan "Maktub" asari urush yillarida oddiy oilalardagi muhit, sog'inch, qayg'u, umid kabi xislatlarni, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya, obyektlarning yuz ifodasi orqali tasvirlab bera olgan. Bu o'rinda ayol siymosiga e'tibor, ojiza hisoblansada, aslida mard, kuchli, sabrli qilib ishlanishi jihatdan qaratilgan. Endi ayollarning nozik xilqat emas, balki kuchli, mard jasur tasvirlanishiga bir qancha sabablar bor edi.

1940-yillar oxiri, 1950-yillarga oid Kashina polotnolariga nazar solsak, Benkov manerasiga xos yorug'likka to'yingan, yuqori realizm san'at asarlarini ko'ramiz ("Doirachi qiz", "Tushlik vaqti", "Sut sog'uvchi ayol"). Kompozitsiya, kolorit mutanosibligi, yorug'lik, kenglik perspektivasi, obrazlardagi ifodaviylik, xarakter to'liq aks etgan. Shu bilan birga, Benkov polotnolariga xos asarlar qatorida, 50-yillarda sotsialistik realizm uslubida ishlangan asarlarni ham kuzatamiz ("Gazeta o'qiyotgan qiz", "Ishdan so'ng. Kechki maktab", "Hosil").

Barchasida asosiy g'oya, ayol siymosini yuzaga olib chiqish bo'lgan. 1960-yillardan Kashina dekorativ uslubga murojaat etishni boshlagan ("Do'ppi tikuvchi", "Kolxoz yumushlari triptixi", "Kelin").

Plastika jihatdan yaqin, biroq kompozitsion va kolorit jihatdan farq qiluvchi "Samarqand Madonnasi" asari Kashinanig so'ngi asarlaridan biridir. Ranglar gammasi dekorativ san'atga yaqin, biroq bosiq va sokin tonlardan iborat. Oq bliklar orqali figuralarga hajm berishga intilish mavjud. Detallarga urg'u berilmagan, aksincha, umumiy lashtirishga harakat qilingan. Kompozitsion yechim, atributsiyaning mahorat bilan qo'llanilishi obrazga ifodaviylik bag'ishlaydi. Orqa fondagi bino tasviri ayolni aynan Samarqand Madonnasi ekanligidan dalolat beradi, shuningdek, har bir rang o'zida bir ma'no mujassam etib, asar mazmunini to'liq ochishga yordam beradi. Kashina butun ijodiy yo'lida bir joyda qotib qolmagan, doimiy izlanishda bo'lgan, tajribalardan charchamagan. Tasviriy san'atning deyarli barcha turida, texnikasida, uslubida va ko'plab janrlarda o'zini sinab, doimiy ijodini o'zgartirib borgan. Ammo har bir davrida ayol siymosini tasvirlash tendensiyasini saqlab qolgan.

Shunday rassomlardan biri Shamsiro'y Xasanova 1940-yillardan boshlab tarixiy portretga murojaat qila boshladi. Uning Zebinisobegim, shoira Nodirabegim, shoira Uvaysiy, Mutrabo portreti va uning kompozitsion tuzilishi, koloritining go'zalligi va chiziq plastikasining ifodaliligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa qashqarli shoira Mutrabo portreti o'zining shaftoli gulidek nozik, billurdek tiniq rangi, chiziqlarining musiqaviyligi bilan shu davrda ishlangan ishlar orasida o'ziga xosdir. Ushbu asarda Sh.Xasanova sharq miniatyura va mahobatli devoriy rassomlik san'ati an'analari Yevropa realistik san'ati an'alarini uyg'unlashtirishga intilib o'ziga xos yangi plastik yechimga erishgan [4].

O'zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev ijodiga mansub "Qora mag'iz ayol", "Olma bilan qiz" portretlari ham rassomning inson obrazini yaratishda individual qiyofa, takrorlanmas harakterlarning erkin namoyon bo'lish jihatlariga jiddiy ahamiyat qaratganidan darak beradi.

Valentin Fadeyev ijodiy faoliyatning ilk kunlaridan boshlab, u oddiy mehnatkash aholini tasvirlay boshlagan. M.Kurzin rahbarligida

V.Fadeyev, kontrast badiiy tushunchalarni (yorug'lik va qorong'ilik, dinamika va statika) taqqoslab, mukammal kompozitsion yechimni topishga o'rgangan. Urushdan oldingi yillarda rassom "Kresloda o'tirgan qizcha" (1941-yil) nomli birinchi portret asarini yaratdi. U obrazning xarakterini faqatgina xotirjam, yumshoq nigohida ko'rsatmay, balki kresloning massiv statik hajmi yonida qizcha tanasini nozik chiziqlar orqali tasvirlangani, maqsadga muvofiq bo'lgan.

Keyin yaratilgan portretlarda, rassom inson holatini to'g'ri ifodalashga harakat qilgan. Uning bu izlanishlarini "Matluba Nazarova" (1953-yil) va "Konservatoriya pedagogi Aseyeva portreti" (1954-yil) kabi asarlarda ko'rish mumkin. "Matluba Nazarova" portretida, shunchaki radiodan taralayotgan ohangrabo navoni eshitish uchun, qizchaning bir zum o'tirgani tasvirlangan bo'lsa, "Konservatoriya pedagogi Aseyeva portreti" asarida esa Aseyevaning musiqa jozibasidan to'laonli zavqlangan, butkul o'tirgan holati chizilgan. Birinchi portretida musiqa sehriga chuqur sho'g'imagan qizning obrazi berilgan bo'lib, uning xatti-harakatidan, hozir eshitib, turib ketadigandek tuyuladi, ikkinchi kartinada esa mavzuning chuqur ma'nodorligini, ya'ni o'z hayotini musiqa san'atiga bag'ishlagan, uni dilxush taronalariga butunlay berilib ketgan ijodkor ayol shaxsi aks ettirilgan.

V.Fadeyev portretlarida tasvirlanayotgan obrazning individual xususiyatlarini mayda detallar orqali aks ettirishni xush ko'rgan. "Rassom N.Kashina portreti" (1958-yil) o'ta xarakterli portret bo'lib, unda rassom ayolning haqiqiy ruhiy holati aniq va ravshan ifodalangan. U qoramtir ko'ylakda, qo'llarini tizzasiga qo'ygan holatda, go'yo nimanidir rejalashtirayotgandek ko'rinadi. Bu asar rassom ijodida o'ziga xos o'ringa egadir.

Ayniqsa Rahim Ahmedovning ijodida ona obrazi nihoyatda ta'sirli va jonli ifodasini ko'rishimiz mumkin. Ijod namunalari ichida ayniqsa "Tong. Onalik" asari rassomning shox asarlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarda tongning mo'jizakor lahzasida, shirin uyquda bo'lgan bolasini issiq bag'rida emizayotgan o'zbek ayoli aks ettirilgan. Asarda inson va tabiat uyg'unligi zeb-ziynatu bezaklarsiz aks ettirilgan yashil ko'ylak kiygan, ro'moli boshidan sirg'alib tushgan, ikki o'ram sochi yelkasiga tashlangan ayol qiyofasi tomoshabinni o'ziga tortadi. Vatan tinchligi,

ayolning ruhiy holatida namoyon bo'lgan, xotirjam, baxtiyor ona, oila ona tabiat bag'rida ko'rsatilgan. Tasvirdagi asosiy g'oya elementlari tabiat, ona, tong va go'dak bolani tashkil etadi. Ya'ni tabiat, ona bola va tong go'zalligi jami olam go'zalligini anglatadi [3].

Rassomning "Ona o'ylari" asarini tomosha qilganda insonni chuqur o'yga toldiradi. Ona – inson uchun butun yaxshiliklarni, mehnri, tarbiyani va dunyodagi jamiki eng yaxshi xislatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas zot hisoblanadi. Ona uchun ham o'z navbatida farzandidan qadrliroq inson yo'q. Asar markazida tasvirlangan onaning ko'zlaridan farzandining yo'liga ilhaq bo'lib, kun-u tun uni kutayotganligini sezish mumkin. Bundan tashqari, onaning qo'llari qadoq butun umr farzandlari, oilasi uchun yashagan, ular uchun mehnat qilgan. Onaning ortida tasvirlangan o'zbek hovlisi ham san'at shaydolarini o'ziga jalb qiladi, suvoq talab hovlilar, yana bu yerga ko'p vaqtdan buyon erkak kishining qo'li tegmaganini, onaning ko'zlaridagi mungli va dardli hislarini ko'rishimiz mumkin. Gavda, "siluet" aniq, yengil ranglardagi manzara fonida, ko'k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli mahorat bilan tasvirlangan. Dunyoda ona uchun farzandini yo'qotishdan og'irroq bir judolik yo'q va mana shu dardni, mana shu hasratni rassom qoyilmaqom tarzda san'at yo'li bilan gapirtirgani inson hayratini oshiradi. Shu sabablarning barchasi mujassamlashib bu obrazning butun mohiyatini ochib berganini hamda bir yaxlit asarda aks etganini ta'kidlash joiz.

Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloqning mehnatkash kishilari bo'lib, ular orqali rassom sharqona donishmandlikni, ma'naviy poklikni, o'zbekona axloqiy qoidalarni gavdalandiradi. Rassomning bunday asarlari sirasiga 1992-1993 yillarda ishlangan "Jizzaxlik ayol", "Nigina" kabi portretlarini misol qilib keltirish mumkin. Rassom yaratgan portretlar o'zbek tasviriy san'atida portret janrining rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Burmakinning mahobatli, ayniqsa, dastgohli rangtasvir borasidagi izlanishlari, voqeband tasvirlari, serjilo obrazlari diqqatga sazovor. Ayollar ruhiy holati jonli ifodalangan portretlar ("Boysun go'zali" 1968-yil; "Elvira" 1983-yil kabi asarlari), rangdor, bezak mujassamotlar ("Intizor ayollar" 1962-yil; "Ota" 1973-yil; "Daraxt haqida qo'shiq" triptixi 1975-yil; "Kimning oti yaxshiroq?" 1979-yil;

“O‘zbekistonning hozirgi fan arboblari” 1984-yil va boshqalar), “Farhod va Shirin” (hamkorlikda) devoriy rasmlari va boshqalarni yaratdi [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mavzuni chuqurroq o‘rganish maqsadida avvalo, portret janrining tarixiy taraqqiyoti, uning badiiy-estetik xususiyatlari va zamonaviy yo‘nalishlari haqida yozilgan ilmiy va nazariy adabiyotlar tahlil qilindi. Jumladan, o‘zbek tasviriy san‘ati rivojiga oid V.Chepelovning “Искусство Советского Узбекистана”, A.Umarovning “Портретная живопись Узбекистана”, N.A.Abdullayevning “O‘zbekiston milliy portret san‘ati”, D.Alimkulovning “O‘zbekiston san‘ati tarixi (XIX-XX asrlar)” kabi ilmiy ishlari, shuningdek, izlanish jarayonida, har bir rassomning ijodiy uslubini chuqur anglab yetish maqsadida ularning ijodiga bag‘ishlangan alohida katalog va monografiyalari asos sifatida o‘rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

Taqqosloviiy tahlil – rassomlarning portret janridagi ishlari o‘zaro namunalar bilan solishtirildi. Badiiy-ikonografik tahlil – asarlarda tasvirlangan obrazlarning ramziy ma‘nosi, g‘oyaviy yuki va estetik ifoda vositalari o‘rganildi. Tarixiy-kontekstual yondashuv – portretlarning yaratilgan davri, ijtimoiy-madaniy sharoiti hisobga olinib tahlil qilindi. Estetik-psixologik tahlil – rassom ayol obrazi orqali yetkazmoqchi bo‘lgan ruhiy holat, ichki kechinma va shaxsiy individualizm jihatlari tahlil etildi. Bu metodik yondashuvlar orqali portret janrining rassomlar ijodida qanday o‘zgarishga uchrangani, qanday yangi badiiy shakl va mazmun kasb etgani aniqlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqotlar va adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, XX-XXI asrda ijod qilayotgan rassomlar portret janriga nisbatan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqmoqda va uni turli badiiy-estetik izlanishlar orqali boyitmoqda. Ularning ijodida portret janri nafaqat tashqi obraz yaratish vositasi, balki inson ruhiy olamining chuqur psixologik tahlil maydoniga aylangan.

Birinchidan, rassomlar portretda individuallik va psixologik holatni yetakchi o‘ringa qo‘ymoqda. Klassik portretlarda tashqi qiyofa va anatomiya asosiy diqqat markazida

bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy yosh ijodkorlar inson ichki kechinmalari, ijtimoiy bosim, shaxsiy izlanishlar, identitet masalalariga e‘tibor qaratmoqda. Bu holat o‘z navbatida portret janrining ma‘naviy-falsafiy qatlamini kengaytirib, uni ko‘proq konseptual ifoda vositasiga aylantirmoqda.

Ikkinchidan, portret janrida milliylik va zamonaviylikning uyg‘unlashuvi muhim tendensiyalardan biri sifatida ajralib turadi. Rassomlar o‘z asarlarida milliy naqshlar, tarixiy elementlar, o‘zbek xalqiga xos obraz va ramzlarni saqlab qolgan holda, ularni global madaniyat kontekstida talqin etmoqda. Bu esa ularning ijodiga keng auditoriya bilan muloqotda bo‘lish imkonini yaratmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot davomida aniqlanishicha, rassomlar ijodida ijtimoiy mavzular – gender tenglik, yoshlarning shaxsiy erkinlikka bo‘lgan intilishi, zamonaviy jamiyatdagi inson o‘rni kabi masalalar ham portret janri orqali ifoda topmoqda. Shunday qilib, portret nafaqat individual shaxs timsoli, balki jamiyat holatining ramziy aksiga aylangan.

Yakunda, XX asrda ijod qilgan rassomlar tomonidan yaratilgan portret asarlari o‘zbek tasviriy san‘atining rivojida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilgan. Ularning badiiy izlanishlari orqali portret janrining mavzu, texnika, uslub va g‘oyaviy kengayishi o‘rganilgan. Bu esa bugungi kun rassomlarining san‘atda yangilik yaratish, milliy badiiy an‘analarni zamonaviy ifoda bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishini asos bo‘lmoqda.

XULOSA

Millat kelajagi, hayot davomchisi mo‘tabar ayoldir. Har qanday xalqning ma‘naviy yuksakligini millat ayollarining ma‘naviy saviyasi belgilaydi. Shu jihatdan keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Tasviriy san‘atning portret janrida ham o‘zbek ayoli qiyofasini yaratish muhim o‘rin tutadi. Globallashuvning zamonaviy madaniyatdagi o‘zbek ayoli qiyofasiga ta‘sirini inkor etib bo‘lmaydi, biroq zamondoshlarimiz qiyofasida an‘ana va yangilik o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan bo‘lsak, an‘anaviy milliy xarakter hukmron ekanligi ayon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. В.Чепелов. Искусство Советского Узбекистана. Л., 1935.
2. А.Умаров. Портретная живопись Узбекистана. Т: Искусство, Фан., 1968.
3. Н.Абдуллаев. Ўзбекистон миллий портрет санъати. Альбом / кириш мақоласи. Т., 2011.
4. D.Alimkulova. O‘zbekiston san’ati tarixi (XIX-XX asrlar). Т.:2021.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. М.А.Соколова. П.П.Беньков. Воспоминания, переписка. Т.: Фофур Фулом. 1981.

**O'ZBEK HUIJATLI KINO REJISSURASIDA BAHODIR
YO'LDOSHEV IJODI
РАБОТА РЕЖИССЕРА УЗБЕКИСТАНСКОГО ДОКУМЕНТАЛЬНОГО КИНО
БАХОДИРА ЮЛДАШЕВА
UZBEKISTAN DOCUMENTARY FILM DIRECTOR BAHODIR YOLDASHEV'S
WORK**

**Gavhar Nazarova Rinat qizi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“San'atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası (Phd) o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek hujjatli kinosida o'z o'rniga ega bo'lgan rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning “Osmon toqiga qo'yilgan narvon” hujjatli filmi tahlili keltirilgan. Shuningdek, tarixiy hujjatli filmlarning ahamiyati, bu sohaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Аннотация: В этой статье представлена аналитика документального фильма «Лестница, поставленная на небо» режиссера Баходира Ёлдошева, который занимает важное место в современной узбекской документальной киноиндустрии. Также в статье рассматривается значимость исторических документальных фильмов и уникальные особенности развития этой области.

Annotation: This article presents an analysis of the documentary film "A Ladder Placed on the Sky" by director Bahodir Yo'ldoshev, who holds a significant place in modern Uzbek documentary cinema. Additionally, the article discusses the importance of historical documentary films and the unique characteristics in the development of this field.

Kalit so'zlar: tarixiy hujjatli filmalar, xronikal, kategoriya, xususiyat,

Ключевые слова: исторические документальные фильмы, хроники, категория, особенности.

Key words: historical documentaries, chronicles, category, characteristics.

Kino inson dunyoqarashini shakllantiruvchi, yuksak axloq normalari va estetik didni tarbiyalovchi vosita sifatida xalq hayotiga singib ketgan. U odamlarni, xususan yosh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, soflik, oliyjanoblik, vijdoniylik, kattalarga hurmat, mehnatga muhabbat, kelajakda umid va ishonch ruhida tarbiyalashda ulkan rol o'ynamoqda. Bir asrlik taraqqiyot pilla poyasini ortda qoldirgan o'zbek milliy kino san'ati, bugun jahon kino ijodkorlarining e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Badiiy film, ilmiy-ommabop, hujjatli va multiplikatsion kino turlari bo'yicha uzoq o'tmishli mahorat maktabining mavjudligi buning tamaddunidir. O'zbekiston hujjatli kinosida zamonaviy davrdagi umumjahon badiiy va uslubiy tamoyillar turli mavzulardagi

filmlarda o'z aksini topmoqda. Filmlarda milliy qahramonlar, madaniy va ma'naviy meros yangi davr nuqtayi nazaridan talqin va targ'ib qilinishi, shu orqali xalq ma'naviyatining yuksalishi va jamiyat rivojiga xizmat qilishi kuzatilmoqda.

Ko'pgina davralarda kino san'ati xususida gap ketganda tomoshabinlar kino sohasi vakillariga “Nega tarixiy mavzuda filmlar kam ishlanadi?” – degan haqli savol bilan murojaat qilishardi. “O'zbekkino” Milliy agentligi rahbariyati tomoshabinlardagi ana shu ma'naviy ehtiyojni qondirish maqsadida 2018-yil rejasiga tarixiy mavzuda hujjatli filmlar yaratishni ham kiritgandi. Ana shu harakatlarning natijasi sifatida bir necha tarixiy shaxslarning hayoti va ilmiy ijodiy faoliyati, qoldirgan boy madaniy merosiga bag'ishlangan

filmlar ekran yuzini ko'rdi.

Istiqbolda tarixiy mavzuga murojaat qilinganida, materialga bugungi kundagi ijodiy munosabatni saqlab qolgan holda syujet qismida dramatik konfliktlarni kuchaytirish, qahramonning shaxsini yanada hayotiyroq misollar bilan ochib berish talab qilinadi. Chunki har qanday tarixiy shaxs, u xoh davlat arbobi, ijodkor, mutafakkir, olim, xoh sarkarda va davlat rahbari bo'lsin, hayoti davomida mavjud adolatsizliklar, jaholat, razolatga qarshi kurashgani uchun tarixda qolgan. Dunyoga mashhur o'zbek kinoijodkori Bahodir Yo'ldoshev tomonidan asos solingan ana shunday ijod maskanlaridan biri "New Way Family" studiyasi kompaniyasi sanaladi. "Mirzo Ulug'bek. Osmon toqiga qo'yilgan narvon" (2017 yil) deb nomlangan ushbu hujjatli kartina mustaqillik yillarida o'zbek kinohujjatchiligida amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri hisoblanadi. Filmدا sharqning buyuk mutafakkiri va Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bekning hayoti va ilmiy merosi haqida hikoya qilinadi. Film 1975- yilning 15- iyulida fazoga ilk xalqaro parvozni amalga oshirish uchun yerdan koinotga uchirilayotgan Sovet Ittifoqining ikki o'rinli "Союз-19" tajriba fazo kemasining parvozi aks etgan xronikal kadrlar bilan boshlanadi.

So'ng Rossiyalik kosmonavt Aleksey Leonov Союз-Аппалон dasturi bo'yicha 1974-yilda o'tkazilgan so'nggi mashg'ulotlar chog'ida kosmodromdagi kosmonavtlarning O'zbekistonga safar uyushtirish istagi haqidagi suhbatini eslab quyidagilarni so'zlaydi: "Dik Sleyton, Vens Brand, Tom Staford, Yujin Sernan va Mitchel O'zbekistonga safar qilish istagini bildirishdi. Nima qilaszlar u yerda? - deb so'radik biz. - Samarqandga borsak Ulug'bek yashagan manzil makonlarni ko'rsak degandik, - deb javob berdi ular. Men Ulug'bekni insoniyatning favqulodda fenomeni deb bilaman.

Zamonaviy astronomiyada fenomenlar kam. Sialkovskiy, Korolyov fenomeni.. Tavalludidan o'limiga qadar barcha tafsilotlardan boxabar inson sifatida Yuriy Gagarinni ham alohida e'tirof etaman. Ulug'bek esa o'rta asrlar dahosi, Yaratganning nazari tushgan alloma!"

Kosmonavt A.Leonovning ushbu

so'zlaridan so'ng ekranda Mirzo Ulug'bek obrazi gavdalanadi. Filmда tarixiy voqealarni qayta jonlantirish (rekonstruksiya) uslubidan foydalanilgan. Film uchun bastakor V.Afanasyev tomonidan bastalangan maxsus musiqa kartinaning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Shuningdek, filmда kompyuter grafikasidan va yangi texnik imkoniyatlardan ham unumli va o'rinli foydalanilganligini alohida ta'kidlash joiz. Muallifning ham kadr ortidan, ham kadrda turib ko'rsatilayotgan syujetlarga mos kayfiyatda film voqealarini hikoya qilishi kartinaga o'ziga xos muhit bag'ishlagan. Boshlovchi va tarixiy voqealar aks etayotgan sahnalarning biridan ikkinchisiga o'tish jarayonida film uchun tanlangan musiqa va shovqinlar o'zgarib boraveradi. Kadrlar orasiga Sovet Ittifoqi davrida samoga uchirilgan raketalarining parvozi aks etayotgan xronikal lavhalarning joylashtirilishida ham o'ziga xos metafora mujassam. Filmда Ulug'bekning dunyoga kelishidan boshlab umrining yakunigacha bo'lgan davr hikoya qilinadi. Filmда turli yillarda samoga uchirilgan fazo kemalari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Bu bilan rejissyor dunyoga XV asrdayoq koinot sir-asrorlari haqida xabar bergan jahon tarixidagi eng ulug' astronomlardan biri sanalmish Mirzo Ulug'bekning buyuk kashfiyotlariga qaysidir ma'noda urg'u berib o'tadi. Kartinada rejissyor allomaning ona yurti sanalmish Samarqand shahridagi Temuriylar sulolasi va ulardan keyingi davrlarga oid muhtasham obidalarni kompyuter grafikasi hamda zamonaviy uslubdagi montaj ishi bilan boyitilgan betakror lavhalarda tasvirlaydi va shu bilan birga ushbu go'zal lavhalar fonida har bir binoning bunyod etilish tarixi va qurilish uslubiga doir muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Dunyoga mashhur fransiyalik kinoyulduz Vensan Kassel kadrda va kadr ortida film voqealarini shunchaki so'zlab bermaydi. Uning film voqealariga bo'lgan shaxsiy munosabati aktyorning ko'z qarashlari, imo-ishoralari hamda nutq intonatsiyasida shundoq sezilib turadi. Bu jihat tomoshabinni film muhitiga chuqurroq kirib borishiga zamin yaratadi. Amir Temurning nabiralarining to'yini nishonlashi, Ulug'bekning to'ng'ich farzandi Abdulatifning jang maydonida dushman

bilan jang qilayotgani aks etgani kabi sahnalar yuksak did bilan va professional darajada suratga olingani filmning badiiy va estetik qiymatini oshiradi. Sahna Vyatkin va ekspeditsiya a'zolari aks etgan tarixiy fotosurat bilan boshlanadi, ya'ni rejissyor ikonografik uslubdagi go'yoki tarix jonlangandek ekranda suratdagi Vyatkinga nihoyatda o'xshash aktyor tomonidan uning obrazi gavdalanitiriladi. Filmning e'tiborga molik yana bir muhim jihati shuki, unda shaxsan Ulug'bekka tegishli bo'lgan va u yashab o'tgan davrga, makonga oid bo'lgan hamda bizning davrgacha yetib kelgan, dunyoning turli burchaklaridagi muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlar bilan ham tanishtirib boriladi. Shuningdek, dunyoga mashhur nufuzli universitetlarning olimlari hamda astronomlarning Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy merosi haqida xolisona bergan intervyulari kartinaning hujjatlilik va ishonarlilik darajasini yanada oshiradi. Undagi bosh qahramonlar obrazlarini Armand Assante, Fransisko Ovalle singari mashhur aktyorlar, shuningdek, M.Otajonov, J.Zokirov, H.Arslonov, SH.Umarov kabi o'zbek aktyorlari gavdalanitirishgan.

Mavzuga chuqur yondashilganligi, film ustida malakali mutaxassislardan iborat jamoaning ishlaganligi va albatta dunyo hujjatli kino maktabi an'analarini o'rganilganligi va yana boshqa ko'pgina omillar filmning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan. Mazkur kinoasar 2017- yilda o'tkazilgan 74-chi Xalqaro Venetsiya kinofestivalida "Eng yaxshi xorijiy hujjatli film" nominatsiyasida nufuzli "Kineo" mukofotiga sazovor bo'lgan, shuningdek Italiyaning Iskya orolida bo'lib o'tgan Xalqaro kinofestivalda "Eng yaxshi hujjatli film" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Istiqlol yillarida o'zbek hujjatli kinosining ustoz rejissyorlari va sohada ijod qilayotgan yosh ijodkorlar tomonidan suratga olingan tarixiy siymolarimiz xotirasiga, qatag'on qilingan jadid ma'rifatparvarlarimizga

bag'ishlangan turkum filmlar, san'at va madaniyat fidoyilari haqidagi ularning ilmiy-madaniy merosiga bag'ishlangan qator hujjatli kartinalar, iqtisodiy va siyosiy maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan zamondoshlarimiz faoliyatiga oid, ilmiy-ommabop janrdagi hujjatli filmlar ekran yuzini ko'rdi. Ushbu ilmiy ishning mazkur bobida bir nechta keltirilgan hujjatli kartinalar misolida ekranda aks ettirilishi masalasiga qisman bo'lsada to'xtalib o'tildi, yutuq va kamchiliklar tilga olindi, filmlar kinoshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduvohidov, F. New trends in the staging of historical works (On the example of Surkhandarya regional musical drama theater). Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 79-82.
2. Abduvohidov, F. THE ISSUE OF CREATING A REPERTOIRE IN THE THEATERS OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA REGIONAL MUSICAL DRAMA THEATER). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 572-575.
3. Karimov N. Xudoybergan Devonov // Jahon adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. 9-son
4. Haymatova S. Tursunmetova R. “Kinoshunoslik: Kino sanati tahlili va tanqidi” o'quv qo'llanmasi. -T.:2021.14 -b.
5. Hasanov.B. “O'zbek hujjatli kinosi” Tinch hayot jilvalari. G'ofur G'ulom. Toshkent. 62-bet
6. Nazarova G. R. THE SIGNIFICANCE AND VALUE OF PORTRAIT FILMMAKING TODAY // Art and Design: Social Science. – 2023. – T. 3. – №.
7. Mukhtorova M. RESEARCH AND CHARACTER PROBLEMS IN UZBEK FILMS (Using the example of films made in 2024) // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 1337-1340.
8. Muftizade, G. A. Characteristics of Symbols and Artistic Images. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(4), 175-177.
9. Muftizade, G. (2025). NATIONAL SYMBOLS ARE THE MAIN SOURCE OF POWER THAT PRESERVES NATIONAL AND AGE-OLD VALUES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 319-322.
10. RIZAEV, O. (2022). THEATRICAL STUDIES: HISTORY AND TIME. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (3), 645-647.
11. Туляходжаева, М. Т. (1996). Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы).
12. Туляходжаева, М. (2017). К ВОПРОСУ РЕЖИССЕРСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТРАГЕДИЙ ШЕКСПИРА НА СЦЕНЕ ТЕАТРА. Central Asian Journal of Art Studies, 2(1).
13. TULYAKHODJAEVA, M. (2019). DIALOGUE OF THEATER CULTURES. Culture and Arts of Central Asia, 11(1), 12-15.

**“O‘ZBEKISTON DAVLAT DRAMA TEATRI: REJISSYORLIK
IZLANISHLARI VA YECHIMLARI”
«УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДРАМАТИЧЕСКИЙ ТЕАТР:
РЕЖИССЕРСКИЕ ПОИСКИ И РЕШЕНИЯ»
"UZBEKISTAN STATE DRAMA THEATRE: DIRECTORIAL
SEARCHES AND SOLUTIONS"**

Isroilova Mohina Adhamovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
mustaqil tadqiqotchisi,
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqlar ma’naviyatini shakllantirish iloji ekanligini tushungan ma’rifatparvar jadidlarning islom ma’naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e’tiqodi ma’naviyati, dunyoqarashini shakllantirishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganliklari shuningdek, ilmu-ma’rifat, ma’naviyat inson kamoloti uchun nechog‘lik muhim ekanligini yoshlar ongiga singdirishda kerak bo‘lsa o‘z jonlarini fido qilganliklari haqida so‘z boradi.*

Аннотация: *В этой статье просвещенные джадиды, понимая, что без научных знаний невозможно формировать духовность народов, обогатили исламскую духовность новыми знаниями и внесли достойный вклад в формирование духовности и мировоззрения людей в историческом процессе. Тогда они пожертвовали своей жизнью.*

Annotation: *In this article, the enlightened Jadids, realizing that it is impossible to form the spirituality of peoples without scientific knowledge, enriched Islamic spirituality with new knowledge and made a worthy contribution to the formation of spirituality and worldview of people in the historical process. Then they sacrificed their lives.*

Kalit so‘zlar: *ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, adabiyot, dramaturgiya, teatr...*

Ключевые слова: *наука, знания, духовность, культура, просвещение, литература, драматургия, театр...*

Key words: *science, knowledge, spirituality, culture, education, literature, drama, theater.*

“Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi” [1], degan edi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ya’ni ma’naviyatning yetakchi targ‘ibotchilaridan biri bu – teatr san’atidir. Chunki u bevosita tomoshabinlarga ta’sir ko‘rsatadi. Sahnada yuz berayotgan voqealar bilan tomoshabin o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tagan holda, ikki tomonlama ta’sir kuchi bilan sahnada qahramonlar qiyofasini gavdalantirayotgan har bir aktyorga va ularning harakatlarini kuzatib turgan tomoshabiniga ruhiy ozuqa beradi. “Teatr minbar, ibratxona, ma’rifat o‘chog‘i, odobnomadir” [2].

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohalarida jadal sur’atda olib borilayotgan tub islohotlar bugungi kunga kelib o‘zining amaliy natijalarini bermoqda. Albatta, bu islohotlar so‘nggi yillarda boshqa sohalar qatori, mamlakatimiz teatr hayotida ham tobora yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda.

Hukumatimiz tomonidan teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimizdagi ko‘plab teatrlar jahon miqyosida o‘tkazilgan festivallarda qatnashib, faxrlansa arzigulik natijalar bilan qaytishyapti. Yosh aktyorlar, rejissyorlar, rassomlar, dramaturglar teatrlarga shiddat bilan kirib kelmoqdalar. Ular teatrlarga yangicha

nafas, yangicha qiyofa, yangicha shaklni olib kelishmoqda. Bu eng avvalo, respublikamizda mavjud barcha davlat tasarrufidagi teatr jamoalari o'z repertuarlarini shakllantira olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari bilan izohlanadi. Natijada, teatrlarimiz repertuarida paydo bo'layotgan yangi asarlarning mavzusi, mazmun-mohiyati, soni va solmog'i yildan - yilga kengayib bormoqda. Keyingi yillarda teatrlarimiz sahnalarida paydo bo'layotgan asarlarning soni ortgan sari, ularni saralash, bugungi kun tomoshabinining turli qatlamlari talab va ehtiyojlarini qondira oladigan, ayniqsa, yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona hamda mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantira oladigan, unga ma'naviy-ruhiy quvvat bera oladigan zamonaviy mavzulardagi sara asarlarni sarhisob qilib sahnalashtirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Binobarin, teatr tomosha san'ati bo'lganligi uchun ham, har bir teatr jamoasi avvalambor, o'z tomoshabinining talab va ehtiyojini doimiy ravishda o'rganib borish zarur.

Mustaqillik yillarida dramaturglarimiz misli ko'rilmagan ijodiy erkinlikka erishdilar. Turli mavzuda, turli janrda xalqimiz hayotining turli tarixiy davrlari haqida asarlar yaratish imkoniga ega bo'ldilar. Bu davr qadimiy an'ana va urf-odatlar hamda qadriyatlarimiz xalqimizga qaytarilganligini inobatga olsak, mustaqillikning dastlabki kunlarida dramaturglarimiz yoppasiga tarixiy mavzuga murojaat etganliklari bejiz emasdek ko'rinadi. Zero, aynan ushbu mavzu sho'ra davrida mafkura ta'qibi ostida qolib keldi. Albatta tarixiy dramaturgiyada ham voqealar uzoq yoki yaqin o'tmishda kechsa-da, o'z mohiyatiga ko'ra, ayniqsa, qahramonlarning kurashi, muammolari bilan zamonga hamohang bo'lishi kerak. Yosh avlodni milliy g'urur, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash ruhida tarbiyalashda ularning o'zni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida tarixiy asarlarning bu qadar ko'p yozilishi va sahnalashtirilishiga yana bir sabab – ularning davlat buyurtmasi sifatida ma'lum sanalarga mo'ljallab yozilganligidir.

“Yoshlarimiz millatimiz sha'nini ulug'lagan, uni dunyoga tanitgan olimu fuzalolar, davlat arboblari, shoirlar taqdiri, hayoti aks ettirilgan sahna asarlari asosida qo'yilgan spektakllarni ko'rib qanchalik to'lqinlansa, jamiyatimizda shu kunlarda kechayotgan jarayonlarni, voqealarni aks ettiruvchi, istiqlolni mustahkamlash uchun

kurashayotgan qahramonlarni gavdalantiruvchi zamonaviy mavzudagi asarlar ham ularni shunchalik hayajonga soladi”. Faqat dramaturgiya va sahna ijodkorlari dolzarb va hayotiy mavzularni topa bilishi, ularni ta'sirchan ifoda vositalari yordamida talqin eta olishi kerak.

Dramaturg bir pyesani yozib sahnaga chiqargunga qadar mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi. Chunki asar teatr jamoasida o'qilganda ham turlicha fikrlar bildiriladi. Dramaturg sabr - toqat bilan fikr-mulohazalarning eng muhimlariga e'tibor berib, asarni yaxshilab boradi. Bu jarayonda rejissyor, rassom, kompozitor, aktyor, xullas, barcha ijod ahli bilan hamkorlik qiladi. Asar sahna yuzini ko'rib, tomoshalinga havola qilingandagina, dramaturg o'z vazifasini bajargan bo'ladi. Zamonaviy mavzularni yoritishda, afsuski, hayotda ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur idrok etmaslik, sahna qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik, konfliktning kuchli xarakterlar to'qnashuvida emas, balki mayda maishiy mashmashalardan kelib chiqayotganligi, personajlarning quruq so'zamolligi kabi nuqsonlar kuzatilmoqda.

Bunday nuqsonlarni bartaraf qilish uchun esa dramaturglarimiz hayotni uzluksiz o'rganishi, insonlar, ularning xatti-harakatlari, turmush tarzini kuzatishi lozim bo'ladi. Dramaturg xalq dardi, uning shu kundagi orzu-istaklari, muammolari, kechinmalarini his etsagina haqiqiy zamonaviy asar yaratishi mumkin.

Ma'rifatparvarlarning yetakchi namoyandasi M. Behbudiy o'zining “Teatr nadur?” maqolasida “Teatr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonai ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir” [3], deb aytganda teatrning qalblarni poklovchi bir maskan ekanligini va jamiyatda har bir inson teatr bilan oshno bo'lsa mudrab borayotgan ko'zlari ochilib, bema'ni o'ylar bilan zang bosib borayotgan ongini yuvib, turli xil yo'llarga beixtiyoriy yurib borayotgan oyoqlarini to'g'ri yo'lga solishini nazarda tutgandir.

Xalqimiz Rixsivoy Muhammadjonovni kinodramaturg sifatida yaxshi taniydi. Uning qalamiga mansub kino kartinalar o'zbek kinosi taraqqiyotining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Oxirgi paytda R. Muhammadjonov teatr dramaturgiyasida samarali ijod qilishni boshladi. Dramaturg tomonidan yozilgan sahna asarlari O'zbek davlat drama teatrida birin-ketin

sahnalashtirildi. Ikki pardali, to'rt ko'rinishdan iborat bo'lgan "Tirik yetimlar" dramasi teatrning yosh aktyorlaridan biri Bahodir Mirsodiqov tomonidan sahnalashtirildi. B. Mirsodiqov o'z muxlislariga ega bo'lgan talantli yosh aktyorlardan biri, uning rejissurada o'zini sinab ko'rishi va muvaffaqiyatga erishishi bevosita dramaturgiya bilan bog'liqdir.

Dramaturgiya – adabiyot janri. Lekin u teatr vujudga kelishi evaziga dunyoga kelgan. Shunday ekan dramaturgiya teatsiz yashay olmaydi. Yaxshi sahna asari uzoq vaqtgacha kimlarningdir stolida teatrni mahtal bo'lib kutib turmaydi. Yaxshi asar yoniga teatrning o'zi keladi. "Tirik yetimlar" dramasi ana shundan ta'rifga loyiq pyesadir.

Pyesasi aynan bolalar uyidagi yetimlarning hayotidan hikoya qiladi. Asarning bosh qahramonlari Butir, Bahtiyor, Bahor va Nazira ismli yigit-qizlar bo'lib, voqealar asosan ular o'rtasidagi bahs-munozaraga qurilgan.

...bolalarimiz – kelajagimiz deb ko'kragimizga mushtlaymiz-u, lekin minglab bolalar o'z ota-onalarini kimligini bilmay bolalar uyida yashayotganidan xabarimiz yo'q. Yaxshiyam bag'ri keng davlatimiz bor. Tug'sang, tug'dirsang bo'ldi., yallo qilib yuraverishing mumkin. Davlatni o'zi boqib olaveradi. Bizlarga nima bo'layapti-yu, yana qaysi tubanlikka tomon yo'l olyapmiz? Uzr, ko'p gapirib va'zxonlik qilib yubordim. Sizlardan faqat bitta iltimos, uyga borganlaringda sekin oynaga qarab quloqlaringizga razm solib ko'ring. Yo'q, yo'q, bu yerda emas, uyda, uyda qaraysizlar. Bu yerda birov ko'rib qolishi mumkin".

Pyesaning bosh qahramoni Butir tilidan aytilgan mazkur monologni o'qir ekansiz pyesa voqealaridan tortib, so'zlariga mazkur monologni yozish uchun qo'llanganiga imonimiz komil bo'ladi. Bu bilan haqli ravishda aytishimiz mumkin-ki, dramaturg ko'zlagan maqsadiga yeta oldi.

Pyesani o'qiganingizdan so'ng unda ko'tarilgan mavzu, intriganing kuchayib borishi, dialoglarning lo'ndaligi, yechimning kutilmagan holatda yuzaga kelishidan kino dramaturgiya elementlarini uchratasiz. Biroq, sahna san'ati qonuniyatlari chetlab o'tilmay, unga to'laligicha bo'ysudirilgan. Bu esa pyesaning sahnada jonlanishida aniq isbotini topdi.

Asar 2009-yili teatrning yosh, iqtidorli aktyori Bahodir Mirmaqsudov rejissyorlik faoliyatining debyuti sifatida yuzaga keldi. Spektakl nomiga kelganda rejissyor asar nomini

saqlab qolmadi, uning badiiy quvvatini yanada oshirish maqsadida unga "Davlat bolalari" deya nom berdi. Mazkur nom qaysidir ma'noda dramaturg ko'zlagan maqsadning to'laligicha ochilishiga sabab bo'ldi.

Sir emaski, spektakl sahnalashtirmasdan avval yoki sahnalashtirilgan taqdirda ham uni ko'rmasdan avval pyesani o'qigan o'quvchi undagi qahramonlar ko'rinishini, egnidagi kiyimini, xarakterini o'z xayoli bilan gavdalantirib oladi. Spektakl janri, unda ko'tarilgan mavzu jihatdan jiddiyroq o'ylab qaralganda bunday tomoshaning yuzaga kelishi bir-biriga zid bo'lgan holatni vujudga keltirgan. Aktyorning sahnada tinimsiz harakat qilishi bu yaxshi narsa, lekin ko'pgina harakatlar oqlanmay ketgani, aktyor tomonidan topilgan improvizatsiya, bo'rtirilgan qiliqlarning ko'payishi evaziga ijroda bachkanalik seziladi.

Har kim qilgan ishiga qarab ajrim topadi deyishadi. Biroq, mazkur sahnani kuzatib turgan tomoshabin aynan shunday natija kutayotganligini ularning olqishlashlaridan ko'rishimiz mumkin. Baxtiyor va Bahor Butirning aytgan gaplari haqiqatga nechog'lik yaqin ekanligini bilish uchun sevishtganlar rolini o'ynashga rozi. Lekin sir emaski, ko'ngillarining bir chetida Butirning hazil bilan aytgan so'zlari chin bo'lishiga orzumanda ekanliklari ularning holatlaridan ayon bo'lib turibdi. Butir ularni ota-onalari kelganlarida o'zlarini qanday tutishlarini Baxtiyor va Bahorga o'rgatadi. Agar ular qarshi bo'lsa ham, o'z ahdlaridan qaytmasliklarini uqtiradi. Spektakl ichidagi spektakl boshlanadi. Avvaliga Baxtiyorning dadasi Nasliddinov (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist H. Arslonov) diplomat ko'targancha kirib keladi. Nasliddinov o'g'lini so'roqqa tutadi. Baxtiyor dadasi berayotgan savollariga javob berarkan, aslida mazkur ishlar ushyutirilayotganini sezdirib qo'ygandek tutilib-tutilib javob bera boshlaydi. Butir buni payqaydi va boshlagan tomoshasi oxiriga yetmasdan avval "proval" bo'lmasligi uchun Baxtiyorga yordamga keladi va Nasliddinov savollariga hech ikkilanmasdan tezkorlik bilan javob beradi. Nasliddinov Butirni kimligini so'raganida o'zini Butir Davlatovich deb tanishtiradi. Bu notanish yigitning javobi otani sergaklantiradi. Hatto soxtalik bilan Butirga dadasini tanishini aytadi. Butirni javobi esa doim naqd, u "dadamni hamma taniydi", deya javob qilgandan so'ng Nasliddinov ichkari honaga kirib ketadi. Oradan biroz vaqt o'tgach Bahorning onasi Xumora (O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan artist T. Mirmaqsudova) kirib kirib keladi, u ham qizini savolga tutadi. Bahorning o'rniga Butir javob beradi. Butir bilan tanishgan Xumora ichkariga kirib ketadi. Sahnada esa natijani kutib turgan yoshlar qoladi.

Botirning Baxtiyor va Bahor haqidagi hazil bilan aytgan gaplari haqiqat edi. Haqiqatning achchiq bo'lishini ichkarida Nasliddinov va Xumoraning ko'rishib, sahnaga umuman o'zga qiyofada kirib kelishidan anglashimiz mumkin. Farzandlari o'z baxtini topayotganidan mamnun ko'ringan ota-onalar endi ularni turmush qurishiga qat'iyan qarshi. Izohsiz sabab evaziga bunday qarshilikning vujudga kelishi Bahtiyorni shoshirib qo'yadi. Shuning uchun u otasini nima uchun qarshiligi sababini bilishga oshiqadi. Ota esa buning sababini izohlashga ojiz, chunki qarshisida turmush qurish arafasi turgan ikki yosh uning farzandlari. Bu haqiqatni anglagan Xumora ham to'yga qarshi, u ham qizi Bahorning savollariga javob bera olmaydi. Vaziyat taranglashadi, tabiiyki bunday damlarda tomoshani boshlagan Butirning o'zi tomoshaga yakun yasash uchun tilga kiradi. Butirning aytgan gaplaridan Nasliddinov ham, Xumora ham bo'yin tovlay olmasdi, chunki u ayni haqiqat so'zlarni aytayotgandi. Baxtiyor va Bahor ota-onalarining holatlarini ko'rib ular o'rtasida qondoshlik rishtasi rost ekanligiga endi tamomila ishonishadi. Ularning haqiqati ochiladi, endi navbat esa spektaklning bosh qahramoni Butirning haqiqati edi. Tomoshabin spektakl boshidan to shu choqqacha Butirni akademikning o'g'li ekanligiga ishongandi. To'g'ri, o'zini tanishtirib Davlatovich deganida tomoshabin nimanidir sezgandek bo'lar, lekin Butirning o'zini tutishida, yetimlik to'g'risi umuman gap ochmaganligidan bu sezgi o'z kuchini yo'qotadi. Baxtiyor ota-onasini haqoratlagani uchun Butirga musht tushirganida uning haqiqat bulog'i o'z-o'zidan ochila boshlaydi. Butir ham ular kabi yetim o'sgan, lekin ular kabi otasi yoki onasi tirik bo'la turib yetim qolmagan, aksincha u chin yetim, na otasini na onasi biladi. Spektakl oxirida Butir shu choqqacha yashirib yurgan haqiqati haqida monolog o'qiydi. U monolog o'qirkan avvalgi sahnalardagi uning xushchaqchaq kayfiyatini ko'rmaysiz, u nima uchun kundan kunga sevgi atalmish muqaddas tuyg'u o'z kuchini yo'qotib borayotganidan, buning natijasida esa bolalar uyi u kabi bolalar bilan to'lib borayotganidan, aslida dahshatli o'tmishini kulgisi ortiga yashirishini, bu uyalganlikdan

emas, balki o'z-o'zini yolg'on bo'lsa ham ovutish ekanligini, yuragining tub-tubida yashirib yurgan alamlarini to'kib soladi.

Spektakldagi aktyorlar ijrosiga e'tibor beradigan bo'lsak eng avvalo Butir qiyofasiga to'xtalish kerak. Agar biz spektakl voqealari boshidagi Butir bilan spektakl oxiridagi Butir qiyofasini solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida juda katta farqni kuzatamiz. Aktyor A. Ahmedov ijrosidagi sahnadan sahnaga o'tishda aktyorlik ijrosining o'sib borishi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, holatning o'zgarib borishi, ya'ni obraz dialektikasi ijrodagi eng katta yutuqlardan biri sifatida ko'rinadi. To'g'ri biz yuqoridagi pyesani o'qigan o'quvchi spektaklni ko'radigan bo'lsa aktyorning tashqi ko'rinishidan Butir sifatida hazm qila olmasligini ta'kidladik. Lekin, natijaga kelganda muhimi ijro ekanligi, aktyorning ijrosi qad-qomatdagi tomoshabin hazm qila olmaydigan jihatlarni yengib o'tib, tomoshabin ko'ngliga yo'l topa olishi, bu aktyorlik maktabidagi ulug' haqiqat ekanligining yana bir bor guvohi bo'lamiz. Qolgan aktyorlarga to'xtaladigan bo'lsak, Baxtiyor qiyofasida gavdalangan S. Mansurov ijrosidagi sun'iylik, bu sun'iylik deklamatsiyaga aylanib qolganligini spektakl oxirigacha ko'rishimiz mumkin. Bahor rolini o'ynagan Yo. Yuldosheva ijrosiga keladigan bo'lsak, u Nazira qiyofasida gavdalangan N. Toshmatovaga nisbatan kuchli emotsiyaga ega aktrisa sifatida o'zini ko'rsata oldi. Baxtiyor va Bahorning ota-onasi qiyofasida sahnada jonlangan H. Arslonov va T. Mirmaqsudovalarning ijrosi yosh aktyorlarga nisbatan orttirilgan tajriba evaziga o'zining tabiiyligini ta'minladi.

Rassom ishiga keladigan bo'lsak, biz spektaklda hayratomuz sahna jihozini ko'rmadik. Balki bunga sabab bu ishni ham o'z zimmasiga olgan rejissyorning ko'proq voqealarni shartli ravishda to'laqonli ochilishiga bergan urg'usidir. Agar spektakl g'oyasidan kelib chiqqan holda rassom ishida ramziy detallar topilganda aktyorlarga yanada erkinlik tug'ilardi va spektaklning ta'sirchanligini oshirishda o'z kuchini ko'rsatardi.

Debyutant rejissyor ilk sahnaviy ishi bilan o'zida rejissyorlik qobiliyati shakllanganligini ko'rsata oldi. Mazkur spektakl 2010-yili "Barkamol avlod yili"ga bag'ishlangan "Yosh rejissyorlarning "Debyut – 2010" III – respublika ko'rik festivali"da qatnashdi. Festivalda spektakl taniqli teatr mutaxassislaridan iborat hakamlar hay'ati

tomonidan munosib baholandi. Rejissyor mazkur spektakli uchun “O‘zbekteatr” ICHB diplomi va Respublika kasaba uyushmasi “Faxriy yorlig‘i” bilan taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ш.Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. 2017.
2. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. –Т.: Ўзбекистон. 2006. 9-10 б.
3. Abduvohidov, F. New trends in the staging of historical works (On the example of Surkhandarya regional musical drama theater). Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 79-82.
4. Abduvohidov, F. THE ISSUE OF CREATING A REPERTOIRE IN THE THEATERS OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA REGIONAL MUSICAL DRAMA THEATER). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 572-575.
5. Khamidova, S. S. (2021). IN WESTERN CLASSICAL WORKS ACTIONAL INTERPRETATIONS (ON THE EXAMPLE OF THE ROLE OF HAMLET IN THE PLAY «HAMLET» BY HONORED ARTIST OF UZBEKISTAN TOKHIR SAIDOV). Theoretical & Applied Science, (5), 190-192.
6. Mukhtorova, M. (2025). RESEARCH AND CHARACTER PROBLEMS IN UZBEK FILMS (Using the example of films made in 2024). International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 1337-1340.
7. Muftizade, G. A. (2020). INTERPRETATION OF WORLD DRAMATIC ART IN UZBEK THEATRE. Theoretical & Applied Science, (11), 555-559.
8. Mufti-zade, G. A. (2024). The Peculiarities of Symbols and Symbolism in Theatrical Art. JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS, 3(11), 202-205.
9. Muftizade, G. A. Characteristics of Symbols and Artistic Images. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(4), 175-177.
10. Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи //Тошкент.“Янги аср авлоди. – 2009.
11. Umarov M. Mannon Uyg ‘ur estetikasi–T //Toshkent: Musiqa. – 2007.
12. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari //T.: Konsalt. – 2016.
13. Umarov M. B. et al. Topical Issues of Pedagogy of Theatrical Art //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2021. – Т. 3. – №. 3. – С. 113-120.
14. Ризаев, А. З. (2017). КЛАССИЧЕСКАЯ ЛИТЕРАТУРА ВОСТОКА НА СЦЕНЕ ТЕАТРОВ УЗБЕКИСТАНА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (1), 31-33.

“GULOYIM” OPERASI SAHNA LIBOSLARI BADIY YECHIMI
ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОФОРМЛЕНИЕ СЦЕНИЧЕСКИХ
КОСТЮМОВ В ОПЕРЕ «ГУЛОЙИМ»
ARTISTIC INTERPRETATION OF STAGE COSTUMES IN THE OPERA
“GULOYIM”

Aziza Tleumuratova, Ayjamal Ismailova

Qoraqalpoq davlat universiteti

“San’atshunoslik” kafedrası o’qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qoraqalpoq xalq dostoni asosida sahnalashtirilgan “Guloyim” operasidagi sahna liboslarining badiiy yechimi, ularning silueti, tashqi ko‘rinishi va ranglarining o‘z aro uyg‘unligi masalalari yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается художественное решение сценических костюмов в опере «Гулойим», поставленной на основе каракалпакского народного дастана. Освещаются вопросы силуэта, внешнего вида костюмов и гармонии цветовой палитры.*

Annotation: *This article explores the artistic design of stage costumes in the opera “Guloyim”, which is based on a Karakalpak folk epic. It examines the silhouettes, visual appearance, and the harmony of colors in the costumes, highlighting how these elements contribute to the overall aesthetic of the performance.*

Kalit so‘zlar: *Dramaturgiya, opera, libretto, siluet, kostyum, personaj, kompozitsiya, obraz, eskiz.*

Ключевые слова: *Драматургия, опера, либретто, силуэт, костюм, персонаж, композиция, образ, эскиз.*

Key words: *Dramaturgy, opera, libretto, silhouette, costume, character, composition, image, sketch.*

Opera janri mavzusini yoritishda asarning dramaturgiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Opera dramaturgiyasi – musiqiy teatr doirasida syujet, voqeiyilgini aks ettirish va qahramonlarni rivojlantirish san’atidir. U adabiyot, musiqa va teatr unsurlarini uyg’unlashtirib, yaxlit badiiy asarni vujudga keltiradi. Opera dramaturgiyasining asosiy jihatlari quyidagilar: Syujet va tuzilishi, libretto, qahramonlar, musiqa va dramaturgiya (musiqiy shakllar: ariya, duet, ansambl va xor kabi turli xil musiqiy shakllar turli dramatik funksiyalarni bajaradi), sahnaviy talqin, dramaturgik dinamika. Operada ushbu tamoyillarning barchasi birlashib, janr sifatida boy va serqirra badiiy asar yuzaga keladiki, unda musiqa hamda drama birgalikda hissiy-estetik ta’sir uchun xizmat qiladi.

“Guloyim” operasining muallifi ajoyib publitsist va iste’dodli shoir bo’lib, Qurbonbay

“jirau” Tazibay o’g’li tomonidan ijro etilgan “Qirq qiz” dostonining ushbu qahramonlik operasining librettosini yozgan. “Qirq qiz” dostonining sahna versiyasi ilk bor mashhur shoir Amet Shamuratov tomonidan yaratilgan. 1950 yilda u “Qirq qiz” ko’p aktli musiqali dramasini yozdi. “Guloyim” qahramonlik eposi Sharq xalqlariga juda yaxshi ma’lum. Bastakor Nazhaddinmuxammeddinov ushbu asarni opera janrida yaratdi va shu bilan nafaqat qoraqalpoqlar va Xorazm obrazini, balki Sharq xalqlari ayollari obrazini ham qahramonliklari uchun yangi uslubda namoyish etdi.

Bastakor Najimmaddin Muxammeddinov Gulistan Matyakubovanning “Guloyim” operasi uchun librettosini o’qib chiqib, “qirq qiz” obrazlaridan ilhomlanib, uni yozishga qaror qildi. – “Libretto muallif tomonidan to’liq va yorqin tasvirda yoritilgan. Qoraqalpoq

adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan “Qirq qiz” dostoni alohida o‘rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o‘zining qirq nafar dugonasi va o‘z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda jung‘or xoni Surtoysbi hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o‘zbek va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan Oltinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda dushmanga nisbatan shafqatsizlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. “Qirq qiz” dostoni syujeti hozirgi Beruniy tumanining Sarko‘p qal‘asi bilan bog‘liq. Yovlar qal‘ani egallab, uning hokimi Olloyorni asir oladi. Olloyorning mardlikda yagona qizi Guloyim o‘z atrofiga sarko‘plik qirq suvoriy qizni to‘plab, dushmanga qaqshatqich zarba beradi. Bunda unga xorazmlik botir Arslon yaqindan yordam ko‘rsatadi. Doston jahon adabiyotida kamdan-kam uchraydigan jasur Amazonkalar haqidagi asardir [1].

Doston boshqa qoraqalpoq xalq dostonlari singari tarixiy voqealari singari tarixiy voqealar asosida vujudga kelgan bo‘lib, u bir qancha davrlarni o‘z ichiga oladi. Dostonning bosh g‘oyasi va maqsadi - uning vatanparvarlik ruhi va xalqchilligi hisoblanadi. Har qanday asarning bosh g‘oyasi undagi mehnatkash xalq va uning taqdiriga befarq bo‘lmagan bosh qahramonlar obrazlarini tasvirlash bo‘lib hisoblanadi. “Qirq qiz” dostonining bosh g‘oyasi bu- vatanparvarlik ideyasi. Dostonda qoraqalpoq xalqining turmush tarzidagi muammolar haqida so‘ylanadi. Dushmanlarga qarshi kurash, xalqning tinchlik farovonlikda yashashi, uni yot dushmanlardan himoya qilish dostonning bosh g‘oyasi va mazmuni tashkil qiladi. Dostondagi tasvirlangan Surtaysha va Nadirshohlar xalq tinchligini buzib, Xorazm xalqiga bosqinchilik qiladi, Surtaysha esa Sarkop yurtini vayron qilib, boylik to‘playdi va xalqini qul qiladi. Xalq bunday bosqinchiliklar va nohaqliklarga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashadi.

“Guloyim” operasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida 2019-yilda rejissyorlar B.Baymurzayev va M.Usenov, kompozitor N.Muhammeddinov, sahnalashtiruvchi va liboslar bo‘yicha rassom

T.Shardemetovlar tomonidan sahnalashtirilgan. Ushbu opera 3 aktli, 11 kartinali epik opera bo‘lib, o‘sha davrning ko‘rinishi, jirovning “Qirq qiz” dostonini kuylash bilan boshlanadi.

Rassom asar qahramonlari obrazlarini yaratishda Qoraqalpoq milliy kiyimlari va naqshlaridan samarali foydalanadi. Tarixiy asarlarni sahnalashtiruvchi rassomdan tarixni bilish, qahramonlar obrazlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Asar qahramonlari liboslari rassom tomonidan mayda detallarigacha e‘tibor berib yaratilgan bo‘lib, kostyumlarda qoraqalpoq milliy naqshlaridan mohirona foydalangan. Liboslardagi ranglar o‘sha davr koloriti va qahramonlar xarakteridan kelib chiqib tanlangan.

Ключевые слова: *театр, кино, актёр, переживание, сцена, образы, речь, камера, режиссёр, персонаж.*

Key words: *theater, cinema, actor, experience, stage, images, speech, camera, director, character.*

Kino va teatr san'ati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki san'at turi bo'lib, ularning o'zaro ta'siri, ayniqsa aktyorlik mahoratini shakllantirishda, yaqqol namoyon bo'ladi. Kino san'ati nisbatan yosh san'at turi bo'lib, bu san'at sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'lib, ilk film suratga olingan. Teatr san'ati esa ming yillik tarixga ega va kino san'ati undan ko'p jihatlarni o'zlashtirgan. Aktyorlik mahorati ham aynan teatr san'atida shakllanib, kino san'atida o'zini namoyon qilib, bu san'at turining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan.

So'nggi yillarda respublikamizda kino san'ati, milliy seriallarni tasvirga olish, ularni professional darajada ishlashga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"

gi [1.] Qarori yaqqol misol bo'la oladi. Zamonaviy kino san'atida, texnologiyalar va maxsus effektlar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bunga qaramasdan, kinoda aktyor – asosiy namoyish etuvchi muhim obyekt bo'lib qolmoqda. Tomoshabinlar filmdagi qahramonlar orqali hikoyani qabul qiladi, ular bilan emotsional aloqa o'rnatadi. Shuning uchun kino aktyorining mahorati filmdagi obrazlarning ishonchliligini, tomoshabinlar qalbiga yetib borishini ta'minlaydi.

Kino san'atining ilk davrlarida (XX asr boshlarida) filmlar uchun aktyorlar asosan teatrdan jalb qilingan. Aktyorlar teatr sahna tajribasiga ega bo'lishgan va o'z ijrolarida teatr an'analaridan foydalanishgan. Biroq, kino o'ziga xos san'at turi sifatida rivojlanib borishi bilan, aktyor ijrosiga bo'lgan talablar ham o'zgarib bordi. Teatrda xos bo'lgan ifodali imo-ishora va

mimikalar kino ekranida sun'iy tarzda ko'rinardi. Bu ovozli kinoning paydo bo'lishi bilan yanada yaqqol ko'zga tashlandi.

Teatr va kino san'atida aktyorlik mahoratini rivojlantirishda muhim hamkorlik XX asrning 30-40 yillarida kuzatildi. Bu davrda kino aktyorlikdagi o'ziga xos texnikalar shakllana boshladi va ayni paytda, teatr aktyorligi ham kinematografiya ta'sirida o'zgardi. Masalan, rus rejissyori Konstantin Stanislavskiy tomonidan ishlab chiqilgan aktyorlik sistemasi ham teatr, ham kino aktyorligi uchun fundamental qo'llanma bo'lib xizmat qila boshladi. K.S.Stanislavskiy aktyorning ijrosi haqida shunday deydi: "Haqiqatdan ham hayotda, obyektlar o'zidan-o'zi paydo bo'ladi va diqqatimizni o'ziga beixtiyor jalb qiladi. Hayotimizning har bir daqiqasida kimga va qanday qarashimizni juda yaxshi bilamiz. Ammo teatrdagi bunday emas, teatrdagi artistning normal yashashiga xalaqit beruvchi portalning qora tuynugi – tomosha zali bor." [2.B.112.]

Stanislavskiy sistemasining "hissiy xotira", "berilgan shart-sharoit", "sehrli agar" kabi texnikalari kino aktyorlari tomonidan keng o'zlashtirildi va ekrandagi obrazlar yaratishda qo'llanila boshladi. Teatr san'atida sahna nutqi aktyorlik mahoratining muhim elementi hisoblanadi. Sahna nutqi nafaqat aniq va ravon gapirish, balki ovozni boshqarish, ohang, temporitm, pauza kabi ko'plab jihatlariga e'tibor qaratadi. Kino aktyorlari uchun ham sahna nutqi ko'nikmasi nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

Kinoda mikrofon aktyorning ovozini kuchaytirsa-da, aktyordan aniq artikulyatsiya, ovoz tembrini boshqarish va rolga mos intonatsiyani tanlash talab etiladi. Kino aktyori so'zlarning ma'nosini to'g'ri yetkazib berishi, replikalarni tabiiy va ishonchli tarzda ijro etishi kerak. Sahna nutqi bo'yicha mashqlar kino aktyorlariga o'z ovozini rivojlantirish, ovoz to'ni va tembrini boshqarish, turli intonatsiyalarni egallab olish imkonini beradi. Ernazar Yorbekov aktyorni mikrofon bilan ishlashi xususida shunday deydi: "Sahnada yoki radio va televideniya chiqish qilayotgan ijodkorning ovozi mikrofondan tushishi yoki tushmasligini ko'proq muxlislar aniq bilishadi. Mikrofon orqali chiqayotgan ovoz go'zal bo'lishi va har bir tovush aniq talaffuz etilishi lozim. Talaba bilan ovoz ustida mukammal ishlash ovozning tabiiyligi va sun'iyligini ajratib olish imkoniyatini beradi. Ovozdan unumli va ongli

foydalana bilishning o'zi katta san'atdir. Uni egiluvchan qilish, istalgan vaqtda kerakli tomonga bura olish kabi xislatlarni rivojlantirish ijodkorga sayqal beradi va bu jihatlar uning, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mikrofon bilan ishlash jarayonida ham juda asqatadi". [3.B.826.]

Teatr aktyori uchun tanani boshqarish, plastika va harakatlar orqali qahramon xarakterini yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Teatr aktyorlari tana plastikasi ustida muntazam ishlashlari, harakatlarni aniq va ifodali bajarishlari talab etiladi. Bu ko'nikmalar kino aktyorlari uchun ham zarurdir.

Kino aktyori kadrda har qanday holatda ko'rinishi, turli murakkab harakatlarni bajarishi, ba'zan xavfli tryuklarni ijro etishi mumkin. Shuning uchun tanani boshqarish, plastika va harakat koordinatsiyasi kino aktyorining muhim ko'nikmalari hisoblanadi. Teatrdagi o'rganiladigan raqs, pantomima, akrobatika kabi fanlar kino aktyorlariga ekranda ifodali va aniq harakatlar qilish imkonini beradi. Teatr san'atida hamkorlikdagi ijro (ansambl) muhim o'rin tutadi. Teatr aktyorlari bir-biri bilan doimiy muloqotda bo'ladi, bir-birining replikalarga munosabat bildiradi, hamkorlikda emotsional holatni yaratadi. Bu ko'nikmalar kino aktyorlari uchun ham zarurdir.

Kino aktyorlari ko'pincha kadrda boshqa aktyorlar bilan birga ishlashlari, ular bilan muloqotga kirishlari, replikalarni almashinishlari kerak bo'ladi. Bunday sahnalarda hamkorlikdagi ijro ko'nikmalari juda muhimdir. Teatrdagi aktyor partnyor bilan ishlashni, uning replikalarga munosabat bildirishni, sahnaviy muloqot qilishni o'rganadi, bu esa keyinchalik kino sahnalarida qo'l keladi.

Teatr san'atida aktyor qahramon obrazini yaratish uchun keng qamrovli tahlil va tizimli yondashuvni qo'llaydi. Aktyor asar matni ustida ishlaydi, qahramonning omillarini va harakatlarini tahlil qiladi, uning biografiyasini o'rganadi, ichki dunyosini tasavvur qiladi. Kino aktyori ham qahramon obrazini yaratishda teatr aktyori kabi ish tutishi kerak. U ssenariyni chuqur tahlil qilishi, qahramonning motivlari va harakatlarini tushunishi, uning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosini yaratishi lozim. Teatr aktyorlik maktabida o'rganiladigan rolni tahlil qilish va obrazni yaratish texnikalari kino aktyorlariga qahramon ustida ishlashda ko'p yordam beradi.

Teatrdagi spektakl uzluksiz, boshidan oxirigacha, haqiqiy vaqt davomida ijro etiladi.

Aktyor rolni boshidan oxirigacha, xronologik tartibda ijro etadi. Kinoda esa sahnalar ko'pincha xronologik tartibda bo'lmaydi, aktyorga rolning bir qismini bugun, boshqa qismini bir necha kun yoki haftadan keyin ijro etishga to'g'ri keladi. Teatr tajribasiga ega bo'lgan kino aktyorlari rolni yaxlit ko'ra olish, qahramonning rivojlanish yo'lini tushunish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikma kinoda sahnalarni xronologik tartibda emas, balki suratga olish jadvaliga ko'ra tasvirlashda juda muhimdir.

Teatrda aktyor tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'ladi, ularning reaksiyasini his qiladi va ba'zan bunga moslashadi. Kinoda esa aktyor tomoshabinni ko'rmaydi, faqat kamera oldida ishlaydi. Shuning uchun teatr aktyori kinoda ijro etganda, tasavvuridagi tomoshabinga emas, balki kameraga qarata ijro etishni o'rganishi kerak.

Teatr tajribasiga ega bo'lgan kino aktyorlari ko'pincha tomoshabin bilan munosabat o'rnatish ko'nikmasini kinoga ham olib o'tadilar, faqat bu yerda ular kamera orqali tomoshabin bilan bog'lanish hosil qiladilar. Bu esa ularning ijrosini yanada ta'sirchan qiladi.

Teatr san'ati ko'pgina mashhur kino aktyorlari uchun o'ziga xos "laboratoriya" vazifasini bajaradi. Teatrda aktyor qahramon ustida chuqur ishlash, turli texnikalarni sinab ko'rish, o'z imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tajriba keyinchalik kino san'atida ham qo'l keladi.

Teatrda turli janrlarda ishlash, klassik va zamonaviy asarlarda rollar ijro etish, turli rejissyorlar bilan hamkorlik qilish – bularning barchasi aktyorga kino san'atida kerak bo'ladigan tajriba va ko'nikmalarni beradi. San'atshunos Barno Nurmanova aktyorni xarakter yaratish xususida to'xtalganida – "Aktyor o'ziga topshirilgan rol ustida ishlar ekan, personajning maqsadini rolning mazmunini, uning xarakterida to'laqonli yoritishga harakat qiladi. sahnaviy xarakter yaratishning o'ziga xos tamoyillarini aniqlash uchun, o'zbek teatr san'atida dong'i ketgan aktyorlar ijrosidagi xarakter talqini o'rganish va ularni ilmiy tahlil qilish zarurat ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir" – deydi.

Teatr sahnasi aktyordan yuqori konsentratsiya, diqqatni jamlash va emotsional sezgirlikni talab qiladi. Teatr aktyori spektakl davomida qahramon holatini uzluksiz saqlab turishi, energiyasini to'g'ri taqsimlashi,

tomoshabinlar bilan aloqani yo'qotmasdan ijro etishi kerak.

Bu ko'nikmalar kino aktyorlari uchun ham muhimdir. Kino suratga olish jarayonida aktyor bir sahnani bir necha bor takrorlashi, kadr almashganda ham qahramon holatini saqlab qolishi, qisqa vaqt ichida kerakli emotsional holatni yaratishi kerak bo'ladi.

Kino aktyorlari tayyorlashda teatr pedagogikasi quyidagi afzalliklarga ega ekanligini tajribadan ko'ramiz. Sistemalilik orqali - teatr pedagogikasi aktyorlik ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish metodologiyasini taklif etadi. Bunda sahna nutqi, plastika, aktyorlik mahorati kabi fanlar izchil va uzviy bog'langan holda o'qitiladi. Teatr ta'limida nazariya bilan bir qatorda amaliyot mashg'ulotlarga ham katta e'tibor qaratadi. Talabalar rollarni ijro etish, etyudlar tayyorlash, sahna sahnalarida ishlash orqali aktyorlik ko'nikmalarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Har bir aktyorning individual xususiyatlari va ijodiy individualligi bilan ishlashiga dars jarayonida katta e'tibor qaratilib, bu yondashuv har bir talabaning o'ziga xos iste'dodi va qobiliyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy aktyorlik ta'limi tizimida teatr va kino aktyorligi ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda o'qitish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday integratsiyalashgan yondashuv bo'lajak aktyorlarga har ikkala san'at turida ham ishlash imkonini beradigan universal malaka ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Bu yerda teatr aktyorligi ko'nikmalari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi, kino aktyorligi esa bu ko'nikmalarni ekran san'ati xususiyatiga moslashtirish imkonini beradi. Bugungi teatr an'anaviy chegaralardan chiqib, yangi multimediya shakllarda namoyon bo'lmoqda. Teatr spektakllarida video-proyeksiyalar, kino elementlari, virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Bu jarayon teatr va kino san'atining yaqinlashuviga, ularning o'zaro ta'siriga olib kelmoqda.

Teatr san'ati kino aktyorlarini shakllantirishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Teatr mashg'ulotlari aktyorga sahna nutqi, plastika, hamkorlikdagi ijro, obrazlar yaratish texnikasi kabi ko'nikmalarni beradi, bu ko'nikmalar esa keyinchalik kino san'atida ham qo'l keladi.

Teatr va kino aktyorligi o'rtasida muhim farqlar mavjud bo'lsa-da (ijro uslubi, vaqt va makon bilan ishlash, tomoshabin bilan munosabat), teatr tajribasiga ega bo'lgan aktyorlar bu farqlarni tushunib, o'z ijrosini kino xususiyatiga moslashtirishni o'rganishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kino aktyorlarini shakllantirishda teatr san'ati muhim o'rin tutadi va aktyorlik mahoratining fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi. Teatr san'atida shakllangan ko'nikmalar, texnikalar va yondashuvlar kino aktyorlariga ekranda haqqoniy, chuqur va ta'sirchan obrazlar yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 07.08.2017. <https://lex.uz/docs/-3298092>
2. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. -T.: O‘zbekiston, 2010.
3. Yarbekov E.X. Mikrofon - nutq ko‘zgusi. “Oriental Art and Culture” ilmiy-metodik elektron jurnali. Volume 3 Issue 4 / December 2022.
4. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. -T.: Fan va texnologiya, 2009.
5. Nurmanova B. A. O ‘zbek drama teatrlarida sahnalashtirilgan spektakllardagi rejissorlik talqinlari //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 237-244.
6. Nurmanova B. A. XXI asrda o ‘zbek drama teatri rejissurasidagi talqinlar //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 245-253.
7. Nurmanova B. A. Drama teatri aktyorlari ijodida xarakter va xarakterlilik uyg ‘unligi //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 139-144.
8. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari. -T.: Konsalt, 2016.
9. Azizov T. Mening rejissorlik ishlarim. –T.: Akademnashr, 2010.

**QIZIQCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI VA
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI
ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА ИНТЕРЕСА И
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
DEVELOPMENT PROCESSES AND MODERN TRENDS IN THE ART
OF CURIOSITY**

Sohibjon Valiyev

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya: Maqolada askiya va qiziqchilik san'ati dastlab katta-kichik davralarda ko'rsatilib, zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida avvaliga televideniye ekrani orqali namoyish etiladigan kulgi dasturlari kirib kelganligi, keyinchalik internet tarmog'i orqali ham qiziqchilar ijrolaridan namunalar namoyish etila boshlanganligi keltirib o'tiladi.

Аннотация: В статье рассматривается, как искусство аския и юмористическое выступление изначально демонстрировались в небольших собраниях, а с развитием современных технологий начали транслироваться сначала по телевидению, а затем и через интернет. Отмечается, что в онлайн-пространстве также стали широко распространяться образцы исполнения юмористических номеров.

Annotation: The article discusses how the art of askiya and humorous performances were originally presented in small gatherings, and how, with the development of modern technologies, they began to be broadcast first on television and later via the internet. It is noted that humorous performances have also become widely shared in the online space.

Kalit so'zlar: Askiya, qiziqchilik, mutoyiba, kulgu, ijro, badihago'ylik, an'ana, masxara, korformon, aytishuv, tanqid, muqallid.

Ключевые слова: Аския, юмор, шутка, смех, исполнение, импровизация, традиция, сатира, маскарад, состязание, критика, пародия.

Key words: Askiya, humor, joke, laughter, performance, improvisation, tradition, satire, masquerade, competition, criticism, parody.

Farg'ona vodiysi qiziqchilik san'atida an'analar davomiyligi saqlanib qolgan. Aksariyat qiziqchilar katta-kichik davralarda jamoa bo'lib tomosha ko'rsatish bilan birga o'z repertuarlarini yakka tartibda ijro qilishgadi. Ular ilgari mavjud bo'lgan ijodiy an'analarni davom ettirish bilan birga, yangi mavzularga ham qo'l urishgan. Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida avvaliga televideniye ekrani orqali namoyish etiladigan kulgi dasturlari kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik internet tarmog'i orqali ham qiziqchilar ijrolaridan namunalar namoyish etila boshlandi. Bir so'z bilan aytganda qiziqchilar ijodi turli zamonaviy vositalar orqali tomoshabinlarga yetkazilmoqda. Ular o'z

mahoratlarini kulgi san'atining turli yo'nalishlari va janrlarida namoyish etib kelishadi.

Kulgi jamoalari aktyorlari tomonidan taqdim etiladigan komediyalarda tomoshabinga ikki va undan ortiq ishtirokchi yordamida namoyish etiladi. Ayrim hollarda voqelikni tomoshabinga aniqroq va ta'sirliroq yetkazish uchun sharoitga qarab an'anaviy badiiy vositalar, har bir obraz harakteriga mos liboslar, shartli grim va uni ijro etayotgan ijodkorning mahorati hal qiluvchi omil vazifasini o'tagan.

Yakka qiziqchilikda esa, bir aktyorning o'zi sahnada bir necha qahramon holatiga kirib, voqelikni faqatgina ovoz va yuz (ba'zida qo'l va oyoq harakatlari bilan) holatlarini o'zgartirgan

tarzda tomosha ko'rsatadi. Ba'zi hollar ma'lum ma'noda niqoblardan ham foydalanishi mumkin. Ammo yakka ijroning o'ziga yarasha unchamuncha murakkabligi ham bor. Bunda eng avvalo qiziqchidan katta bilim, ko'nikma, tajriba va albatta ijrochilik mahorati bo'lishi lozim. Murakkab tomoni, qiziqchi eng avvalo o'ziga ishonishi kerak. Tomosha zalidagi holat va vaziyatni oldindan ko'ra oladigan ruhshunos bo'lishi, tomoshabin bilan o'zaro muloqotga kirisha oluvchi, badihago'ylik sirlarini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi. Muxlislar talabiga ko'ra yo'l-yo'lakay voqealar, so'z o'yinlari o'ylab topishi, hazil-mutoyibani obrazli tarzda qura olishi ham judayam muhim. Shartli harakatlari, bir vaqtning o'zida hozirjavob, zukkolik bilan voqealarni bir biriga bog'lay olishda qo'pol xatoga yo'l qo'ymasligi talab etiladi. Chunki tomoshabin u aytayotgan voqealarning ichida o'zini ko'ra olishi kerak. Bugungi tomoshabin uncha-muncha gaplarga kulavermaydi. Ular uchun sahnadagi odam har qanday voqelikni ta'sirli va kulgili tarzda yetkaza olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan qiziqchining bilimdonligi, bir qiyofadan ikkinchi qiyofaga tezda kira olishi kulgi san'atining zamonaviy va an'anaviy yo'nalishlaridan xabardorligi, sahnaviy syujet, ko'rinish va obrazlar talqiniga o'zgartirishlar kiritishi, askiya, qo'shiq, raqsdan va milliy sozlardan qay tarzda foydalanishi eng avvalo uning bu boradagi malakasiga bog'liq.

Mustaqilikning dastlabki yillarida Farg'ona vodiysining eng mashhur qiziqchisi sifatida Muhiddin qiziq Darveshov nomi tilga olinadi (1938-1995). San'atkor an'anaviy mavzudagi "Sartarosh" komediyasini yangi davrga moslab mahorat bilan ijro etgan. Shu bilan birga ko'plab zamonaviy mavzulardagi qiziqchiliklarni ham yaratgan. "Samolyot", "Ichkilikning oqibati"; "Ashulachining kaltak yeyishi" va boshqa o'nlab kulgi-hikoyalari o'ziga xos orginalligi va yuksak ijro mahorati bilan ajralib turadi. Undagi voqealar hayotdagi qiziqarli holatlar odamlar xarakteridan olingan. Barcha ichakuzdi kulgi-hikoyalari, latifa va hangomalarni tomoshabinlar toifasi, yoshi va jinsiga mos qilib mustaqil ravishda to'qilib, tinglovchilarning eng noziq nuqtalarini topishga erishgan, ularga ta'sir qilib, ikki o'rtada o'zaro muloqot o'rtnata olgan.

Muhiddin qiziq mustaqillik yillarida bor yo'g'i besh yil umr ko'rdi. Umrining oxiriga qadar kasbiga sodiq qoldi. O'z repertuaridagi

sermazmun tomoshalarini yangi davr ruhi bilan boyitdi. Garchi san'atkorning aksariyat chiqishlarida kulgi-hikoya, latifa va hangoma janrlarida yaratilgan bo'lsada, mahoratli ijodkor sifatida ularni mazmunan bir-biriga bog'lab yaxlit tizimli spektakl darajasiga olib chiqa oldi. "Pul", "Afandi", "Taksi", "Poyezd" va boshqa bir qator tomoshalarida an'anaviy va zamonaviy kulgi shakllaridan unumli foydalangan. Asarlarining barchasini jonli, ta'sirli, mazmunan voqeaband qilib qurishi uning muvaffaqiyati omillaridan biridir.

Qiziqchining ijodi bir qator o'ziga hos individual xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchi navbatda san'atkor o'z hayoti davomidagi kuzatishlari hamda ustoz qiziqchilar tomonidan ijro etilgan hangomalarni yangicha talqinda obrazli tasvirlashi bilan dong taratgandi.

Ikkinchidan, Abdurayim dovdir va Mamarayim erkak sarguzashtlariga har gal har xil yangiliklarni qo'shib, ularning xarakteri, kayfiyati va gap-so'zlarini ishonarli tarzda talqin qilishi bilan ajralib turgan. Shuningdek, mahalliy aholi hayot tarzida uchrab turadigan voqealarni jonli tasvirlashi syujetlar yaratishi, turfa toifadagi qahramonlari qiyofasiga bir zumda kira olishi, so'zlarni salmoqlab, chertib-chertib aytishi, ko'zlari, qoshlarini o'ynatib, qo'llarini harakatga keltirishi, lahzalarda bo'lsa-da, hikoyada so'z borayotgan turli qiyofalarda gavdalanishi, har safar ajib bir tomosha yarata olishi faqat ungagina xos xususiyatlar edi. A.Akbarov, A.Siddiqovlar Muhiddin qiziqni o'zlariga ustoz deb bilishadi. Muhiddin Darveshov 1995-yilning 25-sentabr kuni vafot etgan.

Qiziqchi an'anaviy ijro uslubi bilan birga zamonaviy mavzularni ham yaxshi o'zlashtirgan. Eng muhimi u yakka ijro bilan birga guruh bo'lib maydonga chiqadigan askiyachilar safida ham o'z mahoratini namoyish eta olgan.

Farg'ona vodiysi san'atkorlarining ijro an'analaridagi o'ziga hoslik mentaliteti askiya va qiziqchilikka birday moyilligidadir. Uchko'prik tumanidagi To'qaytepa qishlog'idan chiqqan Bahodirjon Shokirov (1954 yilda tavallud topgan) ham askiya ham qiziqchilik san'atida birday mahoratga ega. San'atkorning ijodiy qiyofasida uchta muhim jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi, qiziqchilik san'atida ustozlari merosini o'rganib, o'zi ham ayrim hangomalarni yaratgan.

Ikkinchidan, askiya borasida sayillarda, bayramlarda va to'ylarda J.Po'latov, Z.Yusupov,

Y.Nosirov, M.Sheryayevlar bilan tengma-teng bellasha olgan.

Uchinchidan, yosh qiziqlardan iborat ijodiy guruh (teatr) tashkil etib, o'zi bosh bo'lgan, korfarmonlik qilgan.

B.Shokirov ijodi ustози M.Darveshovning qo'lida charxlandi. Ustozining "Urayim aka hangomalari", "Qirg'oqdaman", "Askar hazillari", "Er-xotin mojarosi", "Yo'tal" kabi hangomalarini zo'r mahorat bilan ijro etib keldi. 1990-yilda o'zining mustaqil ravishda "Hangoma" guruhiga asos soladi. Guruhga ko'plab yoshlarni jalb etib, ularga kulgi sirlarini o'rgatib keladi.

Farg'ona vodiysida o'z ijro uslubi shakllangan kulgi ustalaridan biri Abdulla Akbarovdir. San'atkor ham qiziqchilikni ham askiya sirlarini birday o'zlashtirgan. M.Darveshovning shogirdi Abdulla qiziqning asli kasbi pedagog bo'lsada, kulgi olamida ko'p narsalarni isbotlashga ulgurgan. Uning gapga chechanligi, so'zamolliigi, hozirjavoblighi, o'zidan oldin o'tgan ustoz qiziqqlar ijro uslubini chuqur o'zlashtirganligi ko'zga tashlanadi. Qiziqchilik bilan askiya san'atida ham birdek mahoratga ega. Ijodkorning keyingi yillardagi repertuarida ham zamonaviy, ham an'anaviy kulgi shakllarini o'zaro uyg'unlashtira olgan.

Qiziqchining ijodiy repertuaridagi mavzulari judayam hilma-xil. Olim Qo'chqorbekov A.Akbarovning ijrosidagi sodda xalqimizning xindiston safaridan olingan "Haykal oldida", er-xotinning o'zaro hurmat-izzatiga ishora qiluvchi "Oiladagi izzat-hurmat", "Er-xotin", ota va o'g'ilning ko'chadagi sirli munosabatlari negizida qurilgan "Ayg'oqchi", no'noq ustoz-shogird sataroshlarning kasbiy muomalasi aks ettirilgan "Shapaloq", qishloq ahlini o'ziga jalb etgan lotareya hangomalari asosida "Chiqmagan yutuq", telefonda so'zlashish lavhasini o'z ichiga olgan "Uyda", "Ijaraga olganman", xarbiylar hayotidan olingan "Abdurayimning buyrug'i" va boshqa qator kulgili latifalarini jamlab, nashr ettirgan.

Qiziqchi o'zbek tilining nufuzini ko'tarish maqsadida bir necha hazillar qiladi. Bizning tilimizga juda ko'p xorijiy so'zlar ishlatilishi bilan birga aksariyat milliy so'zlarimizni go'yo chet elliklar o'zlashtirganligiga ishora qiladi. Xristofor Kolumbdan oldin Abu Rayhon Beruniy bobomiz "Ana shu okeanning orqasida bir quruqlik bor", deganidan keyin bizning qadimiy o'zbeklar Amerikaga borib yovvoyi hindularga yashashni

o'rgatgan emish. Kolumb bunday borib qarasa, do'ppilardi kiyvogan, pichaqlardi taqvogan bitta o'zbek hindularni boshqarib yurganmish. Kolumb hindulardan "kim bu?" deb so'raganda hindular "Amir aka", degan-da... keyin o'sha Xristofor orqaga qaytib kelayotsa yana ikki nafar o'zbek aylanib yurgan ekan. Kolumb ulardan: "Bu qanaqa joy?" deb so'raganida, "Sen gapir!" degan ular bir-biriga tashlab. Shu tariqa yer yuzida "Singapur", degan joy paydo bo'lganmish. Aslida zamonaviy "kalkulyator" so'ziyam o'zbekchadan olingan. Olimlar yig'ilib "Elektron hisoblash mashinasini yaratamiz" deb qaror qilibdi. ularning ichida o'zbek olimi juda aqlli bo'lgani uchun kal bo'lgan-da... O'sha olim boshqa olimlardan oldinroq EHM ni yaratib qo'yib qolgan olimlarga qarab tirjayib o'tiravergan. Keyin qolgan olimlar unga qarab "Kal kulayotir, bizdan oldin kashf qilib qo'ydiyov", deyishgan. Zamonaviy futboldagi "afsayt" so'zi ham o'zbekchadan kelib chiqqan ekan. Inglizlar O'zbekistonga kelishganida bizning o'zbek yigitlari futbol o'ynab yurishgan bo'lgan. Ularning ichida Abdusaid ismli epchil, chaqqon hujumchi to'pdan oldinga tushib narigi darvoza yaqiniga boraverarkan. Shu bois sudya "Qayt, Abdusayid, qayt", deyavergan. Buni eshitgan inglizlar "Ha, o'yindan tashqari holat bo'lsa "absayt" bo'larakan", degan. "Aut" so'zi ham o'zbekchadagi (to'p chiziqdan nariga o'tib ketganida) "ob o't", degan ma'noni anglatarkan.

A.Akbarov kulgi san'atiga Oltiariqning bodring va turplari mavzusini olib kirib butun o'zbekistonda mashhur qildi. Qiziqchining latifalarida bunday mahalliy qitmir qahramonlari mahalliy tomorqalarda yetishtirilgan turp va bodringlarini hatto kosmosda ham pullab yurganligiga ishonitirishi, so'z san'ati o'yinidagi yo'lini topa olganligidan dalolat beradi. Bunday mahorat, tomoshabinni tasavvuridagi voqealarga ishonitirish qobiliyati tufayli el og'ziga tushdi.

Qiziqchining sevimli mavzularidan biri bu odamlar tashqi qiyofasi, bo'y-basti, yuz tuzilishi, gap so'zlari, sahiy yoki ziqnaligi, oqil yoki qo'polligini o'ziga singdirgan qochirimlar va o'xshatishlardan tuzilgan laqablarni topishi bilan bog'liq. Bu borada ham katta tajriba orttirgan. Ammo uning hazillari, hikoya qilayotgan imo-ishoralaridagi voqeliklar meyoridan chiqib, odamlar axloqiga salbiy ta'sir qilmaydi. Bu kulgi ustasi tilning keng imkoniyatlarini – so'z o'yini, hazil, tashbeh, kinoya, omonimlar va mubolag'ani mukammal egallaganligidan darak beradi. Buning uchun

barcha sohalarda keng dunyoqarashga, mustahkam poydevorli bilim talab etiladi.

Muxiddin qiziqning shogirdlari talaygina. O.Qo'chqorbekov Vodiya "rishtonlik qiziqchi" nomi bilan tanilgan Abdurahmon Siddiqov haqida ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tadi. O'zining tashqi ko'rinishi va ijro manerasi bilan alohida ajralib turadigan Abdurahmon qiziq kulgi olamidagi ilk faoliyatini ma'naviy o'zgarishlar yillarida 1980 yillarning o'rtalarida boshlangan. Ijodkor san'atning bir necha turlarida barakali faoliyat olib borgan. Dastlabki davrlarda doira chalib, xofizlar safida to'y-tomoshalarda yuradi. Shunday kunlardan birida tasodifan ustozi M.Darveshov bilan tanishuvi hayotida katta burilish yasaydi. U endi soz chalish bilan birga davralarda Muhiddin qiziqning ayrim hangomalarini bilganicha ayta boshlaydi. Yillar o'tishi bilan mahorati toblanib, o'zi ham ayrim kulgili latifa va hangomalarni ijod qilishga kirishadi. Turli tadbirlarda tomoshabinlar oldida ularni ijro qilib, o'zining qiziqchilik mahoratini xalq olida sinovdan o'tkazib oladi. Chiqishlaridagi ortiqcha joylaridan voz kechib, yetishmagan komponentlarni qo'shib, ijodini yanada takomillashtiradi.

Qiziqchi jamiyatda noinsof, pul uchun vijdonini ham sotadigan ayrim kimsalar ustidan kuladi. "Ozgina qo'shganman" hajviyasi hozirgi kunga kelib ayniqsa dolzarblashib bormoqda. Mashinasiga yoqilg'i quyib chiqqan haydovchi jon-jahdi bilan benzin quyuvchiga qarab, — Insof bormi, o'zi? Benzina shunchalik ko'p boshqa moy qo'shasanmi, deb baqirsa, sotuvchi, — Og'zingga qarab gapir, benzina ko'p boshqa moy qo'shmaganman, boshqa moylarga ozgina benzin qo'shdim, xolos, —deya javob beradi. Qiziqchi shu tariqa oramizda naqadar tuban, boylik uchun mukkasidan ketgan noinsoflarni insofga chaqiradi.

O'zbek qiziqchiligida haydovchilar mavzusi keng tarqalgan. Ammo bu mavzuni har kim har xil variantda talqin qiladi. Jumladan Abdurahmon qiziq ham. "Esdan chiqibdi" nomli hangomasida kunlardan birida yap-yangi aravachali mototsikl olib, maqtanib haydab ketayotgan bir sodda yigit e'tiborsizligi tufayli tasodifan yo'l chetidagi katta daraxtga zarb bilan urilib, mototsikl aravachasining old qismi pachoqlanadi. Avtoinspektor bir zumda yetib kelib, tergay boshlaydi: — Birodar, nahotki, shunday bahaybat daraxtni ko'rmagan bo'lsangiz?

Haydovchi so'zomollik bilan uni ko'rganligi, ammo mototsiklning aravachasi borligi esidan chiqib qolganligini aytib vaziyatdan chiqib kelganligi jonli tasvirlanadi. Qiziqchi oddiy voqealarni obrazli tasvirlash orqali kulgi keltirib chiqarish mahoratiga ega.

Qiziqchi qishloqning oddiy, sodda dehqonlari obrazlarini ham ishonchli tarzda yarata olgan. "Yo'qolgan sigir" voqeasida shunday manzara yaratiladiki, har qanday tomoshabin unga ishonadi. Unga ko'ra, sho'ring qurg'ur bir dehqonning sog'ib, sut-qatiq ichib turgan govmish sigiri to'satdan yo'qolib qoladi. Uy egasi yugurib tashqariga chiqsa, ko'chadan bir qitmirroq odam o'tib ketayotgan ekan. Yo'lovchidan birodar, shu yaqinrqda mabodo, birorta ola govmushga ko'zingiz tushmadimi deb so'raydi. Rad javobini eshitgan, afsus bilan sigiri yo'qolganini aytadi. Shunda haligi yo'lovchining qitmirligi kelib birin-ketin uning sigirining tashqi belgilarini so'ray boshlaydi. Peshanasida ola qashqasi bormidi? — Xuddi shunaqa edi? — Dumining uch tomoni oqmidi? — Topdingiz, o'sha meniki! — Bo'ynidagi arqoni qoramidi? — Xuddi shunaqa, aytgan belgilaringizning hammasi to'g'ri! — To'g'ri bo'lsa, unda sigiringizni sira ko'rganim yo'q, deya javob beradi. Bu komediyada ham qiziqchining obrazga kira olish, qiyofalarni ishonchli tarzda gavdalandirish, voqealarni rivojlantirishdagi to'plagan tajribasi ish beradiki, bularning barchasi faqatgina Abdurahmon qiziqgagina hos xususiyatlardir.

Qiziqchi farg'onalik kulgi darg'asi M.Darveshov ijodini kuzatib, undan ko'p jihatlarini o'zlashtirishga kirishadi. Ustoz san'atkor bilan uchrashib, 1990 yillarda telekanallarda uzatila boshlagan "Otalar choyxonasi kulgu koshonasi" ko'rsatuvida ham o'z chiqishlari bilan ishtirok etib, kulgi muxlislari orasida taniladi.

Yakkaxon qiziqchilik yo'nalishida ilk mavzulari pantomimo janri orqali xatti-harakatlar orqali yaratgan kulgili obrazlari bilan tomoshabinlar mehrini qozonishga erishgan. O'zbekcha ismlarning ruscha tarjimasidagi talaffuzlari qanday jaranglashi kulgi keltirib chiqaradi. G'.Axmedov uzoq yillar davomida ustoz san'atkorlar M.Xolmedov, O.Asomov, A.Akbarovlardan qiziqchilik yo'nalishida saboq olgan. mustaqil ravishda repertuarini shakllantirib keladi. Mavzu matnlarini o'zi yozib, sahnaga olib chiqadi. Latifalarning

tarbiyaviy ahamiyati va falsafiy mohiyati ustida ham jiddiy ish olib boradi.

Qiziqchi keyingi yillarda internet tarmoqlari va xususiy telekanallarda qisqa metrajli hangomalar va videoroliklar tayyorlab keladi. “G’ayrat shou” (2017), “Gitler hoji” (2017), “Tush” (2020), “Chukcha” (2021), “Shevalarni biladigan nemis” (2022), “Andijon polkasi” (2022), “Gitler qiziqchi ekan” (2024) kabi video maxsulotlari kulgi muxlislari tomonidan iliq kutib olingan.

G’Axmedov kulgi olamida anchamuncha yutuqlarga erishgan. Qiziqchi 1991-yil 3-o’rinni, Qiziqchi 1993-yil 1-o’rinni egallagan. 2024-yil san’at fidokori ordeni bilan taqdirlangan.

Namangan viloyatida bir qator iqtidorli qiziqchilar ijodi ko’zga tashlanib qoldi. Aktyor, qiziqchi Iskandar Hamroqulov 1977-yil 31-iyul kuni Namangan shahrida tavallud topgan. 11 yoshida otalari vafot etadi. Dastlabki ta’limni maktabda oladi. Keyinchalik hozirgi O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Musiqali drama teatri aktyori” yo’nalishida o’z ijro mahoratini shakllaniradi. Professional darajadagi qiziqchi sifatida 2010 yillardan boshlab kulgi olamida tanila boshlaydi. “Ajabxanda”, “Qalpoq” satirik ko’rsatuvlarining mualliflaridan biri. U o’z ijodiga doimiy ravishda tanqidiy yondoshadi. Oddiy ichkilik mavzusida kulgiga boy hangomalar tayyorlab tomoshabinlar olqishiga sazovor bo’lmoqda. Kuldirib gapirayotgan har bir epizodida satira yashiringan. Bir erkakning ichib keladigan holati, ro’zg’origa, bolasiga olib keladigan go’sht-nonidan ko’ra ichkilikni ustun ko’rishi holatini biroz badiiylashtirgan holda ifodalab berish orqali tomoshabinni ichkilikning oqqibatlaridan ogoh etadi. Zamondoshlarimizni unga ruju qo’yishdan qaytarish maqsadida turli misollar keltiradi, mavjud muammoga aniq yechim topishga intiladi.

I. Hamroqulovning eng taniqli hajviyalari, sahnaviy tomoshalari judayam ko’p. “Mushuk” hangomasi (2015) voqealar zanjiri, qiyofalarning tezda almashib turishi va tomoshabopligi bilan alohida ahamiyatga molik. Dastlabki davrlarda kichik-kichik komediyalar, latifalar va parodiyalarni sahnaga olib chiqqan bo’lsa, keyinchalik mustaqil ravishda o’z tomosha dasturini ishlab chiqa boshladi. “Men Namangan farzandiman” (2016), “Kulmagan qolmasin”

(2017), “Ulfatchasiga kulishamiz”, “Kal hangomasi” (2018) “Hayotiy hazillar” (2019), “Odamlarga hayronsanda” (2021) “Odamlarga nima bo’lyapti” (2022) va boshqa kulgili sahna tomoshalarini yaratdi. Ayniqsa “qo’shnilar haqida afsona” monologi tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Qiziqchilik san’atida azaldan mavjud bo’lgan yana bir an’ana bu bevosita ular o’z mahoratini namoyish etadigan sahna bilan bog’liq. Negaki, qiziqchilar son-sanoqsiz tomoshabinlardan aylana shaklida hosil bo’lgan “sahna”, ayvon, ko’shk, davra yoki tomosha maydonida o’z ijodini namoyish etadi. Bunday “sahna”da hech qanday dekoratsiya yo’q. Muxlislar oldida o’z mahoratini ishga solib voqea joyi, vaqti va paytini shartli ravishda imo-ishoralar, qo’l va gavda harakatlari tomoshabinlarga yetkaza olishi kerak. Vodiy qiziqchilari ustoz san’atkorlar an’analari davom ettirar ekan, mustahkam an’anaviy fabula, voqealar, obrazlar silsilasini yaratar ekan, turli qiyofalar va xarakterlarga mos barqaror savol-javoblarni o’ylab topadi, so’z va harakatlarni to’qiydi-o’zining badihago’ylik iste’dodini namoyish qiladi.

An’anaviy kulgili tomoshalarda muxlislar asosan qiziqchini ko’rish uchun keladi. Qolaversa, xalq komediyalaridagi voqealar rivojini ham oldindan bilan. Ular uchun san’atkorning qanday talqin qilishi qiziq. Shu bois san’atkordan chinakkamiga mahorat ko’rsatishi, tomoshabinlar yoshi, toifasi, kasbi va mahalliy tabiatini bilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ularning an’anaviy syujetlarning tezda biridan boshqasiga bog’lab keta olishi, hozirjavobligi, obrazlar talqiniga yangiliklar kirita olishi, shuvalardan yaxshi xabardorligi, kerak bo’lganda qo’shiq xirgoyi qilishi, taqlidchilikdan xabardor bo’lishi, raqs harakatlari, turli sohalarni imitatsiya qila olishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lutfullo Mahmud. Qaddingdan o'rgilay qadrdonlar (esse).—Namangan: 1996, 120 b.
2. Dadajonov O. Karim qiziq. —//Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti sayti. 2024 yil. 24 dekabr.
3. Sultonov M. Sherayev M. O'zbek xalqining askiya va qiziqchilik san'ati. —Farg'ona, 2020, —188 b.
4. Qodirov M.H. Yusufjon qiziq. —Toshkent: “Fan”. 1991. 97 b.
5. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati (Farg'ona an'anaviy teatri). —Monografiya. Toshkent, “Fan”. 1971. -205 b.
6. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. —Toshkent: “O'qituvchi”, 1981. —76b.
7. Qo'chqorbekov O. Kulgi darg'alari (Askiyachi va qiziqchilar haqida). —Toshkent: “Sharq”, 2005. —125 b.
8. Abdurahmanov I.R. Concept of mythology represented in fine arts of Uzbekistan. —//Asian Journal of Multidimensional Research. Impact Factor: SJIF 2020=6.882. Voll 9, Issue 10, October, 2020. —P.143-147.
9. Abduvohidov, F. New trends in the staging of historical works (On the example of Surkhandarya regional musical drama theater). Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 79-82.
10. Abduvohidov, F. THE ISSUE OF CREATING A REPERTOIRE IN THE THEATERS OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA REGIONAL MUSICAL DRAMA THEATER). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 572-575.
11. Muftizade, G. A. (2020). INTERPRETATION OF WORLD DRAMATIC ART IN UZBEK THEATRE. Theoretical & Applied Science, (11), 555-559.
12. Ризаев, А. З. (2017). КЛАССИЧЕСКАЯ ЛИТЕРАТУРА ВОСТОКА НА СЦЕНЕ ТЕАТРОВ УЗБЕКИСТАНА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (1), 31-33.
13. Ризаев, А. З. (2014). Национальная классическая литература и традиции узбекского театра. In Филология и лингвистика в современном обществе (pp. 9-10).
14. Туляходжаева, М. Т. (1996). Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы).
15. Туляходжаева, М. (2017). К ВОПРОСУ РЕЖИССЕРСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТРАГЕДИЙ ШЕКСПИРА НА СЦЕНЕ ТЕАТРА. Central Asian Journal of Art Studies, 2(1).
16. TULYAKHODJAEVA, M. (2019). DIALOGUE OF THEATER CULTURES. Culture and Arts of Central Asia, 11(1), 12-15.

**DASTGOHLI TA'MIRLASH ASOSLARI
ОСНОВА СТАНКОВОЙ РЕСТАВРАЦИИ
THE BASIS OF EASEL RESTORATION**

Azizov Dilshod Nuridinovich
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti,
dastgohli rangtasvir kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu tezis dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta'mirlash nazariyasi va amaliyoti asoslari maxsus ilmiy ishlar vazifalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tezisda dastur bo'yicha uslubiy tavsiyalar, nazariy materiallar, materiallar texnologiyasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati mavjud.

Аннотация: Статья содержит программу, предлагаемые методологические материалы, связанна с изучением основы научной деятельности теории и практики станковой масляной и темперной реставрации. Статья содержит программу предлагаемые методологические рекомендации, теоретические материалы, техника и технология и перечень используемой литературы.

Annotation: The article contains a program, proposed methodological materials, and is related to the study of the fundamentals of scientific activity in the theory and practice of machine oil and tempera restoration. The article contains a program, proposed methodological recommendations, theoretical materials, techniques and technology, and a list of used literature.

Kalit so'zlar: Ta'mirlash, dastgohli, moybo'yoq, tempera, rangtasvir, san'at, asar, muallif.

Ключевые слова: Ремонт, станок, водяной знак, темпера, живопись, искусство, работа, автор.

Key words: Repair, easel, watercolor, tempera, painting, art, work, author.

Ta'mirlash - shunchaki tiklash emas, balki snat asarini saqlashni oxirgi chorasi, muzey va san'at asarlarini saqlovchilar uchun va ularni abadiy yo'qotmaslik uchun ko'rishga tayyor bo'lgan ekstremal choradir. Bu tavakkaldir, chunki bir tomondan ta'mirlovchi asarga yangi hayot bag'ishlashga qodir, lekin shu bilan birga, uning xatosining narxi hatto san'at asarni yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Ta'mirlash so'zi o'zbek tilida restavratsiya so'zidan ma'no jihatidan tarjima qilingan. Butunjahon terminalogiyasida restavratsiya nomi bilan tanilgan. "Restavratsiya " so'zi lotincha restavratio, ya'ni qayta tiklash so'zidan kelib chiqqan, qayta tiklash so'zini ishlatganda muallif asarini qaytadan tiklash kelib chiqadi. Xolbuki ta'mirlovchi muallif asarini ishini qayta tiklamaydi, asarni ta'mirlaydi, yo'qotilgan joylarini, muallif asariga ziyon bermagan holda ta'mirlaydi, shu sababdan o'zbek tilida ma'noga yaqin to'g'ri termin "ta'mirlash" hisoblanadi.

Ustozim professor A.B.Aleshin o'z asarida yozganidek, "Restavratsiya" so'zining o'zi, afsuski, mutaxassislar qo'ygan ma'noga juda oz mos keladi. Ta'mirlashni bilmagan odam uchun ta'mirlash eskirgan san'at asarlarining "ta'mirlash" ning tor, sof qo'llaniladigan maydoni bo'lib tuyulishi mumkin. Aynan shu ma'no, ehtimol, ushbu kasbning boshida atamaning o'ziga kiritilgan. Ammo vaqt o'tishi bilan taraqqiyotning rivojlanishi bilan ta'mirlash o'zining asl maqsadini yo'qotmagan holda ilmiy va badiiy fanlarning murakkab majmuasiga aylandi". (A.B.Aleshin. Restavratsiya stankovoy maslenoy jivopisi v Rossii. Leningrad "XUDOJNIK RSFSR" 1989 g.160 s.)

Bu san'at asarining holatini yaratish vaqtiga imkon qadar yaqinroq tiklash uchun mashaqqatli ish. Uning muhim yo'nalishlaridan biri - dastgohli ta'mirlash.

Dastgohli ta'mirlash eng qiyin sohalardan biri hisoblanadi. Har bir badiiy asar individual yondashuvni talab qiladi va muayyan ish uslubi

ishlab chiqiladi. Barcha sa'y-harakatlar, ishlab chiqilgan metodologiyaga qat'iy rioya qilgan holda, muallifning asariga minimal aralashish bilan asarni tiklashga qaratilgan.

Dastgohli ta'mirlash o'z ichida bir necha tor yo'nalishdagi ta'mirlash bo'limlarni qamraydi. Shulardan eng dolzarb yo'nalishlaridan, qardosh bo'lgan ikki ta'mirlash bo'limlari kiradi: "dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta'mirlash".

Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta'mirlashni o'rganish bo'yicha, jahon amaliyotida to'plangan tajribadan tushuncha hosil qilib tizimlashtirish zarur. Bu tor yo'nalishning quyidagi vazifalariga oydinlik kiritish bizlarning keyingi vazifalarimizdan biri xisoblanadi:

1) Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta'mirlash nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tarixi.

Yevropada ta'mirlash amaliyotining rivojlanish tarixi.

Rosiyada ta'mirlash amaliyotining rivojlanish tarixi.

O'zbekistonda ta'mirlash amaliyotining rivojlanish tarixi.

Ta'mirlashda rangtasvirning ilmiy tadqiqot usullarini ishlab chiqish.

Dastgohli rangtasvirni konservatsiyalash va ta'mirlash nazariyasi va amaliyotining zamonaviy holati.

2) Ta'mirllovchi kasbining ta'rifi.

Faoliyatga qo'shni sohalarining farqi.

Mutaxassisni professional tayyorlash.

Madaniy qadriyatga oid majburiyatlar.

Tasviriy san'at egasi yoki qonuniy vasiy oldidagi majburiyatlar.

Hamkasblarga va kasbga sodiqlik hamda majburiyatlar.

3) Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini texnikasi va texnologiyasi tarixi.

Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini konservatsiya va ta'mirlash bilan tanishish, kirish qismi.

Klassik tasviriy san'at asari yaratish tizimi.

Rangtasvir uchun yog'och asoslar.

Rangtasvir uchun matoli asoslar.

Rangtasvir uchun metall asoslar.

Rangtasvir uchun pergament, qog'oz va kartonli asoslar.

Rangtasvir asoslari uchun maxsus ishlovlar.

Rangtasvirning moybo'yoq qatlami.

4) Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini o'rganish va saqlashning zamonaviy usullari.

Dastgohli san'at asarlarini texnik va texnologik tadqiqotlar, konservatsiya va restavratsiya qilishning maqsad va vazifalari.

Ta'mirlashdan oldin tadqiqotlar va asarni kuzatadigan hujjatlar.

Konservatsiya va ta'mirlashdan boshlanishidan oldin fotosuratga olish ishlari.

Dastgohli san'at asarlarini tuzilishini o'rganishning asosiy optik-fizik usullari.

5) Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini konservatsiya qilish.

Preventiv (profilaktik) konservatsiya.

Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini amaliy konservatsiyalashning zamonaviy usullari.

Rangtasvir asarlarini saqlash uchun uskunalar va materiallar.

Rangtasvir asarlarini amaliy konservatsiyalash.

Rangtasvir asarini moybo'yoq va ishlov qatlamlarini mustakamlash.

Rangtasvir asarlarini profilaktik mustahkamlash.

Rangtasvir asarini ishchi takromga qotirish.

Moybo'yoq va ishlov qatlamlarini umumiy va mahalliy mustahkamlash.

Dastgohli moybo'yoq asarlarini asosini mustahkamlash.

Yangi asosga qotirgan va mustahkamlangan rangtasvir asarini, doimiy takromga tortish.

Ustidagi kir moddalarni tozalash.

Rangtasvir asarlarini moybo'yoq va ishlovlarini ko'chgan joylarida maxsus ta'mirlash ishlovi bilan tiklash.

Rangtasvir asarini qoplovchi lakni shaffofligini (regeneratsiyasini) tiklash.

6) Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta'mirlash.

Tasviri san'at asardagi keynchalik yopishgan kirlarni tozalash uslubi.

Ta'mirlash terminologiyasi.

Dastgohli moybo'yoq va temperali rangtasvir asarlardagi tasvirlarning shakllarini buzuvchi, keynchalik kirlardan tozalash uslubi.

Tasviri san'at asarini qatlamlar aro tozlashdan oldin sinov tozalash olish va ochish uslubi.

Dastgohli rangtasvir asardagi keyinchalik surtilgan lak qatlami to‘qargan, buzilgan va o‘zgargan qatlamini tozalab olish uslubi.

Pettenkofer qutisi va o‘tkir asboblar yordamida lak qatlamini yupqalash usuli.

Yerituvch modalar yordamida lak qatlamini yupqalash va tekislash uslubi.

Lak qoplamani olib tashlash uslubi.

Oqargan qoplamalarini (lak) olib tashlash uslubi.

Dastgohli rangtasvir asardagi keyinchalik ishlangan yozuvlar, qayta ishlangan yozuvlar va qayta ishlovlarni olib tashlash uslubi.

Pettenkofer qutisi yordamida keyinchalik ishlangan yozuvlarni yumshatish va olib tashlash uslubi.

Keyinchalik ishlangan yozuvlarni erituvch moddalar yordamida olib tashlash.

Keyinchalik ishlangan yozuvlarni quruq uslubda olib tashlash.

mundarija.

Kompress yordamida keyinchalik ishlangan yozuvlarni olib tashlash uslubi.

Dastgohli rangtasvir asari ustidan keyinchalik qayta ishlov berilgan qatlamni olib tashlash uslubi.

Dastgohli rangtasvir asarini yangi lak bilan qoplash uslubi.

7) Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini yo‘qotilgan joylarini tiklash.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini tuslangan materiallari.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini bo‘yoq qatlamini ko‘chgan joylarini tiklash uslubini tanlash.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini bo‘yoq qatlamini kichik ko‘chgan joylarini asl holicha tiklash.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini bo‘yoq qatlamini ko‘chgan joylarini, bo‘yoqlar yordamida neytral tiklash usuli.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini bo‘yoq qatlamini ko‘chgan joylarini, bo‘yoqlar yordamida shartli koloristik uslubda tklash.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini haddan tashqari ko‘chgan joylarini qayta tiklash va nusxa ko‘chirish uslubi.

8) Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini qadoqlash, tashish va muzeyda saqlash uslubi.

9) Tasviriy san‘at asarlarini o‘rganish, saqlash va ta‘mirlash.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta‘mirlashda nazariya va san‘at tarixi sohasidagi mutaxassislarni faoliyati.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta‘mirlashda muzeyshunoslik sohasidagi mutaxassislarni faoliyati.

Konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislarni faoliyati.

Konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislarni tayyorlash va o‘rgatish.

Uchinch toifa konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislardan talablar.

Ikkinchi toifa konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislardan talablar.

Birinchi toifa konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislardan talablar.

Oliy toifa konservator va ta‘mirlovchi mutaxassislardan talablar.

Ta‘mirlash nazariyasi va amaliyotida mutaxassislik fanidan san‘atshunoslik, muzeyshunoslik, fizika va kimyo hamda dastgohli rangtasvir texnik-texnologik jihatlariga asosiy e‘tibor qaratiladi. Shu bilan birga ta‘mirlovchi dasgohli rangtasvir rassom mutaxassis bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga konservatsiya va ta‘mirlash jarayonlarining jihatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu soha uchun dolzarb uslubiy muammo - yaxlit tizim sifatida tiklash jarayonining barcha qismlarining o‘zaro bog‘laydi.

XXI asrda O‘zbekiston Respublikasining san‘at obyektlarini ta‘mirlash masalalari jadal va ko‘p qirrali rivojlanmoqda. Ekspansiya faoliyatining kengayishi, san‘at bozorining o‘sishi, ta‘lim muassasalarida "Ta‘mirlash" mavzusini bugungi kunda dolzarb muammolardan qilib qo‘ymoqda.

Bu borada ta‘mirlashga oid fundamental tadqiqotlar, ilmiy asarlar to‘plamlari, ta‘mirlash bo‘yicha qo‘llanmalar nashr etilishi, filmlar, veb-saytlar va internet sahifalarini yoritish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dastgohli moybo‘yoq va temperali rangtasvir asarlarini ta‘mirlash mutaxassisligi keng qamrovli bilim sohasi bo‘lib, ikki yo‘nalishdagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi, ushbu mutaxassis shu jumladan san‘at tarixchisi, dasgohli rangtasvir texnolog, madaniyatshunos, madaniyat merosni saqlovchi, atribut eksperti, ikonograf va ta‘mirlash konservatori sohalarini qamraydi.

San'atshunoslar va muzey xodimlarining amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ta'mirlash sohasidagi bilimlarning yetishmasligi madaniy yodgorliklar obyektlari hayotini noto'g'ri tushunishga, san'at asarlarini sifatsiz talqin qilishga, ularni noto'g'ri ekspert baholashga, tavakkal qilishga olib keladi. Ayniqsan havaskor ta'mirlovchi, ba'zan muzeylar va ayniqsa shaxsiy kolleksiyalar uchun katta yo'qotishlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. А.Б.Алешин. Реставрация станковой масляной живописи 2009 г.
2. Ю.Г.Бобров, Ф.Ю.Бобров. Консервация и реставрация станковой темперной живописи 2008 г.
3. Кудрявцев Е.В. Техника реставрации картин 2002 г.
4. Под редакцией В.В.Филатова. Реставрация станковой темперной живописи 1986
5. Кудрявцев Е.В. Техника реставрации картин 1948 г.

**MUZEY DIZAYNIGA OID MAHALLIY TADQIQOTLAR: TARIXIY
JARAYON, MUAMMO VA ISTIQBOLLAR
ОТЕЧЕСТВЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ МУЗЕЙНОГО
ДИЗАЙНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС, ПРОБЛЕМЫ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
DOMESTIC RESEARCH IN THE FIELD OF MUSEUM DESIGN:
HISTORICAL PROCESS, PROBLEMS AND PROSPECTS**

**Jabbarova Latofat Tulkinjonovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda muzeylar qurilishi va muzeyshunoslikning shakllanishi, shuningdek, muzey dizayni masalalari yoritilgan. Mahalliy ilmiy manbalar asosida muzeylar arxitekturasi, ekspozitsiya dizayni va dizayn sohasidagi dolzarb muammolar tahlil qilingan. Maqolada muzey dizayniga oid fundamental tadqiqotlar yetishmasligi hamda bu yo'nalishda izlanishlar olib borish zarurligi asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы музейного строительства и становления музейного дела в Узбекистане, а также вопросы музейного дизайна. На основе отечественных научных источников были проанализированы актуальные проблемы в области архитектуры музеев, оформления экспозиций и дизайна. В статье обосновывается отсутствие фундаментальных исследований в области музейного дизайна, а также необходимость проведения исследований в этом направлении.

Annotation: This article highlights the issues of museum construction and the establishment of museum business in Uzbekistan, as well as museum design issues. On the basis of Russian scientific sources, the current problems in the field of museum architecture, exhibition design and design were analyzed. The article substantiates the lack of fundamental research in the field of museum design, as well as the need for research in this area.

Kalit so'zlar: muzey dizayni, ekspozitsiya, arxitektura, madaniy meros, ilmiy tadqiqot, ekspodizayn, fond, ko'rgazma, muzeyshunoslik.

Ключевые слова: музейный дизайн, экспозиция, архитектура, культурное наследие, научные исследования, эксподизайн, фонд, выставка, музейное дело.

Key words: museum design, exposition, architecture, cultural heritage, scientific research, expodesign, foundation, exhibition, museology.

O'zbekiston muzeylari tarixiga nazar solganimizda, ularning shakllanishi va rivojida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari, amaliy faoliyati muhim o'rin tutganini ko'ramiz. A.Fedchenko, I.Mushketov, V.Oshanin, V.Bartold kabi rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar dastlabki muzeylar, tarixiy-etnografik va tabiiy fanlar sohasidagi boy ma'lumotlarni to'plab, kelajak

avlod uchun bebaho meros qoldirishga xizmat qilgan. Mustaqillik yillarida esa muzeylar arxitekturasi va ekspozitsion dizayniga bo'lgan talablar tubdan o'zgardi. Dizayn sohasining alohida yo'nalishga aylanishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va zamonaviy san'at vositalarining joriy etilishi muzeylar faoliyatini yangicha bosqichga olib chiqdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston muzeyshunosligida muzey arxitekturasini va dizayni masalalari ham muhim ilmiy mavzuga aylana boshladi. Biroq bu borada fundamental tadqiqotlar, ayniqsa muzey dizaynini alohida obyekt sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Shuning uchun ham ushbu yo'nalishda olib borilgan mavjud mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Mazkur tadqiqot obyekti bo'yicha ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, K. Akilovning «Dizayn nazariyasi, amaliyoti va rivojlanish istiqboli» nomli maqolasida O'zbekistonda dizaynning turli sohalarini, jumladan, badiiy dizayn, interyer dizayni, grafik dizayn va sanoat dizayni kabi yo'nalishlar chuqur badiiy va estetik tahlil etilgan. K. Akilova ushbu maqolada dizaynning rivojlanish istiqbollari, uning jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, O'zbekistonning madaniy merosini saqlashda dizaynning o'zini va roli haqida fikr yuritgan. Maqolada dizaynning amaliyoti va nazariyasining zamonaviy yondoshuvlari, shuningdek, dizayn sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistondagi dizayn sohasining kelajakdagi rivojlanishiga oid dolzarb masalalarni ko'rsatib beradi.

J. Ismailovning «Zamonaviy muzeyshunoslik asoslari» manbasida muzey binolari va ekspozitsiyasi dizayni borasida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Muallif, zamonaviy muzey dizaynining innovatsion yondoshuvlarini, arxitektura va interyerining funksional talablarini ko'rib chiqqan.

3. Tadqiqot metodologiyasi:

O'zbekistonda muzeylar qurilishining boshlanishi respublikada dastlabki muzeylar tashabbuskorlari va yaratuvchilari – A. Fedchenko, I. Mushketov, V. Oshanin, V. Bartold kabi rus tadqiqotchi olimlari nomi bilan bog'liqdir. Ularning geografiya, geologiya, botanika, zoologiya va tarix bo'yicha puxta yaratilgan asarlarida tarixiy-etnografik va boshqa qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

N. Sodiqova, R. Almeyev, I. Ilalov, J. Ismailova, D. Kuryazova ilmiy ishlarida O'zbekistonda dastlabki muzeylarning paydo bo'lishi, muzeylar boshqaruvi, muzeylarda ilmiy fond ishlarini tashkil etish, zamonaviy jahon

muzeyshunosligi dolzarb muammolari kabi masalalarni keng yoritganlar.

N. Sodiqovning «Madaniy yodgorliklar xazinasi» manbasida O'zbekistonda muzey ishining shakllanishi, muzeylar qurilishining taraqqiyoti, muzeylarning ilmiy-oqartuv faoliyati, muzey fondlari kolleksiyalarini komplektlashtirish, muzeylarning yig'uv-to'plov hamda noshirlik faoliyatining ilmiy asoslari keng tahlil etilgan.

T. Qodirovning «Архитектура Советского Узбекистана» kitobida O'zbekistonda 1966-yildan keyin olib borilgan bunyodkorlik ishlari yoritilib, O'zbekiston davlat san'at muzeyi hamda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi binolari arxitekturasini borasida qisman tahliliy ma'lumotlar berib o'tilgan. Muzey binolari arxitekturasini, shu davrda olib borilgan modernizm va funksionalizm yo'nalishlariga asoslanib qurilganligi, shuningdek, ularning zamonaviy va milliy me'moriy elementlar bilan uyg'unlashganligi ko'rsatilgan. Binolarning tashqi ko'rinishi va ichki dizayni, ularning eksponatlarni taqdim etish va tashrif buyuruvchilar uchun qulay muhit yaratish kabi funksional talablarni qondirishga qaratilgan.

Muzeyshunoslik fanini qamrab olgan jihatlar, ya'ni respublikamizda muzeylarning tashkil topish tarixi, ularni tashkil etishda mahalliy to'plovchi-yig'uvchilarning o'zini, muzeyga to'plangan ashyolarning mazmun va ma'no jihatdan umumlashtirilishi M. Bekmurodov, M. Rashidova tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmada yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin dizayn badiiy ijodning keng ommalashgan turlaridan biriga aylandi. Bunga bozor munosabatlarining rivojlanishi, kichik va o'rta biznesning ko'plab korxonalari ochilishi, xalqaro madaniy aloqalar o'rnatilishining jadallashuvi, jamiyatning axborotlashuvi kabi omillar sabab bo'ldi. Dizayn yosh mustaqil davlatning madaniy siyosati sohasiga aylangani O'zbekiston hukumatining dizayn sohasi rivojiga bag'ishlangan qarorlarida o'z aksini topdi.

O'zbekistonda ham respublika darajasida, ham xorijiy mutaxassislar ishtirokida dizayn sohasida ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, master-klasslar, treninglar o'tkazilmoqda. Grafika, libos, interyer va landshaft dizayni turlari keng tarqaldi. Turli xalqaro ko'rgazma, biennale, art-loyihalarning tashkil qilinishi, shuningdek, rassomlarning xorijiy davlatlardagi ko'rgazmalarda ishtirok

etishi ekspodizayn muammosini ham dolzarblashtirdi.

2023-yil 19-aprel kuni O'zbekiston Badiiy akademiyasining anjumanlar zalida Xalqaro an'anaviy Tasviriy va amaliy san'at festivali doirasida «MUZEY DIZAYNI: amaliyot va tajriba» mavzusidagi davra suhbatı bo'lib o'tdi. Davra suhbatida soha mutaxassislari, Madaniy meros agentligi xodimlari, 50 dan ziyod muzey rahbarlari va ilmiy xodimlari, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti «Muzeyshunoslik» kafedrası professor-o'qıtuvchilari hamda talabalari ishtirok etishdi.

Bahs-munozara shaklida tashkil etilgan davra suhbatı davomida zamonaviy muzey dizayni, ekspozitsiya va ko'rgazma dizaynida rang va yorug'lik yechimi, grafik dizayndagi kamchiliklar, muzeylar bilan dizaynerlar hamkorligidagi muammolar kabi dolzarb masalalar ko'rib o'tildi. Mazkur davra suhbatı ishtirokchilari tomonidan ko'rilayotgan mavzular doirasi kengligi, uning yechimini topish yuzasidan nafaqat muhokama qilish balki, muzey xodimlari uchun uslubiy qollanma sifatda respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazib, maqolalar to'plamini nashr ettirish taklifi berilgan edi.

XX asrda O'zbekistonda dizayn bo'yicha nashr qilingan ilmiy ishlarda bayon qilingan nazariy fikrlar o'zining badiiy madaniyati, o'tmish an'anasi va kelajak innovatsiyasi, teran sayqal berilgan sharqona madaniyatini va jadal rivojlanayotgan yevropacha madaniyat bilan uyg'unlashtirayotgan O'zbekiston dizayni muammosini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

4. Tahlil va natijalar:

O'zbekistonda dizayn sohasida olib borilgan tadqiqotlar sanoqli bo'lsa, aynan muzey dizayni borasidagi izlanishlar esa mavjud emas. Aksariyat olib borilgan tadqiqotlarda muzeyshunoslik sohasining turli muammo va yechimlari keltirib o'tilgan.

M.Muxamedovanning «O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr II yarmi – XXI asr boshlari)» monografiyasida O'zbekistonda joylashgan tarixiy-madaniy meros obyektlarining muzeylashtirilishi va ulardan foydalanish jarayonlari, madaniy turizm tizimida asosiy marshrutlar faoliyati, muzey va tarixiy yodgorliklarda ekskursiya xizmatini tashkil etish tartibi yoritilgan.

Sh.Miraliyeva, V.Fayziyeva tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda O'zbekistondagi badiiy muzeylarning rivojlanishi, jahon va O'zbekistondagi virtual muzeylar, O'zbekiston davlat san'at muzeyi tarixi va rivojlanish istiqbollari o'rganganlar.

K.Nishanovanning «O'zbekistonda badiiy muzeylarning rivojlanish tendensiyalari» monografiyasida XX asr va XXI asr boshlarida O'zbekistonda muzeylarni tashkil etish, boshqarish hamda badiiy muzeylardan O'zbekiston davlat san'at muzeyi, I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi, O'zbekiston davlat amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeylari faoliyatining rivojlanish jarayoni yoritilgan. Shu bilan birga malakali muzeyshunos kadrlarni tayyorlashdagi dolzarb masalalar tahlil etilib, muzey ishini targ'ibot va tashviqot qilishdagi muammolar va tavsiyalar tahlil etilgan.

«Moziydan sado» hamda «San'at» jurnallarida soha vakillari tomonidan muzeyshunoslik sohasidagi yangiliklar, dolzarb muammolar atroflicha o'rganilib, muayyan bir masalani yoritishga qaratilgan.

Jumladan, R.Almeyerov maqolasida muzey ishlarining zamonaviy rivoji muzey jamg'armalarini saqlashning to'laqonli tartibini yaratib bera oladigan yangi ixtisoslashtirilgan binolar qurilishini taqozo qilishini va bu borada loyihalar ishlanishida, jahon amaliyotida qo'llanilgandek arxitektorlar, quruvchilar, muzey xodimlari ishtirok etishlari lozimligini ta'kidlagan.

XXI asrda rivojlangan va zamonaviy muzeylarning noan'anaviy tarzda ekspozitsiyalarini o'zgartirish jarayonlari J.Ismoilovanning «Noan'anaviy muzeylar» nomli maqolasida yorqin ifodasini topgan. Muallif tomonidan quyidagi fikrlar bildirib o'tilgan: «aksariyat muzeylar hozirda an'anaviy va noan'anaviy ko'rinishda o'zini namoyon qilmoqda. An'anaviy muzeylarning ekspozitsiyasi o'zining jiddiy ichki strukturasi va mazmun mohiyatiga ega. Bunday muzeylarning asosiy vazifasi eksponatlarni to'plash, saqlash va namoyish etishdan iborat. Noan'anaviy muzeylar yangi yo'nalish va yangi talqin asosida shakllangan muzeylar bo'lib, ular uchun tartib va qoidalarining chegarasi yo'q. Bunday muzeylar muntazam ravishda o'zgarib, unda doimo qandaydir yangilik sodir bo'ladi» □5;36□.

5. Xulosa va takliflar:

Aynan muzey binolari va ekspozitsiyasi dizayni bo'yicha o'zbek tilida yaratilgan ilmiy maqola va tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Bu holat O'zbekistonda muzeysunoslik fanining ayrim yo'nalishlari, xususan dizayn masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmay kelayotganini ko'rsatadi. Aksariyat mavjud tadqiqotlar muzeylar tarixi, ularning tashkil topishi, fond ishlarini yuritish va ekskursiya faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ekspozitsiya dizayni, rang va yorug'lik muvofiqligi, interyer yechimlari, ekspozitsion uslublar, ekspozitsiya maydonini tashkil etishdagi zamonaviy texnologiyalar kabi masalalar chuqur ilmiy tahlil qilinmagan.

Xorijiy, ayniqsa Rossiya, Yevropa va AQSh tadqiqotchilari tomonidan muzey dizayni mustaqil fan sohasiga aylangan bo'lib, u alohida yo'nalishda tahlil qilinadi. Ular zamonaviy muzey arxitekturasi, foydalanuvchi qulayligi, innovatsion texnologiyalar, interaktiv ekspozitsiyalar va muhit dizayniga katta e'tibor qaratadilar.

O'zbekistonda esa bu soha hali shakllanish bosqichida bo'lib, mavjud tadqiqotlarda muzey binolari va ekspozitsiyasi dizayni muzeylar rivojlanishining umumiy tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi, xolos. Fundamental maqolalar, tahliliy ishlanmalar, ilmiy konsepsiyalar va dizayn metodikasi asosida tuzilgan tahlillar mavjud emas. Shu bois, muzey dizayni bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar yaratish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda o'zbek muzeylarining milliy dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акилова К. Дизайн назарияси, амалиёти ва ривожланиш истиқболи. // San’at. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 6-11.
2. Akilova K. O‘zbekiston zamonaviy muzeylari: muammolar, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari // San’at. – Toshkent, 2024. – № 2. – Б. 16-20.
3. Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Гафур Гулям. 2007. – 268 с.
4. Исмаилова Ж. Замонавий музейшунослик асослари. – Т.: Турон Замин Зиё, 2016. – 324 б.
5. Исмаилова Ж. Ноанъанавий музейлар // Мозийдан садо. – Тошкент, 2015. – № 3 (67). – Б. 36-38.
6. Кадырова Т. Архитектура Советского Узбекистана. – М.: Стройиздат, 1987. – 319 с.
7. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 266 б.

XX ASRNING 20-30 YILLARIDA SAMARQAND MUZEYIDA
ETNOGRAFIK KOLLEKSIYALARNI TO'PLANISHI VA TADQIQ
ETILISHIGA DOIR

ON THE COLLECTION AND RESEARCH OF ETHNOGRAPHIC
COLLECTIONS IN THE SAMARKAND MUSEUM IN THE 20-30S OF
THE 20TH CENTURY

О СБОРЕ И ИССЛЕДОВАНИИ ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ
В САМАРКАНДСКОМ МУЗЕЕ В 20-30 ГОДЫ XX ВЕКА

Qo'chqarov Sobir Abdiraubovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada Samarqand muzeyida XX asrning 20-30 yillarida etnografik ashyolarni to'plash va kolleksiyalarga jamlash, ularni ilmiy tadqiq etish va muzeylashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolani tayyorlashda muallifning Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida faoliyat yuritgan vaqtlarida to'plagan ilmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы собирания и коллекционирования этнографических предметов в Самаркандском музее в 20-30 годы XX века, их научного исследования и музеефикации. При подготовке статьи использованы научные данные, собранные автором за время его работы в Самаркандском Государственном музее-заповеднике.

Annotation: The article deals with the issues of collecting and collecting ethnographic objects in the Samarkand Museum in the 20-30 years of the twentieth century, their scientific research and museification. The scientific data collected by the author during his work in the Samarkand State Museum-Reserve were used in the preparation of the article.

Kalit so'zlar: muzey, ashyolar, etnografiya fondi, artel, kashta, naqshlar, gilam, kostyum.

Ключевые слова: музей, предметы, этнографический фонд, артель, вышивка, узоры, ковер, костюм.

Key words: museum, objects, ethnographic fund, artel, embroidery, patterns, carpet, costume.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida bugungi kunga kelib jami 240 mingga yaqin ashyo saqlanadi. Shundan etnografik ashyolar 23 mingtadan ortiqni tashkil etadi. Ushbu ashyolar turli tarixiy sharoitlarda, turli shaxslar tomonidan yig'ilgan.

Muzey-qo'riqxonaning etnografik kolleksiyalarining to'planishi, tadqiq etilishi, namoyish etish ishlari muzeyga asos solinganida, muzeyga dastlab qabul qilingan uchta baland poshnali yog'och oyoq kiyim, bronzadan ishlangan idishlar, yog'och kosa va qoshiqlar, Darboz egarlari [4:4-5] va boshqa tasodifiy qabul qilingan birinchi etnografik buyumlar kelishi bilan boshlangan. Ammo oktyabr to'ntarishiga

qadar muzeyning etnografik kolleksiyalarini tizimli yig'ish amalga oshirilmagan.

Muzeyning ilk xodimlarining ilmiy qiziqishlari arxeologiya va hududning tabiiy boyliklarini o'rganishga qaratilgan. Samarqand shahri va Samarqand viloyatida yashovchi xalqlarning maishiy turmushini o'rganish ishlari olib borilmagan. Ushbu davrda muzeyning etnografik kolleksiyalari asosan mahalliy aholining va amaldorlarning hayr-ehsonlari hisobiga to'ldirilardi.

Eksponatlarni tanlash mutlaqo tasodifiy bo'lgan va ularning soni ikki yuztaga yaqin edi xolos [9:36]. Sovet davlati o'rnatilgach, 1917-yilgi o'zgarishlar muzeylar tizimida ham

namoyon bo'ladi. Muzey ish sohasini tartibga solish borasida ishlar boshlanadi. Dastlab, 1918-1920-yillarda muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi yaratiladi [7:30]. Muzey ishining biroz jonlanishiga qaramay, uning ilmiy va kolleksiyalarni yig'ish ishlari umuman, shu jumladan, etnografiya sohasida ham tezda rivojlanib ketmadi. Shunga qaramay etnografik kolleksiyalarning asta-sekin o'sishi davom etdi. Ushbu davrning etnografiya oid eng qiziqarli tushumlaridan biri muzeyga berilgan istiqloлчаlardan olingan qurollar to'plami edi. Bu ashyolar bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan boshlangan fuqarolar urushi va uning yakunlanishi, qaram o'lkalarda boshlangan istiqloлча harakati va harakatning birin-ketin mag'lubiyatga uchrashi oqibatida qo'lga kiritilgan qurol-aslahalar, ular bilan bog'liq tarixiy jarayonlar aks etgan ashyolar edi.

Unda yog'och miltiqalar va pistoletlar, gurzi, shuningdek, istiqloлча bilan birga harakat qilgan "oqlar" ofitserlari tomonidan ishlab chiqarilgan deb hisoblanadigan qo'l bola pulemyotlar bor edi. Muzeyda etnografik kolleksiyalarni yig'ish va o'rganish XX asrning 20-yillari o'rtalaridan rivojlana boshladi. Mahalliy aholi vakillaridan Zaripov va Kurtmullaeva bilan birga Velikoshevskaya ham o'sha vaqtda muzeyda etnograf sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ular O'zbekiston aholisining maishiy tumushini o'rganishga katta ishtiyoq bilan ishlaganlar va buni ifodalovchi kolleksiyalarni yig'ganlar.

Shu tariqa etnografik kolleksiyalar soni ko'payib boradi. Natijada maxsus etnografiya fondini yaratish zarurati tug'iladi. O'sha vaqtda sovet davlati tomonidan kommunistik mafkurani odamlar ongiga singdirish uchun o'ylab topilgan "madaniy inqilob uchun kurash" va 1927-1928-yillarda yuz bergan "Hujum harakati" Samarqand muzeyida "O'zbekiston ayollarining mehnati va turmushi" bo'limini tashkil etilishishiga olib keladi. Bu mavzuda o'sha paytda qurilgan ekspozitsiyada rassom Z.Kovalevskaya tomonidan yaratilgan sahnalar "eski hayot"ning salbiy tomonlarini aks ettirgan [3:13]. Ushbu sahnalarga qarama-qarshi ravishda ayollarning mehnatda, kolxoz hayotida, savodsizlikni tugatish maktablaridagi ishtiroki tasvirlangan rang-barang sahnalar namoyish etilgan. Maxsus stendlarda paranjini yechish va bunga mahalliy aholining reaksiyasini aks ettiruvchi lavhalar namoyish etiladi.

Mazkur davr etnografik kolleksiyalarning sezilarli darajada o'sishi bilan ajralib turardi. Kolleksiyalar nafaqat aholidan ashyolar sotib olish bilan, balki Xorazm, Buxoro, Farg'ona vodiysining ba'zi shaharlari va Samarqand viloyatining bir qator tumanlarini o'z ichiga olgan maxsus ekspeditsiyalar tashkil etish bilan ham to'ldirib borilgan. Muzey etnografik kolleksiyasiga asosan XIX asrga oid etnografik kolleksiya bilan birga o'sha vaqtda faoliyat ko'rsatgan to'quv fabrikalari-artellarning mahsulotlari, yangi texnika bilan tayyorlangan, yangi ishlab chiqilgan mahsulotlar namunalarini ham olinadi. Shu davrdan boshlab, garchi biroz sayoz bo'lsada kolleksiyalarning birinchi ilmiy tavsifini shakllantirilishi boshlanadi.

1935-1938 yillarda muzeyda etnografik kolleksiyalarni to'plash va tadqiq etish ishlari intensiv shaklda olib borilgan. 1935-yilda muzey ekspozitsiyasida etnografiya bo'limi tashkil etilgan [8:1-2]. Ushbu davrda ilmiy-tadqiqot va ilmiy-yig'ish ishlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Muzey fondlarida shu vaqtgacha to'plangan, biroq ilmiy tavsifi yozilmagan buyumlar ustida tadqiqot ishlari olib boriladi. Buni O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini chuqur o'rganish orqali amalga oshirish mumkin edi. Natijada, ilgari ilmiy tavsifi yozilmagan ko'plab etnografik buyumlarni aniqlash va tasniflash ishlari, shuningdek, dekorativ kashtado'zlik, kostyumlar, to'quv tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ya'ni kolleksiyalar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan parallel ravishda to'ldirib borilgan. Natijada Samarqand muzeyi katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab kolleksiyalarni to'playdi. 30-yillarning oxiriga borib muzeyda 5500 ta etnografik eksponatlar yig'ilib, ular 116 ta kolleksiyaga birlashtirilgan.

1938-yilda Samarqand muzeyining viloyat muzeyiga aylantirilishi etnografiya oid kolleksiyalarni yig'ish va tadqiq etish ishlarini biroz susayishiga olib keladi, aholidan ashyolarni sotib olish sezilarli darajada kamayadi, ekspeditsiyalar deyarli to'xtaydi. Ammo bu ishlar butunlay to'xtab qolgani yo'q.

Muzeylarning asosiy vazifasi bo'lgan moddiy madaniyatning turli tarmoqlarini o'rganishdan tashqari, Samarqand muzeyi mavzudan chiqib, bir qancha tadqiqotlarni ham olib borgan. Masalan, o'sha davrda amalga oshirilgan xalq me'morchiligi tarixi va xalq maishiy turmushida saqlanib qolgan ibtidoiy din shakllari (animizm, shamanizm) sohasidagi

tadqiqotlar ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Ushbu tadqiqotlar asosida olingan natijalar moddiy madaniyat masalalarini to'g'ri va yanada chuqur tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ekspozitsiyalarni ishlab chiqishda ham, kolleksiyalarni ilmiy qayta ishlashda ham o'z aksini topadi. Bu davrda olib borilgan muzey etnografiya kolleksiya bilan bog'liq tadqiqot ishlaridan biri bu - kashtalar kolleksiyasi tadqiq etish bo'ldi. Kolleksiya Samarqandning 15 ta tumanidan to'plangan bo'lib, 400 donani tashkil etgan [5]. Ularni to'plashda har bir xonadonga muzey xodimlari shaxsan borishgan. Samarqand kashtalari to'plami 140 nusxadan iborat bo'lib, unda so'nggi yuz yil ichida ushbu san'atning butun evolyusiyasini kuzatish mumkin edi. Natijada muzeydagi mavjud kashtalarning aksariyati batafsil ilmiy tavsifga va aniq sanasiga ega bo'ladi.

Ulardan ba'zilari ma'lum rassomlar-chizmachilar va kashtachilar tomonidan yaratilgan shaxsiy buyumlar edi. Ayni paytda kashta namunalari chizuvchilarning o'zlari tomonidan yaratilgan naqshlarning albomlari bilan to'ldiriladi. Muzey etnografi O. Suxareva tomonidan ushbu materiallarni yig'ish jarayonida chizmachilar va kashtachilar bilan ishlash metodologiyasi ishlab chiqilgan edi [10]. Shunday qilib, chizmachilar va kashtachilar yaratgan albomlarda 1875, 1880, 1895, 1906, 1916 yillarga oid kashtalarning to'liq to'plamlari yig'iladi. Ushbu material XIX-XX asrlar dekorativ kashtalari tarixini davriylashtirish va bir qator nazariy masalalarni hal qilish uchun mustahkam asos yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, to'plangan barcha materiallar hali o'rganilmagan va ilmiy qayta ishlanmagan.

XX asrning 20-30 yillarida Samarqand muzeyida to'plangan 350 ta kiyim-kechak va 200 ga yaqin bosh kiyimlardan iborat bo'lgan juda katta muzey kolleksiyasi ma'lum bir kolleksiyaga oid bo'lmasdan, turli buyumlardan iborat edi. Faqatgina muzey xodimi A.K. Pisarchik tomonidan Nurota kostyumlari tarixini o'rganish vaqtida to'plangan kolleksiya bundan mustasnodir.

Bu davrda to'qimachilik tarixini o'rganish ikki yo'nalishda amalga oshirilgan. Birinchisi muzeyda dastgohlar, turli xil asboblari, materiallar namunalari va fotosuratlar to'plami yordamida to'quv texnikasida mehnat qilish jarayonlarini tasvirlash bo'lsa, ikkinchisi matolarning badiiy dizayni o'rganish edi.

Bezakli matolar muzeyda mavjud kiyim-kechak, ko'rpa yoki dasturxondan olingan mayda bo'laklar yordamida tadqiq etilgan. Ular besh yuzga yaqin namunalarni o'z ichiga olgan albomlarga jamlangan bo'lib, muammoni o'rganish uchun eng qimmatli manbalar hisoblanadi. Muzey etnograflari tomonidan tuzilgan ushbu albomlarda Xorazm, Buxoro, Samarqand, Urgut, Nurota matolari namunalari to'plangan. Ushbu namunalar har bir hududning matolarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Samarqand muzeyida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ishlab chiqarilgan deyarli barcha turdagi matolarni namoyish etishga imkon beradigan eksponatlar mavjud. Bular gul bosilgan mato namunalari, gul bosish uchun ishlatilgan qoliplar kolleksiyasi va ushbu jarayon bilan bog'liq jihozlar to'plamidan iborat. Muzeyda nozik shaffof ipak ro'mol - «kalag'ay»dan tortib, nisbatan dag'al to'qilgan palaslar kolleksiyasigacha to'plangan.

XX asrning 30-yillari oxiriga kelib Samarqand muzeyida jami 80 ta gilamdan iborat kolleksiya to'plangan edi [6]. Hozirgi vaqtga kelib ularning soni 470 taga yetgan. Ushbu kolleksiya muhim ilmiy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Muzeyning gilamlar kolleksiyasi V. G. Moshkova tomonidan ilmiy tadqiq etilgan va tavsiflangan. Ushbu kolleksiyada bir nechta beshir gilamlarining mavjudligi e'tiborni tortadi. Ularning orasida etnograf olimi V. G. Mashkova tomonidan muzeyga topshirilgan XVIII asr oxiriga tegishli noyob gilam ham mavjud.

Mazkur davrda to'plangan sopol buyumlar kolleksiyasi ham diqqatga sazovordir. O'sha vaqtda kolleksiya 250 ta buyumdan iborat bo'lgan. Shunday bo'lsa ham unda O'zbekiston va Shimoliy Tojikistonning deyarli barcha tumanlariga oid badiiy sopol namunalari jamlangan. Ushbu kolleksiyaga ilmiy ishlov berish uchun Rahimov boshchiligidagi mahalliy usta-kulollar jalb qilingan.

Urushning og'ir yillari muzeyning etnografiya kolleksiyalarini to'plash va tadqiq etish ishlarini deyarli to'xtatadi. Biroq, bu yillarda ham, mablag' yetishmasligiga qaramay, ba'zi eksponatlar sotib olingan. Jumladan, kashtalar to'plami bir nechta yangi namunalar bilan to'ldirilgan, zargarlik ustaxonasi uskunolari, yog'och o'ymakorligi asboblari va boshqalar sotib olingan.

1945-yil oktabrda O'zbekiston SSR hukumatining qarori bilan Samarqand viloyati

o'lkashunoslik muzeyi O'zbek xalqi madaniyati Respublika muzeyi deb qayta nomlanadi [2:4]. Muzey yo'nalishining o'zgarishi etnografiya kolleksiyalarini to'plash va tadqiq etish uchun kengroq imkoniyat ochib beradi. Ilmiy jihatdan qimmatbaho to'plamlarga ega bo'lgan Samarqand muzeyi oldida endi kolleksiyalarni yanada to'ldirish, o'rganilmagan hududlarga ekspeditsiyalar tashkil etish, u yerda mavjud bo'lgan ustalar va hunarmandlarni aniqlash, ularning asarlari namunalarini to'plash va ularning ishlarini o'rganish, chizmachilarning rasmlari, mato namunalari, kashtado'zlik to'plamlari, kiyim-kechak, asboblarning albomlarini boyitish vazifasi qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yunusov M.A. Samarqandda muzey ishi tarixi. Monografiya. Toshkent-2024 yil. 8-bet.
2. Годовой отчет Самаркандского музея за 1946 года. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 120-jild, 4 b.
3. Докладные записки и планы работ Самаркандского музея за 1927-1930 г.г. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3-jild, 13 b.
4. Книга записку предметов, поступающих в музей Самаркандского областного статистического комитета. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga‘arma, 1-ro‘uxat, 514a-jild. 4-5 betlar.
5. Коллекция бухарских, нуратинских и шахрисабзских вышивок. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi etnografiya fondi E-75 raqamli inventor kitobi. 184 bet.
6. Коллекция ковров и ковровых изделий. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi etnografiya fondi E-90 raqamli inventar kitobi. 360 bet.
7. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.— Москва: Издательство «ВК», 2003. - С. 130.
8. Отчет о работе ЦГМ УзССР в г.Самарканд за 1935 год. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 97-jild, 1-2 b.
9. С отчетностью Самаркандского областного музея за 1923-1924 г.г. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 69-jild, 36 b.
10. Сухарева О.А. «Инструкция по изучению декоративных вышивок за 1934 г.». Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga‘arma, 1-ro‘uxat, 587-jild

**MUZEYLARDA KARPOLOGIK VA DENDROLOGIK
KOLLEKSIYALARNI SAQLASH TARTIBI
ПОРЯДОК ХРАНЕНИЯ КАРПОЛОГИЧЕСКИХ И
ДЕНДРОЛОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ В МУЗЕЯХ
ORDER OF CONSERVATION OF CARPOLOGICAL AND
DENDROLOGICAL COLLECTIONS IN MUSEUMS**

Qoraboyev Usmon Hosilovich
Falsafa fanlari doktori, professor
Sayidova Nilufar Bahodir qizi

Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy ilmiy muzeylar kolleksiyalarining asosiy qismini tashkil etuvchi karpologik(urug'lar, mevalar) dendrologik (noyob turdagi daraxtlar va butalar) namunalarni tayyorlanishi saqlanishi jarayonlari bayon qilingan. Dunyodagi eng qadimgi va boy kolleksiyaga ega muzeylardan biri V.L.Komorov nomidagi institut qoshida tashkil qilingan Botanika muzeyi kolleksiyalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье описаны процессы подготовки и хранения карпологических(семена, плоды) и дендрологических (редкие виды деревьев и кустарников) образцов, составляющих основную часть коллекций естественнонаучных музеев. Один из старейших и богатейших в мире музеев с коллекцией В.Л.Подобно описаны коллекции Ботанического музея, созданного при институте имени Коморова.

Annotation: This article describes the processes of preservation of the preparation of carpological (seeds, fruits) dendrological (rare species of trees and shrubs) specimens, which make up the bulk of the collections of natural scientific museums. One of the oldest and richest collection museums in the world is V.L.Detailed information is given about the collections of the Botanical museum, which was established at the Komorov Institute.

Kalit so'zlar: Botanika muzeyi, gerbariy, karpologik namunalar, dendrologik kolleksiya, paleobotanik kolleksiya, "iqtisodiy botanika" kolleksiyasi.

Ключевые слова: Ботанический музей, гербарий, карпологические образцы, дендрологическая коллекция, палеоботаническая коллекция, коллекция "экономическая ботаника".

Key words: Botanical Museum, herbarium, carpological specimens, dendrological collection, paleobotanic Collection, Collection "Economic Botany".

Boshqa ixtisosliklardagi muzeylar singari Botanika muzeylari ham ilmiy tadqiqot faoliyatida olib boradigan ishlari hamda tabiiy merosni asrashda muhim rol o'ynaydi. To'plangan kolleksiyalar flora dunyosining xilma xilligini, tarqalish geografiyasi hamda evolyutsion jarayonlarini aks ettiruvchi qimmatli ilmiy manbalardir. Biroq ularni saqlab qolish, kelajak avlodga yetkazish muhim va mas'uliyatli jarayondir. Har bir namuna o'ziga xos namlik va haroratni, himoya usullarini va ilmiy

yondashuvni talab qiladi. Aynan yuqoridagi talablarga mos ravishda faoliyat yuritib kelayotgan muzeylardan biri bu V.L. Komorov nomidagi Botanika instituti qoshida tashkil qilingan Botanika muzeyidir. Botanika muzeyi nafaqat Sankt-Peterburg shahrining balki Rossiyadagi eng qadimiy muzeylardan biri sanaladi. Muzey yaratilish tarixi ko'p davrlarni qamrab oladi. Muzeyning tashkil topgan sanasi sifatida rasman 1823-yil qabul qilingan[1]. Muzey joylashgan bog' esa 1714 yilda Pyotr I

tomonidan tashkil qilingan. Hozirda Botanika muzeyi V.L.Komorov nomidagi botanika instituti qoshidagi botanika muzeyi hamda maxsus laboratoriyasi sifatida faoliyat olib bormoqda. Muzeyda botanika kolleksiyalarni yig'ish va saqlashga ixtisoslashtirilgan ilmiy bo'lim ham mavjud. Ushbu bo'limda barcha muzeylardagi gerbariyalar kolleksiyasi o'rganilib, namunalarni tayyorlash va ularni to'g'ri saqlashga oid tajribalar amalga oshiriladi.

Muzey kolleksiyasi 100 mingga yaqin namunalardan iborat bo'lib, ular dunyo florasini turli davrlari va darajalarini aks ettiradi. Muzey fondi eng yirik rus olimlari F.B. Fisher, N.M. Prjevalskiy, P.K. Kozlov, F.I. Ruprecht, K.I. Maksimovich, N.A. Monteverde, P.I. Lipskiy, V.L. Komarov, P.P. Jukovskiy, N.I. Vavilov, P.A. Baranov, L.E. Rodin, A.L. Taxtajan tomonidan yaratilgan.[5]

Asosiy kolleksiyalar karpologik va dendrologik kolleksiyalardir. Karpologik kolleksiya bu meva va urug'lar to'plamidir. Uning noyoblighi shundaki, dunyo bo'yicha igna bargli daraxtlarning "meva"lari (shishka), noyob hisoblangan ko'plab o'simliklarning urug'lari va ularning o'zgarish jarayonlari, ularning tarqalishini osonlashtiradigan turli moslashuvlarga ega urug'lar kolleksiyadan joy olgan. Hattoki, bugungi kunda ba'zi yo'qolib ketgan o'simlik urug'lari ham mavjud. Bu kolleksiya o'simliklarning nasl qoldiruvchi qismlari – meva va urug'larning turli xil turlarini jamlagan bo'lib, ularning tuzilishi, shakli, tarqalish usullarini o'rganish uchun mo'ljallangan. Bugungi kunda muzey tadqiqotchilari zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda maxsus laboratoriyada ikkilamchi urug'larni yaratishib, ba'zi yo'qolib ketayotgan o'simliklarni asrab qolishmoqda. Bunda ular o'simliklardan maxsus probirkalarga ekstraktlar olishib namunalarni tayyorlashadi. Avvallari esa namunalarni olish jarayonida ba'zi o'simliklar nobud bo'lardi.

Dendrologik kolleksiya esa bu daraxtlarning va butalarning namuna to'plamlaridir. Ushbu kolleksiyada noyob namunalardan "mamont daraxti", velvichiya, g'ayritabiiy holda o'suvchi daraxtlar (kalta yoki juda baland), yog'ochi qora, qizil rangli, ko'rinishi boshqa turlarga o'xshamaydigan namunalarni mavjud. Ushbu kolleksiyani yaratishdan maqsad ularni ilmiy jihatdan (tuzilishi, o'sish xususiyatlari, tarixi) o'rganishdir. "Mamont daraxti"(tirik qazilma)

dunyodagi eng baland va eng uzoq umr ko'ruvchi daraxt hisoblanadi. Aynan ushbu daraxt namunasi Botanika muzey ekspozitsiyasidan o'rin olgan.

Paleobotanik kolleksiya bu qadim zamonlarda yashagan o'simliklarning qazilma qoldiqlari to'plamidir. Ushbu kolleksiya o'z ichiga toshga aylangan barglar, shoxlar, urug'lar va daraxt po'stloqlari, qadimgi o'simlik izlari, skelet qismlari va geologik davrga oid o'simlik qoldiqlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, muzeyda Rossiyadagi yagona paleobotanika ko'rgazmasi joylashgan va unda qazilma o'simliklarning noyob kolleksiyasi mavjud bo'lib, ibtidoiy davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish jarayonlarini ko'rsatadi. Kolleksiya asosida olimlar o'tmishdagi iqlim o'zgarishi, geologik jarayonlarni, va o'simliklar evolyutsiyasini o'rganadilar. Ushbu kolleksiyalarning asosiy qismi fotolardan iborat. Muzey kolleksiyasida XIX asrdan XX asrgacha bo'lgan o'n minglab shisha negativlar va forosuratlarini o'z ichiga olgan Fotoarxiv ham mavjud. Unda botanik portretlar, ekspeditsiyalarda olingan noyob kadrlar saqlanadi. Tayyorlangan namunalarni restavratsiya qilishda foydalanish uchun maxsus fotoalbom ham yaratilgan bo'lib, unda namuna qismlari maxsus suratga olingan.

Boshqa muzeylarda uchramaydigan noyob kolleksiya to'plamlaridan yana biri bu "Iqtisodiy botanika" to'plamidir. Ushbu to'plamda insonlar tomonidan qo'l mehnati asosida tayyorlangan turli ahyolarni ko'rishimiz mumkin. Ularning eng qadimgisi o'tgan asrning yetmishinchi yillarida tayyorlangan. "Iqtisodiy botanika" to'plami har yili tashrif buyuruvchilar va talabalar tomonidan yaratilgan buyumlar asosida yangilanib boradi.[5]

Har bir muzeyda namunalarni saqlashda maxsus joylar tashkil qilingan bo'lib, ular muzey kolleksiyalarni turli xavf xatarlardan asraydi. Botanika muzeyda har bir to'plam uchun alohida harorat va namlik o'lchangan holda joylar tashkil qilingan. Karpologik kolleksiyalar uzoq muddatli saqlanishi uchun maxsus texnikalardan foydalaniladi. Dastlab namunalarni quyidagi bosqichlardan o'tkaziladi:[4]

1.Quritish.

Urug'lar va mevalar eng avvalo to'liq quritiladi. Chunki namlik ularni chirishiga, mog'orlanishiga va unib chiqishiga sabab bo'ladi.

Quritish ham tabiiy yo'l bilan yoki maxsus quritgichda past holatda amalga oshiriladi. Quritishda havo baland haroratda bo'lsa namuna ortiqcha qurib qolishi mumkin.

2. Havo o'tkazmaydigan idishlarda saqlash.

Namunalar quruq holatda shisha idishlarda saqlanadi.

Ichkariga havo va namlik kirmasligi uchun idishlar mahkam yopilgan bo'lishi kerak.

3. Harorat va namlik nazorati.

Namunalar quruq va salqin joyda (quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri tushmaydigan) odatda 15-20°C haroratda saqlanadi.

Nisbiy namlik 40-50% darajada bo'lishi kerak.

4. Zararkunandalardan himoya.

Odatda muzeylardagi to'plam joylashtiriladigan xonalarga insektisidlar bilan ishlov beriladi. (tarqalgan usul fumigant usulidir). Yoki harorat pasaytirilib (muzlatish usuli bilan) hasharotlar yo'q qilinadi.

Ba'zida namunalar gazlangan muhitda yoki vakuum ostida saqlanadi.

5. Etiketkalash va kataloglashtirish.

Har bir namuna aniq etiketka bilan belgilanib unda quyidagilar qayd qilinishi lozim: o'simlik nomi, to'plangan joyi, sanasi va shaxs ismi.

Ma'lumotlar elektron katalog yoki maxsus kartotekalarda qayd etiladi.

6. Maxsus shkaflar va javonlar

Kolleksiyalar odatda chang, yorug'lik, va hasharotlardan himoyalangan metall shkaflar yoki yog'och javonlarda saqlanadi.

Muzeylardagi kolleksiyalar nafaqat tabiiy boyliklar haqidagi bilimlarni balki ilmiy tadqiqotlar, biologik xilma- xillik evolutsiyasini hamda bugungi kunda dolzarb hisoblangan ekologik ta'lim uchun muhim manba hisoblanadi. Shu sababli ham kolleksiyalarni saqlash jarayonlari yuqori aniqlik, maxsus texnologiyalar hamda doimiy nazorat talab qiladi. Bulardan tashqari kolleksiyalarni raqamlashtirish, umumiy ma'lumotlar bazasini yaratish yoki mavjud bazani yangilash, va xalqaro hamkorliklar orqali ushbu namuna to'plamlarining dolzarbligi yanada ortmoqda. Bu esa global ilmiy hamkorliklar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Dendrologik kolleksiyalar.



Paleobotanik kolleksiya



Karpologik kolleksiya



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Музей академик наук России” Москва 1983г
2. “Preserving Plant Specimens”- Botanic Gardens of Sydney 2012y
3. “Conserving the Carpological Collection” -The Linneon Society
4. “Botanical Specimens”- ICON(UK) specially designed manual.The institute of Conservation.
5. <https://botsad-spb.com/ru/muzej>

**O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI
PORTALLARINING ME‘MORIY VA G‘OYAVIY TAHLILI
(ULUG‘BEK VA QO‘QON PORTALLARI MISOLIDA)
АРХИТЕКТУРНО-ИДЕЙНЫЙ АНАЛИЗ ПОРТАЛОВ ЦЕНТРА
ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ
(НА ПРИМЕРЕ ПОРТАЛОВ УЛУГБЕКА И КОКАНДА)
ARCHITECTURAL AND IDEOLOGICAL ANALYSIS OF THE
PORTALS OF THE CENTER OF ISLAMIC CIVILIZATION IN
UZBEKISTAN
(ON THE EXAMPLE OF THE PORTALS OF ULUGBEK AND KOKAND)**

**Jabbarova Moxichexra Tulkinjonovna
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi
markazi kichik ilmiy xodimi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent shahrida qad rostlagan Islom sivilizatsiyasi markazining muhim me‘moriy qismlari bo‘lgan Sharqiy (Ulug‘bek) va Janubiy (Qo‘qon) portallarning badiiy-bezak uslubi, epigrafik yozuvlari, diniy-falsafiy mazmuni hamda milliy me‘morchilik an‘analari bilan uyg‘unlashgan g‘oyaviy yechimlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu portallarning me‘moriy shakllanishida qo‘llangan tarixiy an‘analar, zamonaviy yondashuvlar hamda ularning ilm-ma‘rifat, insonparvarlik va estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье проведен анализ художественно-декоративного стиля, эпиграфических надписей, религиозно-философского содержания восточных (Улугбекского) и южных (Кокандского) порталов, являющихся важными архитектурными элементами центра исламской цивилизации, возведенного в Ташкенте, а также идейных решений, гармонично сочетающихся с национальными архитектурными традициями. Также освещаются исторические традиции, современные подходы, использованные в архитектурном формировании этих порталов, а также их значение как средства научного просвещения, гуманизма и эстетического воспитания.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the artistic and decorative style, epigraphic inscriptions, religious and philosophical content of the eastern (Ulugbek) and southern (Kokand) portals, which are important architectural elements of the center of Islamic civilization built in Tashkent, as well as ideological solutions harmoniously combined with national architectural traditions. It also highlights historical traditions, modern approaches used in the architectural formation of these portals, as well as their importance as a means of scientific enlightenment, humanism and aesthetic education.

Kalit so‘zlar: Islom sivilizatsiyasi markazi, me‘morchilik, Sharqiy portal, Janubiy portal, hadislar, girih naqshlari, islamiy naqshlar.

Ключевые слова: Центр исламской цивилизации, архитектура, Восточный портал, Южный портал, хадисы, узоры гириха, исламские узоры.

Key words: Center of Islamic civilization, architecture, Eastern portal, Southern portal, hadith, girih patterns, Islamic patterns.

O'zbekiston hududi asrlar davomida islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan. Xalqimizning boy diniy-ma'naviy merosi, xattotlik, me'morchilik va bezak san'ati an'analari bu hududda yuksak darajada rivoj topgan. Mazkur merosni chuqur o'rganish, uni avlodlar xotirasida saqlash va dunyo miqyosida targ'ib etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qaroriga asosan Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etildi. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi – Fransiyaning Luvr, Angliyaning Britaniya, Nyu-Yorkning Metropoliten muzeylari, Sankt-Peterburgning Ermitaj kabi olamshumul ahamiyatli ilmiy-ma'rifiy muassasalari qatoriga qo'shilishga intilmoqda [2;4].

Markaz binosi davlatimiz rahbarining bevosita tashabbuslari va me'moriy g'oyalari asosida milliy va islom me'morchiligi uslubida loyihalashtirilgan. Bino 7 gektardan ortiq maydonda joylashgan. Uch qavatli binoning balandligi 145 metr va kengligi 115 metr. Markaziy gumbazning balandligi 64 metrni tashkil qiladi[3]. Bino yuksak badiiy va estetik-dekorativ ko'rinishga ega bo'lib, uning markazida purviqor gumbaz va to'rt tomonida simmetrik holatda sharqiy, janubiy, g'arbiy hamda shimoliy portallar barpo etilgan. Bino portallari asrlar davomida badiiy me'moriy yechimi bilan dunyoni maftun etgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Termiz, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlar binolari andozasida bunyod etilgan.

Qurilish va bezak materiallari o'rnida marmar, koshin va o'yma sirlangan sopoldan foydalanilgan. Mumtoz an'alarimiz asosidagi moviy koshinlar va me'moriy bezaklarda girih hamda o'simliksimon naqshlar qo'llanilgan. O'yma, bo'rtma sirlangan sopollarni yaratish o'ziga xos uslubda amalga oshirilgan. Uch-to'rt pardali bezash uslubida ansamblga uyg'unlashtirilgan kompozitsiyalar yaratilgan. Bu yangicha uslubni qo'llashdan asosiy maqsad yig'ma naqshlar sifat darajasini oshirish bo'lgan. Ulug'vor binoning to'rt tarafidagi toshdan ishlangan ustunlar Samarqand an'anaviy yog'och o'ymakorligi naqshlari bilan bezatilgan.

Binoning tashqi tarafidagi asosiy, katta hamda kichik peshtoqlari, shuningdek, 44 ta ravoqda ilmga targ'ib qiluvchi, bag'rikenglik, insonparvarlikka undovchi oyat va hadislar o'rin olgan. Ravoqlar kitobasida Qur'oni karimda

qayd etilgan Allohning muborak 99 ism-sifati bitilgan.

Markaz binosining asosiy kirish portali Sharqiy portal hisoblanadi. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi bezaklariga uyg'un holda loyihalashtirilgan. Sharqiy portalning balandligi 37,7 metr, eni 33,7 metrni tashkil qiladi. Ichki qismi bir qaraganda yulduzlarni eslatadigan girih hamda islimiy naqshlar uyg'unligidagi kompozitsiya asosida ishlangan stalaktitlar, ya'ni koshinburushlik usulidagi muqarnaslar bilan bezatilgan. Sharqiy portal bosh peshtog'ining qanos qismida Mirzo Ulug'bekning XV asrda yulduz va sayyoralarni kuzatganligiga ishora, ya'ni Quyosh va galaktikalar ramziy tizimi tasvirlangan. Binoning devor va peshtoqida islom dini ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy taraqqiyoti uchun xizmat qilgan arab yozuvida bitilgan xattotlik namunalari aks ettirilgan. Xususan, Sharqiy portalning hoshiya yozuvida kufiy-banoiy xattotlik usuli qo'llanilib, unda ilmga chorlovchi «Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdi» hadisi keltirilgan.

Portalning asosiy peshtoqidagi yozuvda suls xattotlik usuli qo'llanilib, Qur'oni karimning «An'om» surasi 97-oyati aks ettirilgan.

«Furqon» surasidagi 61-62 oyatlar kichik portal kichik peshtoq yozuvida suls xattotlik usulida berilgan.

Portalning ichki peshtoqidagi kichik yozuvda Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan oyati, ya'ni «Alaq» surasining 1-oyati aks ettirilgan.

Asosiy kirish eshigining tepa qismida suls-kufiy xatida «Allohim, bizga rahmat eshiklaringni ochgin» duosi yozilgan.

Sharqiy portalning o'ng minora kitobasida «Toha» surasining 8-oyati bitilgan.

Chap minora kitobasida esa «A'rof» surasining 180-oyati yozilgan.

Portal peshtoqi burchaklarida Alloh taolo va uning rasuli Muhammad sallallohu alayhi vasallamning muborak ismlari kufiy-banoiy xattotlik usulida bitilgan bo'lib, markaz binosiga ulug'vorlik baxsh etib turibdi. 10 ta girih va islimiy naqshlar bilan bezatilgan ravoqlar kitobasida Alloh taoloning muborak 19 ta ismi kufiy xat uslubida naqshlangan.

Sharqiy portal devori namoyonida kufiy yozuvidagi «Allohu Akbar, Yo Rabbi!» hamda uning yonidagi aylana ustun, ya'ni guldastada «Yo Rahmon, Yo Rahim!» munojotlari takroriy

me'morchilikda qo'llaniladigan usulda naqshlangan.

Portalning o'ng va chap qanotlarida bo'yi 8 metr, eni 3,14 sm o'lchamdagi beshtadan jami 10 ta ravog joylashgan. Har bir ravog uch qavatli bo'rtma islimiy va girih naqshlari bilan bezatilib, suls-kufiy xat uslubida Qur'oni karim oyatlari, hadislardan parchalar keltirilgan. Ravoglarda qo'llangan islimiy va girih naqshlarning ahamiyati shundaki, naqshlar bir-birini takrorlamaydi va Samarqand uslubdagi o'zaro ranglar mutanosibligi jihatdan farqlanib turadi.

Portalning o'ng qanotidagi jimjimador girih naqshlar bilan bezatilgan 1-ravogda mashhur muhaddislar Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan «Albatta, amallar niyatlar bilandir. Har bir kishi uchun niyat qilgan narsasi bor» hadisi sharifi keltirilgan.

2-ravogda Imom Muslim rivoyat qilgan «Kimning qalbida zarra misqolicha kibr bo'lsa, u jannatga kirmaydi» hadisi yozilgan.

Islimiy naqshlar bilan bezatilgan 3-ravogda Imom Buxoriy rivoyat qilgan «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam dedilar: «Sizlarning eng yaxshilaringiz Qur'onni o'rganib, uni boshqalarga o'rgatganingizdir» hadisi keltirilgan.

Mashhur muhaddislar Imom Abu Dovud va Imom Termiziy rivoyat qilgan «Kimki ilm izlab yo'lga chiqsa, Alloh uni jannatga boshlabdi» hadisi

4-ravogdan o'rin olgan.

5-ravogda Qur'oni karimning «Ahzob» surasi 56-oyati keltirilgan.

Portalning chap qanotidagi naqshinkor 6-ravogda Imom Muslim rivoyat qilgan «Alloh taolo go'zal zot va go'zallikni yaxshi ko'radi» hadisi sharifi keltirilgan.

Portalning 7-ravog'ida «Hujurot» surasining 13-oyati bitilgan.

«Zumar» surasining 10-oyati Sharqiy portalning chap qanotidagi

8-ravogdan o'rin olgan.

9-ravogda Imom Ahmad rivoyat qilgan «Olimga ham, ilm o'rganuvchiga ham ajr-mukofot teng beriladi» hadisi bitib qo'yilgan.

10-ravogda esa Imom Ahmad rivoyat qilgan «Go'zal xulq va yaxshi qo'shnichilik yurtlarni obod etib, umrni ziyoda qiladi» hadisi yozilgan.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi binosining baland va hashamatli janubiy portalida ham ulug'vor tarixiy obidalarimiz me'morchilik an'analari aks etgan. Ekstererida

foydalanilgan handasaviy naqshlar, koshinlar, sirkori parchinlar mahorat bilan yaratilgan bo'lib, rangdor bezak uslubi mohirona qo'llanilgan.

Janubiy portal 1 ta katta va 2 ta kichik portaldan iborat bo'lib, markaziy portal – Qo'qon portalini yaratishda Xudoyorxon o'rdasi me'morchiligi yechimi asos qilib olingan. Balandligi 32,5 metrni, eni esa 33,6 metrni tashkil etadi.

Janubiy portalning 12 ta ravog'i kitobasiga Alloh taoloning 29 ta ismi kufiy xatida naqshlangan. Portal peshtoqi burchaklarida an'anaviy kufiy-banoiy xattotlik usulida Alloh taolo va Uning rasuli Muhammad sallallohu alayhi vasallamning muborak ismlari bitilgan.

Portalning tashqi qismlarida naqsh tarzida qo'llaniladigan epigrafik bezaklar berilgan, peshtoq qismlarida, ravoglarda yozuvlar xattotlik usulining kufiy, suls xatida ishlanib, Qur'on va hadislardan lavhalar olingan, mazmuni jihatidan – diniy, falsafiy, tarbiyaviy mavzularni tashkil etadi. Portalni me'moriy bezashda islimiy va girih naqshlari qo'llanilib, ularda asosan qizil, feruza, tillarang hamda to'q ko'k rangdagi koshinlardan foydalanilgan. Qo'qon uslubi ranglarining o'zaro mutanosibligi bilan boshqa hudud uslubidan ajralib turadi.

Qo'qon portalining kirish peshtoqi ichki tomoni naqshinkor muqarnas bilan bezatilgan. Asosiy peshtoq yozuvida «A'rof» surasining 52-oyatidan kalimalar berilgan.

Portalning ichki peshtoq yozuvida esa «Zumar» surasining 2-oyati bitilgan.

Janubiy portalning o'ng minora kitobasida «Toha» surasining 8-oyati bitilgan.

Janubiy portalning chap minora kitobasida esa «A'rof» surasining 180-oyati keltirilgan.

Qo'qon portalining o'ng qanotidagi Toshkent portali poytaxtimizdagi mashhur obidalar – Ko'kaldosh, Hazrati Imom (Xastimom) majmuasi tarkibidagi Qaffol Shoshiy, Mo'yi muborak, Baroqxon madrasasi, shu bilan bir qatorda, Shayx Zayniddin bobo maqbaraci va boshqa tarixiy obidalarimizning me'moriy usullari qo'llanilgan holda barpo qilingan. Portalning balandligi 24,5 metrni, eni esa 15 metrni tashkil etadi. Toshkent portalining asosiy peshtoq yozuvida Qur'oni karimning «Ahzob» surasi 31-oyati bitilgan. Kichik portal kichik peshtoq yozuvida «Qamar» surasining 17-oyati naqshlangan.

Qo'qon portalining chap qanotidagi Termiz kichik portali uchun XII asrdagi Termiz Xonlar saroyi va Hakim Termiziy maqbarasi me'morchiligi usullarini tiklagan holda, shuningdek, XI-XII asrlarga oid arxeologik topilmalar asosida kompozitsiyalar yaratilgan. Ushbu portalda qo'llanilgan naqshlarda arab, eron, ispan, afg'on uslublari qorishib ketgan va naqshlar asosan asimmetriya qonuniyati asosida ishlangan. Termiz kichik portalining balandligi 24,5 metrni, eni esa 15 metrni tashkil etadi. Kichik portal katta peshtoq yozuvida «A'rof» surasining 42-oyati keltirilgan. Kichik portal kichik peshtoq yozuvida «Zumar» surasining 27-oyati naqshlangan.

Asosiy portalning o'ng tarafidagi:

1-ravoqdan Imom Termiziy rivoyat qilgan: «Qiyomat kunida mo'minning tarozisida husni xulqdan ko'ra og'irroq narsa yo'qdir» hadisi sharifi o'rin olgan.

2-ravoqda esa Imom Termiziy rivoyat qilgan «Qalbida Qur'ondan biror sura bo'lmagan inson xaroba uyga o'xshaydi» hadisi keltirilgan.

3-ravoqda esa Imom Termiziy rivoyat qilgan «Albatta, farishtalar tolibi ilmdan rozi bo'lib, unga o'z qanotlarini yoyadilar» hadisi yozilgan.

4-ravoqda Ibn Moja rivoyat qilgan «Sadaqaning afzali – musulmonning ilm o'rganishi va uni birodariga o'rgatishidir» hadisi bitilgan.

5-ravoqdan Imom Buxoriy rivoyat qilgan «Aziyatga sabab bo'luvchi narsani yo'ldan olib tashlash sadaqadir» hadisi o'rin olgan.

6-ravoqda Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan «Nabiy sallallohu alayhi vasallam: «Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo'yadi, dedilar» hadisi yozib qo'yilgan.

Qur'oni karimning «Ar-Rahmon» surasi 60-oyati 7-ravoqdan o'rin olgan.

Jimjimador naqshlar bilan bezatilgan 8-ravoqni «Ota-onaning duosi mustajobdir» degan hikmatli so'z bezab turibdi.

9-ravoqda esa Qur'oni karimning «Isro» surasi 23-oyati keltirilgan.

10-ravoqda insonlarni to'g'rilikka, ozodalikka yetaklovchi Imom Muslim rivoyat qilgan «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam aytdilar: «Ey odamlar, Alloh pokdir, pok narsani qabul qiladi» hadisi bitilgan.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning «Albatta, Alloh taolo muloyimdir. Va har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko'radi», degan hadislar 11-ravoqda o'z aksini topgan.

12-ravoqda Qur'oni karimning «Baqara» surasi 263-oyati keltirilgan.

Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi o'zbek xalqining boy diniy-ma'naviy merosini namoyon etuvchi, islom tamadduni yutuqlari va qadriyatlarini dunyo miqyosida targ'ib etuvchi betakror me'moriy ansambl hisoblanadi.

Sharqiy portal — Markazning asosiy kirish qismi sifatida, ilm va tafakkurga da'vat etuvchi oyat va hadislar bilan bezalgan bo'lib, Mirzo Ulug'bek davridagi yulduzshunoslik merosi, islom falsafasi va xattotlik san'atining o'zaro uyg'unligi bilan ajralib turadi. Portalning bezaklarida girih va islmiy naqshlarning rang-barangligi, har bir ravoqda takrorlanmas naqshlar orqali san'atdagi tafovut va yuksaklik yoritib berilgan.

Janubiy portalda esa Xudoyorxon o'rdasi, Ko'kaldosh, Qaffol Shoshiy, Hakim Termiziy maqbarasi kabi tarixiy obidalar me'moriy uslubining zamonaviy aks etishi kuzatiladi. Portal yozuvlarida Qur'on oyatlari va hadislar diniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, axloqiy mazmunlarni targ'ib etadi.

Markazning har bir elementi – peshtoq, ravoq, minora, ustun va kitobalar islomiy ilmlar, Qur'on ilmi, xattotlik san'ati, naqsh va bezaklar orqali xalqimizning ilmga, ezgulikka, go'zallikka bo'lgan intilishini ifodalaydi. Bu maskan nafaqat me'moriy obida, balki diniy-ma'naviy va madaniy-ma'rifiy markaz sifatida o'z o'rniga ega bo'lib, kelajak avlodlarga ilm-ma'rifat manbai, xalqaro miqyosda esa islom sivilizatsiyasining bebaho namunasi sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3080-son Qarori.
2. Миноваров Ш. Илм-маърифат маркази // Ўзбекистон Ислон цивилизация маркази маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. 1 (6)-2023. - Б.4-9.
3. <https://cisc.uz/uz/>

**MUZEY FONDLARINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI
HUJJATLASHTIRISH MASALALARI
ВОПРОСЫ ДОКУМЕНТИРОВАНИЯ МУЗЕЙНЫХ ФОНДОВ С
ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
ISSUES OF DOCUMENTATION OF MUSEUM HOLDINGS THROUGH
MODERN TECHNOLOGIES**

Amanxodjayeva Gulnora Nigmatdjanovna

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Muzeyshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada muzeylarning o'ziga xos talablaridan biri bo'lgan yangi texnologiyalarni ish jarayonlarida fondlarni saqlash rejimida qo'llash masalasi yoritilgan. Xususan muzeylar elektron hujjatlashtirish va raqamli tasvir uslublaridan foydalanib, o'z kolleksiyalarini informativ ta'minlash uslubini yaratish, bu orqali esa xalqaro internet tarmog'ida o'zlarini tanishtirish imkoniyatlarini ortishi, ayniqsa, muzey to'plamlarini kataloglashtirishda, kompyuterlashtirish usuli keng imkoniyatlar ochib berishi ilmiy yoritilgan. Fond faoliyatini avtomatizatsiyalash, sezilarli darajada mehnat hajmini pasaytirib, tayyorlanayotgan hujjatlarga o'zgartirish kiritishga imkoniyat yaratishi e'tirof etilgan.*

***Аннотация:** В статье описано применение новых технологий, что является одним из специфических требований музеев, в режиме сохранения фондов в рабочих процессах. В частности, научно выяснено, что музеи используют методы электронной документации и цифровых изображений для создания способа информирования своих коллекций, тем самым увеличивая свои возможности для представления себя в международной сети Интернет, особенно при каталогизации музейных коллекций, а метод компьютеризации открывает широкие возможности. Признано, что автоматизация деятельности фонда существенно сокращает трудозатраты и создает возможность вносить изменения в готовящиеся документы.*

***Annotation:** The article discusses the issue of using new technologies in the work processes of museums in the storage mode of funds, which is one of the specific requirements of museums. In particular, it is scientifically highlighted that museums can use electronic documentation and digital imaging methods to create a method of providing information about their collections, thereby increasing their opportunities for self-presentation on the international Internet, and that computerization opens up wide opportunities, especially in cataloging museum collections. It is recognized that automating the activities of the fund significantly reduces the amount of labor and allows for changes to be made to the documents being prepared.*

***Kalit so'zlar:** muzey, fond, zamonaviy texnologiya, hujjatlashtirish, kolleksiya, internet, texnik vosita, axborot tizimi.*

***Ключевые слова:** музей, фонд, современные технологии, документация, коллекция, интернет, технические средства, информационная система.*

***Key words:** museum, fund, modern technology, documentation, collection, internet, technical means, information system.*

Muzeylarning o'ziga xos talablaridan biri – bu yangi texnologiyalarni ish jarayonlarida fondlarni saqlash rejimida qo'llashdir. Rossiyadagi "Makvires" mas'uliyati cheklangan jamiyat – rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish kompaniyasi, mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalangan holda bir necha yillar davomida muzeylardagi fondlarni saqlash va ekspozitsiyalarni namoyish qilish bo'yicha zamonaviy uskunalar yaratishda katta amaliy tajribaga ega. Muzeylarda aksariyat hollarda ayollar jamoasi faoliyat yuritishini hisobga olgan holda, muzey uskunolari yengil va qulay ko'rinishda yaratilgan. Fondlar uchun maxsus ishlab chiqilgan saqlov shkaflari va ekspozitsiya vitrinalari zamonaviy xom ashyolardan yaratilgan bo'lib, muzey predmetlarining saqlorida xavfsizlikni mutlaq ta'minlaydi[1].

Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimlari (AMT) Rossiya muzeylarida 1990 yilning oxirlarida paydo bo'la boshladi. Hozirgi vaqtda ko'plab muzeylar bu kabi tizimlardan foydalanmoqdalar yoki unga ega bo'lishga intilmoqdalar. Hozirgi kunda avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimlariga ega bo'lishiga asos uyg'otuvchi sabablari: bir tomondan, hamkasabalarning bu yo'lda erishayotgan tajriba va yutuqlari bo'lsa, ikkinchi tomondan, kundan-kunga juda keng miqyosda inson faoliyatining har xil yo'nalishlariga kirib kelayotgan kompyuterlar texnologiyasidir. Muzeylarda fondlar ular borasidagi avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimlari muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun faqat ma'lum bir qoidalarga amal qilgan holda amalga oshiriladi[2].

Rossiya etnografik muzeylarida solishtirma (tekshirish) o'tkazish maqsadida, ikki yarim yil ichida uchta kompyuterda 500 mingdan ortiqroq buyumlarning juda keng bo'lmasada tavsifi kiritiladi. Bu misol faqatgina muzey fondidagi ma'lumotlarni tezlik bilan to'ldirish emas, aksincha muzey kolleksiyasi bilan ishlashning yangi texnologiyasidir, bu – hozirgi holat bo'yicha solishtirma tahlil o'tkazish texnologiyasidir.

Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimlari faqatgina fond hujjatlarini inobatga olish bo'limi masalasi bilan shug'ullanmasdan, shu bilan bir qatorda muzeydagi barcha xodimlar muammosiga ham yo'naltirilgan bo'lishi kerak, yani saqlovchilar, ta'mirlovchilar, namoyish etuvchilar va boshqalar[3].

Agar muzeylar elektron hujjatlashtirish va raqamli tasvir uslublaridan foydalanib, o'z

kolleksiyalarini informativ ta'minlash uslubini yaratsalar, bu ularga xalqaro internet tarmog'ida o'zlarini tanishtirish imkoniyatini yaratadi. Texnik vositalar va amaliy ko'nikma natijalari umumlashmasi orqali real vaqt rejasi asosida muzey ichki axborot tizimi modulini Internetning alohida tizimlarida targ'ib etish keng omma e'tiborini jalb etishida yordam beradi. Bundan tashqari, potensial internet tizimidan foydalanuvchilar fikri jamlangan holda, ularning qiziqishlari asosida yangi internet resurs bazalarini yaratish mumkin. Shuningdek, bu tarmoqlarda tasvir va matn uyg'unligi orqali tomoshabinlar mavzuga xos kontekstual axborot tizimi bilan tanishadilar. Muzeylar Web – katalogining yaratilishi esa mavjud boshqa muzeylar bilan maqsadli hamkorlik qilish imkonini beradi. Masalan, o'zaro birgalikda Web – saytlar va milliy kataloglar tuzish. Hozirgi kunda mavjud Web – saytlar orqali turli muzeylarga qaratilgan analogik qiziqishlarni va Web tizimidagi foydali axborotlarni hamda yangicha kataloglash, fotofiksatsiyalash uslublarini o'rganish mumkin[4].

O'zbekistonda muzey ishini informatizatsiyalash mustaqillik yillarida shakllana boshladi. Har bir muzey o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda, multimediya kontent loyihalarini ishlab chiqmoqda. Yangi multimediya texnologiyalarining ishlab chiqilishi tomoshabinlar va muzey hodimlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Muzey tomoshabinlarda qanday taassurot qoldirgani, ijobiy va salbiy holatlar borasidagi fikrlarni o'rganish uchun "Taklif va mulohazalar kitobi" interaktiv elektron muloqot qilgan holda plazma panellariga yozish imkoniyatlari ham vujudga kelmoqda[5]. Tomoshabinlar o'z mulohazalarini matn yoki rasmlar ko'rinishida aks ettirishlari mumkin. Yozuvlar bevosita ekranda aks etib, mualliflik ko'rinishida saqlab qo'yiladi. Keyinchalik fikrlar jamlanmasini ko'rgazma va anjumanlarda chop etish mumkin. Fikrimizcha, bunday ikki tomonlama tuzilgan yangicha muloqot tizimi tomoshabinning yana qanday yangiliklar bilan tanishish istagi borligi xususidagi jarayonlarni o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu boradagi eng faol tomoshabin va yangi g'oya ixtirochilarini aniqlab, ularni "faxriy mehmon" sifatida mukofotlash lozim. Bundan tashqari, tomoshabinlar lahzalik suratga tushish xizmatlaridan ham foydalanishlari mumkin. Turli yangi sohalar rivojlanishi va iqtisodiy o'sish jarayonida XXI asr "Kompyuter asri" deb

ham nomlanmoqda. Muzeylarimizda bu davriy jarayon belgilarining aks etishi esa muzey ishi rivojida ijobiy holatlarni kashf qilishi mubolagʻa emas. Asosiysi, muzey xodimlari yanada mukammal axborot tizimi, ilmiy – amaliy ixtisoslashgan qiziqari loyihalar ustida izlanishlar olib borishi darkor. Har bir muzey yangi informatsiyon texnologiyalardan foydalangan holda, multimediya komponentlarini yaratishi foydadan holi boʻlmaydi.

London muzeyidagi informatsion resurslar boʻlimini boshqargan, hujjatlashtirish boʻyicha Xalqaro komitetning (IKOM - CIDOC) faol aʼzosi Endryu Roberts muzey hujjatlari ustida oʻttiz yillik izlanish faoliyatini yuritgan. Uning mazkur sohada ishlab chiqqan standartlari va tizimlari koʻplab muzeylar faoliyatida qoʻllanilib kelinmoqda. Endryu Roberts oʻzining “Hisobga olish va hujjatlashtirish” maqolasida izlanishlari samarasini aniq koʻrsatmalar bilan bayon etgan[6].

Moskva, Sankt – Peterburgning yetakchi muzeylari mutaxassislari, shu bilan birga, hududiy muzeylar elektron axborot resurslarini toʻldirish va yigʻish yoʻli boʻyicha ish olib borishmoqda. Texnik imkoniyatlarni qoʻllash turlicha boʻlishi mumkin, asosiysi sifatli elektron resursga ega boʻlmoqdir. “Elektron arxiv” korporatsiyasi axborot resurslarini yaratish va qoʻllash boʻyicha yoʻnaltirilgan, shu bilan birga madaniy muzeylar, kutubxonalar, arxivlarda ham. Hozirgi kunda 40 milliondan ortiq turli hujjatlar va maʼlumotlar – kartoteka va kataloglar, kitob va muzey toʻplamlari, dissertatsiyalar hamda noyob arxiv hujjatlari sanoqlangan. Korporatsiya tomonidan tavsiyalangan barcha koʻp qirrali xizmatlaridan: muzeylar sohasida hisob-kitob hujjatlarini elektron holatida hamda axborot yigʻindisini toʻplash, maxsus dastur mahsulotlarini ishlab chiqish, elektron holatida hujjatlarni asl nusxasida ishlashiga imkon beruvchi va yuqori sifatli muzey fondi predmetlari boʻyicha elektron kolleksiyalarini yaratdilar. Muzeylar uchun eng asosiysi, toʻldirilgan qobigʻni elektron axborot resursi sifatida qoʻllanilishidir. Muzey maydonining roʻyxati boʻyicha mulk roʻyxati kitoblari, muzey buyumlarining roʻyxati, qayta ishlangan, mashina yozuviga oʻtkazilgan, koʻchirib olingan hujjatlari tasdiqlangan holda boʻlishi mumkin.

Namuna sifatida “Saritsino” muzey qoʻriqxonasining ishlarini koʻrib chiqamiz.

2012-yil korporatsiya mutaxassislari muzeyning hamma roʻyxatdagi kitoblarini koʻchirib olib, axborotlarni qayta ishlashdi va grafik koʻrinishida kitoblarni imidj sistemasida ishga tushirishdi, yani bu sistema kitoblar bilan elektron koʻrinishida ishlashga yordam beradi. Kitobdagi barcha axborot va boshqalar muzey maʼlumotlar bazasiga yuklatiladi. Muzey maʼlumotlar bazasining hisob-kitob boʻlimini tez, qisqa muddatda yaratilishi juda ham qoʻl keldi. Hozirgi vaqtda bu boʻlim oʻz ichiga 90% maʼlumotlarni sigʻdirgan. Rossiya va unga yaqin boʻlgan davlatlarning oʻtgan uch asrning noyob amaliy dekorativ sanʼat asarlari shu maʼlumotlar bazasida joylashgan. “Imidj muzey” tizimi muzey eksponatlari kataloglarini barpo etish uchun moʻljallangan boʻlib, u muzey hujjatlarining retrospektlar maʼlumoti va fototasvirlar eksponatlariga asoslangan boʻladi. Windows NT, Apache, Web Server dasturlarini yuklagan holda Pentium III, 188 MGs, OZU256Mb, HDD, videokart 4 Mb koʻrinishidagi kompyuterlarda ishlash mumkin. Sistemaning qulay tomoni shundaki, kompyuterning qattiq diskiga CD diskni yuklamasdan ishlash mumkin[7].

“Imidj muzey” tizimini yaratish texnologiyasi shunchalik oʻrganilganki, muzeylar uchun namunali mahsulotlarni ikki hafta ichida yaratish mumkin. “Imidj muzey” kataloglar seriyalarini qoʻllash va kiritish muzeylarga eksponat va kolleksiyalar uchun mavzularni tanlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Vaqtinchalik koʻrgazmalar tayyorlovchilarda kolleksiyalarni elektron turda saqlashga imkoniyatlar paydo boʻladi va muzeyga kelganlarda esa CD disk sotib olish imkoniyati boʻladi. Bundan tashqari, bu ishlab chiqarilgan qoʻllanma “tezlikda” muzey kolleksiyalari boʻyicha CD diskarni koʻpaytirish hamda muzey toʻgʻrisidagi maʼlumot umuman muzey fondi haqida internetda joylashtirish imkoniyati yaratildi[8]. 2018 yil butun Rossiya muzeylar festivalini oʻtkazish vaqtida “Imidj muzey” diski prezentatsiyasi oʻtkazildi. “Elektron Arxiv” korporatsiyasi namoyish etgan loyihalari kelajakda muzeylar uchun qiziqarli va foydali boʻldi. Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasining asosiy uzoq muddatli dasturlaridan biri Oʻzbekistondagi muzeylarni yangilashdir. Respublikamizdagi toʻrtta muassasada: Oʻzbekiston davlat sanʼat muzeyi, Oʻzbekiston davlat amaliy sanʼat muzeyi, Oybek uy-muzeyi, I.V. Savitskiy

nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat san’at muzeyi 2020-yil yanvar oyida mazkur muassasalar muzeylarga xodimlar ishini optimallashtirish va ichki arxivlarni tartibga solish imkonini beruvchi ichki elektron kataloglashtirish tizimiga ega bo‘ldi. Umuman, O‘zbekiston madaniyati va tarixini saqlashda shu tartibdagi maqsadli hamkorliklar kelajakda muzeylar taraqqiyotida ishonchli omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Филонов Д. Компьютерная эра в музее. // Мир музея.- Москва. 2009.-№ 5. – С.32. (Filonov D. Computer era in the museum. // World of the Museum.- Moscow. 2009. -№.5.-P.32.)
2. Кравцова М. Музейное обострение. // Арт хроника - Москва. 2009.-№ 10. – С.27. (Kravtsova M. Museum building. // Art Chronicle – Moscow. 2009.- №10.- P.27.)
3. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. - Москва: ВК, 2003. – С.11. (Museum works in Russia/ Under the general editorship of M.E. Kaulen, I.M.Kossova, A.A.Sundieva. – Moscow : VK, 2003. –P.11.)
4. Филонов Д. Компьютерная эра в музее. // Мир музея.- Москва. 2009.-№ 5. – С.33. (Filonov D. Computer era in the museum. // World of the Museum.- Moscow. 2009. -№.5.-P.33.)
5. Гленн Лоури. Люди ходят в музеи не ради их архитектуры, а ради их коллекции. // Арт хроника. - Москва. 2009.-№ 7-8. – С.35. (Glenn Lowry. People want to go to museums not for their architecture, but for their collection. // Art chronicle.- Moscow .2009.-№7-8. -P.35.)
6. Робертс Э. Учёт и документация. Управление музеем: Практическое руководство. ИКОМ 2004. – С. 34. (Roberts E. Accounting and documentation. Museum Management: A Practical Guide, ICOM 2004. P. 34.)
7. Гельман М. Музей PERMM становится инкубатором инновации. // Арт хроника. - Москва. 2019.- №10. – С.32. (Gelman M. The PERMM Museum becomes an incubator of innovation. // Art chronicle.- Moscow .2019.-№10. -P.32.)
8. Докучаева О.В. Электронные иллюстрированный каталог. // Мир музея. – Москва. 2015. - №7. – С.44. (Dokuchaeva O.V. Electronic illustrated catalog. // World of the Museum. – Moscow. 2015. -№7. - P.44.)

QORAQALPOQ MUZEYLARIDA SAQLANAYOTGAN QADIMGI
XORAZM SAROIYI ANJOMLARI
ХРАНИТСЯ В КАРАКАЛПАКСКИХ МУЗЕЯХ ДРЕВНЯЯ
ХОРЕЗМСКАЯ ДВОРЦОВАЯ УТВАРЬ
PRESERVED IN KARAKALPAK MUSEUMS ANCIENT KHOREZM
PALACE UTENSILS

Aytmuratova Aynur Polatbayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va
madaniyati davlat muzeyi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm davlati markaziy shahri hisoblangan Tuproq-qal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va bu yerda aniqlangan saroy anjomlarining tarixiy va ilmiy ahamiyati yoritilgan. Ayniqsa, Qoraqalpoq muzeylarida saqlanayotgan ushbu topilmalar orqali qadimiy san'at, xo'jalik faoliyati, diniy marosimlar va yozma madaniyat elementlarini chuqur o'rganish imkoniyati taqdim etiladi. Maqola arxeologik dalillar, yozma manbalar va muzey to'plamlariga asoslanib yozilgan bo'lib, Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining rivojlanganligini ilmiy asosda ochib beradi.

Аннотация: : В данной статье освещена историческая и научная значимость археологических исследований, проведенных на Почвенно-крепостном памятнике, являющемся центральным городом Древнего Хорезмского государства, и обнаруженных здесь дворцовых орудий. Эти находки, хранящиеся в музеях Каракалпакстана, предоставляют возможность глубокого изучения древнего искусства, хозяйственной деятельности, религиозных обрядов и элементов письменной культуры. Статья написана на основе археологических свидетельств, письменных источников и музейных собраний и на научной основе раскрывает развитие древнехорезмской цивилизации.

Annotation: This article highlights the historical and scientific significance of archaeological research conducted on the Soil and Fortress Monument, which is the central city of the Ancient Khorezm State, and the palace tools discovered here. These finds, stored in museums in Karakalpakstan, provide an opportunity for in-depth study of ancient art, economic activities, religious rites and elements of written culture. The article was written on the basis of archaeological evidence, written sources and museum collections and on a scientific basis reveals the development of ancient Khorezm civilization.

Kalit so'zlar: Qadimgi Xorazm, Tuproq-qal'a, arxeologik topilmalar, saroy anjomlari, Zardushtiylik, Qoraqalpoq muzeylari, yozma manbalar, Kushon davri, madaniy meros.

Ключевые слова: Древний Хорезм, Почвенный замок, археологические находки, дворцовый инвентарь, зороастрийский, каракалпакский музеи, письменные источники, кушанский период, культурное наследие.

Key words: Ancient Khorezm, Soil castle, archaeological finds, palace inventory, Zoroastrian, Karakalpak museums, written sources, Kushan period, cultural heritage.

Ma'lumki, boy tariximiz xalqimizning o'z davrida qudratli davlatlarga ega bo'lganidan dalolat beradi. Ayniqsa Qadimgi Xorazm davlati o'zining necha ming yillik tarixiy merosi bilan

nafaqat mintaqaviy, balki jahon tamadduniga sezilarli hissa qo'shgan. Bunday tarixiy yodgorliklarning bizgacha yetib kelgan

qismlarini saqlab qolish va o'rganish bugungi avlod zimmasidagi muqaddas burchdir.

Qadimgi Xorazm davlati poytaxtlaridan biri hisoblangan Tuproq-qal'a yodgorligi ilk marotaba 1938-yilda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganila boshlandi. Tuproq-qal'a milodiy III–V asrlarga oid bo'lib, Kushon davlati davrida qurilgan deb taxmin qilinadi. Bu yerda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan yodgorliklar Qadimgi Xorazmda saroy arxitekturasini, diniy marosimlar, san'at, savdo va xo'jalik faoliyati rivojlanganidan darak beradi.

1938-yilda S.P. Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya guruhi Tuproq-qal'a yodgorligida dala ishlarini boshladi. Ushbu ekspeditsiya davomida shahardan katta numizmatik kabinet ochildi. O'nlab tangalar orasida kushonlar ko'p bo'lgani, lekin milodiy III–V asrlardan dastlabki xorazmliklar bundan ham ko'p bo'lgani xususida bir tomonida tamg'alar va Arsamux, Vazamara yoki bizga hali tanish bo'lmagan qadimgi Xorazmning boshqa hukmdorlari tasvirlangan zich mis tangalar guvohlik beradi.

Janubiy devorining darvozasida ekspeditsiya guruhi loydan yasalgan ossuariylar bo'laklarining butun uyumlarini topishdi — u erda dafn marosimlari, sopol qutilar — suyak omborlari joylashgan bo'lib, Xorazmda hukmronlik qilgan zardushtiylik dafn marosimiga ko'ra, qushlar va shamol bilan tozalangan o'liklarning suyaklari to'plangan.

1940-yilda boshlangan Tuproq-qal'a tadqiqotlari Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan to'xtatildi. Ko'plab arxeologlar, shu jumladan ekspeditsiya boshlig'i S. P. Tolstov ham frontga ketishdi. 1945-yil yozida qazish ishlari qayta tiklandi va 1946-yildan 1950-yilgacha qal'a ekspeditsiya ishlarining asosiy ob'ektiga aylandi. [2. 82-108b]

Tadqiqot ishlari jarayonida markaziy platformaning shimoli-g'arbiy burchagida qazilgan 1-xonada, gumbaz qulfi ostidan 1 metr chuqurlikda g'ishtli vayronaga qiya qazilgan ikkita o'rta asr pito-xumasi topildi. Ulardan biri ko'p miqdordagi go'zal yupqa devorli Kushon kulolchilik buyumlari, bir necha metr chuqurroqda, loy va qum ostida, binoning qadimiy qavatida qizil rang bilan qoplangan madaniy qatlam topilgan. Qatlamlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, qadim zamonlarda qabrning janubiy qismi qulab tushgan, u orqali yozda tinimsiz esib turgan cho'l qumi qal'a ustiga urilgan, qishda esa yomg'irlar loy

qatlamlarini yuvib ketgan. Shimoliy-sharqiy minoraning gumbazlari hozirgi kunning ko'p qismida soya hukmronlik qiladigan grottolarni hosil qilgan bo'lib, bu holat gumbazning shimoliy qismining ochiq turishining natijasidir.

Har xil ranglar bilan bo'yalgan loy asosda, oq gips bilan ishlangan ko'plab parchalar 1-xonadan topilgan bo'lib, bu xonaning saqlangan yuqori qismidan ikkinchi xona burchagi chiqib keladi. Xorazm badiiy madaniyatining mahobatli devoriy rasmlar istiqbollari bilan yuzlashtirgan mana shu devorga buyalgan gips qoldiqlari hisoblanadi.

Tuproq-qal'a oddiy to'rtburchak bo'lib, o'lchami 500x350 metr, shimoldan janubga cho'zilgan, kuchli, o'ralgan devorlari katta toshlardan yasalgan.

Shaharning janubiy qismi, 310 x 280 metr, fuqarolarning turar-joy binolari bilan qurilgan va juda tipik tartib bilan ajralib turardi. Aynan o'rtada, shaharning janubiy bosh darvozasidan janubdan shimolga taxminan 10 metr kenglikdagi to'g'ri magistral ko'cha o'tgan bo'lib, undan kengligi 5-7 metr bo'lgan ko'pgina simmetrik xiyobonlar to'g'ri burchak ostida tarqalgan. Shaharning butun qurilgan maydoni 50 x 150 dan 90 x 150 metrgacha bo'lgan 9 yoki 10 ta katta massivli uylarga, ularning har biri o'nlab kvadrat va to'rtburchakli xonalardan iborat.

Qal'aning markaziy massivi, maydoni 80x80 metr bo'lib, yer sathidan 16 metr balandlikda ko'tariladi va har biri 40x40 metr bo'lgan, 25 metrli uchta minorani tekis cho'qqilar ko'tarib turibdi.

Markaziy massivning shimoliy yarmi va uchta minorasi, jami 100 ga yaqin xonalar uchta qavatda joylashgan bo'lib, ulkan binoning umumiy maydonning 11 ming metri tarkibidan taxminan 6000 metrni egallab turibdi.

Saroyini qazish paytida arxeologlar tomonidan topilgan topilmalar haqida uzoq vaqt gaplashish mumkin edi. Minglab qoldiqlar (va ko'pincha butun idishlar) ajoyib nozik keramika, mato parchalari — jun, ipak va qog'oz, charm poyabzal qismlari, mevali o'simliklarning suyaklari va don donalari, uy va yovvoyi hayvonlarning suyaklari-bularning barchasi va yana ko'p narsalar olimlarga nafaqat saroy va shahar aholisining turmush tarzi, iqtisodiyoti va hunarmandchiligi haqida gapirib berdi. Topilmalar orasida shisha, Amber, marjon, qobiq va temir o'roqdan yasalgan 300 ta munchoqdan

yasalgan oltin taqinchoqlar va marjonlarni ham uchraydi. Qobiqdan temir "tarozi" ning topilishi va eng muhimi, binolar majmuasining ochilishi — mashhur Xorazm kamonlarini ishlab chiqarish ustaxonasi - Xorazmda harbiy ishlarning yuqori darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Ko'plab arxeologlar qadimiy yozma hujjatlar arxivini topishni orzu qiladilar. Bu orzular juda kamdan-kam hollarda amalga oshadi. Xorazm arxeologlariga omad kulib boqdi. Tuproq-qal'adan topilgan eng muhim topilmalardan biri bu saroy xo'jalik arxivi. Qadimgi Xorazm tilida yozilgan hujjatlar saroyning janubi-sharqiy qismidagi to'rtta xonadan topilgan. Ularning barchasi bu erga ikkinchi qavatda joylashgan arxivdan kelgan. Hammasi bo'lib, yog'och taxta va charm varaqlarga qora siyoh bilan yozilgan yuzga yaqin hujjat topildi. Daraxtdagi hujjatlar va ulardan atigi o'n sakkiztasi juda yaxshi saqlanib qolgan. Sakkizta yirik parchalar siyoh bilan yozilgan satrlarni to'g'ridan-to'g'ri teriga saqlab qolgan; qolganlari faqat loydagi izlar shaklida saqlanib qolgan. Hujjatlar hali to'liq o'qilmagan bo'lsa-da, ularning tabiati allaqachon aniqlangan. Bular saroy arxivining xo'jalik hujjatlari: soliq solinadigan shaxslar ro'yxati va ma'lum bir davr uchun Xorazmshoh xazinasiga tushgan tushumlarni sarhisob qiluvchi yig'ma hujjatlar. Topilgan hujjatlarning uchitasi aniq sanaga ega edi-207, 231 va 232 yillar, ammo... noma'lum davr. S. P. Tolstov tomonidan olib borilgan mashaqqatli tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, xorazmliklar tomonidan qo'llanilgan bu davrning boshlanishi milodiy 69-78 yillarga to'g'ri kelishi mumkin va bizga ma'lum bo'lgan xronologiyalardan bu davr faqat bitta davrning boshlanishi — Hindistonning "Shaka davri"ni tashkil qiladi. Xorazmliklar tomonidan hind xronologiyasidan foydalanish ajablanarli emas edi: axir Xorazm butun asr davomida hind-O'rta Osiyo Kushon davlatining bir qismi bo'lgan va tabiiy ravishda hind madaniyatining juda kuchli ta'siri ostida bo'lgan. Sanalangan hujjatlar nafaqat Xorazm tarixi uchun ahamiyatga ega edi. Ular Tuproq-qal'ada topilgan tangalar bilan birgalikda Kushon davlati tarixidagi ba'zi masalalarni hal qilish uchun muhim bo'lgan xronologik hisob-kitoblar zanjirini keltirib chiqardi[2. 82-108b].

Ma'lumki saroy o'rganilgan davr Chor Rossiya davri bo'lganligini hisobga olsak? Barcha o'rganilgan va topilgan yodgorliklar Rossiya muzeylariga olib ketilgan. Saroy

topilmalari haqidagi ma'lumotlarni kitoblar va tadqiqot davrida ishtirok etgan rassomlarning ko'chirma ma'lumotlaridan o'rganamiz. Saroyga tegishli arxeologik topilmalar butunlay yo'q deb aytmaymiz chunki Katta tarixiy yodgorlik saroyning o'zi zaminimizda joylashishining o'zi bu katta yutug'imiz. Shu bilan birga Qoraqalpoq muzeylarida saroyga tegishli bir qancha arxeologik topilmalar saqlanib qolgan. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyida Tuproq-qal'adan topilgan 311 ta eksponat va 30 000 ga yaqin spool buyumlar parchalari saqlanmoqda. Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida 3 ta saroy devoriy rasmlari parchalari saqlanmoqda.

I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyida Tuproq-qal'adan topilgan 311 ta eksponat ichida marjon va ularning qismlari soni 169 ta, qirg'ich soni 1 ta, urchuqtosh soni 125 ta, ilgak (подвеска) soni 2 ta, muhir soni 1 ta, qolip soni 1 ta, idish (сосудник) 1 ta, shpilka 1 ta, chig'anoq (раковина) 1 ta, chig'ir qismi 1 ta, tug'nog'ich 1 ta tashkil qiladi. [6].

Eksponatlar ichida eng ko'pchilikni tashkil qilgan marjonlar va urchuqtoshlar soniga qarab Qadimgi Xorazm xalqi san'atga ishtiyoqi baland nozik did sohibi va rivojlangan tsivilizatsiyaning tarixiy jarayonini ko'rish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan 3 ta devoriy rasm parchalarida aynan nima tasvirlangani ma'lum emas, ammo o'sha davrning tasviriy san'at siru-sinoatlarinin o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi[7].

Qoraqalpoq muzeylarida saqlanayotgan Qadimgi Xorazm saroyi anjomlari — xalqimizning boy tarixini, san'atini, diniy e'tiqodlarini va madaniy taraqqiyotini ko'rsatadigan muhim arxeologik dalillardir. Ular orqali qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, xalqimizning o'tmishdagi ilm-fan, san'at, arxitektura va iqtisodiyotdagi yutuqlarini qayta kashf etish mumkin. Har bir topilma o'z-o'zicha tarixiy hikoyani so'zlaydi — bu hikoyalar bizni o'z ildizlarimizni chuqurroq anglashga, milliy o'zlikni asrashga undaydi. Shu bois bu eksponatlar nafaqat muzeylar, balki butun xalqimiz uchun bebaho tarixiy merosdir. Qoraqalpoq muzeylarida saqlanayotgan bu topilmalar, garchi saroyning to'liq boyligini aks

ettirmasa-da, qadimiy tariximizni tiklashda va ilmiy asosda talqin qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. С.П.Толстов“ПО _СЛЕДАМ_ДРЕВНЕХОРЕЗМИЙСКОЙ_ЦИВИЛИЗАЦИИ”, ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК СССР МОСКВА-ЛЕНИНГРАД.: 1948г.
2. Виноградов А.В. “Тысячелетия, погребенные пустыней” (Рассказы о древнем Хорезме и о хорезмской экспедиции), М.; 1966.
3. Е.Е.Неразик, Ю.А.Рапопорт “Городище Топрак-кала” (Раскопки 1965-1975 г.г.) Издательство «Наука» М.;1981г.
4. Mambetullaev M.M, Turebekov M, Yusupov O “Qaraqalpaqstan tariyxi”, N.;2010.
5. Allaberdiyeva L.A. “Значение исторических источников X века в изучении истории Хорезма” Studia Humanitatis. 2023 №2.
6. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyidagi КП - 3766/1 dan 3766/26 ga qadar, 3767/34 dan 3767/45 ga qadar, 3771/692, 3772/335, 3772/403, 3772/606, 42568, 42569, 42570, 42571, 42572, 42573, 42574, 42575, 42576, 42578, 42579, 42580, 42591, 42592, 42607 dan 42656 ga qadar, , 42676 dan, 42833 ga qadar, 42940 dan 42953 ga qadar, 42976 dan 42987 ga qadar, , 42995, 42996, 42997, 43011 dan 43039 ga qadar, 43126 dan 43150 ga qadar, 43439 dan 43444 ga qadar, 44233 dan 44254 ga qadar, 44257 dan 44277 ga qadar, 44279 dan 44288 ga qadar, 44292 dan 44303 ga qadar, 44305 dan 44326 ga qadar, 44368 dan 44377 ga qadar tartibdagi eksponatlar Tuproq-qal’adan topilgan topilmalarga kiradi.
7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyidagi КП 18/1, КП 18/2, КП 18/3 eksponatlar Tuproq-qal’adan topilgan topilmalar.

**O‘ZBEKISTONDA BADIY TA’LIM TIZIMIDA ONLAYN MUZEYLAR
FAOLIYATINING O‘RNI
РОЛ ОНЛАЙН-МУЗЕЕВ В СИСТЕМЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА
THE ROLE OF ONLINE MUSEUMS IN THE ART EDUCATION
SYSTEM OF UZBEKISTAN**

Akramova Lobar Rixsitullayevna

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi badiiy
ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni
qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining
O‘quv jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, san’atshunos**

Annotatsiya: *Mazkur maqola respublikada mavjud oliy ta’lim muassasalari tizimidagi muzeylar ham ma’naviy-ma’rifiy muassasalarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatda o‘ziga xos o‘rin tutib, ekspozitsiya va ko‘rgazma faoliyati bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy va iqtisodiy islohotlarni targ‘ib etish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, onlayn muzeylar eksponatlarni saqlash, ularning xavfsizligi va omma uchun hammabopligi masalalarini hal qilish uchun internet-texnologiyalardan foydalanishning muvaffaqiyatli masalalari hamda jahon tajribasida bugungi kunda elektron gallereyalar, virtual turlar, onlayn ekskursiyalar kabi yangi mediatexnologiyalar asosidagi ko‘rgazma turlari rivojlanayotgani, bu borada yetakchi universitetlar negizida faoliyat olib borayotgan onlayn muzeylar faoliyatini rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borilayotganligi asosli manbaalar orqali tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется тот факт, что музеи в системе высших учебных заведений республики, как составная часть духовно-просветительских учреждений, занимают особое место в обществе и посредством экспозиционно-выставочной деятельности способствуют реализации социально-политических, культурно-духовных и экономических реформ, проводимых в стране. Анализируется успешное использование интернет-технологий в онлайн-музеях для решения вопросов хранения экспонатов, их сохранности и доступности для населения, а также то, что в мировом опыте на сегодняшний день развиваются такие виды выставок, основанные на новых медиатехнологиях, как электронные галереи, виртуальные туры, онлайн-экскурсии, проводятся исследования по развитию онлайн-музеев, действующих на базе ведущих вузов в этом направлении.*

Annotation: *This article analyzes the fact that museums in the system of higher educational institutions in the republic, as a component of spiritual and educational institutions, occupy a special place in society and, through exposition and exhibition activities, promote socio-political, cultural-spiritual and economic reforms being implemented in the country. It also analyzes the successful use of Internet technologies in online museums to solve the issues of storing exhibits, their safety and accessibility to the public, and the fact that in world experience, today, exhibition types based on new media technologies such as electronic galleries, virtual tours, online excursions are developing, and research is being conducted on the development of online museums operating on the basis of leading universities in this regard.*

Kalit so'zlar: badiiy ta'lim, onlayn muzey, vizual dizayn, ekspozitsiya, fond, kolleksiyalar, katalogizatsiya, interaktivlik, ekskursiya, veb-sahifa, domenlar, elektron galereya, kino-fotofon.

Ключевые слова: художественное образование, интернет-музей, визуальный дизайн, экспозиция, фонд, коллекции, каталогизация, интерактивность, экскурсия, веб-страница, домены, электронная галерея, кино- и фотофон.

Key words: art education, online museum, visual design, exposition, fund, collections, cataloging, interactivity, excursion, web page, domains, electronic gallery, film and photophone.

Respublikada mavjud oliy ta'lim muassasalari tizimidagi muzeylar ham ma'naviy-ma'rifiy muassasalarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatda o'ziga xos o'rin tutib, ekspozitsiya va ko'rgazma faoliyati bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va iqtisodiy islohotlarni targ'ib etib kelmoqda. Shunga ko'ra oliy ta'lim tizimidagi mavjud muzeylar fondidagi ijodiy ishlarni hujjatlashtirish, fondlarni saqlash va boyitib borish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish bilan birga eng muhimi ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar ham muhim sanaladi. Mazkur vazifalarni amalga oshishi muzey va jamiyat hamkorligida ijobiy natijalarga erishishiga imkon beradi. Ijodiy ishlar butligi va ochiqqligini ta'minlagani bois, bilim, tadqiqot va ilhom manbai markazlari sifatida o'z rollarini davom ettirmoqchi bo'lgan muzeylar oldida kolleksiyalarni tegishli avaylash hamda ular saqlanishini to'g'ri boshqarish kabi dolzarb vazifa turadi.

“Onlayn muzey” elektron galereyasi katalogizatsiyasi yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Bugungi kunda global tarmoq madaniy hayotning bir bo'lagiga aylanib qoldi. Muqim asosdagi virtual muzeylar o'rnini bugungi kunda yangilanish bazasiga ega onlayn muzeylar egallamoqda. Onlayn muzeyga tashrif buyurish jarayoni haqiqiy muzeyga qatnash jarayoniga nisbatan qator afzalliklarga ega bo'lgan virtual ekskursiyalar yordamida amalga oshiriladi. «Onlayn muzey» foydalanuvchiga noyob ekskursiyani, masalan, fondlar bo'ylab tanishishni ham taklif etadi. Onlayn muzey (muzey-veb saxifasi) – muzey materiallarini namoyish etish uchun moslashtirilgan veb-sahifa turidir. Havola qilingan materiallar turli sohalaridan: san'at buyumlari va tarixiy artefaktlardan tortib to virtual kolleksiyalar va qadimiy yodgorliklarga qadar bo'lishi mumkin. Onlayn muzeylar eksponatlarni saqlash, ularning xavfsizligi, va omma uchun hammabopligi masalalarini hal qilish uchun Internet-texnologiyalardan

foydalanishning muvaffaqiyatli misollaridan biridir.

Jahon tajribasida bugungi kunda elektron gallereyalar, virtual turlar, onlayn ekskursiyalar kabi yangi mediatexnologiyalar asosidagi ko'rgazma turlari rivojlanmoqda. Bu borada yetakchi universitetlar negizida faoliyat olib borayotgan onlayn muzeylar faoliyatini rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. “Onlayn muzey” elektron galereyasi san'at yo'nalishidagi universitet fondidagi ijodiy ishlar kartotekasini yaratish, talabalarning Bitiruv malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiyalari doirasida bajarilgan ijodiy ishlardan rangtasvir, grafika, miniatyura, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, hattotlik namunalar asosida vaqtinchalik ko'rgazmalarga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni tez va qulay asosda olish imkonini beradi.

Aynan ushbu jarayonlarga bag'ishlangan tadqiqotlar kompyuter laboratoriyasida virtual muzeylar bo'yicha tajriba o'tkazgan Oksford universiteti professori J.Bouen tomonidan 140 dan ortiq nashrlar va 9 ta ilmiy kitoblar yaratilgan. Uning 2000-yilda yaratilgan «Evaluation of Virtual Museums: The Good, the Bad and the Useless» tadqiqotlar to'plamida virtual muzeylar bo'yicha to'plangan tajribalar umumlashtirilgan. Unda, onlayn muzey saytlarini amaliy yaratish bo'yicha aniq tavsiyalar va ularning tavsifini o'z ichiga olgan imkoniyatlar batafsil keltirib o'tilgan. Birinchi virtual ko'rgazmalar real muzeylar faoliyati negizida tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik internet tezligini oshishi bilan onlayn gallereyalar faoliyati rivojlandi.

Bunday onlayn muzeylarga namuna sifatida rus tilida gallerix.org, gallerix.name, gallerix.ru. domenlari, ingliz tilida en.gallerix.ru, gallerix.cz. domenlari onlayn gallereyalar faoliyat olib bormoqda.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining talabalari uchun

dars faoliyati davomida foydalanishga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini yaratish ham bugungi kundagi muhim vazifalardan sanaladi. "O'zbekiston badiiy ta'lim tizimida "Onlayn muzey" elektron galereyasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasi asosida O'zbekiston badiiy ta'lim tizimining davrlashtirish, maktablar bo'yicha guruhlashtirish, barcha davrlari bo'yicha ma'lumotlar: arxiv manbalari, tarixiy rasm va xaritalar, kino-fotofono hujjatlar hamda mavzular yuzasidan internetdagi tematik havolalar joylashtirish asosida onlayn galereya faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekistondagi badiiy ta'lim yo'nalishlari negizida onlayn galereyalar tashkil etish, quyidagi jarayonlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi:

- talabalarining ijodiy ishlashga, yani mustaqil ravishda turli veb resurslar: raqamli arxiv kolleksiyasi va ko'rgazmalar, infografikalar yaratishi uchun qulay resurs bo'lib xizmat qiladi;

- badiiy ta'limga ixtisoslashgan o'quv muassasalarning metodik fondlarida saqlanib kelinayotgan ijodiy ishlar katalogini yaratishda namuna ishlab chiqiladi;

- metodik va umuman O'zbekiston muzeylari fondlarda saqlanayotgan ijodiy ishlarni (rangtasvir, haykal, grafika, amaliy-bezak san'ati asarlari) asrab avaylash, saqlash, namoyish qilish, konservatsiya va ta'mirlash tartibi bo'yicha nazariy qo'llanma yaratiladi;

- onlayn muzeyning ekspozitsiyasini vizuallashtirish va raqamli texnologiyalar orqali tasvirlash ishlari amalga oshiriladi.

Tadqiqotning natijalariga tayanib:

- 1) har bir o'quv muassasasi badiiy ta'limni rivojlanishiga doir ekspozitsion muhit haqida keng qamrovli ma'lumot tarqatsa bo'ladi. Shu asosida uning jamiyatdagi reytingi aniqlanadi va yosh avlodga kasb tanlash pallasida foydali bo'ladi;

- 2) badiiy ta'limga ixtisoslashgan o'quv yurtlarining barchasida ularni yaratilgan yilidan boshlab, xozirgi kungacha metodik fondlarda bitiruvchilarning diplom ishlari – malakaviy bitiruv ishlar, magistrlik dissertatsiyalari yig'iladi.

Lekin himoyalardan so'ng ularning taqdiri noma'lum bo'lib qoladi. Bu haqida na o'sha muassasada, na jamiyatda ma'lumot bo'lmaydi. Vaholanki, aynan shu ishlar bo'lajak

ijodkorlarning san'at sohasidagi ilk mustaqil ishlari hisoblanadi.

Uni yaratishda ular hamma imkoniiyatlarini ishga soladilar. Shu sababli, ularning qadri mualliflar uchun o'zgacha bo'ladi.

Ijodkorlar mashhurlik pallasida ishlarini muzeylarda, galereyalarda, shaxsiy kolleksiyalarda omma e'tiboriga havola qilinishi mumkin, lekin ularning ijodini ilmiy-tadqiqotlar ramkasiga kiritishda bu ilk pallada yaratilgan ishlarni yoritishda muammo paydo bo'ladi - ilmiy faktlar ozlik qiladi. Ushbu tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga imkon yaratadi. Yaratiladigan onlayn muzey platformasi orqali badiiy ta'lim jarayonidagi xronologik rivojlanish an'analari hamda kataloglashtirish tizimi asosida namoyishi yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan. Google Play Market va App store xizmatlari uchun O'zbekiston hududidagi badiiy maktablardagi rivojlanishi fotoarxiv hujjatlar asosida galereyasining elektron shakli ifoda etilgan mobil ilovasi yaratishda foydalaniladi. Mazkur ilova tez va qulay tarzda ma'lumotlar bilan tanishishga yordam beradi.



Birinchi bosqich institut professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar va talabalar uchun mo'ljallangan ichki elektron katalog tizimidir. Ushbu elektron katalog institutning bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalarning mavzular banki, ijodiy ishlarning fotolarini shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchi bosqichda tashqi virtual galereya – ijodiy ishlarning kataloglari joylashgan sayt yaratiladi. Mazkur sayt barcha internet foydalanuvchilari uchun ochiq bo'lib, unda ijodiy ishlarni yuqori sifatda tomosha qilish, shuningdek har bir ashyoning muallifi, ta'rifi va tarixi bilan tanishish imkoni bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bowen, J.P., editor, Towards Verified Systems. Elsevier Science, Real-Time Safety Critical Systems series, volume 2, 1994. ISBN 0-444-89901-4.;
2. Hinchey, M.G. and Bowen, J.P., editors, Applications of Formal Methods. Prentice Hall International Series in Computer Science, 1995. ISBN 0-13-366949-1;
3. Bowen, J.P., Formal Specification and Documentation using Z: A Case Study Approach. International Thomson Computer Press, International Thomson Publishing, 1996. ISBN 1-85032-230-9;
4. Bowen, J.P. and Hinchey, M.G., editors, High-Integrity System Specification and Design. Springer-Verlag, London, FACIT series, 1999. ISBN 3-540-76226-4.;
5. Hinchey, M.G. and Bowen, J.P., editors, Industrial-Strength Formal Methods in Practice. Springer-Verlag, London, FACIT series, 1999. ISBN 1-85233-640-4.;
6. Hierons, R., Bowen, J.P., and Harman, M., editors, Formal Methods and Testing. Springer-Verlag, LNCS, Volume 4949, 2008. ISBN 978-3-540-78916-1.;
7. Börger, E., Butler, M., Bowen, J.P., and Boca, P., editors, Abstract State Machines, B and Z. Springer-Verlag, LNCS, Volume 5238, 2008. ISBN 978-3-540-87602-1.;
8. Boca, P.P., Bowen, J.P., and Siddiqi, J.I., editors, Formal Methods: State of the Art and New Directions. Springer, 2010. ISBN 978-1-84882-735-6, e-ISBN 978-1-84882-736-3, doi:10.1007/978-1-84882-736-3.;
9. Bowen, J.P., Keene, S., and Ng, K., editors, Electronic Visualisation in Arts and Culture. Springer Series on Cultural Computing, Springer, 2013. ISBN 978-1-4471-5406-8.
10. Bowen, J. The virtual museum [Электронный ресурс].
URL: <http://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/1468-0033.00236/abstract;jsessionid=94BD94C7BB75F08E41BBB0FBBF8D99> CD.d01t04.

**TALABALARDA BADIY DID VA ESTETIK TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI
ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА И
ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ
PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF THE
FORMATION OF ARTISTIC TASTE AND AESTHETIC THINKING IN
STUDENTS**

**Temirov Murodjon Anvarovich
ADU, Tasviriy va amaliy san'at
kafedrası katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada talabalar tomonidan tasviriy san'at asarlarini idrok etish jarayoni estetik, psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda rang, kompozitsiya va vizual tasavvur kabi omillarning idrokka ta'siri, shuningdek, bu jarayonning yosh, tajriba va madaniy kontekst bilan bog'liqligi yoritiladi. Tadqiqot san'at ta'limi va psixologiyasi sohasida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega yangi qarashlarni taklif etadi.

Аннотация: В статье анализируется процесс восприятия студентами произведений изобразительного искусства с эстетической, психологической и педагогической точек зрения. Рассматривается влияние таких элементов, как цвет, композиция и визуальное воображение, а также влияние возраста, опыта и культурного контекста на восприятие. Исследование предлагает новые научно-практические подходы, актуальные для сферы художественного образования и психологии.

Annotation: This article analyzes the process of students' perception of visual art from aesthetic, psychological, and pedagogical perspectives. It explores the influence of elements such as color, composition, and visual imagination on perception, as well as how this process is shaped by age, experience, and cultural context. The study offers new insights of scientific and practical relevance in the fields of art education and psychology.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, idrok etish, ijodiy asarlar, estetika, psixologiya, pedagogika.

Ключевые слова: изобразительное искусство, восприятие, творческие произведения, эстетика, психология, педагогика.

Key words: Visual arts, perception, creative works, aesthetics, psychology, pedagogy.

Insonning estetik fazilatlarini shakllantirish haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. Ular estetik tarbiyani hayotning dastlabki bosqichlarida shakllantirishni ta'kidlaydilar. Misol uchun, Abu Nasr al-Farobi shunday degan: "Insonning ma'naviy kamoloti va uning go'zallikka bo'lgan munosabati uning estetik va axloqiy fazilatlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir." Bu fikr insonning estetik tafakkuri va axloqiy qadr-qimmatlarini shakllantirish

jarayonida yoshligidan boshlab atrof-muhitning ta'siri katta ekanligini bildiradi.

So'nggi yillarda talabalar shaxsiyati tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, divergent (ijodiy) fikrlash darajasi pasayib, mustaqil harakatga bo'lgan ehtiyoj susaydi, hissiy noqulaylik esa ortdi. Motivatsion va ehtiyoj sohasining sustligi, ichki harakat rejasining shakllanmaganligi, qiziqish va tasavvur darajasining pasayishi bilan birga, nozik motorika rivojining sustligi ham qayd etildi.

Talabalarining taxminan 25 foizi ijtimoiy kompetensiyalarning yetishmasligi, tengdoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar va nizolarni hal qilishda zaiflik bilan tavsiflanadi. Bunga parallel ravishda ularning ekranli stimulyatsiyaga yuqori ehtiyoji, muloqotda cheklov va blokirovka holatlari ham kuchaymoqda. Shu bilan birga, iqtidorli talabalar soni ortmoqda.

Talabalar qadriyat yoʻnalishlarida ham tub oʻzgarishlar kuzatilmoqda: 2007-yildan boshlab intellektual, ixtiyoriy va somatik qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Bu esa qatʼiyat, tashqi koʻrinishga eʼtibor, sogʻliq va yutuqqa intilish kabi fazilatlarini muhim deb bilinishiga sabab boʻldi. Ammo, sezgirlik, bagʻrikenglik va hamdardlik kabi hissiy-axloqiy qadriyatlarining qadrsizlanishi salbiy holat sifatida baholanishi lozim.

Talabani badiiy-estetik rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlar bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu jarayonda estetik faoliyatga xos fiziologik va psixologik omillar muhim rol oʻynaydi. Talabalar uchun vizual va xayoliy tafakkur, emotsional taʼsirchanlik, beixtiyor diqqat, yuqori vosita faolligi va harakatga boʻlgan ehtiyoj — bularning barchasi ularning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi davr ekanini koʻrsatadi.

L.P. Pechkoning soʻzlariga koʻra, “talabalar oliy taʼlimda estetik qarashni rivojlantirishi va badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirishi, shuningdek, estetik hodisalarga mazmunli yondashish koʻnikmalarini shakllantirishi mumkin” [19].

Badiiy bilish va estetik taassurotlarni tasvirlar shaklida toʻplash talabani idrok etish xususiyatlaridan biri sifatida estetik sezgirlikni shakllantirishga olib keladi, soʻngra uning asosida badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, estetik tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlariga nisbatan talabalarining badiiy did va estetik tafakkuri yetarli pedagogik boshqaruv bilan ajralib turadi.

Talabalik davrida badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirish jarayonini tashkil qilish uchun muhim boʻlishi mumkin boʻlgan talabani bir qator psixologik va pedagogik xususiyatlari mavjud.

Psixologlarning fikriga koʻra, talaba boʻlish oʻgʻil-qizlarning kattalar hayotiga oʻtishi, uning ijtimoiy oʻzini anglashi demakdir [7]. Bu davrda, ayniqsa, talabani toʻgʻri oʻzini oʻzi qadrlashini shakllantirish juda muhimdir.

Tasviriy sanʼat darslari orqali talabalarining oʻz qadr-qimmatini oshirishning maqsadga muvofiqligi T.G. Kazakova [2006], O.V. Ostrovskaya [2007], V.S. Kuzin [2005] tomonidan qayd etilgan.

Talabalarining oʻzini oʻzi qadrlash darajasini tartibga solish talaba shaxsining axloqiy va estetik fazilatlarini shakllantirishni ragʻbatlantiradi, bu albatta, voqelikni estetik baholashga taʼsir qilishi kerak.

Talabalarga xos muhim xususiyatlardan biri — bu voqelikni estetik va axloqiy tushunchalarni farqlamasdan, sinkretik tarzda idrok etishdir. Muhim aloqalar va munosabatlar, asosan, hissiy va bevosita idrok orqali shakllanadi [15].

Tadqiqot natijalariga koʻra, talabalarining axloqiy tarbiyasi uch darajada namoyon boʻladi:

1. Maqbul daraja (uslubiy)

– axloqiy qadriyatlar boʻyicha aniq bilimga ega; shaxsiy hissiyotlar chuqur va empatiya mavjud; axloqiy pozitsiya barqaror emas, biroq xulq-atvorda nisbiy izchillik bor.

2. Beqaror daraja (instrumental)

– nazariy bilim mavjud, ammo ularni amaliyot bilan bogʻlash qiyin; empatiya faqat niyat darajasida ifodalanadi; salbiy xatti-harakatlar qayd etiladi.

3. Past daraja (motivatsion)

– axloqiy bilimlar sust va tizimsiz; emotsional munosabat yoʻq; tuygʻular xatti-harakatni ragʻbatlantirmaydi; xulq-atvor beqaror va salbiy.

Talabalar estetik tarbiyasining muhim tarkibiy qismi — bu ularning badiiy idrokini shakllantirishdir. Badiiy idrok — hissiy va aqliy (ratsional) jarayonlar uygʻunligida kechadigan murakkab faoliyat boʻlib, sanʼat tilini, uning qonuniyat va ifoda vositalarini anglash asosida yuzaga keladi.

Badiiy idrok quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

1. Boshlangʻich bosqich — shakl, rang va tasviriy elementlarni tan olish;

2. Tahliliy bosqich — mazmun va kompozitsiyani anglash, tasvirni idrok qilishda bogʻliqlikni tushunish;

3. Sintez bosqichi — sanʼat asarini yaxlit holda baholash, uning gʻoyaviy-estetik qiymatini anglash.

Ushbu bosqichlar orqali talaba sanʼatni yuzaki emas, balki obraz, mazmun va badiiy shakl uygʻunligi asosida qamrab oladi. Shuningdek, ijodiy idrok va tafakkur talabani

ijodiy faoliyatida bevosita namoyon bo'ladi. L.I. Bojovichga ko'ra, bunda ikki motiv muhim: bilim olishga qiziqish va ijtimoiy baholanishga ehtiyoj.

Estetik qiziqish esa talabaning san'atga bo'lgan ichki ehtiyoji — go'zallikni anglash, estetik hissiyotlarni ifodalash va badiiy ijodga intilishni shakllantiradi. Bu qiziqish talabaning estetik ehtiyojlari va shaxsiy tajribasi bilan bog'liq holda rivojlanadi hamda ijodiy faoliyatga asos bo'lib xizmat qiladi.

N.M. Sokolnikova [21] tomonidan aniqlanganidek, talabalarda san'atga bo'lgan qiziqish quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi: o'z qo'llari bilan go'zallik yaratishga intilish; tasvir jarayoniga qiziqish; individual texnika va uslubni qo'llash; chizmalarda hissiy sezgirlik va boy tasavvurning namoyon bo'lishi; obrazlarda yangilik va o'ziga xoslik; ijodiy faoliyatda qat'iyatlilik; mehnatsevarlik; o'z ishlari uchun atrofda gilarining ijobiy bahosiga erishishga intilish.

Ijodiy qiziqish va san'atga bo'lgan motivatsiya yosh davrlari bilan bog'liq holda o'zgaradi. Talabalik davrida bu motivatsiya kasbiy faoliyatga, uning mazmuni va shart-sharoitlarini anglashga yo'naltiriladi. Bu jarayonda talaba o'zini kasb doirasida topishga, uning ijodiy imkoniyatlarini sinashga intiladi. Shunday qilib, qiziqish va ijodiy salohiyat o'zaro bog'liq holda shakllanadi.

Ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi tabiiy jarayon sifatida yuz berishi mumkin bo'lsa-da, bu boradagi o'qituvchi rahbarligidagi maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat yanada samaraliroq bo'ladi. Bu jarayon talabaning individual psixologik xususiyatlarini, estetik didini, badiiy idrok darajasini va ijodiy tasavvurini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Shaxsning ijodiy salohiyati uning intellektual, hissiy va obrazli tafakkuri, xotira xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Bu xususiyatlar o'z navbatida mashg'ulotlar mazmuni, o'qitish metodikasi va faoliyatni tashkil etish shakliga bog'liq ravishda rivojlanadi. Jumladan, talabaning tasavvuri individual estetik tajriba, badiiy dunyoqarash va ijodiy g'oyalar boyligi bilan aniqlanadi. Bu g'oyalar asosida yaratilgan tasvirlar o'ziga xosligi va yangilik darajasi bilan ajralib turadi.

Tasviriy san'at faoliyati davomida talaba nafaqat obyektни tasvirlaydi, balki uni ichki hissiyotlar bilan "yashaydi", ya'ni obraz bilan

emotsional muloqotga kiradi. Bunda obrazga "kirish" jarayoni ko'pincha o'yin elementi orqali kechadi, shuning uchun ayrim holatlarda ekspressiv ifoda tasodifiy bo'lishi ham mumkin.

L.S. Vigotskiy [10] fikricha, ta'lim faoliyati fikrlashni shaxsiy rivojlanish markaziga olib chiqadi. Talabalik davrida tushunchaviy fikrlash tezroq shakllanib, dastlab aniq predmetlar bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik mavhum va umumlashtirilgan xulosalarga o'ta boshlaydi [11]. Bu esa ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Talabada ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun uning psixologik jarayonlarini — xotira, emotsional holat, tasavvur va obrazli tafakkurni rivojlantirish zarur. Talabalik davri bu jarayonlarni faollashtirish uchun qulay bo'lib, ayniqsa semantik va vizual xotira ustunlik qiladi. Bu xotira shakllari orqali san'at asarlarining mazmuni chuqurroq idrok etiladi.

Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'l harakatlarining sensomotor rivoji va vizual analizatorning sezgirliги muhim rol o'ynaydi. Dastlabki bosqichda bunday nozik motorik harakatlar talabaga qiyinchilik tug'dirishi mumkin, biroq ular muntazam mashq va metodik rahbarlik orqali rivojlanadi.

Ye. Shimunek [22] tomonidan taklif etilgan ijodiy qobiliyatlarni baholovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- fikrlar ravonligi va moslashuvchanligi;
- g'oyaning yangiligi va o'ziga xosligi;
- obyektни takomillashtirish, modellashtirish qobiliyati;
- obrazli va mantiqiy fikrlashning uyg'unligi;
- emotsional holatni ifoda etish qobiliyati;
- mustaqil fikr yuritish va qaror qabul qilish malakasi;
- ijodiy g'oyani anglash va uni og'zaki ifoda etish;
- turli fikr va pozitsiyalarni qabul qilishga ochiqlik.

Mazkur mezonlar ijodiy qobiliyatni baholashda qo'llanilib, ular orqali talabaning estetik va badiiy tafakkur darajasi aniqlanishi mumkin. Shu bilan birga, badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi asosiy omil hisoblanadi. Talabaning texnik va konseptual tayyorgarligi qancha mukammal bo'lsa, uning tasavvuri va badiiy ifoda salohiyati shuncha boy bo'ladi.

Talabalarining tasviriy ijodiy faoliyatini samarali boshqarish uchun pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shunchaki “erkin ijod qilish” imkoniyati yoki ijodni qat’iy cheklash ikkalasi ham birdek salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois, ta’lim, tarbiya va estetik rivojlanishning birligi bosh prinsip sifatida qaralishi kerak.

Zamonaviy badiiy ta’lim tizimida muqobil dasturlarning paydo bo’lishi ijodiy pedagogik yondashuvlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi [14]. An’anaviy realizmga asoslangan ta’lim tamoyillarini zamonaviy metodlar bilan uyg’unlashtirish orqali talaba shaxsiyatidagi o’zgarishlarga samarali ta’sir ko’rsatish mumkin.

Yakuniy xulosa tarzida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- Oliy ta’lim davri talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirish uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratadi;
- Talabaning axloqiy-estetik rivoji uning estetik idroki va tafakkurini belgilaydi;
- Maxsus tashkil etilgan ta’lim jarayoni orqali analitik, obrazli va hissiy idrok integratsiyalashgan tarzda rivojlanadi;
- Kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan mashg’ulotlar talabalarining kognitiv motivatsiyasini faollashtiradi;
- Vizual faoliyat — tasavvur, xotira, fikrlash, emotsional holat va motorik ko’nikmalarni shakllantirish uchun samarali vositadir;
- Bu jarayonni tizimli boshqarish, nazorat va metodik ta’minlash talabalar ijodiy salohiyatining ochilishi va badiiy didining rivojiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/4312785>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ – 3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/3864155>.
3. Bulatov S.S., Soipova M.S, Badiiy tahlil tamoyillari (Tasviriy, amaliy va me'morchilik san'at asarlari misolida). Monografiya – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 21 b.
4. Kiyamov N. Sharq mutafakkirlari ijodida bo'lgan musiqiy ta'lim va tarbiyaga oid fikrlarni tahlil etishning pedagogik masalalari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2012. – №3. – B. 106-109.
5. Isoqov.M., Xasanov.R., Xaydarov.B., Sulaymanov.A., Jumaniyazov.S., Roziqov.A. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri. – T.: «Yangi yo'l polygraph service», 2016. – 144 b.
6. Suleymanov A., Raxmanov I., Suleymanova Z. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf darslik. – T.: «Sharq», 2020 – 115 b.
7. San'atni jamiyat hayotining ijtimoiy o'zgarishlardagi roli va ahamiyati IK Urinbayev Oriental Art and Culture 5 (6), 473-48
8. The concept and meaning of artistic image in fine arts (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=PmvBZVgAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=PmvBZVgAAAAJ:hqOjcs7Dif8C) I Urinbaev Science and innovation 3 (C5), 54-61
9. Блонский, П.П. Педология / П.П.Блонский. - М.: ВЛАДОС, 2010 - 288 с.
10. Божович, Л.И. Проблемы формирования личности / Л.И.Божович. - Воронеж: Модек, 2011 - 352 с.
11. Буров, А. И. Эстетика: проблемы и споры. Методологические основы дискуссий в эстетике [Текст] / А. И. Буров. – М.: Искусство, 1975. – 175 с.
12. Выготский, Л. С. Психология развития человека [Текст] / Л. С. Выготский. – М.: Изд-во Смысл, Эксмо, 2005. – 1136 с.
13. Гоноболин, Ф.Н. Книга об учителе / Ф.Н.Гоноболин. - М.: Просвещение, 1965-260 с.
14. Грибанова, М. В. Формирование эстетического и художественного восприятия детей старшего дошкольного возраста (на материале изобразительного искусства): дис. ... канд. пед. наук: 13.00.07 / Грибанова Марина Владиславовна. – Пермь, 2010. – 157 с.
15. Давыдов, В.В. Проблемы развивающего обучения: опыт теоретического и экспериментального исследования / В.В. Давыдов - М.: Педагогика, 2006, -239 с.
16. Игнатьев, Е.И. Психология изобразительной деятельности детей. 2-е изд., доп. [Текст] / Е.И. Игнатьев - М.: Учпедгиз, 2001. -223 с.
17. Исаев, И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб. пособ. для студ. [Текст] / И. Ф. Исаев. – М.: Академия, 2002. – 208 с.
18. Кузин, В.С. Изобразительное искусство. 1 класс: книга для учителя [Текст] / В.С. Кузин. - 4-е изд., - М.: Дрофа, 2007 . - 159с.
19. Леонтьев, А.А. Произведение искусства и личность: психологическая структура взаимодействия / А.А.Леонтьев

20. Лихачев, Б.Т. Педагогика: Курс лекций / Б.Т. Лихачев - М.: Юрайт- Издат, 2003 - 607 с.
21. Печко, Л. П. Эстетическая культура и воспитание человека [Текст] / Л.П. Печко. – М.: ИЦЭВ РАО, 2011. – 175 с.
22. Рубинштейн, С. Л. Проблемы общей психологии [Текст] /С. Л. Рубинштейн. – М.: Педагогика, 2015. – 415 с.
23. Сокольникова, Н. М. Изобразительное искусство: учебник для уч. 5- 8 кл.: в 4 ч. Ч. 2. Основы живописи [Текст] / Н. М. Сокольникова. – Обнинск: Титул, 2016. – 80 с.
24. Шимунек, Е. Эстетика и всеобщая теория искусств [Текст] / Е. Шимунек. – М.: Прогресс, 2015. – 248 с.
25. Щукина, Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе / Г.И. Щукина. - М.: Просвещение, 2009 – 160
26. Anvarovich, Temirov Murodjon. "BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING O 'RNI." Science and innovation 3.Special Issue 31 (2024): 391-394.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI MUSIQA
MADANIYATI DARSLARIDA ESTETIK TARBIYALASH PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

**AESTHETIC EDUCATION OF GENERAL SECONDARY SCHOOL
STUDENTS IN MUSICAL CULTURE LESSONS AS A PEDAGOGICAL
PROBLEM**

**ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ
МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ
ПРОБЛЕМА**

Saparov Raxim Muratbayevich
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
«Musiq ta'lim» kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Folklor–xalq ijodiyotining barcha sohalari singari xalq musiqasini ham o'z ichiga oladi. Xalq musiqasi ayrim hollarda “Musiq ahli” deb ham yuritiladi. Folklor qo'shiqlari og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib to'ldiriladi va sayqal topadi. Folklor qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning g'oyaviyligidadir. Milliy musiqaning eng ommalashgan turi folklor qo'shiqlaridir. Shu boisdan ham folklor qo'shiqlari o'quvchi–yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim manbaa hisoblanadi.*

Аннотация: : *Фольклор, как и все отрасли народного творчества, включает в себя и народную музыку. Народную музыку иногда называют "музыкальными людьми." Фольклорные песни передаются из уст в уста, из поколения в поколение, обогащаясь и совершенствуясь. Одной из отличительных черт фольклорных песен является их идейность. Самым популярным видом национальной музыки являются фольклорные песни. Поэтому фольклорные песни являются важным источником в эстетическом воспитании учащейся молодежи.*

Annotation: *Folklore, like all branches of folk art, encompasses folk music. Folk music is sometimes referred to as "the people of music." Folklore songs are passed down orally, from generation to generation, and are enhanced and refined. One of the distinctive features of folk songs is their ideological nature. Folklore songs are the most popular type of national music. Therefore, folk songs are an important source for the aesthetic education of young students.*

Kalit so'zlar: *Folklor san'ati, xalq musiqasi, xalq o'yinlari, estetik tarbiya, pedagogika, estetik idrok, estetik qiziqish.*

Ключевые слова: *Народное творчество, народная музыка, народные игры, эстетическое воспитание, педагогика, эстетическое восприятие, эстетический интерес.*

Key words: *Folk art, folk music, folk games, aesthetic education, pedagogy, aesthetic perception, aesthetic interest.*

“Folklor” atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, ikki so'zdan tashkil topgan. “Folk” (folk)–xalq va lore (lore)–donolik so'zlarining birikmasidan iborat bo'lib, “xalq donishmandligi” degan ma'noni bildiradi. U

birinchi marta Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda ishlatilgan va shundan boshlab iste'molga kiritilgan.

Folklor–xalq ijodiyotining barcha sohalari singari xalq musiqasini ham o'z ichiga

oladi. Xalq musiqasi ayrim hollarda “Musiqahli” deb ham yuritiladi. Folklor qo‘shiqlari og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib to‘ldiriladi va sayqal topadi. Folklor qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning g‘oyaviyligidir.

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi folklor qo‘shiqlaridir. Folklor qo‘shiqlarida voqea–hodisalar shaxsning botiniy kechinmalari o‘z aksini topadi va bu holat jamoaning his tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi. Shu boisdan ham folklor qo‘shiqlari o‘quvchi–yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Fanning tadrijiy taraqqiyotida estetik tarbiya muammosi o‘zining o‘rganilishi jihatidan alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Qator ilmiy tadqiqotlarda o‘quvchi va talabalarni estetik tarbiyalash muammosi batafsil o‘rganilgan. Shunday izlanishlar sirasiga S.Annamuratova [1], S.Fayzulina [7], V.Shatskaya [8], F.Xalilov [9], A.Hasanov [10] kabi qator olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Folklor qo‘shiqlarining janr xususiyatlari mehnat qo‘shiqlari, xalq o‘yinlari va ularning taraqqiyot bosqichlari kabilar folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Pedagogikada estetik tarbiya berish muammosi XX asrning 50–60 yillaridan boshlab rivojlana boshlagan. “Estetik tarbiyalash”, “estetik tarbiya”, tushunchalari amalga oshirilgan tadqiqotlarda keng tahlil qilindi. S.Annamuratova o‘z tadqiqotida o‘quvchilarning badiiy–estetik tarbiyasi xususida fikr yuritgan bo‘lsa [1], F.Jo‘rayev o‘zbek xalq cholg‘u asboblari to‘garaklarda o‘rganish jarayonida musiqiy–estetik tarbiya muammosini o‘rgangan [2].

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, shaxsni kamol toptirish, uning his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi, ma’naviyati, madaniyatlilik darajasini rivojlantirishda san’at va adabiyotning o‘z o‘rni hamda mavqei bor. O‘quvchilarni estetik tarbiyalashda musiqaning ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qo‘shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati muhimligi ko‘plab dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Biz tadqiqotimizni vorisiylik tamoyiliga tayangan holda amalga oshirishni nazarda tutdik. Vorislik – tarixiy taraqqiyot jarayonida yangilik bilan eskilik o‘rtasida yuzaga keladigan zaruriy aloqa, bog‘lanish usulidir. Shunday ekan, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda ularning axloqiy sifatlariga ham

e’tibor beriladi. Zero, estetik tarbiya aql bilan hissiyotni uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

“Estetika” keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o‘rgatadi [9]. Estetika shaxs estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Bu jarayon shaxsning yosh xususiyatlari va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqichlar hamda darajalarga ega. Estetik tarbiya shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli pedagogik vositalar, shakllar va yo‘llar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud.

Jamiyatning estetik madaniyati deganda, insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to‘plagan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmui tushuniladi.

O‘quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxsning go‘zallik bilan o‘zaro munosabati, uning ayrim sifatleri o‘zaro ta’sir natijasida estetik madaniyati ham doimo o‘zgarib turadi.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Estetik ong.
2. Estetik munosabatlar.
3. Estetik idrok
4. Estetik qiziqish [6].

Estetik ong – ijtimoiy voqelik tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim – tarbiya natijasida shakllanadi.

Estetik munosabat – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakat orqali ifodalanadi. Bunda estetik idrok birlamchi vazifani o‘taydi.

Estetik idrok - atrof muhitdagi buyum, narsa, hodisalarning estetik mohiyatini his qilish jarayoni.

Estetik qiziqish – o‘quvchida estetik faoliyatga intilish, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o‘zlashtirishga kirishishda ifodalanadi [3].

O‘quvchilar estetik madaniyat darajasiga o‘zlarini o‘rab turgan tevarak-atrofdagi narsa, hodisalar, kiyimlar, o‘yinchoqlar, oila a’zolarining o‘zaro samimiy munosabatlari yordamida hamda qo‘shiq, musiqa tinglash orqali erishadilar. Musiqa madaniyati darslarida

o'quvchilar qo'shiq aytish, ijrochilik, musiqa asboblarini chalish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar musiqa asboblari hamda atrof- muhitdagi kishilarga to'g'ri muomalada bo'lish maqsadida, o'zlari egallagan estetik madaniyat darajasini namoyish qiladilar. Buyuk alloma Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman, ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi, musiqa inson kayfiyatini o'zgartirishdan tashqari, uning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etishini estetik jihatdan asoslab bergan. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini aniq maqsadga yo'naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar orqali estetik tarbiyalashda Qoraqalpoq musiqa folklori muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa darslarining estetik tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchining bilimi, iqtidori, go'zal ovozi, kiyinish madaniyati, nutqi yetakchi ahamiyatga ega.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga ta'sir qilib, hissiyotlarini junbushga keltiradi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqiy ohang inson bosh miya yarim sharlaridagi nozik nuqtalarga ta'sir etmaydigan qatlamga kirib boradi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltiradi [5].

O'quvchilarda qoraqalpoq musiqa folklori asosida shakllana boshlagan bilim, ko'nikma va malakalar ularda milliy musiqa san'atining nodir asarlarini tushunish va o'zlashtirish, ulardan zavqlanish imkoniyatini kengaytiradi.

Qoraqalpoq musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- 5-7-sinf o'quvchilarida musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa hamda folklor qo'shiqlariga qiziqish va havas uyg'otish;

- har bir o'quvchida qo'shiqlarni ifodali va xushohang ijro etish ko'nikmasini qaror toptirish;

- milliy hamda qoraqalpoq musiqa folklori qo'shiqlarini ongli va hissiyot bilan idrok etish, ulardagi nafislikni sezish va go'zallik nuqtayi nazaridan baholashga o'rgatish;

- musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish, musiqiy taassurotlarning kengaytirishga erishish;

- san'at va go'zallikni egallashga nisbatan barqaror ehtiyojni qaror toptirish;

- musiqa madaniyati darslarida estetik qadriyat namunasi bo'lgan odob, axloq, go'zallikka intilish, do'stlik, rostgo'ylik hissinini shakllantirish.

Musiqa san'atining o'ziga xos shunday qudrati borki, bu uni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi. Bu insonga kuchli ta'sir etuvchi ohang musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari, vositalarida tovush temбри, baland - pastligi, ritm xilma-xilligi, garmoniya tuzilishi, interval va akkordlar tuzilishidagi rang-baranglik, dinamik tus va boshqalar o'quvchini his-hayajonga soladigan, uning tuyg'ulari olamida mo'jizalar yaratadigan beqiyos ta'sir vositasidir.

O'quvchi shaxsining kamol topishi va shakllanishida musiqaning, ayniqsa, xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlari silsilasidan yaralgan Qoraqalpoq musiqa folklorining tutgan o'rni beqiyosdir.

Qoraqalpoq musiqa folklori namunalari avloddan-avlodga o'tib, qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari hamda boshqa milliy bezaklarini tinglagan kishi unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehirli olamiga yetaklaydi. Qoraqalpoq musiqa folklori estetik joziba olami bo'libgina qolmay, balki estetik ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Chunki, inson his-hayajoni zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hissiyotlar, xulosalar ham yotadi. Buyuk alloma A.Jomiy musiqaning xilma-xilligi inson ma'naviy ehtiyojlarining ifodasi ekanligi, ikkinchidan, estetik lazzat va huzur orqali inson ma'naviy barkamolligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Musiqa misolida A.Jomiy e'tirof etadiki, "Ruhga lazzat biror narsani tushunib, bilib olmoqdan keladi. Nimaiki ruh tomonidan tez idrok etilsa, uni hayratga, chuqur o'ylashga majbur etsa, u eng lazzatli hisoblanadi" [4].

Pedagogika hamda psixologiyaga oid adabiyotlarda musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Bizning nazarimizda, inson ongida vujudga kelib, shakllanib, taraqqiy etayotgan ma'naviy qadriyatlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy, estetik fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Estetik fazilatlarni tarbiyalash jarayonida o'quvchilarning yangidan- yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat

qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o'quvchilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop Qoraqalpoq musiqa folklori namunalarini muntazam ravishda o'rganib borish, ijro etish o'quvchilarning nafaqat repertuarini boyitadi, balki ularning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatini barqarorlashtiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va estetik fazilatlarining takomillashishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir.

Pedagog olimlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, Qoraqalpoq musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash quyidagi tadbirlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. O'quvchilarda nafosat, go'zallikka intilish va uni ardoqlash.

2. Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi.

3. O'quvchilarni mehnat, kishilar va ular tomonidan yaratilgan ne'matlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish.

4. O'quvchining jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati.

5. Qo'shiqlarni idrok etish orqali nafosat elementlarini tarkib toptirish.

6. O'quvchining shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini tarkib toptirish orqali.

O'quvchilarning estetik fazilatlarini ularning aqliy, axloqiy, badiiy va madaniyatlilik kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlaridan iborat.

Musiqa madaniyati darslarida estetik fazilatlarining tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Qoraqalpoq musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarida insonparvarlik, mehr-muhabbat, nafosat, e'tiqod, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi. Estetik tarbiya zahirida axloqiy bilim, ko'nikma va malakalar axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, hatti-xarakatlarini boshqarishning o'ziga xos tizimi yotadi. Axloqan go'zal shaxs ma'nan go'zal va barkamol bo'ladi. Axloqiy fazilatlar esa o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida qisman milliy musiqa hamda folklor qo'shiqlari vositasida shakllanib boradi. Axloqiy fazilatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lishi xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik kabi qator

muhim tushunchalar axloqiy fazilatga oid tushunchalardir. Jamiyatning moddiy-ma'naviy rivojlanishiga qadriyatlar, tarbiya vositasi bo'lgan turli qarashlar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy qadriyatlar mustaqilligimizning qaror topishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilishini unutmasligimiz lozim. Shaxsda estetik tarbiya hamda estetik madaniyat odob-axloq qoidalari zahirida shakllanib boradi. Sharqona tarbiya mezonlarida iymon, e'tiqod tushunchalari negizida estetik madaniyatning mohiyati mujassamlashgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati ta'limida o'quvchilarni estetik tarbiyalash vositalaridan biri qoraqalpoq folklor qo'shiqlaridir. Bunday folklor qo'shiqlari turli bayram va tantanalarda aytilishi bilan bir qatorda, musiqa madaniyati darslarida ham o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchining o'zligini anglashga yordam berib, uning faolligini tezlashtiradi. O'quvchilarni folklor qo'shiqlari orqali estetik tarbiyalash, avvalo, ularning ma'naviy – axloqiy didini takomillashtiradi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individuelligini hisobga olish, musiqani idrok qilish, uni tahlil qila olishga o'rgatish pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligiga bevosita bog'liq.

Folklor qo'shiqlari orqali 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash musiqa san'atining boshqa janrlari, ya'ni maqom va mumtoz ashulalar qatorida o'zining qulayligi hamda tinglovchilarga tez yetib borishi bilan ajralib turadi. Chunki, folklor qo'shiqlarida xalqning an'analari, rasm-rusumlari, madaniyati o'z ifodasini topgan.

O'quvchilar hayotida musiqa ta'limi alohida o'rin egallaydi, ularda musiqaga bo'lgan qiziqish shu davrda nihoyat darajada jadallashadi. Bu esa o'quvchilarning intellektual, estetik va ma'naviy olamini boyitish, rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning musiqani yoqtirishi, folklor qo'shiqlari vositasida ularni go'zallik olamiga olib kirish, ijrochilik mahoratlaridan bahramand bo'lish va ularni o'z xalqining musiqa asarlarini qadrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ularda yengil-yelpi musiqaga qiziqish ortib, mumtoz musiqiy ohanglardan uzoqlashish hissi paydo bo'ladi.

Yosh avlodni folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashda musiqani hissiy idrok qilishga yo'naltirish eng asosiy omil hisoblanadi. Musiqa ta'limida o'quvchini

qiziqtirish alohida ahamiyatga ega. Qiziqish o'quvchilarning ehtiyojiga aylansa, ularning diqqati va fikri, xayolini jamlashga katta imkon beradi. Qoraqalpoq musiqa folklori orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashning muhim shartlaridan biri–ularda musiqiy qobiliyatning mavjudligini aniqlay olishdadir.

Musiqaga oid estetik qobiliyat–bu, o'z navbatida, musiqiy idrokning ikki muhim tomonini o'zida mujassamlashtiradi:

a) hissiy bilish;

b) samarali bilish.

Hissiy idrok har bir o'quvchining musiqadan ta'sirlana olishi, uning go'zalligini his etishi, hayotiy voqealarni o'z qamroviga sola olishida namoyon bo'ladi.

Samarali bilish musiqani idrok qilish orqali o'quvchining o'zini o'rab turgan muhit va hayot haqida uning uchun yangilik bo'lgan xabar, bilimlarni egallashga erishishdan iborat. Folklor qo'shiqlaridan oladigan ma'lumotlarning keng qamrovli bo'lishini ta'minlash, hissiy ta'sirchanlikni o'stirish uchun o'quvchilarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish zarur. O'quvchilarga o'rgatiladigan folklor qo'shiqlarining musiqiy bezagi, undagi nola va qochirimlardan unumli foydalangan holda xalq an'analari, udumlari hamda turli marosimlar bilan uzviy bog'lab, o'quvchilarga singdirish lozim. Qoraqalpoq musiqa folklori namunalari ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri–uning o'quvchilar hissiyotiga tez ta'sir qila olishidir.

Musiqiy ohangning yuksak darajada emotsionalligi, uning inson hissiyot hamda kechinmalariga samarali, kuchli va chuqur ta'sir eta olishida namoyon bo'ladi. Folklor qo'shiqlarini ijro etish jarayonida so'zning emotsionalligi bilan birgalikda undagi o'ynoqlik, harakatchanlik, epchillikka undash, imo–ishoralar, tovushlarning ohangdorligi, cholg'u sozlarning musiqiy jozibadorligi o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan intilishni shakllantiradi hamda, estetik tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Estetik tarbiyalash orqali o'quvchilarda ma'naviy–axloqiy fazilatlar ham shakllantiriladi.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida mavjud bo'lgan va ular tomonidan yaratilgan afsona, rivoyat va qo'shiqlarda ham estetik tarbiya bosh mezon sifatida namoyon bo'lgan. Qo'shiqning sehri, jozibadorligi hatto jahldor, zulmkor hukmdorlarni ham shahdidan qaytargan, adolatli bo'lishga undagan.

Rivoyatlarga ko'ra, qadimda bir podshoh bo'lgan ekan. U shunday jahldor, zulmkor bo'lgan ekan–ki, uning oldida hech kim ortiqcha so'zlay olmas, harakat qilmas ekan. Kunlardan bir kuni mamlakatidagi voyaga yetgan yigitlarni sinovdan o'tkazishni maqsad qilib, jamiki, yigitlarni yig'ishni buyuribdi. Choparlar mamlakatning to'rt tomoniga yo'l olib, yigitlarni saroy oldidagi maydonga to'plabdi. Yig'ilganlarning qo'liga o'q va kamon berishibdi. Maydonga chiroyli yasatilgan bir otni chiqarib yuborib, yigitlarga shu otga qarata kamondan o'q otish topshiriladi. Shunda qiziq voqea yuz beradi. Barcha yigitlar o'q uzadiyu, faqat safda turgan yigitlardan bittasi o'q uzmaydi. Buni kuzatib turgan podshoh yigitni darhol qatl qilishni buyuradi. Yigitni qatl qilish oldidan uning onasi podshohga yolvorib o'g'li hali uylanmaganligi, chimildiq ko'rmaganligini, oxirgi marta bir qo'shiq kuylashiga ijozat etishini so'raydi. Yigitning onasi shunaqangi qo'shiq kuylaydiki, unda onaning dardi, xalqning ko'rayotgan zulmi ifodalanadi. Shoh oldidagi barcha ayonlar, hattoki podshohning o'zi ham yig'lab yuboradi. Shoh onaga yuzlanib bu qanaqa qo'shiq, mening saroyimdagi xonandalar ijro qilmagan bu mungli qo'shiq qanday nomlanadi? deb so'raydi. Ona bu qo'shiq "Alla" ekanini aytadi. Shunda podshohning qalbida ilqlik paydo bo'lib, yigitning jazosini bekor qiladi va o'sha kundan boshlab adolatli hamda mehribon shoh bo'lishga ahd qiladi [6]. Demak, mana shunga o'xshagan rivoyat va afsonalarda xalqning ezgu niyatlari, orzu–umidlari, axloqiy fazilatlar, an'analari o'z aksini topgan. Ma'naviy–axloqiy fazilat kabi uning negizini tashkil qiladigan moddiy–ma'naviy qadriyatlar ham tarixiy hodisalar sifatida xalq uchun xos bo'lgan xususiyat bo'lib, avloddan–avlodga o'tib, izchil davom etib kelmoqda.

Folklor namunalarida ifodalangan o'gitlar, namuna ko'rsatish, o'rnak bo'lish, murojaat qilish, kinoya, piching, kesatiq kabi poetik vositalar bo'lsa; musiqiy ohang, maxsus ko'rinishlar estetik tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladi.

Folklor qo'shiqlari muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega. Jumladan, ular o'quvchilarni yoshligidanoq foydali ishlarga o'rgatish, jamiyat uchun manfaat keltiradigan, barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, folklor qo'shiqlari o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat,

do'stga sadoqat, odamlarga ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

Musiq folklorini o'rganish orqali o'quvchilar ma'naviy qadriyatlarning ta'sir kuchi, xalqimizning milliy xarakteri, g'oyaviy–

siyosiy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, aqliy, jismoniy madaniyat kabi tushunchalarga ega bo'ladilar. Shuning uchun, musiqa folklori o'quvchilarda axloqiy fazilatlarining shakllanishida muhim o'rin tu

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аннамуратова С.К. Художественно–эстетическое воспитание школьников Узбекистана. –Т.: Фан, 1991.- 369 с.
2. Жўраев Ф. Становление и развитие массового музыкально-эстетического воспитания учащейся молодёжи в кружках узбекских народных инструментов: Автореф. ... канд. пед. наук.- Т.: 1980. – 24 с.
3. Мусиқа психологияси. –Т.: Мусиқа, 2005. – 78 б.
4. Нурматов Х. Педагогические основы формирования музыкально-эстетической культуры младших школьников Узбекистана: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т., 1994.- 50 с
5. Касимова М.Б. Эстетическое воспитание студенческой молодежи средствами узбекского музыкально-песенного фольклора: Дисс. ... канд. пед. наук. –Т., 1990.- 218 с 45, 187
6. Фалсафа қисқача изоҳли луғати. –Т.: Шарқ, 2004. – 383 б., 201
7. Файзуллина С.Х. Становление и развитие эстетического воспитания школьников Узбекистана. –Т.: Фан, 1984.- 186 с.
8. Щацкая В.Н. Музыкально-эстетическое воспитание детей и юношества. – М.: Педагогика, 1975.- 285 с.
9. Халилов Ф.Н. Активизация процесса музыкально-эстетического воспитания учащихся молодёжи средствами игры на баяне: Дисс. ... канд. пед. наук. –Т., 1991.- 130 с.115.
- 10.Хасанов А. Народная музыка как средство нравственно-эстетического воспитания молодёжи. -Дисс. ... докт. пед. наук. –Т., 1989.- 339 с.

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA ILMINING ZAMONAVIY
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИКИ И
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ
MODERN DEVELOPMENT TRENDS IN THE SCIENCE OF
PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY**

Gubenova Gozzal Turganbayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti
3-kurs mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada samarali ta'lim va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga erishish maqsadida nazariya va amaliyotni rivojlantirish uchun asos bo'layotgan pedagogika va ta'lim psixologiyasidagi yangi tendensiyalar ko'rib chiqiladi.

Аннотация: : В статье рассматриваются новые тенденции в педагогике и психологии образования, которые закладывают основу для развития теории и практики в целях достижения эффективного обучения и успеваемости учащихся.

Annotation: This article examines emerging trends in pedagogy and psychology in education, providing a framework for the integration of theory and practice in achieving effective teaching and student success.

Kalit so'zlar: ta'limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish, yaxlitlik, tendensiya, standartlashtirish, parametr.

Ключевые слова: гуманизация образования, индивидуализация, целостность, тенденция, стандартизация, параметр.

Key words: humanization of education, individualization, integrity, trend, standardization, parameter.

Ta'limning jadal rivojlanayotgan manzarasida pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o'qitish va o'qitish amaliyotini qayta shakllantirmoqda. Texnologiyalar integratsiyasi, shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlari va ijtimoiy-emotsional ta'limga e'tibor qaratish ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlariga aylandi. Kognitiv rivojlanish nazariyalari, inklyuziv ta'lim amaliyotlari va neyrotalim tushunchalaridan kelib chiqqan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion strategiyalarni o'rganmoqdalar. Pedagogika va psixologiya ta'lim tizimini shakllantirish va o'quv jarayonini tushinishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'tgan yillar davomida har ikki sohada ham o'qituvchilarning dars berish va o'quvchilarning bilim olish usullariga ta'sir ko'rsatgan muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu insho pedagogika

va psixologiyaning ba'zi zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini va ularning ta'limga ta'sirini o'rganadi.[1]

Zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limga o'tishdir. Bu yondashuv o'quvchilarning o'qituvchilardan passiv ma'lumot olishiga emas, balki o'z ta'lim jarayoniga jalb etish muhimligiga urg'u beradi. Talabalarga o'z bilimlarini nazorat qilish imkonini berish orqali o'qituvchilar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishlari mumkin. Pedagogikadagi yana bir muhim tendensiya texnologiyaning sinfga integratsiyalashuvidir. Raqamli vositalar va resurslarning ko'payishi bilan o'qituvchilar o'quv tajribasini oshirishlari va talabalarga ko'proq moslashtirilgan ko'rsatmalar berishlari mumkin. Texnologiya, shuningdek, o'qituvchilarga o'quvchilar taraqqiyotini yanada

samarali kuzatishga yordam beradi va natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Psixologiya, shuningdek, so'nggi yillarda, xususan, kognitiv psixologiya sohasida sezilarli o'zgarishlarni ko'rdi. Tadqiqotchilar miyaning ma'lumotni qanday qayta ishlashi va turli xil o'rganish uslublari o'quvchilar faoliyatiga qanday ta'sir qilishi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishdi. Ushbu bilimlar o'qitish amaliyoti va o'quv dasturlarini loyihalashda ma'lumot berdi, bu esa yanada samarali ta'lim strategiyalariga olib keldi.

Psixologiyadagi diqqatga sazovor tendensiyalardan biri ijtimoiy-emotsional o'rganishga e'tibor qaratishdir. Pedagoglar o'quvchilarning ilmiy ehtiyojlari bilan bir qatorda ularning hissiy farovonligiga ham e'tibor qaratish muhimligini tobora ko'proq anglab yetmoqda. Ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan qat'iyatlilik, empatiya va o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Zamonaviy psixologiyadagi yana bir muhim tendensiya - individual farqlarga urg'u berishdir. Tadqiqotchilar talabalarining o'ziga xos ta'lim uslublari, afzalliklari va kuchli tomonlari borligini va bu farqlar ularning akademik faoliyatiga ta'sir qilishi mumkinligini aniqladilar. O'qitishga shaxsiy yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarga o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishga va akademik muvaffaqiyatlarga erishishlariga yordam berishlari mumkin.[2]

Texnologiya bizning ta'limga bo'lgan yondashuvimizni inqilob qilib, o'rganish tajribasini yaxshilaydigan innovatsion vositalar va platformalar to'loqini keltirib chiqardi. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) o'quvchilarga interaktiv ta'lim tajribasiga sho'ng'ish imkonini berib, ta'limda yangi imkoniyatlar ochdi. An'anaviy sinf muhiti bilan xayrlash va onlayn o'quv platformalariga salom ayting! Bizning qo'limizda mavjud bo'lgan ko'plab vositalar va resurslar bilan talabalar endi istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim mazmuniga kirishlari mumkin. Interfaol viktorinalardan tortib videoma'ruzalargacha onlayn o'qitish ta'limni har qachongidan ham qulayroq va qiziqarli qiladi. Hammaga mos keladigan ta'lim davri o'tib ketdi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlari har bir talabaning individual ehtiyojlari va o'rganish

uslublariga mos keladigan qiziqish uyg'otmoqda. Ikkita o'quvchi bir-biriga o'xshamaydi, bu erda adaptiv ta'lim tizimlari o'ynaydi. Algoritmardan foydalangan holda individual ta'lim modellarini tahlil qilish orqali ushbu tizimlar ta'lim mazmunini har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirib, optimal ta'lim natijalarini ta'minlaydi.

Individual tafovutlar bilan bir qatorda tadqiqotchilar madaniy xilma-xillikning ta'limdagi rolini ham o'rgandilar. Talabalarining madaniy kelib chiqishi va tajribasini tushunish o'qituvchilarga yanada inklyuziv va adolatli o'quv muhitini yaratishga yordam beradi. O'quv rejasi va o'qitish amaliyotiga turli nuqtai nazarlarni kiritish orqali o'qituvchilar madaniy kompetensiyani va barcha talabalarga hurmatni rivojlantirishlari mumkin. Hamkorlikda o'rganish zamonaviy pedagogikaning yana bir asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Talabalarni loyiha va topshiriqlar ustida birgalikda ishlashga undash orqali o'qituvchilar jamoada ishlash, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Hamkorlikdagi ta'lim, shuningdek, o'quvchilarga bir-biridan o'rganish va sinfda hamjamiyat hissinini rivojlantirish imkonini beradi.[3]

Psixologiya sohasida tadqiqotchilar o'rganishda motivatsiyaning ahamiyatiga ham e'tibor qaratishgan. O'quvchilarni material bilan shug'ullanishga va qiyinchiliklarni engishga nima undayotganini tushunib, o'qituvchilar yanada qiziqarli va ta'sirli darslarni ishlab chiqishlari mumkin. Motivatsiyalangan talabalar akademik muvaffaqiyatga erishishlari va umr bo'yi o'rganishga bo'lgan muhabbatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Nihoyat, tadqiqotga asoslangan amaliyotni o'qitishga integratsiyalashuvi pedagogikada ham, psixologiyada ham mashhur tendensiyaga aylandi. Dalillarga asoslangan strategiya va usullarni o'z yo'riqnomalariga kiritish orqali o'qituvchilar o'zlarining ta'lim samaradorligini va so'nggi tadqiqotlarga asoslanganligini ta'minlashlari mumkin. Bunday yondashuv talaba natijalarini yaxshilashga va umuman ta'lim tizimining yanada muvaffaqiyatli bo'lishiga olib kelishi mumkin. O'quvchilar qanday fikrlashi va o'rganishini tushunish samarali o'qitishning kalitidir. Kognitiv rivojlanish nazariyalari ongning ichki faoliyati haqida qimmatli fikrlarni taklif qiladi. Bu talabalar xilma-xilligining ajoyib gobelenini qamrab olish bilan bog'liq. ESL talabalaridan

tortib o'rganishda nuqsoni bo'lganlarga o'qituvchilar har bir o'quvchini qo'llab-quvvatlashning ijodiy usullarini izlamoqda, chunki hamma ham bir xil sur'atda yoki bir xil tarzda o'rganmaydi. Bu xuddi o'z ta'lim guruhiga ega bo'lganga o'xshaydi. Professional o'quv jamoalari o'qituvchilarni g'oyalar, strategiyalar bilan bo'lishish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlash uchun birlashtiradi, bu dunyoda o'qitish ba'zan mushuklarni boqish kabi his qiladi. Bu haqiqatda foydali bo'lgan taraqqiyot hisobotiga o'xshaydi. Shakllantiruvchi baholash strategiyalari o'qituvchilarga real vaqt rejimida o'quvchilarning o'rganishini kuzatish imkonini beradi, qimmatli fikr-mulohazalarni taqdim etadi, bu esa ko'rsatmalarga rahbarlik qiladi va talabalarga muvaffaqiyat sari to'g'ri yo'lda qolishga yordam beradi.[4]

Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ta'limda sezilarli yutuqlarga olib keldi. Talabalarga yo'naltirilgan ta'limni qamrab olish, texnologiyani integratsiyalash, ijtimoiy-emotsional ta'limga e'tibor qaratish va individual farqlarni tan olish orqali o'qituvchilar talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali o'rganish tajribasini yaratishi mumkin. O'qituvchilar so'nggi tadqiqotlar haqida xabardor bo'lish va dalillarga asoslangan amaliyotlarni o'z darslariga kiritish orqali talabalar natijalarini yaxshilash va ta'lim kelajagini shakllantirishda davom etishlari mumkin. Bu raqamli kristall shar bilan o'qitishga o'xshaydi. Ma'lumotlar tahlili kuchidan foydalangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning ishlash tendensiyalarini tahlil qilishlari va yaxshilanishi kerak bo'lgan

yo'nalishlarni aniqlashlari mumkin, bu ularga o'quvchilarni qaerda kutib olishlari uchun o'z ta'lim strategiyalarini moslashtirishga yordam beradi. Pedagogikalar pedagogika va psixologiyadagi ushbu zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini qabul qilishda davom etar ekan, ta'lim kelajagi o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va akademik yutuqlarini oshirish uchun katta va'da beradi. Dalillarga asoslangan amaliyotlarni o'z ichiga olgan va so'nggi tadqiqot natijalaridan foydalangan holda, o'qituvchilar barcha o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan inklyuziv va dinamik o'quv muhitini yaratishi mumkin. Innovatsiyalar, hamkorlik va doimiy takomillashtirishga e'tibor qaratgan holda, ushbu tendensiyalarning o'zgaruvchan ta'siri kelgusi yillar uchun ta'lim landshaftini shakllantirishga tayyor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'llanilishi. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 5, pp. 107113).
2. Shermatova, Z. I. L. O. L. A., & Shermatova, H. I. L. O. L. A. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. Интернаука, 4(1), 46-47.
3. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and Innovation, 1(B8), 5-9.
4. Шерматова, Х. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культура-важный фактор образовательного процесса. Экономика и социум, (4-2), 723-726.

**XALQORO TAJRIBA ASOSIDA INKLYUZIV SINFLARDA ADAPTIV
JISMONIY TARBIYA TAJRIBANI TASHKIL ETISH
ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИКИ АДАПТИВНОГО ФИЗИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ В ИНКЛЮЗИВНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ
МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА
ORGANIZATION OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
EXPERIENCE IN INCLUSIVE CLASSES ON THE BASIS OF
EXPERIENCE**

**Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim muassasalarida adaptiv jismoniy tarbiyani tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar misolida maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy mashg'ulotlarni modifikatsiyalash, mutaxassislar ishtiroki va individual yondashuv kabi jihatlari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribani qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Аннотация:** В данной статье анализируется международный опыт организации адаптивного физического воспитания в учреждениях инклюзивного образования. На примере таких развитых стран, как США, Германия, Япония, рассматриваются такие аспекты, как модификация физических упражнений для детей с ограниченными возможностями в школах, участие специалистов и индивидуальный подход. Разрабатываются рекомендации по применению этого опыта в условиях Узбекистана.*

***Annotation:** This article analyzes international experiences in organizing adaptive physical education in inclusive educational institutions. Using examples from developed countries such as the USA, Germany, and Japan, the article examines aspects like modifying physical activities for children with disabilities in schools, the involvement of specialists, and individualized approaches. Recommendations for applying these experiences in the context of Uzbekistan are developed.*

***Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, adaptiv jismoniy tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, xalqaro tajriba, jismoniy rivojlanish.*

***Ключевые слова:** Инклюзивное образование, адаптивное физическое воспитание, дети с ограниченными возможностями, международный опыт, физическое развитие.*

***Key words:** Inclusive education, adaptive physical education, children with disabilities, international experience, physical development.*

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'limda inklyuziv yondashuv keng joriy etilmoqda. BMT, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga ko'ra, har bir bola, jumladan imkoniyati cheklangan bolalar ham sifatli va qulay sharoitlarda ta'lim olish huquqiga ega. Bu esa maktab tizimida, xususan, jismoniy

tarbiya sohasida ham o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda. Inklyuziv sinflarda o'qiyotgan bolalarning jismoniy rivojlanishi, harakat faolligi va ijtimoiy moslashuvi uchun adaptiv jismoniy tarbiya dasturlari hayotiy zaruratga aylangan[9].

Jismoniy tarbiya insonning har tomonlama sog'lom rivojlanishida asosiy omil

hisoblanadi. Ammo, imkoniyati cheklangan bolalar uchun bu jarayon maxsus moslashtirilgan, pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi, individual yondashuvga asoslangan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan dunyoning rivojlangan davlatlari — AQSh, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ammo, aynan jismoniy tarbiya yo'nalishida yetarli metodik, moddiy-texnik va kadr salohiyatining shakllantirilishi bo'yicha izchil choralar ko'rish talab etiladi. Zero, adaptiv jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy sog'lomlashtirish, balki bola ruhiyati va ijtimoiy faolligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada xalqaro tajribalar asosida inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishning eng yaxshi amaliyotlari o'rganiladi, O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslanadi va ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida bir nechta yetakchi xorijiy davlatlar — AQSh, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi chuqur o'rganildi. Tadqiqotlar chog'ida ushbu davlatlardagi inklyuziv sinflarda jismoniy tarbiya jarayonining qanday tashkil etilishi, pedagogik yondashuvlar, texnik infratuzilma, kadrlar salohiyati, oilalar bilan hamkorlik darajasi va natijaviylik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

AQSh tajribasi

AQShda inklyuziv ta'lim sohasida jismoniy tarbiya "Adapted Physical Education (APE)" dasturlari asosida olib boriladi. Har bir bola uchun alohida IEP (Individual Education Plan) tayyorlanadi. Jismoniy mashqlar bolaning harakatlanish qobiliyati, tibbiy ko'rsatkichlari va psixologik holatiga qarab tanlanadi. Maktablarda maxsus moslashtirilgan sport uskunolari, ko'makchi o'qituvchilar va fizioterapevtlar faoliyat yuritadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, APE dasturi bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, guruhga moslashuvchanlikni oshirish, psixomotor ko'nikmalarni rivojlantirishda katta samara beradi[7].

Germaniya tajribasi

Germaniyada "Kooperativ o'qitish modeli" asosida inklyuziv jismoniy tarbiya darslari tashkil etiladi. Bu modelda sog'lom va nogironligi bo'lgan bolalar bir guruhda shug'ullanadi, biroq mashqlar darajasi differensial yondashuv bilan tanlanadi. Har bir sinfda ikki nafar mutaxassis — umumiy jismoniy tarbiya o'qituvchisi va adaptiv tarbiya bo'yicha mutaxassis ishlaydi. O'quvchilar o'rtasida jismoniy holat farqlari inobatga olinadi, jamoaviy o'yinlar orqali empatiya, hamjihatlik va ijtimoiy integratsiya rivojlantiriladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu model ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi[1].

Skandinaviya mamlakatlari tajribasi

Norvegiya, Shvetsiya va Daniya tajribasida inklyuziv jismoniy tarbiya darslari asosan ochiq havoda, o'yin va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan. Darslarda majburlov mavjud emas; bolaning qiziqishi, kayfiyati va imkoniyatlari inobatga olinadi. "Hissiy harakat erkinligi" tamoyili asosida bolalarga o'zini erkin ifoda etish imkoniyati yaratiladi. Maxsus holatlar uchun fizioterapevtik yordam ko'rsatiladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, skandinav yondashuvi bolaning o'zini jamiyatning teng a'zosi deb his qilishini ta'minlaydi. Bu tajribada hamkorlik muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivoji uchun davlat grantlari, malaka oshirish kurslari mavjud[2].

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi

Ushbu mamlakatlarda adaptiv jismoniy tarbiya ta'lim tizimining integral qismiga aylangan. Har bir jismoniy tarbiya darsi oldidan bolaning sog'lig'i haqida shifokorlar va psixologlar xulosalari olinadi. Moslashtirilgan mashqlar reabilitatsion maqsadlarda qo'llaniladi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan muntazam aloqa yuritiladi[10]. Mashg'ulotlar o'z-o'zini nazorat qilish, sabr-toqatli bo'lish, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu model nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy faolligi va maktabga qatnashish foizini 15-20% ga oshirgan. Bu mamlakatlarda har yili inklyuziv sport o'yinlari o'tkaziladi, bu esa bolalarning motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi[3].

Kanada va Avstraliya tajribasi

Kanadada "Unified Sports" dasturi orqali imkoniyati cheklangan va sog'lom o'quvchilarni birlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Sport jamoalari inklyuziv shaklda shakllantiriladi, bu

esa jamiyatdagi tolerantlikni kuchaytiradi. Avstraliyada esa "Active Inclusion" dasturi asosida o'quvchilarning har birining imkoniyatlariga mos sport variantlari taklif qilinadi. Sport turlari soddalashtirilgan qoidalar asosida o'rgatiladi. Bu orqali barcha o'quvchilar sport jarayonida ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi[4].

Jadval 1.

Davlat	Yondashuv	Xususiyatlari
AQSh	Individual Education Plan (IEP)	Har bir bola uchun individual jismoniy mashqlar rejalashtiriladi
Germaniya	Kooperativ o'qitish	Sog'lom va nogiron bolalar birgalikda shug'ullanadi
Skandinaviya	O'yin va erkin harakat tamoyili	Darslar ochiq havoda, bolalar qiziqishiga qarab olib boriladi
Yaponiya/Koreya	Reabilitatsion yondashuv	Darslar sog'liq holatiga asoslangan mashqlar bilan boyitilgan
Kanada	Unified Sports	Imkoniyati cheklangan va sog'lom o'quvchilar aralash sport jamoalarida
Avstraliya	Active Inclusion	Imkoniyatlarga qarab sport turlari va mashg'ulotlar soddalashtiriladi

Xalqaro tajribalarda qo'llaniladigan asosiy adaptiv yondashuvlar

Davlat Yondashuv Xususiyatlari
AQSh Individual Education Plan (IEP)

Har bir bola uchun individual jismoniy mashqlar rejalashtiriladi

Germaniya Kooperativ o'qitish
Sog'lom va nogiron bolalar birgalikda shug'ullanadi

Skandinaviya O'yin va erkin harakat tamoyili
Darslar ochiq havoda, bolalar qiziqishiga qarab olib boriladi

Yaponiya/Koreya Reabilitatsion yondashuv
Darslar sog'liq holatiga asoslangan mashqlar bilan boyitilgan

Kanada Unified Sports
Imkoniyati cheklangan va sog'lom o'quvchilar aralash sport jamoalarida

Avstraliya Active Inclusion
Imkoniyatlarga qarab sport turlari va mashg'ulotlar soddalashtiriladi

O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslash

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston maktablarida inklyuziv sinflar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, adaptiv jismoniy tarbiya borasida tizimli yondashuv hali shakllanmagan. Darslar ko'pincha umumiy dasturlar asosida o'tiladi, maxsus mashqlar va metodikalar mavjud emas. Infratuzilma — sport zallari, moslashtirilgan jihozlar, malakali o'qituvchilar yetishmovchiligi seziladi[5]. Ammo ayrim hududlardagi tajriba maktablarida individual yondashuvga asoslangan boshlang'ich qadamlar qo'yilgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari, grant loyihalari, o'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlari joriy etilmoqda[6].

Jadval 2.

O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasini taqqoslash

Ko'rsatkichlar	Xalqaro tajriba	O'zbekiston amaliyoti	Tavsiya
Mutaxassislar	Maxsus tayyorlangan APE o'qituvchilari	Umumiy jismoniy tarbiya o'qituvchilari	Malaka oshirish kurslari joriy etish
Sport anjomlari	Moslashtirilgan va xavfsiz	Odatdagi sport anjomlari	Maxsus jihozlar bilan ta'minlash
Mashqlar yondashuvi	Individual, guruhli, terapevtik	Umumiy dastur asosida	Individual dasturlar ishlab chiqish
Oila bilan aloqa	Muntazam va faol	Cheklangan	Ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish

Ko'rsatkichlar Xalqaro tajriba

O'zbekiston amaliyoti Tavsiya

Mutaxassislar Maxsus tayyorlangan APE o'qituvchilari Umumiy jismoniy tarbiya o'qituvchilari Malaka oshirish kurslari joriy etish

Sport anjomlari Moslashtirilgan va xavfsiz Odatdagi sport anjomlari Maxsus jihozlar bilan ta'minlash

Mashqlar yondashuvi Individual, guruhli, terapevtik Umumiy dastur asosida Individual dasturlar ishlab chiqish Oila bilan aloqa Muntazam va faol Cheklangan Ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish

Muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli adaptiv jismoniy tarbiya tizimi quyidagi komponentlarga tayangan holda ishlaydi:

- Individual rejalashtirish (IEP): har bir o'quvchining ehtiyojiga mos dastur;
- Kadrlar malakasi: adaptiv jismoniy tarbiya bo'yicha maxsus tayyorlangan mutaxassislar;
- Texnik infratuzilma: moslashtirilgan sport anjomlari va muhit;
- Ijtimoiy va psixologik yondashuv: bolaning o'zini jamiyatda qadrlanishi;
- Oila bilan hamkorlik: bola muvaffaqiyati uchun ota-onalar bilan muntazam muloqot;
- Jamiyatni jalb etish: jamoat tashkilotlari, volontyorlar va sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik;
- Innovatsion texnologiyalar: AR/VR simulyatsiyalar, onlayn platformalar orqali masofaviy jismoniy mashqlar tashkil etish[8].

O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib tatbiq qilish imkoniyati mavjud. Bu borada metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, tajriba maktablari tarmog'ini kengaytirish va davlat dasturlari orqali moddiy texnik bazani kuchaytirish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adaptiv jismoniy tarbiya faqat sog'lomlashtirish emas, balki ijtimoiy inklyuziya, psixologik moslashuv va bola huquqlarini ta'minlash vositasi sifatida qaralishi kerak. Bu esa jamiyatning har bir a'zosi uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, individual yondashuv va har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan mashg'ulotlar samarali adaptiv jismoniy tarbiya asosini tashkil etadi.

• Inklyuziv jismoniy tarbiya orqali bolalarda nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy moslashuv ham kuchayadi.

• O'zbekiston maktablarida mavjud bo'lgan infratuzilma va kadrlar salohiyati bu tizimni to'liq qo'llash uchun yetarli emas, ammo bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda.

• Har bir o'quvchiga individual reja tuzish, sog'lig'i, imkoniyati, qiziqishi va psixologik holatini inobatga olgan holda jismoniy mashqlar kompleksini shakllantirish zarur.

• O'qituvchilarning malakasi muhim omil bo'lib, ularni uzluksiz tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

• Oila va jamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali bolalarning inklyuziv muhitga moslashuvi osonlashadi.

• Xalqaro dasturlar, grantlar va hamkorlik loyihalari orqali ilg'or tajribalarni O'zbekiston maktablariga joriy etish imkoniyati mavjud.

• Inklyuziv jismoniy tarbiya maktabda sog'lom muhitni shakllantirish, diskriminatsiyani kamaytirish va tolerantlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

• Adaptiv jismoniy tarbiya orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilarda ijobiy o'zgarishlar — o'z-o'zini baholash, jamoaga qo'shilish, psixologik bardoshlilik kabi ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshadi.

• Pedagogik jarayonga tibbiyot xodimlari, defektolog, psixolog va boshqa mutaxassislarni jalb etish orqali darslar samaradorligi yanada oshadi.

Tavsiyalar:

• Har bir maktabda adaptiv jismoniy tarbiya bo'yicha alohida metodik qo'llanmalar ishlab chiqilsin.

• Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun adaptiv ta'lim metodikasi bo'yicha malaka oshirish kurslari joriy etilsin.

• Moslashtirilgan sport anjomlari bilan jihozlash uchun maxsus byudjet ajratilsin.

• Ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish mexanizmlari ishlab chiqilsin.

• Tajriba sifatida ayrim hududlarda inklyuziv sport maktablari tashkil etilsin va ularning samaradorligi tahlil qilinsin.

• Maxsus platformalar va mobil ilovalar orqali masofaviy adaptiv mashg'ulotlar tashkil etish yo'lga qo'yilsin.

• Ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etish —

AR/VR vositalar, sensorli sport qurilmalari, interaktiv o'yinlar kengaytirilsin.

- Mahalliy universitetlar va ilmiy markazlarda adaptiv jismoniy tarbiya yo'nalishida tadqiqotlar olib borilishi qo'llab-quvvatlansin.

- Televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy misollarni yoritish orqali jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish targ'ib qilinsin.

- Har yili inklyuziv sport haftaliklari, festivallar va tanlovlar o'tkazilishi orqali bu yo'nalishga bo'lgan ijtimoiy e'tibor kuchaytirilsin.

Shunday qilib, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekistonda inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiyani yuqori darajada tashkil etish mumkin. Bu esa bolalarning sog'lom, ijtimoiy faol va o'ziga ishonchli yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. (2020). Inclusive Education and Physical Activity: A Comprehensive Guide. EASNIE Publications, 14-50.
2. International Paralympic Committee. (2020). Guidelines for Adaptive Physical Education Programs. IPC Publications, 1-45.
3. Karimova, D. (2021). Adaptiv jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishdagi zamonaviy usullar. O‘zbekiston sport ilmiy jurnali, 5(3), 22-40.
4. Müller, K., & Jensen, P. (2022). Adaptive Physical Activity Programs in European Inclusive Classrooms. International Journal of Physical Education and Sport, 10(4), 89-105.
5. Nasriddinova, S., & Tursunov, M. (2022). Inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya: xalqaro tajribalar va O‘zbekistondagi imkoniyatlar. Toshkent Pedagogika Universiteti Ilmiy Axboroti, 12(1), 70-88.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2023). Inklyuziv ta’lim va adaptiv jismoniy tarbiya metodikasi qo‘llanmasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1-58-betlar.
7. Smith, J., & Brown, L. (2021). Inclusive Physical Education: Strategies for Adaptive Teaching. Journal of Inclusive Education, 15(2), 112-130.
8. Tursunov, A. (2023). O‘zbekistonda inklyuziv ta’limda adaptiv jismoniy tarbiya metodikasi. Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 7(2), 33-55.
9. World Health Organization. (2021). Physical Activity and Disability: Promoting Inclusive Practices. WHO Press, 12-60.
10. Zhang, Y., & Lee, H. (2020). Innovative Approaches to Adaptive Physical Education in Asia. Asian Journal of Education and Health, 8(1), 45-59.

**INTERNATIONAL APPROACHES AND NATIONAL PRACTICES IN
THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN
EDUCATION**

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ
В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО
РАЗВИТИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Asqarova Shahnozaxon To‘lqinjon qizi
Chief Specialist, Department of International
Relations Development, Professional Development
Center at the Academy of Arts of Uzbekistan

***Annotation:** This article examines the structure and implementation of continuous professional development in the field of education, focusing on both international best practices and the current application in Uzbekistan. It highlights key international models, such as the CPD frameworks in the UK, Finland, and Singapore, and compares them with reforms in Uzbekistan's education system. The paper also identifies challenges and opportunities in adapting global strategies to local contexts and suggests recommendations for strengthening the CPD system in Uzbekistan.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается структура и реализация непрерывного профессионального развития в сфере образования, с акцентом как на лучшие международные практики, так и на их текущее применение в Узбекистане. В нем освещаются ключевые международные модели, такие как системы CPD в Великобритании, Финляндии и Сингапуре, и сравниваются с реформами в системе образования Узбекистана. В документе также определяются проблемы и возможности в адаптации глобальных стратегий к местным условиям и предлагаются рекомендации по укреплению системы CPD в Узбекистане.*

***Key words:** Continuous Professional Development, CPD, education reform, international models, Uzbekistan, teacher training, professional growth, education management*

***Ключевые слова:** Непрерывное профессиональное развитие, CPD, реформа образования, международные модели, Узбекистан, подготовка учителей, профессиональный рост, управление образованием*

In today's rapidly changing world, education systems are expected to prepare learners for complex, dynamic, and globalized environments [2]. This places increasing demands on educators to continuously update their professional knowledge and skills. As a result, Continuous Professional Development (CPD) has become a critical component of educational policy and practice worldwide [3].

CPD refers to a structured process of lifelong learning that enables teachers and education professionals to enhance their competencies, adapt to new teaching methods,

and respond to the evolving needs of students and society. Effective CPD contributes not only to individual professional growth but also to the overall improvement of teaching quality and educational outcomes.

Around the world, countries have adopted different models of CPD, often reflecting national education goals, policy frameworks, and institutional capacities. These models include formal training programs, mentoring systems, collaborative learning communities, and digital learning platforms [2-4].

In Uzbekistan, significant reforms have been undertaken in the education sector in recent years, with special attention given to strengthening teacher training and professional development [1]. However, while promising initiatives have been introduced, the CPD system remains in transition and continues to face challenges such as policy coherence, access to quality training in rural areas, and the integration of international best practices.

Across the globe, continuous professional development (CPD) has emerged as a strategic priority for improving the quality of education. Countries with well-established education systems recognize CPD as a long-term investment in teacher effectiveness, student achievement, and system-wide innovation. Despite contextual differences, effective CPD systems share several core principles: alignment with national education goals, institutional support, teacher autonomy, and integration with career development frameworks [3-4].

1. The UK has a highly structured CPD system that is embedded within the broader educational policy. The Teaching Regulation Agency sets national standards for teacher professional development. Teachers are required to engage in CPD activities as part of their annual performance appraisal and professional review process. CPD opportunities range from short-term workshops and subject-specific training to advanced leadership courses [4].

A notable feature of the UK model is its emphasis on reflective practice and evidence-informed teaching. Professional learning communities and school-based inquiry groups are common platforms through which teachers collaborate, reflect, and improve their teaching. Leadership development is also prioritized, with specific CPD tracks for school leaders, such as the National Professional Qualification for Headship. Moreover, the Education Endowment Foundation provides research and tools to guide CPD implementation based on impact evaluations.

2. In Finland, CPD is largely decentralized and emphasizes teacher autonomy and self-directed learning. Teachers are highly qualified at the entry level, typically holding a master's degree, and are viewed as professionals capable of managing their own development. Participation in CPD is encouraged rather than mandated by the state, creating a culture of trust and intrinsic motivation [5].

CPD in Finland often takes the form of collaborative research projects, peer coaching, and pedagogical innovation at the school level. Teachers are encouraged to experiment with new methodologies and share experiences through school networks and professional forums. The Finnish model prioritizes continuous learning embedded in daily practice, rather than isolated or externally imposed training sessions. Digital platforms and university partnerships also play a key role in extending access to CPD for rural and smaller schools.

3. Singapore represents a centralized yet highly responsive CPD model. The Academy of Singapore Teachers and the National Institute of Education jointly coordinate teacher training and professional development. All teachers are expected to complete a certain number of CPD hours per year, which are documented in their professional portfolios [6].

The Singaporean approach emphasizes career progression linked to CPD. Teachers can pursue various career tracks (teaching, leadership, and specialist), each with its own development milestones. Mentorship programs are well-developed, with experienced teachers trained as mentors to support novice teachers. The use of technology-enhanced learning, such as online CPD modules, mobile apps, and video-based reflective tools, supports scalability and personalization.

Importantly, Singapore invests in systemic support and capacity-building: school leaders are trained to manage CPD within their institutions, and policies are in place to ensure alignment between school improvement plans and CPD activities. Research on teacher development is also closely integrated into policy planning.

4. Australia has adopted a flexible and teacher-driven CPD framework, coordinated through the Australian Institute for Teaching and School Leadership. CPD is tied to professional standards and teacher accreditation. Teachers are expected to undertake a minimum number of CPD hours annually, but they have significant autonomy in selecting topics and formats relevant to their needs.

CPD activities include formal coursework, workshops, peer observations, reflective journals, and participation in action research. Increasingly, emphasis is placed on classroom-based inquiry and professional learning networks. State governments and

teacher unions often collaborate in developing CPD programs, ensuring they are grounded in practice and teacher voice.

Australia also emphasizes inclusive education and indigenous perspectives in CPD content, reflecting its commitment to equity and cultural diversity in schooling.

In recent years, Uzbekistan has embarked on a comprehensive reform of its education system, with a strong emphasis on improving the quality of teaching and learning. One of the central pillars of this reform is the development of a modern, accessible, and effective system of Continuous Professional Development for teachers and education professionals. Recognizing the importance of lifelong learning, the government has launched a number of initiatives aimed at enhancing the professional competencies of educators at all levels.

The Ministry of Preschool and School Education, in collaboration with international organizations such as UNICEF, UNESCO, and the World Bank, has developed policies to institutionalize CPD within the national education system. Key documents, such as the National Strategy for the Development of Education (2030), highlight the role of teacher training and CPD in achieving systemic educational improvement [1].

Currently, Uzbekistan does not have a single unified CPD framework, but several structures are being developed in parallel. These include:

- Regional Centers for Teacher Professional Development under the Ministry;
- In-service teacher training institutes affiliated with pedagogical universities;
- Subject-specific training programs funded through international development projects.

Significant progress has been made in introducing digital CPD formats, which became particularly important during the COVID-19 pandemic. Teachers now have increased access to webinars, video lectures, digital libraries, and online assessments. Some CPD programs are now modular and competency-based, which allows teachers to select topics relevant to their classroom needs or career aspirations.

Pilot programs in regions such as Tashkent, Samarkand, and Fergana have introduced school-based CPD, where teachers collaborate in professional learning communities, engage in peer observation, and conduct small-scale action research projects.

These approaches align with global trends that emphasize collaboration and reflective practice.

Moreover, the involvement of international donors and universities has contributed to capacity-building through technical assistance, curriculum modernization, and the development of teacher standards.

Despite notable achievements, the implementation of Continuous Professional Development in Uzbekistan faces several systemic and structural challenges. One of the primary issues is the lack of integration between CPD and key components of the teaching profession, such as evaluation, promotion, and salary schemes. This disconnect often results in teachers perceiving CPD as a mere formality rather than a meaningful tool for their professional growth. Furthermore, there is a significant urban-rural divide in access to quality CPD programs. Teachers working in rural areas frequently experience limited opportunities due to insufficient access to reliable internet connections, qualified trainers, and well-designed training programs, which creates inequality in professional development prospects across the country. Another challenge lies in the inconsistency of CPD content, delivery methods, and assessment mechanisms across different regions. The absence of a standardized accreditation system or quality assurance framework further undermines the relevance and effectiveness of CPD initiatives. Additionally, the current system offers insufficient incentives and lacks robust follow-up processes; participation in CPD is rarely linked to tangible outcomes such as promotions or professional recognition, and there is minimal evaluation of the impact of CPD on actual teaching practices. Lastly, although teacher training has gained importance, leadership development remains relatively neglected. Training programs for educational leaders, including school principals and regional administrators, are underdeveloped and often operate independently from the broader CPD efforts, limiting the overall effectiveness of professional development within the education sector.

Uzbekistan is at a pivotal stage where lessons from international best practices can be adapted and localized to create a coherent and effective CPD system. The foundation has been laid, but further efforts are needed to build a culture of continuous improvement, strengthen institutional support, and ensure equitable access

to high-quality CPD across the entire education system.

A comparative analysis of international CPD models and Uzbekistan's emerging professional development system reveals both promising parallels and critical gaps. While Uzbekistan has initiated important reforms, aligning more closely with international best practices will require further systemic coherence, sustainable funding, and institutional integration.

International systems demonstrate a wide range of governance structures for CPD:

- Singapore and the UK operate centrally managed CPD systems, where national standards guide program design, delivery, and evaluation. These systems benefit from consistency, accountability, and alignment with national education goals.

- Finland and Australia emphasize decentralized, teacher-led approaches, promoting autonomy and innovation in professional learning.

Uzbekistan is currently transitioning from a highly centralized teacher training model toward a more flexible and partially decentralized system. However, the lack of a unified national CPD framework limits coherence. Regional disparities in access and program quality further underscore the need for more balanced governance that combines national standards with local flexibility [1-6].

In many high-performing systems, CPD is directly linked to teacher career advancement, licensure renewal, or salary increments:

- In Singapore, participation in CPD is required for promotion along career tracks (e.g., teacher-leader-specialist paths).

- In the UK, CPD activities are part of annual performance appraisals and professional standards reviews.

By contrast, in Uzbekistan, CPD participation is not yet fully integrated into teacher appraisal or career progression frameworks. This weakens motivation and contributes to a compliance-based culture, where CPD is often seen as a bureaucratic requirement rather than a tool for genuine professional growth.

Globally, successful CPD systems prioritize collaborative, school-based learning:

- The UK and Australia utilize Professional Learning Communities and peer observation as primary CPD methods.

- In Finland, teachers engage in collaborative action research and reflective practice as part of everyday school culture.

Uzbekistan has recently piloted PLCs and lesson study models in select schools, often supported by international donors. However, these practices are not yet systematically embedded in the national CPD system, and many schools lack trained facilitators or institutional support for sustained collaboration.

Most international systems have invested heavily in online CPD platforms to broaden access and support personalized learning:

- Singapore's e-learning modules offer flexibility for busy educators while maintaining content quality [4].

- Australia uses mobile apps and open educational resources to reach teachers in remote areas.

Mentoring and coaching are key components of CPD in countries like Singapore and the UK, where experienced educators support novice teachers and middle leaders.

In Uzbekistan, formal mentorship programs are underdeveloped. Similarly, while CPD for classroom teachers has improved, there remains a noticeable gap in professional development for school leaders and education administrators. Building a leadership pipeline through structured CPD remains a major area for development.

Building an effective and sustainable system of Continuous Professional Development in Uzbekistan requires strategic actions at multiple levels. Based on an analysis of international best practices and the current national context, several key recommendations emerge [3].

Firstly, Uzbekistan should establish a unified national CPD framework that clearly defines objectives, standards, and implementation mechanisms. This framework must align CPD activities with ongoing national curriculum reforms, teacher professional standards, and career progression pathways. It is essential to set minimum annual CPD requirements for teachers and school leaders, ensuring that professional development is embedded within appraisal and certification processes.

Secondly, the institutionalization of school-based Professional Learning Communities across all schools is crucial. Such communities foster reflective teaching practices,

peer collaboration, and collective problem-solving. To support this, school leaders and mentor teachers should be trained to facilitate these communities. Additionally, schools must allocate dedicated time within their schedules for CPD activities and encourage participation in action research and the sharing of best practices across networks.

Thirdly, expanding and improving digital CPD platforms is vital to increase accessibility and quality. Existing platforms should be enhanced to include interactive content, video lessons, discussion forums, and assessment tools. Partnerships with technology providers and universities can support the development of localized e-learning modules. It is also important to ensure that schools in rural and remote areas have adequate internet access and digital resources.

Furthermore, integrating CPD with teacher evaluation and career advancement processes will increase its significance. CPD participation should be linked to tangible outcomes such as salary incentives, certification renewal, or promotion. Including CPD engagement in teacher performance evaluations and developing tiered certification systems will motivate continuous professional growth.

Establishing formal mentoring and coaching systems is also recommended to support novice teachers and foster ongoing professional development. Experienced educators should be selected and trained as certified mentors, and mentoring should be embedded within CPD frameworks. Recognizing and rewarding mentors through career development incentives will help sustain these initiatives.

In addition, investing in leadership development programs as part of CPD is necessary to strengthen instructional leadership, data-driven decision-making, and strategic planning at the school level. This can be achieved through the creation of leadership academies or online courses in collaboration with national universities, modular training for aspiring and current principals, and opportunities for international exchanges or shadowing programs to transfer best practices.

Strengthening monitoring, evaluation, and feedback mechanisms is essential to ensure the quality and accountability of CPD programs. Developing national indicators and tools to track CPD implementation and impact, regularly

collecting feedback from teachers and schools to improve training relevance, and conducting external evaluations will support evidence-based policy adjustments.

Finally, fostering international cooperation and knowledge exchange can enrich Uzbekistan's CPD system with innovative ideas and proven models. Engaging in global CPD networks, conferences, and pilot projects, translating and adapting international CPD toolkits and training materials, and facilitating collaboration between Uzbek institutions and global education organizations will enhance professional development efforts.

Together, these recommendations provide a comprehensive approach to building a robust CPD system that supports lifelong learning, improves teaching quality, and ultimately contributes to educational excellence in Uzbekistan.

Continuous Professional Development has become an essential component of educational reform and teacher effectiveness across the world. International experience demonstrates that well-structured CPD systems—when aligned with national priorities, supported by institutional mechanisms, and integrated into everyday professional life—can significantly enhance the quality of teaching and learning.

In Uzbekistan, the foundations of a modern CPD system have been laid, with efforts to expand digital platforms, develop regional training centers, and introduce new approaches such as school-based collaboration. However, challenges related to system fragmentation, unequal access, weak links to career advancement, and underdeveloped mentorship structures continue to hinder the full realization of CPD's potential.

This article has shown that Uzbekistan can benefit greatly from adapting international models—such as the structured CPD pathways in Singapore, the teacher autonomy-focused approach in Finland, and the school-led collaboration seen in the UK and Australia—to its local context. A future-oriented CPD system in Uzbekistan must be coherent, inclusive, and deeply embedded in school culture, teacher evaluation, and leadership development.

Ultimately, for CPD to be sustainable and impactful, it should not be seen merely as a set of courses or requirements, but as a strategic investment in human capital. Building a culture

of lifelong learning among educators—supported by clear policies, strong leadership, and continuous feedback—will be key to achieving

Uzbekistan’s broader goals of educational quality, equity, and innovation.

REFERENCES:


1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No. PF-5712, dated April 29, 2019. <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. *Teaching and Teacher Education*, 27(1), 10-20. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2010.08.007>
3. Desimone, L. M. (2009). Improving impact studies of teachers’ professional development: Toward better conceptualizations and measures. *Educational Researcher*, 38(3), 181-199. <https://doi.org/10.3102/0013189X08331140>
4. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Learning Policy Institute. <https://learningpolicyinstitute.org/product/effective-teacher-professional-development-report>
5. Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* Teachers College Press.
6. Singapore Ministry of Education. (2020). *Teacher Professional Development Framework*. <https://pdtl.moe.edu.sg/professional-excellence/professional-development-framework/>

Axborot

O‘ZBEKISTON VA XITOIY O‘RTASIDA BADIY TA’LIM SOHASIDA HAMKORLIK MUSTAHKAMLANMOQDA

Bugungi globallashuv davrida badiiy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, pedagogik tajriba va zamonaviy yondashuvlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, yaqinda Hubei tasviriy san’at instituti (Xitoy Xalq Respublikasi) hamda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi o‘rtasida anglashuv memorandumini imzolandi.

Mazkur memorandum ikki tomonlama ilmiy, ijodiy va metodik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u san’at sohasi bo‘yicha xalqaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi. Uchrashuv davomida tomonlar o‘zaro fikr almashib, ta’lim jarayonlari, ilmiy salohiyat, mavjud imkoniyatlar va hamkorlik istiqbollari muhokama qildilar.



Muzokaralar chog‘ida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kelishuvlarga erishildi:

- professor-o‘qituvchilar va soha mutaxassislarining malaka oshirish va tajriba almashish dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
- qo‘shma seminar, mahorat darslari va ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish;
- qo‘shma tadqiqotlar olib borish va ilmiy nashrlar tayyorlash;

- talabalar uchun qisqa muddatli almashinuv dasturlarini amalga oshirish;
- ta'lim dasturlarini zamonaviy innovatsiyalar asosida boyitish.

Tashrif davomida markaz vakillari Hubei tasviriy san'at institutining moddiy-texnik bazasi, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalari bilan tanishib, institutda olib borilayotgan amaliy va nazariy ta'lim jarayonini kuzatdilar. Delegatsiya a'zolari institut talabalari va magistrantlarining ijodiy ishlari, ularning san'atga bo'lgan yondashuvi bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, mehmonlar institutda tashkil etilgan zamonaviy san'at ko'rgazmasida ishtirok etishdi. Ko'rgazmada namoyish etilgan asarlarda yosh ijodkorlarning yangicha qarashlari, texnik va estetik izlanishlari, materiallar bilan ishlashdagi innovatsion yondashuvlari o'z aksini topgan bo'lib, bu O'zbekiston vakillarida katta taassurot qoldirdi. Markaz mutaxassislari talabalarning badiiy ishlari va kreativ yondashuvlariga yuqori baho berdilar.


Mazkur tashrif va memorandum imzolanishi O'zbekiston va Xitoy o'rtasida badiiy ta'lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlabgina qolmay, balki san'at orqali ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalarni ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Tomonlar bunday uchrashuvlarni kelgusida ham davom ettirish va amaliy loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish niyatida ekanliklarini bildirdilar.

XITOYDAGI HEBEI TASVIRIY SAN'AT AKADEMIYASIDA — IJOD, TAJRIBA VA QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Tashrif doirasida delegatsiya o'z faoliyatini Xitoyning mashhur san'at dargohlaridan biri — Hebei Tasviriy san'at akademiyasida davom ettirdi. Mazkur akademiya nafaqat Xitoyda, balki butun Osiyo mintaqasida tasviriy san'at ta'limi bo'yicha yetakchi o'quv muassasalardan biri hisoblanadi. Delegatsiya a'zolari akademiyaning ta'lim jarayonlari, dars metodikasi, zamonaviy va an'anaviy san'at maktablarini uyg'unlashtirishdagi yondashuvlari bilan yaqindan tanishdilar.

Akademiyadagi ijodiy laboratoriyalar va ustaxonalar bo'ylab amalga oshirilgan tashrif davomida vakillar san'at ta'limida amaliy mashg'ulotlarning o'rni va ularni tashkil etishdagi texnik hamda estetik yondashuvlarni kuzatdilar. Ayniqsa, an'anaviy usulda rang tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan mahorat mashg'ulotlari vakillarda katta qiziqish uyg'otdi. Tabiiy pigmentlar asosida bo'yoqlar tayyorlash, ularni tozalash, quritish va qayta ishlash texnologiyalari jarayoni nafaqat san'atning texnik jihatini, balki qadimiy urf-odatlar bilan zamonaviy ilm-fanning mushtarakligini yaqqol ifoda etdi.

Mazkur tajribalar san'at ta'limida merosga sadoqat va innovatsion yondashuvlarning qanday uyg'unlashtirilishini amalda namoyon qildi. Bu esa O'zbekiston delegatsiyasi vakillarida alohida taassurot uyg'otdi va kelgusida o'z ta'lim dasturlarini boyitishda foydali bo'lishi kutilmoqda.



Shuningdek, tashrif davomida delegatsiya a'zolari grafika, haykaltaroshlik va animatsiya yo'nalishlariga oid o'quv dasturlari, talabalarning amaliy loyihalari va bitiruv ishlarini ham ko'zdan kechirdilar. Grafik dizayn sohasida talabalarning ishlari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan kreativ yondashuvlar bilan ajralib turdi. Haykaltaroshlik yo'nalishida esa milliy va zamonaviy uslublarning sintezi asosida yaratilgan maketlar, kompozitsiyalar va materiallar bilan ishlash texnikasi delegatsiyada katta qiziqish uyg'otdi.

Animatsiya bo'yicha namoyish etilgan qisqa metrajli loyihalar va harakatli grafikalar talabalar ijodiy salohiyati, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va hikoya qilish mahoratini ochib berdi. Ushbu sohalardagi ta'lim yondashuvlari O'zbekiston vakillari tomonidan yuqori baholandi hamda o'zaro tajriba almashish zarurati yana bir bor ta'kidlandi.

Matnni Nodira Xasanova tayyorladi

Axborot

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida tinglovchilar va Markaz xodimlari ishtirokida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlatning burchidir”** mavzusida tadbir tashkil etildi va ushbu tadbirda Markaz direktori D.Shukurov so‘zga chiqdi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun eng muhim vazifalardan biri bu, jamiyat ongini tubdan o‘zgartirish, jamiyatda Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish, bu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarining to‘liq shaffofligiga erishish, shuningdek, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida doimiy ravishda maqsadli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishilishi haqida so‘z yuritdi.



Shundan so‘ng Markaz Yuriskonsulti D.To‘rayeva (ma‘ruzachi) so‘zga chiqdi hamda ushbu mavzuning mazmun mohiyati haqida quyidagilarni bayon qildi:

Bugungi kunda korrupsiya jamiyatni tubdan yemiruvchi va har qanday sohani rivojlanishida jiddiy muammolar keltirib chiqaruvchi mavzu hisoblanadi. Agar bu muammoni bartaraf etish uchun jamiyat va davlat birgalikda kurashmasa hech qachon bu borada natijaga erishilmaydi va korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha ishlab chiqilayotgan barcha konsepsiyalar faqatgina hujjatlarda qolib ketadi yoki javobgarliklar kuchaytiriladi. Shu jihatdan olib qaralganda korrupsioner – bu faqatgina bir shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi bilan

birgalikda shu ishni bajargani uchun uni rag‘batlantirayotgan shaxs ham kiradi. Bu esa malakasiz kadrlar “bazasini” kengaytiradi va sohalarida rivojlanishni kamaytiradi. Yuqorida keltirilgan barcha omillar jamiyat va davlatni orqaga tortadi va salbiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalaning bu jihatlarini inobatga olgan holda O‘zbekistonda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lami nihoyatda keng xususan O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida qonunining 5-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Xususan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Aytib o‘tish joizki, bu mavzu nafaqat davlatimizdagi balki, butun jahondagi global muammo hisoblanadi. Albatta ushbu mavzuning dolzarbligi to‘g‘risida qanchalik muhokama qilmaylik oxiriga yetishni iloji yo‘q. Shunday ekan uni faqat muhokama qilish emas unga barchamiz birday amal qilishimiz zarur.

Unutmang, jamiyat va davlat yo‘lida qilinayotgan barcha sa’y-harakatlar samarasiz ketmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimizdir va burchimizni bajarish oliy saodatdir.



**JURNAL O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZINING RASMIY
WEB-SAYTIDA E'LON QILINGAN**

ADADI: 50 nusxa



www.uzbamarkaz.uz